

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

---

E.R. TOSHMUHAMEDOV, X.S. ZAYNUTDINOV,  
A.M. KOMILOV, R.A. MUHAMEDOVA, Ye.B. JURAVLYOVA,  
M.Z. ISLOMOVA

# FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi farmatsevtika institutlari talabalari uchun darslik  
sifatida tavsiya etgan*

Professor A.N.YUNUSXO'JAYEVning umumiy tahriri ostida

Toshkent  
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

## Taqrizchilar:

Farmatsevtika fanlari doktori, professor **X.K. Jalilov**,  
Farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent **M. Ya. Ibragimova**,  
Farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent **O.S. Isaxodjayev**.

*Darslikda O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini va Sog'liqni saqlash ishlarini rivojlantirish asoslari, dorixonona muassasalari ishini tashkil qilish, dorixonalarda retseptlarni qabul qilish va ular asosida dori vositalarini berish, dori vositalarining retseptsiz savdosini tashkil qilish, dorixonona sharoitida dori vositalarini tayyorlash va sifatini nazorat qilish ishlarini tashkillashtirish, dorixonada g'amlamalar bo'limi ishini tashkil qilish, laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish masalalari bayon qilingan. Dori vositalari va tibbiyot buyumlarining sifatini nazorat qilish tizimi, davolash-profilaktika muassasasining dorixonasi, farmako-iqtisodiyotning ilmiy asoslari, ehtiyoj istiqbolining asosiy negizlari va dori vositalariga bo'lgan talabni aniqlash, farmatsevtika bozorida ulgurji savdo faoliyatini tashkillashtirish muammolari ham yoritilgan.*

*Bundan tashqari, darslikda farmatsevtika xizmatini nazorat ruxsatnoma tizimi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi talablar keltirilgan.*

*Darslikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining farmatsevtika ishini tashkil qilish sohasidagi buyruqlari va boshqa me'yoriy hujjatlar o'z aksini topgan.*

*Darslikdan dorixonona amaliyoti xodimlari, farmatsevtika institutlari talabalari, magistrantlari, aspirantlari va malaka oshirish fakultetlarida tahsil olayotgan tinglovchilar ham foydalanishlari mumkin.*

ISBN 978-9943-09-232-7

© O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi «Fan»  
nashriyoti, 2007-yil

## **Kirish**

Aholi va davolash profilaktika muassasalarini sifatli dori vositalari bilan o'z vaqtida ta'minlashni tashkil qilish sog'liqni saqlash tizimi va boshqa dorishunos mutaxassislar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida dorixona muassasalari Mustaqil Hamdo'stlik Mamlakatlarida birinchilar qatorida davlat tasarrufidan chiqarildi. Natijada farmatsevtika ishini tashkil qilish bo'yicha mavjud bo'lgan asosiy darsliklar dori vositalari muomalasining ko'p masalalari bo'yicha o'z amaliy ahamiyatini yo'qotdi.

Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida farmatsevtika faoliyati sohasini mustaqil rivojlanishini xalqaro tajribalarga suyangan holda tashkil qilish, soha mutaxassislarining tashabbuslarini qo'llash hamda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qator huquqiy va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. O'z navbatida ko'plab yangi dori vositalarini yaratilishi, farmatsevtik yordamni takomillashgan usullarini amaliyotga kirib kelishi bilan farmatsevtika ishini tashkil qilishni asosiy yo'nalishlari yoritilgan darsliklar yaratish vazifasi yana ham dolzarb bo'lib qoldi. Mazkur darslikda aholi va davolash profilaktika muassasalarini dori vositalari bilan ta'minlashni tashkil etishda hozirgi kun nuqtayi nazaridan dorixona muassasalari mutaxassislari uchun zarur bo'lgan masalalar 11-bobda keltirilgan. Amaliy ahamiyati ortib borayotgan retseptsiz dori vositalari savdosini tashkil qilish va farmatsevtik xizmatni sifatli ta'minlashga qaratilgan mavzular mumkin qadar kengroq yoritildi.

Dori vositalari muomalasiga taalluqli ayrim atama va terminlar darslikda birinchi marta bayon qilinayotganligi munosabati bilan ularni farmatsevtika sohasi nuqtayi nazaridan sharhlab, umumiy tushunchalar ham berildi.

Amaldagi dastur doirasida tayyorlangan ushbu darslikda farmatsevtika ishini tashkil qilish bo'yicha talabalar uchun kerakli bo'lgan asosiy masalalar yoritilib, qo'shimcha ma'lumotlar va tegishli me'yoriy hujjatlardan mustaqil foydalanish uchun ko'rsatmalar berilgan.

Darslik farmatsevtika instituti talabalari va farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanayotgan keng mutaxassislar ommasi uchun mo'ljallangan.

Darslik birinchi bor chop etilganligi sababli ayrim xato va kamchiliklardan holi deb bo'lmaydi va uni takomillashtirish borasidagi maslahat hamda takliflarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Mualliflar darslikni tayyorlash uchun kerakli ma'lumotlarni tuzishda qatnashgan Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedra xodimlari: M.A.Saidov, A.I.Nuritdinova, G.E.Sodiqova, A.M.To'xtayeva, D.T.Saipova, Z.SH. Xidoyatova va M.Ya.Saidova hamda taqrizchilarga katta minnatdorchilik bildirishadi.

# **AHOLI VA DAVOLASH-PROFILAKTIKA MUASSASALARINI DORI VOSITALARI BILAN TA'MINLASHNI TASHKIL ETISH**

## **1-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOG'LIQNI SAQLASH ISHLARI VA FARMATSEVTIKA XIZMATINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI**

### **1.1. SOG'LIQNI SAQLASH ISHLARINI TASHKIL QILISH PRINSIPLARI**

**O'zbekiston Respublikasida Sog'liqni saqlashni himoya qilishda qonunchilikning konstitutsion asoslari.**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining asosiy vazifasi Respublika aholisi sog'lig'ini muhofaza qilish, davolash ishlarini tashkil qilish, yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish asoslarini yaratish, davolash-profilaktika muassasalari uchun moddiy texnika bazasini yaratish, tibbiyot va farmatsevt kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, aholi o'rtasida sanitariya-epidemiologiya holatini tegishli tartibda barqaror holatda saqlash va ta'minlashni tashkil qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'rsatilgan fuqarolarning muhim ijtimoiy huquqlaridan biri sog'liqni saqlash huquqidir. «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega».

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishda Sog'liqni saqlash vazirligining Bosh boshqarmalari, tegishli ilmiy tekshirish institutlari faoliyat ko'rsatmoqdalar, tibbiyot va farmatsevt kadrlar tayyorlash ishlari esa tegishli institutlar va tibbiyot kollejlari tomonidan amalga oshiriladi.

Malakali tibbiy xizmatni maxsus tibbiy va farmatsevtika bilimlariga ega, Gippokrat qasamyodini qabul qilgan hamda yordamga muhtoj har qanday bemorga sidqidildan xizmat qiladigan tibbiyot mutaxassislari amalga oshiradilar. Qonunchilik asosida yetarli malakaga ega bo'lmagan mutaxassislarning tibbiy va farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanishiga ruxsat etilmaydi.

Davlat tomonidan vakolatlangan organlar xususiy sog‘lomlashtirish muassasalarini ochish hamda ularning faoliyati, tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasi sifati ustidan belgilangan tartibda nazorat olib boradi.

Tibbiyot va Farmatsevtika faoliyatini olib boruvchi subyektlar faoliyatlari mavjud standartlar talablariga javob bermasa, faoliyat olib borish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziya)dan sud hukmi asosida mahrum qilinadi.

Malakali tibbiy va farmatsevtik xizmat ko‘rsatishning ta‘minlash ishlarini yaratilgan quyidagi shart-sharoitlar bilan muntazam ravishda ta‘minlanib turishini ko‘zda tutgan holda tuziladi:

— davlat davolash va sanitariya, dam olish muassasalari tarmog‘ining mavjudligi hamda hozirgi kunlarda ham muntazam faoliyat ko‘rsatib turishi;

— nodavlat va idoraviy tibbiy muassasalarini rag‘batlantirish hamda rivojlantirish. Ko‘plab ishlab chiqarish tarmoqlari, muassasalar va tashkilotlarning poliklinikalari, ambulatoriya, sanatoriya, kunduzgi davolovchi statsionar, dam olish maskanlari, shifoxona, qishloq shifokorlik punktlari, ona va bola shifoxonalari hamda sog‘lomlashtirish markazlarini yanada ko‘paytirish;

— aholining barcha qatlamlarini e‘tiborga olgan holda, ular o‘rtasida keng qamrovli dispanserizatsiya va emlash ishlarini tegishli tartibda olib borish hamda kasalliklarni oldindan aniqlash va ularning oldini olish, tegishli tashxis qo‘yish;

— tibbiyot va farmatsevt kadrlarni tayyorlash hamda malakasini oshirish, ularning faoliyatlarini samaradorligi va malakasi ustidan davlat nazoratini o‘rnatish;

— tibbiy sug‘urta tizimini yaratish, mehnat qobiliyatini yo‘qotgan, ishga yaroqsiz yoki nogiron bo‘lib qolgan fuqarolarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash hamda ularga davlat tomonidan qonun asosida belgilangan to‘lovlar ajratish;

— aholining ma‘lum ijtimoiy himoyaga muhtoj toifasiga, tibbiy muassasalar tomonidan bepul tibbiy xizmat ko‘rsatish. Nogironlar va boquvchisidan mahrum bo‘lgan va og‘ir bemorlarga (ya‘ni, tegishli O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi 1999-

yil 5-martdagi 134-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan) dorixonalardan bepul dori vositalari olishga yordam berish;

— tibbiyot va farmatsevtika muassasalarini zamonaviy asbob-anjomlar, texnika vositalari bilan jihozlash va ularga qulay sharoitlar yaratish;

— Respublikaning hamma viloyat markazlarida va iloji boricha aholi zich yashaydigan mintaqalarida hamda Toshkent shahridagi Respublika tez tibbiy va shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish muassasalarining faoliyatini takomillashtirish.

Hozirgi kunda davlat tomonidan kafolatlangan malakali tibbiy yordam ko‘rsatish Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi tashkilotlar orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, «Sog‘lom avlod uchun» Respublika fondi tomonidan ham onalar va bolalarning sog‘lig‘ini saqlash yo‘lida samarali ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimiz demokratik huquqiy davlat va insonparvar fuqarolik jamiyati mulk shakllarining yangi tizimi, qudratli ishlab chiqarish kuchlari hamda vositalari, ilg‘or fan va texnologiyalarni barpo etish, xalq faravonligini oshirish, erkin shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qulay shart-sharoitlar yaratilayotgan jamiyatdir. Shuning uchun ham Sog‘liqni saqlash va farmatsevtika tizimida ham mulkdorlar toifasiga keng yo‘l ochish, ular orqali aholi hamda davolash-profilaktika muassasalariga yuqori malakali tibbiy va farmatsevtik yordam ko‘rsatilib, ular jamiyatimizda, Sog‘liqni saqlash tizimida yetakchi harakatlantiruvchi kuchga ega bo‘lgan jamiyatning mas‘ul shaxsiga aylansin.

«Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining (1996-yil 29-avgustdagi va 1999-yil 15-apreldagi o‘zgartirish va qo‘shimchalari bilan) qonuniga asosan, O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash vazirligi quyidagi vakolatlarga ega:

— Sog‘liqni saqlash va tibbiy sug‘urta, Sog‘liqni saqlash sifati davlat standartlarining me‘yoriy bazasini ishlab chiqadi hamda barcha tibbiyot muassasalarining ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

— fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash sohasida tarmoq davlat dasturlarini amalga oshiradi;

— davlat tomonidan kafolatlangan hajm doirasida aholiga birinchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishni budget mablag'lari hisobidan tashkillashtiradi;

— davolash-profilaktika va dorixona muassasalarining sertifikatlash va akkreditatsiyasini amalga oshiradi;

— shifokorlarga tibbiyot amaliyoti bilan shug'ullanish uchun, farmatsevtlarga farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyalar beradi;

— tibbiy xizmat tariflarining darajasini boshqarib boradi;

— O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga ruxsat etilgan dori vositalarini standartlashtirish va ro'yxatga olishni amalga oshiradi.

Shunday qilib, Sog'liqni saqlash ishlarining asosiy prinsiplari Respublika Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari, farmoyish va ko'rsatmalari bilan belgilanib, asosan, aholining sog'lig'ini saqlash va har taraflama yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil qilishdan iborat.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi qonunga muvofiq hamda aholining malakali tibbiyot xizmatidan foydalanish va ijtimoiy himoyaga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, shuningdek tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlarini yaratish, sog'lom avlodni tarbiyalash choralari belgilandi.

Sog'liqni saqlash tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq holga keltirish maqsadida, 1998—2005-yillarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi tasdiqlandi va uning konsepsiyasi berildi. Bunga muvofiq bepul tibbiyot yordam ko'rsatiladigan va budgetdan ta'minlanadigan davolash-profilaktika muassasalari, shuningdek ularni bosqichma-bosqich pulli xizmatlarga o'tkazilish muddatlari belgilandi hamda dasturni amalga oshirishga doir asosiy chora-tadbirlar tasdiqlandi.

Hozirgi kunda esa ushbu belgilangan vazifalarni bajarish borasida Respublika Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan keng qamrovli va yuqori malakali tibbiy xizmat ko'rsatishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda, bunga misol tariqasida Toshkent shahrida Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam



ko'rsatish markazini ochilishi, viloyatlarda esa bu markazning filiallari ochilib, ularni yuqori malakali tibbiyot va farmatsevt kadrlar bilan ta'minlandi va ular o'z mas'uliyati vazifalarini sharaf bilan bajarmoqdalar.

## **1.2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA FAOLIYATINI BOSHQARISH**

Boshqarish ilmi har qanday xalq xo'jaligining faoliyatini boshqarish asoslarida o'zining ma'lum bir xususiyatlari bilan ishtirok etgani kabi Sog'liqni saqlash tizimi ham o'zining ma'lum bir boshqarish jarayoniga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aholining sog'lig'ini saqlash, muhofaza qilish va davolashni davlat tomonidan kafolatlanganligi qayd etiladi. Buning uchun esa Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonun Prezident farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi qaror va ko'rsatmalari Sog'liqni saqlash vazirligiga yuboriladi. Vazirlik tomonidan esa bu me'yoriy hujjatlar Sog'liqni saqlash tashkilotlariga tegishli boshqarma va bo'limlar orqali quyi korxonalariga ya'ni, Sog'liqni saqlash boshqarmalariga, Toshkent shahar Sog'liqni saqlash Bosh boshqarmasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga va viloyat Sog'liqni saqlash bo'limlariga yetkazilib, ular ham bu vazifalarni o'z tasarrufidagi hamma davolash-profilaktika muassasalariga yetkazadilar.

Boshqarish ilmi, boshqarishning ilmiy asoslariga suyangan holda, boshqarish ishlarini yanada takomillashtirish, unda boshqarishni tashkiliy, tarbiyaviy tomonlarini e'tiborga olgan holda rahbarni zamonaviy boshqarish usullari bilan qurollantirgan holda, aholi bilan ishlash, uning ishchanlik faoliyatini yaxshilash, shu borada aholining sog'lig'ini yaxshilash va tiklash borasida eng zamonaviy usullarni qo'llab, inson omili va tafakkurini e'zozlagan holda, har taraflama inson sog'lig'ini muhofaza qilishi zarur.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 14-yanvardagi 18-sonli Qaroriga asoslanib, ushbu qaror «O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish to'g'risida» bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti «O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to‘g‘risida» 1998-yil 10-noyabrdagi PF2107-sonli farmonini bajarish yuzasidan hamda aholining sog‘lig‘ini saqlash ishlari ustidan davlat nazoratini ta‘minlash choralari qayd etilgan.

Ushbu farmonga asosan, Sog‘liqni saqlash sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, aholiga bepul tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatilishi, boshqarishning barcha darajasida aholiga tibbiy yordamni yaxshilash bilan bir qatorda, tizimni mablag‘ bilan ta‘minlash jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy klinikalarini tashkil etish, davolash-profilaktika hamda sanitariya-epidemiologiya muassasalari tomonidan aholi salomatligini muhofaza qilishga doir qonunchilik va boshqa me‘yoriy hujjatlarga rioya etilishi, boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari, Sog‘liqni saqlash xodimlarining noqonuniy xatti-harakati yuzasidan shikoyat va arizalar, qoida buzishlar va suiste‘molchiliklarning oldini olish to‘g‘risida masalalar ko‘rsatilgan.

Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi to‘g‘risidagi nizom, vazirlikning ma‘muriy boshqaruv xodimlarining soni, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Nazorat inspeksiyasi to‘g‘risidagi, vazirning o‘rinbosarlari, shu bilan birga boshqarish jarayonida, Toshkent shahar Sog‘liqni saqlash Bosh boshqarmasi boshlig‘i lavozimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirining o‘rinbosari hisoblanishi ko‘rsatilgan. Ushbu farmon va amaldagi qarorlarga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot va farmatsiya Sog‘liqni saqlash tizimini ajralmas qismi ekanligi qayd etilgan. Ta‘kidlash lozimki, respublikada farmatsevtika faoliyatini muvofiqlashtirishda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-martdagi 132-sonli Qarori muhim rol o‘ynaydi. Shu qarorga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi tomonidan «Farmatsiya» ishlab chiqarish birlashmasini «Dori-darmon» davlat aksionerlik uyushmasiga aylantirildi. Uyushma faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi zimmasida saqlab qolindi.

«Dori-darmon» davlat aksiyadorlik uyushmasi va uning hududiy birlashmalari dori vositalari hamda tibbiyot buyumlari

buyurtma-larining asosiy turlari ya'ni, davlat buyurtmalari bo'yicha Sog'liqni saqlash organlari tomonidan tasdiqlangan hayotiy zarur (asosiy) dori vositalari va tibbiy ashyolar bilan ta'minlashni bajarilishi aniq ko'rsatildi.

Shu qarorga asosan davlat aksiyadorlik uyushmasi va hududiy «Dori-darmon» davlat aksiyadorlik birlashmalari o'zining ishlab chiqarish — xo'jalik va moliyaviy faoliyati istiqbolini, mustaqil belgilaydi, bozor konyukturasini tashkil etgan holda, marketing xizmatlarini ko'rsatadi, davlat hamda boshqa organlarida, o'z ta'sis-chilarining manfaatlarini ifodalaydi.

«Dori-darmon» DAU faoliyatini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 20-may 131-sonli Qarori bilan «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirildi. Ushbu Qarorga ko'ra quyidagilar «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

— O'zbekiston Respublikasi aholisini sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash;

— marketing tadqiqotlari o'tkazish hamda hayotiy muhim bo'lgan asosiy dori-darmonlar va tibbiyot buyumlariga, shu jumladan giyohvand hamda hisobda turadigan psixotrop preparatlarga buyurtmalarni shakllantirish hamda tuziladigan shartnomalar asosida respublika sog'liqni saqlash tizimi muassasalarining ularga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash;

— O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha davlat zaxirasining dori vositalari va tibbiyot buyumlariga ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash;

— «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradigan dorixona muassasalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, mavjud farmatsevtika mahsulotlari resurslari to'g'risidagi yagona respublika axborotlar tizimini yaratish;

— dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni tashkil etishga investitsiyalarni jalb qilish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish.

Ushbu qarorga muvofiq «Dori-darmon» AK tarkibiga kirgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxati va tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.

### **1.3. SOG'LIQNI SAQLASH VA FARMATSEVTIKA FAOLIYATI XIZMATINI BOSHQARUVCHI TASHKILOTLARNING ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI**

O'zbekiston Respublikasi SSV va farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish ishlari o'zining ma'lum tartibdagi o'ziga xos boshqarilish tizimiga ega bo'lib, bu tizim aholiga tibbiy yordam ko'rsatishda va dori vositalari bilan aholini tegishli tartibda taminlashda muhim o'rinni egallaydi.

Respublikada Sog'liqni saqlash tizimiga rahbarlik qilish Sog'liqni saqlash vazirligiga yuklatilgan bo'lib, vazirlik asosan quyidagi masalalarni hal etadi:

- aholining sog'lig'i va unga bog'liq ravishda xalq xo'jaligini va uning mudofaa faoliyatlarini yaxshilash hamda Sog'liqni saqlash ishlarini rivojlantirish;

- aholiga yuqori malakali va aholining hamma qatlami uchun muqobil tibbiy yordamni tashkil etish;

- aholining sog'lig'ini muhofaza qilishda, kasalliklarning oldini olish chora tadbirlarini rivojlantirish;

- onalik va bolalikni muhofaza qilish;

- Respublika sanitariya-epidemiologiya holatini yaxshi bo'lishini ta'minlash;

- aholini va davolash-profilaktika muassasalarini dori vositalari, virusga qarshi hamda tashxis vositalari va boshqa tibbiyotda ishlatiladigan buyumlar bilan ta'minlash;

- davlat rejalarga asoslanib, davolash-profilaktika muassasalari va dorixona tizimini rivojlantirish chora tadbirlarini ko'rish;

- tibbiyot va farmatsiya sohasidagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirib, uning samaradiligini oshirib, ularni Sog'liqni saqlash va farmatsiya amaliyotiga qo'llash chora tadbirlarini ko'rish;

- tibbiyot va farmatsevt kadrlar tayyorlashni, ularning malakasini oshirish borasidagi nazariy hamda amaliy jihatdan bilimlarini yuqori saviyaga ko'tarish;

- mehnatni ilmiy asosda tashkil etilgan, boshqarish asosida Sog'liqni saqlash muassasalarini tegishli yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlab, aholining sog'lig'ini tiklashda yuqori natijalarga erishish;

— hukumat tomonidan Sog‘liqni saqlash ishlariga ajratilgan budget mablag‘laridan samarali foydalanib, Sog‘liqni saqlash binolarini ta‘mirlash va yangidan quriladiganlarini, o‘z vaqtida ishga tushirish ishlarini amalga oshirish.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun ma‘lum bir boshqaruv tizimi shakllangan bo‘lib, ular ma‘lum boshqarma, bo‘lim va tashkilotlar orqali amalga oshiriladi.

Vazirlik qoshida hay‘at (Kollegiya) tashkil etilgan bo‘lib, unga Sog‘liqni saqlash tizimidagi dolzarb muammolarni, vazirlikning kollegiya a‘zolari bilan birgalikda hal qilish vazifasi yuklatilgan. Ilmiy, amaliy, klinik va epidemiologik muammolarni muhokama qilish, ularni reja asosida amalga oshirish tibbiyot hamda farmatsiyadagi ilmiy va amaliy ish natijalarini Respublika tibbiyotiga qo‘llash hamda shu yo‘l bilan Sog‘liqni saqlash sohasidagi amaliy va ilmiy yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun vazirlik qoshida Olimlar tibbiyot ilmiy kengashi tashkil qilingan.

Olimlar tibbiyot ilmiy kengashi tarkibiga jamoatchilik asosida Respublikani ko‘zga ko‘ringan yirik olimlari kiritilgan bo‘lib, ular tibbiyot va farmatsiyaga oid ilmiy yo‘nalishni rivojlantirish bilan birga ularni Sog‘liqni saqlash va farmatsiya amaliyotiga qo‘llash ishlari bilan shug‘ullanadilar.

Bundan tashqari Davolash-profilaktika yordami ko‘rsatish Bosh boshqarmasi, Onalik va bolalikni muhofaza qilish Bosh boshqarmasi, Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati departamenti, Iqtisodiyot va mablag‘ bilan ta‘minlash Bosh boshqarmasi, Kadrlar va o‘quv yurtlari Bosh boshqarmasi, Ma‘muriy xo‘jalik boshqarmasi, Nazorat inspeksiyasi, Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi, Dori vositalari siyosati markazi va boshqa bo‘limlar, sog‘liqni saqlash ishlarini Respublika miqyosida boshqarishda muhim vazifalarni bajaradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 25-maydagi 181-sonli Qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi SSVning 1995-yil 2-iyundagi 250-sonli buyrug‘iga asosan, vazirlik qoshida Dori vositalari hamda tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi tashkil etildi.

SSVning Dori vositalarini va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasida Dori vositalari ekspertizasi hamda standartizatsiyasi Davlat markazi, Farmakopeya, Farmakologiya, Yangi tibbiy texnikalar kabi qoʻmitalarga, Giyohvandlar nazorati qoʻmitasiga, Dori vositalari va tibbiy texnikani qayd etish boʻlimi hamda nazorat qilish boʻyicha Farmatsevtik inspeksiyasi mavjuddir.

Dori vositalari ekspertizasi va standartizatsiyasi Davlat markazi qoshida:

— vaksina, zardob vositalari va mikrobiologik tadqiqotlar oʻtkazish laboratoriyasi;

— dori vositalarining sifatini nazorat qilish va standartlash laboratoriyasi;

— tibbiy texnika sifatini nazorat qilish laboratoriyasi;

— farmako-toksikologik tadqiqotlar laboratoriyasi;

— ilmiy uslubiy va axborot boʻlimi tashkil etilgan.

Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— Oʻzbekiston Respublikasi korxonalarida ishlab chiqarilayotgan va import qilingan dori vositalarining sifatini nazorat qiladi;

— isteʼmolchilar va taʼminotchilar oʻrtasida dori vositalarining sifati masalasida anglashilmovchilik, kelishmovchilik va bahs boʻlib qolgan taqdirda, dori vositalarining sifatini arbitraj tahlili oʻtkazib, oxirgi yakunlovchi xulosa beradi;

— Oʻzbekiston Respublikasiga chet eldan sotib olib keltirilayotgan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini Davlat roʻyxatidan oʻtkazishdan avval ularning sifatini har taraflama nazorat qiladi;

— yangi dori vositalariga ishlab chiqilgan meʼyoriy texnik hujjatlar loyihasiga xulosalar beradi;

— dori vositalari sifatini nazorat qilishning amalda qoʻllanilayotgan usullarini takomillashtiradi va yangi usulni ishlab chiqish boʻyicha ilmiy izlanishlar olib boradi;

— yangi dori vositalarini yaratish boʻyicha ilmiy ishlar bilan shugʻullanadi;

— Oʻzbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilayotgan, saqlanayotgan, qoʻllanilayotgan dori vositalari va tibbiy buyumlarining sifatini dastlabki davlat nazoratidan oʻtkazadi;

— eskirib qolgan dori vositalarini Davlat reestridan chiqarish to‘g‘risida tavsiyanomalar tayyorlaydi.

Bosh boshqarmaga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun unda ekspertlar kengashi tashkil qilingan.

## **O‘ZBEKISTON FARMATSEVTIKA SANOATI DAVLAT AKSIONERLIK (O‘ZFARM SANOAT) KONSERNI**

Respublika aholisining dori vositalariga bo‘lgan ehtiyojini yaxshiroq qondirish va farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 2-iyundagi PF 290-sonli farmoni asosida O‘zfarm sanoat, Davlat-aksionerlik konserni tashkil etilib, uning tarkibiga bir qator ilmiy tekshirish institutlari va O‘zkimyofarm ishlab chiqarish birlashmasi kiritilishiga qaror qilindi.

O‘zfarm sanoat konsernining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— Dori vositalari yaratish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etish, aholining davolash-profilaktika muassasalarining dori vositalariga, biologik faol moddalarga, boshqa tibbiy va sanitariya-gigiyena mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga oid tadbirlarni amalga oshirish;

— Farmatsevtika sanoatini kompleks rivojlantirish, ushbu tarmoq korxonalarini hududiy jihatdan joylashtirishni takomillash-tirish, tabiatni muhofaza qilish siyosatini o‘tkazish masalalari yuzasidan davlat hokimiyati va boshqaruvining Respublika hamda mahalliy organlari bilan hamkorlikda ishlash;

— Dori vositalari va ularning ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish sohasida O‘zbekiston Respublikasida Sog‘liqni saqlash vazirligi boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda yagona ilmiy-texnika siyosatini o‘tkazish;

— Respublikada dori vositalari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, xorijiy sheriklar bilan ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy hamkorlikni takomillash-tirish hamda kengaytirish hisobiga ularni chetdan xarid qilishni qisqartirish dasturini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish masalasi bilan shug‘ullanish qayd etiladi.

## **2-BOB. DORIXONALAR ISHINI TASHKIL QILISH**

### **2.1. DORI VOSITALARI BILAN CHAKANA SAVDO QILISH QOIDALARI**

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini keng joriy etish va chuqurlashtirish, tashabbuskorlik hamda tadbirkorlikni rivojlantirish, Respublika aholisini dori vositalari bilan ta’minlashni yaxshilash maqsadida yuqorida qayd etilganidek, Respublika «Dori-darmon» aksionerlik kompaniyasi viloyatlar, Toshkent shahrida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida uning hududiy birlashmalari tashkil etildi.

Dori vositalari bilan chakana savdo qilish huquqi, asosan, mulkchilik shaklining aksioner, jamoa va xususiy dorixonalariga ruxsat etildi. Bu dorixonalarga dori vositalarni sotishda tegishli tartib-qoidalarga amal qilish, ular bilan savdo qilish qoidalarini ta’minlash mas’uliyati yuklatilgan.

Dori vositalarini sotish O‘zbekiston Respublikasining «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan Qonun asosida dorixona muassasalari tomonidan olib boriladi va dori vositalari faqat dorixona muassasalari orqali sotiladi.

Dorixona ishi dorixona amaliyoti uchun xos bo‘lgan standartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Dorixonalar ishini boshqarish esa shu qonunga asosan oliy farmatsevtika ma’lumotiga ega bo‘lgan shaxslargagina ruxsat etilishi ta’kidlangan. Shuningdek, dorixona dori vositalarini tayyorlash, qadoqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda davolash, kasallikning oldini olishga mo‘ljallangan dori vositalari tibbiy buyumlarini, sanitariya va gigiyena ashyolarini, shifobaxsh oziq-ovqatlarni, ma’danli suvlarni, davolash-kosmetika mahsulotlarni xarid qilish, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi tibbiyot muassasasi hisoblanadi. Dorixona muassasalari jumlasiga dorixonalar va ularning shahobchalari, davolash va kasallikning oldini olish muassasalarining dorixonalari kiradi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublikada dori vositalari sotishni tartibga solish to'g'risida»gi 1994-yil 14-iyuldagi PF — 916 farmonini ijro etish yuzasidan hamda Respublika aholisini dori vositalari, vaksinalar va tibbiy buyumlar bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 6-avgustdagi 404-sonli Qarori e'lon qilindi, bunga asosan Respublika dorixona muassasalarida dori vositalari va tibbiy buyumlar sotish qoidalari, cheklangan chakana narxlarda sotiladigan hamda barcha dorixona muassasalarida mavjudligi majburiy bo'lgan eng zarur dori vositalari ro'yxati tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasida dori vositalari bilan chakana savdo qilish huquqi «Dori-darmon» aksionerlik kompaniyasi dorixona muassasalariga, shuningdek, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi)ga ega bo'lgan boshqa dorixonalariga ruxsat etiladi. Dorixona muassasalarida dori vositalarini sotishga faqat maxsus farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga ruxsat beriladi. Dori vositalari va tibbiy buyumlarning dorixona muassasalaridan tashqarida — bozorlarda, ko'chada, jamoat joylari hamda uyda sotilishi qat'iyan taqiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 18-iyul 276-sonli Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan va vakolatli laboratoriyada sifat bo'yicha nazoratdan o'tmagan dori vositalari hamda tibbiy buyumlarni sotish mumkin emas.

Dori vositalarni aholiga shifokor retsepti bilan va retseptsiz berish shuningdek, davolash-profilaktika muassasalariga beriladigan dori vositalari ro'yxati va ularni berish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. SSV tomonidan shifokorning retseptsiz berishga ruxsat etilgan dori vositalaridan tashqari barcha dori vositalari dorixonalardan faqat belgilangan shakllardagi retseptlarga ko'ra berilishi kerak.

Tayyor dori vositalarini berish vitrinasiga shifokor retseptsiz beriladigan dori vositalari va tibbiy buyumlar ularning narxi ko'rsatilgan holda qo'yiladi.

Davolash-profilaktika muassasalari shifokorlariga shifoxonada kerakli dori vositalari bo'lmaganda statsionar davolanishda bo'lgan bemorlarga retsept yozib berishga ruxsat etiladi. Bunda dori naqd pulga sotib olinganligi haqida ma'lumot kasallik tarixiga yozib qo'yilishi shartdir.

Maxsus ijtimoiy himoyaga muhtoj bemorlarga bepul retseptlar bo'yicha dori vositalari, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha dorixona muassasalaridan beriladi. Dorixona muassasalari tomonidan bepul retseptlar bo'yicha berilgan dori vositalari Vazirlar Mahkamasining «Davolash-profilaktika muassasalarini mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 1997-yildagi 532-sonli Qarorida ambulatoriyada davolashda dori vositalari bepul beriladigan kasalliklar va shaxslar ro'yxatiga muvofiq amalga oshiriladi. Ularga haq to'lash esa Sog'liqni saqlash muassasalari bilan tegishli tartibda tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 14-yanvardagi 19-sonli va 2000-yil 5-avgustdagi 307-sonli Qarorlariga asoslanib, chakana dorixona tarmog'ida dori vositalari va tibbiyot buyumlarga narx belgilashning yagona tartibi joriy etildi.

Shunga asoslanib, dori vositalari va tibbiyot buyumlari O'zbekiston Respublikasiga import bo'yicha yetkazib berishda qatnashuvchi vositachilar sonidan qat'iy nazar, baza narxiga 20 foizdan ortiq bo'lmagan, qolgan dori vositalari uchun ulgurji savdoda 20 foiz, chakana savdo uchun 25 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda cheklangan savdo ustamolari qo'llanilgan holda shartnomaviy narxlar bo'yicha ulgurji va chakana savdo tarmog'i orqali sotilishi belgilab qo'yildi.

Ana shu qarorga asoslanib, mulkchilik shaklining hamma turidagi dorixonalarda, dorixona filiallarida va qishloq shifokorlik punktlari qoshidagi dorixonalarda dori vositalarini, tibbiyot buyumlarini hamda bemorlarni parvarish qilishda ishlatiladigan sanitariya va gigiyena ashyolarini aholiga sotish ushbu belgilangan chakana narxlarda amalga oshiriladi.

## 2.2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DORIXONALARNI OCHISH TARTIBI

Dorixona Sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas tarkibiy qismidagi tibbiyot muassasasi bo‘lib, u aholini, davolash-profilaktika muassasalarini (DPM) va boshqa tashkilotlarni uzluksiz ravishda dori vositalari, sanitariya-gigiyena buyumlari, bog‘lov materiallari va bemorlarni parvarish qilishda ishlatiladigan ashyolar bilan ta‘minlash bilan shug‘ullanadi.

Dorixonalar asosan dori tayyorlash, ta‘minot, savdo, moliya va xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanib, ularni ishlab chiqarish faoliyati shifokorlar tomonidan yozib berilgan retseptlari DPM larning talabnomalari asosida dori vositalarini tayyorlab beradi. Katta miqdordagi ayrim dori vositalarini laboratoriya-qadoqlash ishlari bilan shug‘ullanadi, ularning sifatini nazorat qiladi va tayyor dori vositalarini aholi va DPM lariga sotadilar.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, Respublika Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-martdagi 132-sonli Qarori asosida Respublika «Dori-darmon» davlat aksionerlik uyushmasi tashkil etildi, shu qaror asosida mulkchilikning xususiy, jamoa hamda aksioner dorixonalar uyushmasi tashkil etildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga asosan farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanish — dorixona ishini boshqarish oliy ma‘lumotli farmatsevtlargagina ruxsat etildi.

Yuqoridagi qayd etilgan faoliyatlarni amalga oshirish va qonun asosida dorixona ochish hamda tegishli farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanish uchun esa maxsus litsenziya olish zarur bo‘ladi. Bu litsenziya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 31-oktabrdagi 477-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Tibbiy faoliyatni va farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi Nizom asosida» maxsus ruxsatnoma, litsenziya berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligida tashkil etilgan maxsus hay‘at tomonidan beriladigan ruxsatnoma (litsenziya) asosida olib boriladi.

Litsenziya hay'ati tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Respublika hududida farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanuvchi boshqa mas'ul yuridik shaxslarning vakillari kiradi.

Litsenziya hay'ati — hay'at raisi, a'zolari va texnik guruhidan iborat. Litsenziya hay'ati raisi Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'iga asosan tayinlanadi. Hay'at tarkibi va tuzilishi, hay'at raisi tomonidan taqdim etiladi hamda bunga asosan Sog'liqni saqlash vaziri tomonidan chiqarilgan buyruqqa binoan faoliyat ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan qaror va tegishli qonunlarga asosan, litsenziya berish tartibi va shartlari haqida «Nizom» ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu nizomga asosan, O'zbekiston Respublikasi hududida farmatsevtika faoliyatini ko'rsatish uchun litsenziya berishning umumiy tartiblari va shartlari belgilanadi. Ushbu tartiblar mulkchilik turidan, qaysi vazirlik yoki tarmoqqa bo'ysunishidan, qayd etilgan manzilidan qat'iy nazar barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun majbur ekanligi belgilab qo'yilgan.

Farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanayotgan barcha yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududida farmatsevtika faoliyati ko'rsatayotgan, chet el vakolatxonalarining ham ko'rsatilgan faoliyati uchun litsenziyalari bo'lishi ko'zda tutiladi.

**Litsenziya** — bu maxsus hisobdagi hujjat bo'lib, o'zining takror-lanmas tartib raqamiga ega bo'ladi.

Litsenziya aniq yuridik yoki jismoniy shaxsga beriladi, litsenziyani boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga berish man etiladi.

Tashkiliy-huquqiy shaklidan, qaysi vazirlik va tarmoqqa tegishligidan, mulkchilik turidan qat'iy nazar, litsenziyasiz faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi SSV litsenziya hay'ati tomonidan farmatsevtika faoliyatining quyidagi turlari uchun litsenziyalar beriladi:

— tayyor dori vositalari va tibbiy buyumlar sotib olish hamda sotish huquqiga ega bo'ladigan dorixonalarga;

— shifokor retsepti bo'yicha dori vositalari va steril eritmalar tayyorlab sotish, shuningdek tayyor dori vositalari hamda tibbiy ashyolarni sotib olish va sotish huquqiga ega bo'lgan korxonalarga;

— O‘zbekiston Respublikasi SSV dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi tomonidan qo‘llashga ruxsat etilgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlarni korxonada ishlab chiqarish va sotish huquqini beradigan yuridik shaxslarga;

— O‘zbekiston Respublikasi SSV Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi tomonidan qayd etilgan giyohvand hamda psixotrop moddalar saqlagan vositalarni sotib olish va sotish huquqiga ega bo‘lgan dorixonalariga.

Litsenziya berish to‘g‘risidagi hujjatlarni ko‘rib chiqish, ularning muddatlarini uzaytirish, ular yuzasidan xulosalar tayyorlash uchun litsenziyalovchi organda ekspert komissiya tuziladi. Ekspert komissiya tarkibi va komissiya to‘g‘risidagi nizom litsenziyalovchi organ tomonidan tasdiqlanadi. Bunda ekspert komissiya tarkibiga majburiy tarzda tegishli ixtisosliklar bo‘yicha mutaxassislar kiritiladi.

Ekspert komissiya yig‘ilishi kamida oyiga ikki marta o‘tkaziladi.

Farmatsevtika faoliyatining mazkur Nizomga muvofiq litsenziyalanadigan turlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) dori vositalari va tibbiyot buyumlari ishlab chiqarish;
- b) dori vositalari va tibbiyot buyumlari tayyorlash;
- d) dori vositalari va tibbiyot buyumlari yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari;
- e) dori vositalari va tibbiyot buyumlari sifatini nazorat qilish;
- f) dori vositalari va tibbiyot buyumlarini chakana sotish;
- g) dori vositalarini ulgurji sotish;
- h) tibbiyot buyumlarini ulgurji sotish;
- i) dorivor o‘simliklar, hayvonot va mineral asosga ega bo‘lgan xomashyoni yetishtirish, yig‘ish, tayyorlash, qadoqlash va ulgurji sotish.

Yuqorida qayd etilgan faoliyat turlarini «a» — «h» kichik bandlarida ko‘rsatilgan farmatsevtika faoliyatini amalga oshirishga litsenziyalar faqat yuridik shaxslarga berilishi mumkin, bunda «b» — «f» kichik bandlarida ko‘rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishga litsenziya faqat dorixona muassasalariga beriladi.

Mazkur Nizom 3-bandining «a» — «h» kichik bandlarida

ko'rsatilgan farmatsevtika faoliyati turlarini amalga oshirish uchun olingan litsenziya, litsenziatlarga ular ishlab chiqargan va tayyorlagan dori vositalari hamda tibbiyot buyumlarini sotish huquqini beradi. Yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan farmatsevtika faoliyati faqat litsenziyada belgilangan faoliyat turi (uning bir qismi) bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

Litsenziatda tegishli faoliyatni amalga oshirish uchun foydalaniладigan filiallar (alohida hududlardagi bo'linmalar va obyektlar) mavjud bo'lgan taqdirda, litsenziya berish vaqtida ko'rsatib o'tilgan filiallar (alohida hududlardagi bo'linmalar va obyektlar) soniga qarab ulardan har birining joylashgan joyi ko'rsatilgan holda litsenziyalovchi organ tomonidan tasdiqlangan litsenziya nusxalari beriladi.

### **Litsenziya talablari va shartlari:**

Farmatsevtika faoliyatini amalga oshirishda litsenziat quyidagi qoidalarga rioya qilishga majbur:

— faoliyatni farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya etish;

— faoliyatni litsenziyada ko'rsatilgan faoliyat doirasida, shuningdek litsenziya bitimiga muvofiq ko'rsatilgan (manzil)lar bo'yicha amalga oshirish;

— litsenziya talabgori litsenziyalanayotgan faoliyatni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan tegishli moddiy-texnik bazadan, asbob-uskunalardan va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

— dori vositalari va tibbiyot buyumlari ishlab chiqarish, tayyorlash, sotish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish;

— ekologiya va sanitariya-gigiyena normalari va qoidalariga rioya etish;

— dori vositalarini tayyorlashda litsenziat shuningdek, dori vositalarini analiz qilish uchun vakolatli nazorat-tahlil laboratoriyasi bilan shartnoma tuzish.

Farmatsevtika faoliyatining tegishli turini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik bazaga, asbob-uskunalarga, boshqa texnika vositalari va xodimlarga talablar belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Litsenziya maxsus blankalarda rasmiylashtiriladi. Litsenziya blankalari qat'iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'lishi kerak. Litsenziya blankasi namunasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-dekabrda 488-son Qaroriga muvofiq litsenziyalovchi organ tomonidan tasdiqlanadi.

Farmatsevtika faoliyati bo'yicha tegishli boshqaruv va me'yoriy-texnik hujjatlar talablari dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish, tayyorlash, sifatini nazorat qilish va sotish tartiblari buzilganda, litsenziya hay'ati tavsiyasi bo'yicha belgilangan tartibda, dorixona egasini litsenziyadan mahrum qilinadi yoki uni faoliyatini vaqtincha to'xtatib qo'yiladi.

Hay'at a'zolari O'zbekiston Respublikasi SSV buyrug'iga, hay'at raisi ko'rsatmalariga va hay'at qaroriga muvofiq tahlil ishlarini olib boradi. Hay'at majlislarida qatnashadi, hay'at raisi tomonidan amaldagi qonun va SSV buyruq hamda yo'riqnomalariga zid bo'lmagan vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi SSV ning litsenziyasi hozirgi kunda hay'at tomonidan farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga litsenziya cheksiz muddatga beriladi.

Dorixona muassasalari o'z ish faoliyatini O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan tasdiqlangan tegishli San PiN me'yorlariga rioya qilgan holda faoliyat ko'rsatadilar.

### **2.3. DORIXONA MUASSASALARINING NOMLANISHI, TURLARI VA ULARNI JOYLASHTIRISH TARTIBLARI**

O'zbekiston Respublikasida dorixonalar dori vositalarini tayyorlash, qadoqlash, ularning sifatini nazorat qilish, shuningdek davolash hamda kasallikning oldini olishga mo'ljallangan dori vositalari, tibbiy buyumlarni, sanitariya va gigiyena ashyolarini,

shifobaxsh oziq-ovqatlarni, ma'danli suvlarni, davolash-kosmetika mahsulotlarni xarid qilish, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi tibbiyot muassasidir. Dorixona muassasalari tarkibiga dorixonalar va ularning shahobchalari, davolash hamda kasallikning oldini olish muassasalarining dorixonalari kiradi. Dorixona shahobchalari, qishloq shifokorlik punktlari qoshidagi dorixonalar, shuningdek shifoxonalararo dorixonalar ham shu dorixona muassasalari tarkibiga kiradi.

Ayrim holatlarda dorixonalar maxsuslashtirilgan bo'ladi, chunki maxsuslashtirilgan dorixonalar, aholini va DPM larni yuqori sifatli faoliyatni ta'minlash xizmatiga ega bo'ladi, maxsuslashtirilgan dorixonalar quyidagi sifat ko'rsatkichlari bilan farq qiladi:

— tayyor dori vositalarining oldi-sotdi savdosi bilan shug'ullanadigan maxsus tayyor dorilar bilan savdo qiluvchi dorixonalar;

— ta'minoti, faoliyati, xususiyati bilan farq qiladigan mayda ulgurji savdo va shifoxonalararo dorixonalar;

— alohida kontingentli bemorlarga xizmat qiladigan bolalar va yoshi ulug' qariyalarga xizmat qiladigan geriatrik dorixonalar;

— sotilayotgan dorilarning maxsus guruhlariga xos dori vositalari, dorivor o'simliklar bilan savdo qiladigan dorixonalar, gomeopatik dorixonalar, va maxsus kasallarni davolashga ixtisoslashtirilgan (teri-tanosil, ruhiy va diabet kasallari uchun) dorixonalar.

Shuningdek o'quv ishlab chiqarish dorixonalari bo'lishi mumkin. Aksionerlik dorixonalar esa o'z faoliyatlarini ko'rsatishda tuman, shahar va qishloq hududida joylashib, aholiga dori vositalari hamda boshqa tibbiyot buyumlari savdosi bilan xizmat qiladi.

Tayyor dori vositalari savdosi bilan xizmat qiladigan dorixonalar asosan shahar, qishloq, poliklinikalar qoshida va boshqa joylarda tashkil qilinib, ular aholini retsept asosida yoki retseptsiz berishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar, sanitariya-gigiyena buyumlari, bog'lov materiallari va bemorlarni parvarish qilishda ishlatiladigan ashyolar bilan uzluksiz ta'minlab turadi.

Maxsus bolalarga xizmat qiladigan dorixonalar, asosan, katta shaharlarda yoki viloyat markazlarida tashkil etilib, bolalar uchun ishlab chiqarilgan kichik dozada tayyorlangan dori vositalari yoki ekstemporal ravishda retsept asosida tayyorlanadigan dori vositalari bilan savdoni amalga oshiradi. Dorixonada dori tayyorlash uchun



zarur dori xomashyolari (substansiyalar) va yordamchi materiallar zaxirasi bo'lishi zarur. Shuningdek, bolalar uchun tayyorlanadigan dori vositalari boshqa tayyorlanadigan dori vositalaridan, ta'mi, rangi va tashqi ko'rinishi bilan farq qilishi ko'zda tutiladi.

Geriatrik dorixonalar asosan yoshi ulug' insonlarga xizmat qilish uchun maxsuslashtirilgan bo'lib, ushbu dorixonalar qariyalarni yoshi, ruhiy fiziologik holatlarini e'tiborga olib, tegishli tartibda shifokorlar tomonidan yozib berilgan retseptlar asosida dori vositalarini berishlari ko'zda tutilgan. Shuningdek, ushbu dorixonalar dorilarni saqlash, ichish tartib-qoidalarini ularga aniq tushuntirib berishlari va qariyalarga dori vositalari qabul qilish bo'yicha maslahat beruvchi markaz hisoblanadi.

Geriatrik dorixonalar shu toifadagi aholini dori vositasi bilan ta'minlanayotganligini har taraflama tahlil qilib, ular uchun zarur dori vositalari va tibbiy buyumlar ehtiyojini doimo o'rganib boradi va shularni dorixonada uzluksiz ravishda bo'lishini ta'minlaydi.

Dorivor o'simliklar dorixonasi, odatda, yirik shaharlar va viloyat markazlarida aholini dorivor o'simliklardan tayyorlangan dori vositalari: damlama, qaynatma holida shifokorlar retsepti bilan va retseptsiz har xil choylar holida, sharbatlar shaklida fitobarlarda tayyorlab aholi uchun foydali va nisbatan bezarar bo'lgan dori vositalari bilan ta'minlash uchun tashkil qilinadi.

Bu dorixonalar retsepturasi o'ziga xos murakkablik tomonlari ham mavjud chunki, ayrim yig'malarning tarkibiga o'nlab dorivor o'simliklar xomashyosi kiritiladi, shuning uchun bu yig'malarni tayyorlash belgilangan tartib asosida amalga oshirilib, farmatsevtidan o'ziga xos bilim va mahorat talab etadi.

Dorivor o'simliklardan dori vositalarga bo'lgan aholining ehtiyojini qondirish ayrim hollarda farmatsevtlar va shifokorlar hamkorligida dori vositasi choy, qaynatma, damlama yoki kokteyl shaklida dorixonaning alohida bo'limlar va fitobarlarda tashkil qilinishi ham mumkin.

Hozirgi kunda esa Respublika SSV qoshidagi litsenziya hay'ati tomonidan bunday dorixona yoki bo'limlar ochishga ruxsatnoma berilib bormoqda, chunki bunday dorixonalarni bo'lishi aholi uchun foydali va iqtisodiy tomondan esa arzon dori shakli bo'lib,

aholining ehtiyojini bunday dori vositalariga qondirishda muhim rol o'ynaydi.

Gomeopatik vositalar muomalasini amalga oshiruvchi dorixonalar ham maxsuslashtirilgan dorixonalar turkumiga kirib, ular ham ma'lum darajada aholini o'ziga xos gomeopatik retseptlar asosida tayyorlangan dori vositalari bilan ta'minlashga yordam beradi. Ushbu dorixonalarni iloji boricha, geriatrik bemorlarni davolash uchun tashkil qilingan maxsus davolash va davolash-profilaktika muassasalari yaqinida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Gomeopatik dorixonalarda dori vositalari, asosan, tayyor dori vositalari shaklida beriladi, lekin bu xildagi dorixonalarda ham ekstemporal holda ayrim dori vositalarini tayyorlash ishlarini yo'lga qo'yish mumkin. Hozirgi kunda alohida maqomga ega bo'lgan gomeopatik dorixonalar Respublikamizda tashkil etilgan emas, lekin ma'lum dorixonalarda alohida gomeopatiya bo'limi sifatida tashkil qilingan. Ta'kidlash lozimki, Toshkent farmatsevtika institutining dori turlari texnologiyasi kafedralarida ko'plab gomeopatik dori shakllari texnologiyasi ayniqsa Respublikamizda mavjud bo'lgan xomashyolardan asos sifatida foydalanib, amaliyotda qo'llash uchun tayyorlab qo'yilgan texnologik jarayonlar yaratilgan.

O'quv ishlab chiqarish dorixonalari asosan, yosh mutaxassislarni yoki yuqori kurs talabalarini ishlab chiqarish yoki magistratura amaliyoti mashg'ulotlarini o'tkazish yoki farmatsevtlarni malakasini oshirish uchun baza sifatida tashkil qilinib, shu bilan birga aholini va DPM larini dori vositalari va boshqa tibbiy ashyolar bilan ta'minlab turish ishlarini ham amalga oshiradi.

Ushbu dorixonalarda o'quv va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun qo'shimcha xonalar bo'lib, bu xonalar esa o'quv va amaliy mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan asbob, uskuna va boshqa anjomlar bilan jihozlanadi. O'quv-kompyuter xonalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga oid masofali o'qitishga mo'ljallangan texnika vositalari, o'quv adabiyotlar va tegishli me'yoriy hujjatlari bilan ta'minlanishi maqsadga muvofiq.

O'quv ishlab chiqarish dorixonalari ilmiy izlanishlar yoki ilmiy izlanishlar samarasini dorixona amaliyotiga tatbiq etishga ham mo'ljallangan holda qurilib tashkil etiladi.

Shuningdek, talabalar va magistrantlarning malakaviy bitiruv (diplom) ishlarini bajarish uchun ham baza bo'lishi mumkin.

#### **2.4. DORIXONALARNING VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI**

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar dorixonalarning asosiy vazifalari aholini, davolash-profilaktika muassasalarini va boshqa tashkilotlar, maktab, bolalar bog'chalari hamda ayrim ishlab chiqarish korxonalarining tibbiy sanitariya qismlarini dori vositalari, sanitariya-gigiyena buyumlari, dezinfeksiya vositalari va bemorlarni parvarish qilishda ishlatiladigan tibbiy buyumlar bilan uzluksiz ravishda ta'minlab turishdan iborat.

Tibbiy buyumlar jumlasiga kasallikning oldini olish, tashxis qo'yish va davolash uchun tibbiyotda qo'llaniladigan buyumlar, ularga bog'lash va tikish materiallari, shpirtsalar, qon va infuzion eritmaları quyishga mo'ljallangan sistemalar, bemorlarni parvarishlashda qo'llaniladigan ashyolar va materiallar kiradi.

Dorixonalar bajargan ishlari, mulkchilik shakllarini e'tiborga olingan holda ular ishlab chiqarish, ta'minlash, savdo va xo'jalik faoliyatlari bilan shug'ullanadi.

Ularning ishlab chiqarish faoliyati shundan iboratki, ular dorixonada shifokorlar tomonidan yozilgan retsept asosida va DPM larning talabnomalari va boshqa tashkilotlarni buyurtmalari asosida dori vositalari tayyorlab beradilar yoki tayyor dori vositasini beradilar, laboratoriya-qadoqlash ishlarini bajaradilar, aholiga tayyorlab berilayotgan ektemporal dori vositalari hamda tayyor dori vositalarining sifatini nazorat qiladilar va tegishli tartibda ularni rasmiylashtirgan holda tashqi tomondan bezalishiga e'tibor beradilar.

Shuningdek, dorixonalar o'zlariga yuklatilgan vazifalarga mos ravishda quyidagi funksiyalarni bajaradilar:

— tibbiyot xodimlarining o'rtasida tegishli tartibda axborot berish ishlarini o'tkazish, unda dorixonadagi mavjud va yangi dori vositalari to'g'risida ma'lumot berish, birorta dori vositasi bo'lmay qolganda uning o'rni bosuvchi boshqa dori vositasini taklif qilish,

bu dorilarning ishlatish tartibi, dozasi va saqlash qoidalari to'g'risida obyektiv va mukammal ravishda axborot ishlarini o'tkazadilar;

— ayrim hollarda o'zlarida vaqtincha yo'q dori vositalarini, boshqa dorixonalarda mavjud ekanligi aytilib, uning manzili bemorga tushuntirib beriladi;

— dorivor o'simliklarning xomashyosini terish, tayyorlash, saqlash ishlarini amalga oshiradilar, xuddi shunday ishlarga ularga birlashtirilgan dorixona shahobchalarini ham jalb etadilar;

— dorixonalarda sanitariya-gigiyena talablari asosida tegishli boshqaruv ishlarini amalga oshiradilar;

— zarur bo'lib qolgan taqdirda bemorlarga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatishlari zarur.

Shuningdek, dorixonalar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, zarur bo'lib qolganda aholiga dori vositalari bilan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatni yaqinlashtirish maqsadida o'zining dorixona shahobchalarini ochishi mumkin.

Dorixonalar iqtisodiy ko'rsatkichlari mulkchilik shakli, ishlab chiqarish va savdo faoliyatiga qarab yuqorida qayd etilganidek, aksionerlik, jamoa hamda yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi xususiy dorixonalar va shifoxona dorixonalariga bo'linadi. Bu dorixonalarning faoliyat turlari esa dorixona ochish tartib qoidalari to'g'risidagi Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i asosidagi litsenziya berish hay'ati tomonidan Respublika Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida muvofiqashtirib turiladi.

## **2.5. DORIXONA XONALARINING TARKIBI, ULARNI FAOLIYAT TURIGA QARAB JIHOZLANISHI**

Dorixonalarni ochish tartibiga oid Respublika Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan Sanitariya qoidalari va ularning gigiyenik me'yorlariga (San PiN № 0078-98 va San PiN № 0162-04) asosan, dorixonaning faoliyat ko'rsatish turiga qarab, unda belgilangan xonalarga qo'yiladigan asosiy talablar keltirilgan.

Undagi ko'rsatilgan umumiy nizomga asosan, har qanday dorixona San PiN tartib qoidalari asosida tashkil etiladi va undagi

xonalar va jihozlarga hamda ularni joylashtirishga ma'lum talablar qo'yiladi.

San PiN № 0162-04 ga asosan tayyor dorilar bilan savdo qiladigan dorixonalar ko'p qavatli binolarni birinchi qavatida yoki alohida binolarda tashkil etishga ruxsat etiladi.

Ko'p qavatli binolarda, dorixonani o'zining alohida kirish yo'li, binoning orqa tomonidan bo'lib, undan har xil tovarlar qabul qilish yoki bo'sh idishlarni chiqarish va ayrim kishilarni qabul qilish uchun xizmat qiladi.

**Tayyor dori vositalari dorixonalari uchun eng kam tarkibdagi xonalar maydonining hajmi**

Xonalarning nomi	Xonalarning maydoni m <sup>2</sup> dan kam bo'lmasligi
1. Savdo zali shundan:	16
a) Ishchi o'rinlari zonasi	8
b) Aholiga xizmat qilish zonasi	8
2. Tayyor dori vositalarini ochish va saqlash uchun	8
3. Termolabil (issiqqa chidamsiz) dorilarni saqlash uchun	4
4. Yordamchi xonalar, xodimlarni shaxsiy kiyim yoki xalatni yechib kiyinish yoki ovqatlanishi uchun	4
5. Hojatxona (qo'l yuvish uchun rakovina bilan)	4
Jami	34

Xonalarning pol va devorlari dezinfeksiyalovchi vositalar bilan ho'l lattada artib tozalanishi, oynalarni esa yoz kunlari alohida quyoshdan saqlovchi parda yoki pardaning o'rnini bosuvchi quyosh-dan himoyalovchi buyumlar bilan jihozlanishi, oynalardagi darchalar unga tutilgan mayda to'qilgan to'r tutish bilan birga ochilib yopiladigan bo'lishi kerak.

Dorixonaning isitish tizimi mavjud bo'lib, ko'p qavatli binolarda joylashgan holatlarda markazlashtirilgan isitish sistemasiga

ulangan bo'lishi kerak. Isituvchi radiatorlarni iloji bo'lsa, ustki qismi silliq va tez artib tozalanadigan bo'lishi kerak.

San PiN №0078-98 asosida esa umumiy tipdagi dorixonalar va shifoxona dorixonalari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, unda dorixonada xodimlarining shaxsiy gigiyena qoidalariga, dorixonadagi ishlab chiqaruvchi asbob-anjomlar va dorixonada uskunalariga qo'yiladigan talab ham ko'rsatilgandir. Bu me'yor va talablarga Respublika hududida joylashgan hamma dorixonalar ularning mulkchilik shakli va kimga tegishliligidan qat'iy nazar bu talablarga rioya qilishlari shart.

Umumiy va shifoxona dorixonalarining xonalari hamda ularning hajm me'yorlari va jihozlanishi San PiN № 0078-98 bo'yicha beriladi.

## **2.6. DORIXONALARNING TASHKILY TUZILISHI**

Bajarayotgan ish hajmiga qarab mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, dorixonada o'z imkoniyatlarini va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda belgilangan me'yorlar doirasida dorixonada hamda uning bo'limlari tashkil etiladi.

Tayyor dorilar bilan savdo qiladigan dorixonalarda, odatda, alohida bo'limlar tashkil qilinmaydi.

Boshqa ko'pchilik dorixonalarda ikkita bo'lim: retseptura ishlab chiqarish va retseptsiz sotishga ruxsat etilgan dori vositalarining bo'limlari tashkil etiladi. Hozirgi kunda eng katta dorixonalarda 4 ta bo'lim bo'lishi qayd etiladi. Sobiq ittifoq davrida va hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasida bu dorixonalarni 1-guruh dorixonalari deb yuritiladi va yuqorida qayd etilgan bo'limlardan tashqari ular yana bir necha bo'limlar bo'lishi mumkin deyiladi.

Bizning Respublikamizda ham yuqorida qayd etilgan 4 ta bo'limdan, ya'ni retseptura ishlab chiqarish bo'limi, retsept bilan beriladigan tayyor dorilar bo'limi, g'amlamalar bo'limi va retseptsiz sotishga ruxsat etilgan dorilar bo'limlari mavjud bo'lgan dorixonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Lekin bu bilan bo'limlar soni cheklanadi degan gap emas, dorixonada yana boshqa bo'limlar ham

ochish mumkin. Masalan, sanitariya-gigiyena bo'limi, ko'zoynaklar bo'limi, gomeopatik dorilar bo'limi, fitobar va boshqalar.

Bu bo'limlarni bo'lim boshliqlari va ularning yordamchilari boshqaradi. Bo'lim boshliqlari va ularning yordamchilari asosan oliy ma'lumotli farmatsevtlar bo'ladi. Lekin sanitariya-gigiyena bo'limi ko'zoynaklar, fitobarlarda bo'lim boshliqlari va ularning yordamchilari lavozimlarida o'rta maxsus ma'lumotli farmatsevt assistentlar ishlashlariga ruxsat etiladi.

Har bir bo'lim o'zining tegishli vazifalarini bajaradi.

Retseptura ishlab chiqarish bo'limi aholidan yakka tartibdagi ambulatoriya retseptlari va davolash-profilaktika muassasalarining talabnomalari asosida ektemporal yoki tayyor dori vositalarini aholiga tayyorlab berish, sifatini nazorat qilib, ichish va saqlash tartib qoidalarini ularga tushuntirib berish bilan shug'ullanadilar. Zarur bo'lib qolgan taqdirda dorixona mutaxassislari aholiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadilar.

G'amlamalar bo'limi esa dori vositalariga, tibbiy va boshqa bemorlarni parvarish qilish buyumlariga buyurtma-talabnomalar yozib, dorixona ta'minotchilariga: farmatsevtika zavodlariga yoki ulgurji dorixona muassasalariga, firma va ishlab chiqarish korxonalariga jo'natadilar.

Shuningdek, bo'lim mutaxassislari doimiy ravishda dori vositalari va boshqa tibbiy buyumlarga bo'lgan ehtiyojni o'rganib, aniqlab boradilar. Bo'limda dori vositalarini tegishli tartibda saqlash, dorixonaning boshqa bo'limlariga dori vositalarini berish, shuningdek shu bo'limda tez-tez, takrorlanib turadigan retseptlar asosida dorixona yarim fabrikat va standartlarni tayyorlash bilan ham shug'ullanib, ularni tegishli tartibda sifati nazorat qilinib, laboratoriya-qadoqlash ishlarini amalga oshiradilar.

Tayyor dorilar bo'limi esa aholidan va davolash-profilaktika muassasalaridan tayyor dorilarga kelib tushgan retseptlar asosida, farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalaridan keltirilgan dori vositalarini retsept asosida berish bilan shug'ullanadilar. Bu bo'limda asosan oliy ma'lumotli farmatsevtlar faoliyat ko'rsatadilar.

Retseptsiz sotishga ruxsat etilgan dorilar bo‘limida O‘zbekiston Respublikasi SSV tomonidan retseptsiz sotishga ruxsat etilgan dori vositalari sanitariya-gigiyena va tibbiy buyumlari, yosh bolalar maxsus ovqatlari va bemorlarni parvarish qilishda ishlatadigan boshqa buyumlar sotish bilan ham shug‘ullanadilar. Ayrim dorixonalarda shu bo‘limdan bemorlarga kislorod yostiqlarini berish ishlar bilan ham shug‘ullanadilar.

## **2.7. DORIXONA XODIMLARI LAVOZIMLARINING NOMLANISHI**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin aholini sifatli dori-darmon bilan ta‘minlashga katta e‘tibor berildi. O‘tgan davr ichida dorixona tizimida tub o‘zgarishlar yuz berdi, dori-darmon ta‘minotini takomillashtirishga oid qator qarorlar, dorixona muassasalari faoliyatini tartibga solish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Jadal suratlar bilan rivojlanib kelayotgan farmatsiya sohasida yangi yo‘nalishlar tashkil qilindi, bu esa o‘z navbatida, yangi lavozimlar tashkil qilinishini taqozo qiladi.

Bugungi kunda farmatsevt kadrlar quyidagi soha muassasalarida faoliyat ko‘rsatmoqdalar:

- turli mulkchilikdagi dorixonalar;
- dorixona omborlari;
- dorixona shahobchalari;
- dorixona korxonalar;
- nazorat tahlil laboratoriyalari;
- boshqa muassasalar.

Farmatsevt kadrlar lavozim nomenklaturasi va lavozim nizomlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Quyida keltirilgan jadvalda oliy ma‘lumotli va o‘rta maxsus ma‘lumotga ega bo‘lgan farmatsevt kadrlarning lavozim nomenklaturasi keltirildi:



## DORIXONA XODIMLARINING LAVOZIM NOMENKLATURASI

№	Oliy ma'lumotli farmatsevt	O'rta maxsus ma'lumotli farmatsevt assistenti
1	Dorixona mudiri — farmatsevt	
2	Mudir muovini — farmatsevt	
3	Bo'limi mudiri farmatsevt (oliy ma'lumot talab etiladigan bo'limlarda)	Bo'lim mudiri — farmatsevt assistenti (retseptsiz savdo bo'limi, dorivor o'simliklar, sanitariya va gigiyena buyumlari bo'limi)
4	Bo'lim mudiri muovini — farmatsevt	Bo'lim mudiri muovuni
5	Farmatsevt-texnolog	Farmatsevt assistenti
6	Farmatsevt-analitik	
7	Dorixona shahobchasi mudiri — farmatsevt	Filial mudiri — farmatsevt assistenti
<b>DORIXONA OMBORI (ULGURJI SAVDO MUASSASALARI)</b>		
1	Mudir — farmatsevt	
2	Mudir muovini — farmatsevt	
3	Bo'lim mudiri — farmatsevt (qabul bo'limi, zaharli va giyohvandlik vositalari bo'limi)	Bo'lim mudiri — farmatsevt assistenti (oliy ma'lumotli farmatsevt talab etilmaydigan bo'limlarda)
4		Bo'lim mudirining muovini — farmatsevt assistenti
5	Farmatsevt-texnolog	
6	Farmatsevt-analitik	
7		Farmatsevt assistenti

<b>DORI VOSITALARI, KOSMETIK VOSITALAR VA PARAFARMATSEVTIKA MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALAR</b>		
1	Oliy ma'lumotli farmatsevt	O'rta maxsus ma'lumotli farmatsevt assistenti
2	Rahbar — farmatsevt	
3	Rahbar muovini — farmatsevt	-
4	Farmatsevt muhandis	
5	Agroekolog	
6	Biotexnolog	
7	Farmatsevt-kosmetsevt	
<b>NAZORAT TAHLIL LABORATORIYALARI</b>		
1	Oliy ma'lumotli farmatsevt	O'rta maxsus ma'lumotli farmatsevt assistenti
2	Mudir — farmatsevt	-
3	Mudir muovini — farmatsevt	
4	Farmatsevt-analitik	
5		Laborant — farmatsevt assistenti
<b>FARMATSEVT KADRLAR TALAB ETILADIGAN BOSHQA MUASSASALARDA</b>		
1	Oliy ma'lumotli farmatsevt	O'rta maxsus ma'lumotli farmatsevt assistenti
2	Klinik farmatsevt	
3	Farmatsevt nazoratchi	
4	Farmatsevt marketolog	

### **3- BOB. DORI VOSITALARINING RETSEPTSIZ SAVDOSINI TASHKIL QILISH**

#### **3.1. XALQARO AMALIYOTDA DORI VOSITALARINING TURKUMLANISHINI ASOSIY PRINSIPLARI. TURKUMLASH SHAKLLARI**

Dori vositalari turli o'lovlar bo'yicha turkumlanishi mumkin. Masalan, farmakoterapevtik xususiyati bo'yicha, ta'sir etish mexanizmi, dorixonalardan muomalaga chiqarish xususiyatlari, ishlab-chiqaruvchi firmalar, dori shakllari bo'yicha va hokazo. Klassifikatsiyalash xili, qo'yilgan maqsad va ma'lumotlar iste'mol xususiyatlariga ham bog'liq.

Ilmiy izlanish jarayonida olimlar dori vositalarini turkumlashda ta'sir mexanizmi, qo'shimcha reaksiyalar, ta'sir etuvchi vositaning kimyoviy tuzilishi va boshqalar bo'yicha foydalanishadi. Bunday turkumlashlar amaliy Sog'liqni saqlashda foydalanadigan uslublarga qaraganda ko'proq ahamiyatga ega.


Farmatsevt marketologlar, shifokorlar, farmakoterapevtik ko'rsatkichlar bo'yicha (yurak-qon tomirlar, yallig'lanishga qarshi, qandli diabet va boshqalar) hamda dorixonadan dorilarni retsept bo'yicha yoki retseptsiz sotilishi bo'yicha turkumlashdan foydalanishadi.

O'zbekiston Respublikasi va Mustaqil Hamdo'stlik Mamlakatlari uzoq vaqt akademik M.D.Mashkovskiy tomonidan tavsiya etilgan dori vositalarini turkumlashdan foydalanilgan. U o'zining dolzarbligini hozirgi kunda ham yo'qotmagan. Bu turkumlashda vositalar farmakoterapevtik guruhlariga bo'linadi.

Quyida klinik-farmakologik ko'rsatkichlar va ta'sir mexanizmi bo'yicha dori vositalarini turkumlash bo'yicha misol keltirilgan (1-sxema). Bu turkumlashda dori vositani patentlanmagan xalqaro nomi ko'rsatilganidek, ma'lum firmaga tegishli savdo nomi ham ko'rsatilgan.

Qator Yevropa davlatlarida dori vositalari dorixonadan beriladigan dorilar tartibiga muvofiq — retsept bilan beriladigan va retseptsiz beriladigan dori vositalariga bo'linadi. Bu «Odam uchun dori vositalarining kategoriyasini aniqlash haqida»gi Yevropa ittifoqi tomonidan 1992-yil 31-martda qabul qilingan Kengash dasturida

aniqlangan. Dasturda dorixonalardan faqat maxsus retsept bo'yicha berilishi kerak bo'lgan vositalar ham ajratib ko'rsatilgan.



1- sxema. Klinik-farmakologik ko'rsatkichlar va ta'sir mexanizimiga muvofiq turkumlash misoli (— dori vositasining xalqaro nomi; \*dori vositasining savdo nomi).

### 3.2. ATS (ANATOMICAL THERAPEUTIC CHEMICAL CLASSIFICATION SYSTEM) TURKUMLANISH TIZIMI

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) turli davlatlar shifokorlariga, farmatsevtlarga amaliy faoliyat uchun dori vositalarining ATS turkumlanish tizimini tavsiya etadi.

Ushbu tizim bozorni marketingli izlanishida, dori vositalari ehtiyoji va iste'moli tahlilida, reklama hamda boshqa jarayonlarda qo'llanilishi mumkin. ATS turkumlanish tizimini JSST tomonidan 1996-yildan tavsiya qilingan xalqaro standart deb ko'rilishi mumkin.

ATS turkumlanish tizimi — bu dori vositalarini ma'lum anatomik organ yoki sistemaga hamda ularning kimyoviy, farmakologik va terapevtik xususiyatlariga qarab guruhlariga bo'lishga asoslangan. Shunday qilib, ushbu turkumlanish bir nechta darajaga ega bo'lib, har bir dori vositasiga ATSning ma'lum guruhiga mansublik kodi beriladi.

Vositalar 5 ta turli darajali guruhlariga turkumlanadi.

**1- daraja** — lotin harflari bilan belgilangan **14 ta asosiy anatomik guruhlar**. Dori vositasi kodida quyidagi harf birinchi bo'lib joylashgan:

**A** — Ovqat hazm qilish sistemasi va metabolizm jarayoniga ta'sir qiluvchi vositalar.

**B** — Qon sistemasi va gemopoezga ta'sir etuvchi vositalar.

**C** — Yurak qon tomirlariga ta'sir etuvchi vositalar va boshqalar.

**2-daraja** — **asosiy terapevtik (farmakologik) guruh**, bunda vositalar asosiy terapevtik natija yoki farmakologik xususiyatiga qarab bo'linadi. Kodda ikkita arab raqamlari bilan belgilanadi, 01 dan boshlab:

**A** — Ovqat hazm qilish sistemasi va metabolizmga ta'sir qiluvchi vositalar.

**A01** — Stomatologiyada foydalaniladigan vositalar.

**A02** — Antatsidli, oshqozon yarasiga qarshi va vetrogen vositalar hamda boshqalar.

**3-daraja** — **kichik terapevtik (farmakologik) guruh**, kodda bitta lotin harfi bilan belgilanadi.

**A** — Ovqat hazm qilish sistemasi va metabolizmga ta'sir qiluvchi vositalar.

A02 — Antatsidli, oshqozon yarasiga qarshi va vetrogen vositalar.

A02A — Antatsidlar.

**4-daraja — terapevtik (farmakologik) kimyoviy kichik guruhni** ifodalaydi. Kodda bitta lotin harfi bilan belgilanadi.

A — Ovqat hazm qilish sistemasiga va metabolizmga ta'sir qiluvchi vositalar.

A02 — Antatsidli, oshqozon yarasiga qarshi va vetrogen vositalar.

A02A — Antatsidlar.

A02AV — Aluminiy birikmalari.

**5-daraja — kimyoviy substansiya (terapevtik faol vositaning xalqaro patentlanmagan nomi).** Kodda 01 dan boshlangan ikkita arab raqamlari bilan belgilanadi.

A — Ovqat hazm qilish sistemasi va metabolizmga ta'sir qiluvchi vositalar.

A02 — Antatsidli, oshqozon yarasiga qarshi va vetrogen vositalar.

A02A — Antatsidlar.

A02AV — Aluminiy birikmalari.

A02AV02 — Algeldratum

RIVO Aluminiy gidroksid — 500

«Rivopharm»

A02AV04 — Carbaldratum

Alugastrin «Polfa» va boshqalar.

#### **ATS KODI QUYIDAGI VOSITALARGA BERILMAYDI:**

— kombinatsiyalashtirilgan vositalarga (belgilangan kombinatsiyali faol moddalar turli davlatlarda keng qo'llaniladiganlari bundan istisno; masalan, diuretiklar va  $\beta$ -adrenoretseptorli blokatorlar);

— Litsenziyalashga so'rov berilgunga qadar (rasmiy ro'yxatga olinmagan) yangi substansiyalarga;

— Yordamchi vositalarga va xalq tabobati vositalariga.

ATS turkumlanish tizimida, agar vosita turli dori shakllarida chiqarilmasa va turli ta'sir kuchiga ega bo'lmasa hamda turli tarkibli va iste'mol qilish uchun ko'rsatmalar har xil bo'lmasa bitta koddan ortiq kodga ega bo'lishi mumkin. Masalan, bir joyga yoki tizimli bir dori vositasi ATSning bir nechta kodlariga ega.

ATS tizimi JSST tomonidan dori vositalarini milliy reestrlarini tuzish uchun tavsiya etiladi. ATSning xalqaro kodlari yilda 2 marta qayta ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Ularni: [www.whooc.umd.mo](http://www.whooc.umd.mo) saytida topish mumkin. Undan tashqari ular «Who Drug», «Information» va «Who Pharmacructical News letter» ham nashr qilinadi.

ATS kodlarining to'liq turkumlanish indeksi dori vositalarining statistik izlanish uslubiyatida hamkorlik bo'yicha JSST markazi tomonidan har yili qayta nashr qilinadi.

### **3.3. OTS — VOSITALAR TIZIMI. RETSEPTSIZ SOTILADIGAN VOSITALARGA QO'YILGAN ASOSIY TALABLAR, ISHLAB CHIQRUVCHI FIRMALARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

OTS vositalar (Over the counten drugs). Shifokor retseptisiz sotiladigan dori vositalar guruhidir. Buyukbritaniyada bunday dorilar ikki kategoriyaga bo'linadi — faqat dorixona orqali sotiladigan («ROM» guruhi — Phrmacy only medicines) va umumiy savdo tarmog'i orqali sotiladiganlar («GLS» guruhi — General sales list, ing).


Retseptisiz sotiladigan vositalar bozori 1970-yillarda AQSH, Buyukbritaniya va boshqa, g'arbiy Yevropa davlatlarida faol rivojlana boshlagan edi. OTS vositalar bozorini vujudga kelishining quyidagi asosiy sabablarini aytib o'tish lozim:

— umumterapevtik tajribada ishlatiladigan vositalarni chiqarilish shakllari va assortimentlarini kengayishi (giyohvand bo'lmagan analgetiklar, yallig'lanishga qarshi nosteroid vositalar, vitaminlar, metabolizm stimullyatorlari, antatsid vositalar va boshqalar);

— tibbiy xizmatlarni, shifokorga tashrifni qimmatlashishi, diagnostika, retseptlarni yozib berishga to'lovlar va boshqalar;

— ijtimoiy umumta'lim darajasini o'sishi va aholining bandligini hamda shaxsiy sog'liqqa bo'lgan mas'uliyatni oshishi.

Turli davlatlarda retseptisiz sotiladigan dorilarga talablar turlicha, ammo ular orasida quyidagi farmakoterapevtik, ma'lumot, iqtisodiy va informatsion talablarni ajratish mumkin (2-sxema):




**2-sxema.** OTS – vositalarga qo'yiladigan talablar.

OTS – vositalar statusi, odatda, qayd etish guvohnomasi (sertifikati) berilayotganda to'la huquqli milliy tashkilotlar tomondan belgilanadi. U yoki bu vositani qo'llashda yangi qo'shimcha ma'lumotlar paydo bo'lganda bu status qayta ko'rib chiqiladi.

OTS – vositasini YeI doirasidagi statusi «Odam uchun dorivor vositalarning kategoriyasini aniqlash haqida» 31-mart 1992-yildan YeI Kengash Direktivasi tomonidan aniqlanadi.

OTS – vositalarining bozori quyidagi ko'rinishda olib beriladi (3 -sxema):





**3-sxema.** Retseptsiz sotiladigan dori vositalarining bozori muomalasi.

OTS — vositalarining bozor tizimida iste'molchiga alohida e'tibor beriladi. Retseptsiz sotiladigan dori vositalari muomalasi quyidagilarga asoslanib bo'linadi:

- shaxsiy sabablar va afzalliklarga ko'ra;
- farmatsevt maslahatlariga ko'ra;
- yaqinlar, do'stlar maslahatlariga ko'ra;
- ommaviy axborot vositalari va reklamaga ko'ra;
- vosita bahosiga ko'ra;
- o'rov materiallarining sifatli bezalganligiga ko'ra va boshqalar.

OTS — vositalar bozori rivojlanishining asosiy shartlariga ishlab chiqaruvchi firmalar va distrebuterlarni ustalik bilan olib borgan farmatsevtik marketingi kiradi.

OTS — vositalarini ishlatishda **ratsional foydalanish javobgarligi asosan iste'molchi zimmasida**. Bunda, farmatsevt qiziqtirilayotgan

dori vositasi haqida albatta to'liq va obyektiv ma'lumot berishi kerak. Bu tadbirda farmatsevtlarning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar keltirilgan:

— Retseptsiz sotiladigan dori bo'yicha to'liq ma'lumot berish, ishlatilishi, xususiyatlari, bo'lishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlar, dori vositalari va oziq-ovqatlarning o'zaro ta'sirlari va boshqalar;

— Ma'lumot beruvchi varaqa (yo'riqnoma) mavjudligini tekshirish, saqlash, ishlatish muddati, vosita o'rov materiallarini butunligi;

— Mijoz talabi bo'yicha dori vositasining xususiyatlari to'g'risida chuqurroq ma'lumot berish;

— Ratsional ishlatish va saqlash sharoitlarini ko'rsatish;

— Iste'molchilar orasida tarqaladigan reklama bukletlarini, prospektlarini, risola, lifletlar bilan tanishtirish va obyektiv xulosa chiqarish.

## **MUSTAQIL DAVOLANISHNING KONSEPSIYA MOHIYATI VA PAYDO BO'LIH IQTISODIY SHART-SHAROITLARI**

Ko'p yillar davomida turli davlatlarda aholining sog'lig'ini saqlash xarajatlarini asosiy qismi majburiy tibbiy sug'urta tizimi orqali moliyalashtirilgan. O'tgan asrning 90-yillariga kelib tibbiy sug'urtani bir qator Davlatlarda milliy tizimlari resurslarni jiddiy yetishmasligini boshdan kechira boshladi.

Bunga asosan quyidagi omillar sabab bo'lgan:

— insonning o'rtacha umrini uzayishi natijada aholi orasida yoshi ulug' odamlarning ko'payishi (ularda esa surunkali kasalliklar ko'p uchraydi va tibbiy yordam xarajatlari katta hajmda ishlatiladi);

— tibbiyot va texnika sohasidagi katta muvaffaqiyatlar natijasida amaliy tibbiyotda tibbiy xizmatlar spektri kengaydi;

— insonlarning hayot tarzi yaxshilanishi va ularning umumta'lim darajasini oshganligi natijasida iste'molchilar o'z sog'lig'iga faol ta'sir ko'rsata boshladilar, profilaktik tadbirlar va vositalarga qiziqish ortib bordi;

— dori vositalari bozorini jadal rivojlanishi.

Sog'liqni saqlash resursini ikki yo'l bilan ko'paytirish

mumkin: ijtimoiy ta'minot budjetini kengaytirish va o'z-o'zini davolashni rag'batlantirish. Birinchi holatda, fuqaro xarajatlari soliqlarini ko'payishi, egiluvchan tizim yo'li bilan kompensatsiya qilinishi mumkin. Ikkinchisida, fuqarolarni sog'liqni saqlash bo'yicha xarajatlarini aksariyat qismini to'g'ridan-to'g'ri o'z hisobidan to'laydi va bunda Sog'liqni ozgina buzilishini, davolash mas'uliyati va javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Yevropa ittifoqiga kirgan davlatlarda muammoning birinchi holati, odatda, kuzatilmaydi, chunki bu davlatlar budjet xarajati me'yorlari muvofiqlashtirilgan (Yevropa ittifoqi haqidagi Bitim, Maastrixt bitimi). Aksariyat davlatlar sog'liqni saqlash resurslarining muomalasi ikkinchi holatga bo'ysunadi. Javobgar mustaqil davolanish konsepsiyani qabul qilinishi Sog'liqni saqlash xarajatlarini ijtimoiy muhofaza darajasida ushlab turishga va insonlarning o'z sog'lig'i haqida o'zlari qayg'urishi imkonini beradi.

Javobgar mustaqil o'z-o'zini davolashda — oson aniqlanadigan simptom va o'zgarishlarni davolash uchun iste'molchi arzon dori vositalarini ishlatadi. Masalan, shamollash, bosh yoki mushak og'rig'i, ovqat hazm qilishni buzilishi, yengil holsizlanish va boshqalar. Amalda o'z-o'zini davolashni oila a'zolariga, tanishlariga keng tarqatishi mumkin. O'z-o'zini davolash shifokor davolashiga muqobil bo'la olmaydi, u o'z chegaralariga ega.

**Erkin sotuvda bo'lmagan dori vositalarni malakali maslahat va nazoratsiz iste'mol qilishda shaxsiy javobgarlikni olish o'z-o'zini davolashga kirmaydi.**

Javobgar o'z-o'zini davolashni o'tkazishda quyidagilarga rioya qilishi zarur:

— retseptsiz sotiladigan dori vositalarini amaliyotga joriy etib tasdiqlangan buyruq va Davlat reestrda mavjudligi;

— retseptsiz sotiladigan dorilar bozori yuqori darajada rivojlangan bo'lishi: assortimentning xilma-xilligi, vositalar to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlardan erkin foydalanish;

— o'ziga tashxis qo'yish qobiliyatga ega bo'lish;

— aholining katta qismini yuqori to'lovga qobiliyatligi.

Javobgar o'z-o'zini davolash konsepsiya asoslari «Mustaqil

davolanish uchun tibbiy mahsulotlar bahosi qo‘llanmasi»da to‘liq yoritilgan.

Bu konsepsiyada xususan quyidagilar keltirilgan:

— Insonlar individual yoki jamoa holda o‘z sog‘lig‘ini saqlash huquqiga ega va bunda shaxsiy sog‘liqni saqlash qoidalariga rioya qilib qatnashishga majburdirlar;

— tibbiy konsultatsiyalar talab qilinmaydigan kasalliklarning simptomlarini tez va samarali bartaraf etish uchun iste‘molchiga barcha sharoitlar yaratib berilishi zarur;

— malakali tibbiy yordam olish qiyin bo‘lgan qishloq joylari va ma‘lum hududlarda aholiga javobgar o‘z-o‘zini davolashda amaliy davolanish yordamini kuchaytirishi kerak.

Retseptsiz sotiladigan dorilar bozori umumiy farmatsevtik bozorning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yirik farmatsevtik kompaniyalar o‘tgan asrning 80-yillarida retseptsiz dorilarni ishlab chiqarishi va savdosiga katta ahamiyat berishmagan, chunki ularning rentabelligi, original va retsept bilan beriladigan dorilar bilan solishtirilganda juda past edi, ammo 90-yillar boshiga kelib, birlamchilik huquqi o‘zgardi va ko‘pgina farmatsevtik firmalar retseptsiz sotiladigan dorilarni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha maxsus konsepsiyalar ishlab chiqdi. Bunga quyidagi omillar asosiy sabab bo‘ldi:

— Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan javobgar o‘z-o‘zini davolashni rag‘batlantirilgani uchun retseptsiz sotiladigan dorilar iste‘molini ko‘payishi;

— retsept bilan sotiladigan dori vositalarini retseptsiz sotish kategoriyasiga aylantirish imkonini o‘sganligi;

— retseptsiz sotiladigan dorilar bahosini qattiq nazorati bo‘lmaganligi (chunki ularni bahosi tibbiyot sug‘urta tizimlari tomonidan qoplanmaydi);

— original dori vositalarning rentabellik darajasini pasayishi;

— original dori vositasi patentli muhofaza muddati tugagandan so‘ng hayotiylik siklini uzayish imkoniyati.

Retseptsiz sotiladigan dori vositalari bozori hajmi turli davlatlarda anchagina farq qiladi. Masalan, 1992-yilda u butun dori vositalarining savdo hajmini 8% dan 17% gacha tashkil etgan.

Ammo 1995-yilda katta uchlik davlatlarida retseptsiz sotiladigan dorilar bozori quyidagicha hajmga ega edi:

Yevropa ittifoqiga kirgan davlatlarda — 10 mlrd. dol. (retseptli dorilar bozorini 11% hajmi).

AQSh — 15 mlrd. dol. (retseptli dorilar bozorining 25% hajmi).

Yaponiya — 7 mlrd. dol. (retseptli dorilar bozorining 15% hajmi).

1987-yildan 1993-yilgacha bozorning bu sektori o'sishni yuqori darajaga ega bo'lgan, 9,9% tashkil qilgan. 1993-yildan 2000-yilgacha retseptsiz sektor bozorining o'sish darajasi ancha pasaydi. Shuning uchun hozir ko'pgina farmatsevtik kompaniyalari bozorning bu sektori uchun yangi vositalar ustida tadqiqot ishlari olib bormoqdalar va rivojlanishning marketing strategiyalari qayta ko'rib chiqilmoqda. Bu tadbirlar iste'molchilarni jalb etish uchun samarali va jadal ta'sir etuvchi omillarga kiradi.

Chet el mutaxassisleri tomonidan o'tkazilgan ko'pgina brend va savdo markalarini o'rganish, shuni ko'rsatdiki, 70% ga yaqin brendlar 10 yildan ortiq, 35% esa — 20 yildan ortiq yoshga ega. Marketing nuqtayi nazardan muvaffaqiyatli retseptsiz sotiladigan dorilar brendlari 50 dan va undan ortiq yoshga ega bo'lishi mumkin. Masalan, «Aspirin», «Bayer» (Germaniya) yoshi 100 yildan ortiq «Smith Kline Beecham» (Buyuk Britaniya) firmasining «Panadol» savdo markasi 50 yilga yaqin.

Retseptsiz dorilarni asosiy ishlab chiqaruvchilari orasida O'zbekiston farmatsevtika bozorida taqdim etilganlaridan quyidagilarni aytib o'tish mumkin: «Bayer» (Germaniya), «Smith Kline Beacham» (Buyuk Britaniya), «Lek» (Slovakiya), «Berlin - Chemie» (Germaniya), «KRKA» (Sloveniya), «Gedeon Richter» (Vengriya), «Egis» (Vengriya), «Rivopharm» (Shveysariya), «UPSA» (Fransiya), «Zentiva» (Slovakiya), «Ajanta», (Hindiston), «Chinoin» (Vengriya), «Poffa» (Polsha), «Pharmachin» (Bolgariya), «Unigue» (Hindiston), «Galena» (Chexiya), «Richard Bittner» (Avstriya), «Ratiopharm» (Germaniya) va boshqalar.

— 2000-yildan boshlab retseptsiz sotiladigan dorilarning dunyo bozori barqarorlashdi va savdo hajmini o'sishiga ega bo'ldi.

### 3.4. DORI VOSITALARINI RETSEPTSIZ BERISH VA DORIXONA ASSORTIMENTI

Shifokor retseptisiz beriladigan dori vositalari dorixona chakana savdosining asosi hisoblanadi. Masalan, retseptisiz sotiladigan dori va boshqa mahsulotlar dorixona aylanmasining 50—60%ini tashkil etadi. Boshqa davlatlar kabi O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda retseptisiz dori vositalarini sotish hajmi tobora ortib bormoqda. Bunga quyidagi omillar ta’sir qilmoqda:

- dori vositalarining assortimentini ortib borishi;
- aholining bilim darajasi va saviyasini o‘sishi;
- o‘zini va oila a’zolarining sog‘lig‘iga e’tiborli bo‘lish;
- sog‘lom turmush tarziga intilish.

Retseptisiz dorilarni berish (dunyo bo‘yicha atama qabul qilingan over the counter drug — OTC—drug) dorixona asosini tashkil etadi. Sog‘liqni saqlash tizimida davlatning olib borgan siyosati, har bir odamning dori vositalarini tanlab olish huquqi, sog‘lig‘iga bo‘lgan javobgarligi dorixonadagi bu yo‘nalishning ahamiyatini tobora oshirmoqda. Rivojlangan davlatlarda kasallikka chalingan odamlar zamonaviy dori vositalari, biologik faol moddalar va boshqa usullar yordamida o‘z-o‘zini davolash bilan shug‘ullanib, shu omillar ta’sirida bir qator mamlakatlarda o‘z-o‘zini davolash «javobgarligi» konsepsiyasi Sog‘liqni saqlash ishlarini davlat siyosati miqyosida olib borilmoqda.

Yevropa ittifoqiga kirgan davlatlarda o‘zini davolash deganda o‘zlari belgilagan asoratlar va xatoliklarni dori vositalari yordamida davolash tushuniladi. Amaliyotda esa bu bir oila a’zosi tomonidan ikkinchi a’zosini davolashdir.

Retseptisiz beriladigan dori vositalarini ratsional qo‘llanilishi o‘z-o‘zini davolash javobgarligida quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- shifokor retsepti talab etilmaydigan dori vositasini olish tartibini aniqlash;
- iste’molchining ko‘proq ma’lumot olishi uchun o‘zgacha usullarni ishlab chiqish;

— retseptsiz beriladigan dori vositalari reklamasiga bo‘lgan talablarni ishlab chiqish;

— mustaqil ta‘lim olish;

— qayd qilish tartibi.

Dunyo amaliyotida shifokor retseptsiz olingan, nojo‘ya ta‘siri juda kam bo‘lgan dori vositalarning hammasi «Uy aptekasi» nomini olgan. Dorixona shahobchalarida faqat retseptsiz sotiladigan dorilar va ayrim parafarmatsevtik turdagi mahsulotlarning savdosini amalga oshirish ko‘zda tutiladi.

Retseptsiz dori vositalarining savdosi, odatda, dorixonada alohida bo‘lim tashkil etib olib boriladi. Bu bo‘lim savdo zalida joylashadi va jihozlanishi sanitariya hamda texnik me‘yorlarga mos bo‘lishi kerak. Dorixona assortimentini yaqqol ko‘rsatish va reklama qilish uchun savdo zalida alohida vitrinali stol ochish mumkin.

Bo‘limni farmatsevt boshqaradi, bo‘limda oliy va o‘rta maxsus ma‘lumotli farmatsevtlar ishlaydi.

**Tibbiy buyumlar ham dorixona assortimentida muhim o‘rin tutadi:**

**Bog‘lov materiallari.** Bog‘lov materiallarining asosiy funksional ahamiyati yaraning ikkilamchi infeksiyadan himoya qilish, tezroq bitib ketishi uchun sharoit yaratishdir. Asosiy bog‘lov materiallariga doka, dokali bint va paxta kiradi.

**Tibbiyot dokasi** — noyob to‘rsimon gazlama bo‘lib, ikki turi chiqariladi: gigroskopik va tarang oqartirilgan. Doka toza paxta, qog‘oz tolali va sirg‘aluvchi tolali (50% yoki 30%) bo‘ladi.

**Dokali tibbiyot binti** — fiksasiya va qo‘yish uchun yana bog‘lov materiallarini tayyorlash uchun ishlatiladi. Bintlar steril va nosteril bo‘ladi. Steril bintlarning eni 5, 7, 10, 14 va 16 sm li va uzunligi 2, 5, 7 va 10 m, nosteril bintlarning eni 3 dan 16 sm gacha va uzunligi 2 dan 10 m gacha bo‘ladi. Bintlarda chok bo‘lmasligi kerak.

Bint qadog‘idagi markirovkasi: ishlab chiqargan muassasa nomi, bint turi va hajmlari, standart ko‘rsatkichlari (GOST), steril yoki nosterilligi, chiqarilgan vaqti. Steril bintlarda sterilizatsiya muddati (yaroqlilik muddati) va qadoqni ochish tartibi ko‘rsatiladi.

**Tibbiyot paxtasi** — maqsadga ko‘ra gigroskopik va kompressli bo‘ladi. Kompressli paxtaga suv kam singadi, u shinalarni

qo'yishda, isitiladigan kompresslarda ishlatiladi. Gigroskopik tibbiyot paxtasi 3 turga bo'linadi: ko'z, jarrohlik va gigiyenik. Gigroskopik paxta bog'lovlari uchun ishlatiladi. Paxta steril yoki nosteril bo'ladi, rulonlarda 25, 50, 100 va 250 g dan va KIP holida 20, 30, 40, 50 kg dan chiqariladi. Nosteril paxta ruloni oddiy qog'oz yoki polietilen bilan qoplanadi. Steril paxta ruloni 2 qavat — ichki va tashqi bo'ladi.

Har bir o'ramdagi paxtaning markirovkasi bo'lishi shart. Unda ishlab chiqaruvchi nomi, tovar belgisi, paxta turi, massasi, steril yoki nosterilligi, ishlangan yili, standart ko'rsatkichi (GOST) ko'rsatiladi.

Doka, dokali bint va paxta asosida: tibbiyot bog'lov paketlari, steril tibbiyot bog'lovlari, salftokalar, tibbiyot dokali bo'laklar va boshqalar ishlatiladi.

Tibbiyot trubkasimon dokasi trikotaj yengdan iborat bo'lib, tarang sirg'aluvchi boylamdan iborat. Elastikli trubkasimon tibbiyot dokalari — to'rtli tuzilishga ega va elastomerli ipdan ishlanadi. Eniga nisbatan 7 xil o'lchami bor: 10, 20, 25, 30, 35, 40, 75 mm.

### **Kasallarni parvarish qilishda ishlatiladigan buyumlar**

Ular quyidagi vositalar kiradi:

1. Rezinali greklalar, esmarx krujkasi, kompressli klyonkalar, belbog'lar, bandajlar, tibbiyot bankalari, ko'zni yuvish uchun vannalar va boshqalar.

2. Yotib qolgan kasallarning hojati uchun zarur buyumlar.

3. Kasalning shaxsiy gigiyenasi uchun zarur buyumlar (matraslar, prostinalar, rezina matoli buyumlar).

4. Dori vositasini qabul qilish uchun idishlar.

### **Parafarmatsevtik vositalar**

**Gigiyena va kosmetika vositalari.** Bu guruhga: atir sovun, pasta va tish kukunlari, suyuq parfyumeriya vositalari, kosmetik kremlar va boshqa tovarlar kiradi.

**Atir sovun** — yog' kislotalarining natriyli tuzlaridan iborat, bo'yovchi moddalar qo'shilgan, oqartiriladigan va hid beruvchi moddalar, plastifikator, antioksidantlar va boshqa komponentdan iborat sovunlar: ekstra, bolalar uchun, I, II turlari bor. Atir sovun qobiq yoki qobiqsiz 300 g gacha qadoqlanadi. 300 g gacha bo'lgan



sovunda faqat ishlab chiqargan muassasa tovar belgisi qo'yiladi. Atir sovun quruq, yopiq va yaxshi shamollaydigan joylarda 20°C dan past va 75% havo namligidan yuqori bo'lmagan joylarda saqlanadi.

**Tish pastalari va kukunlari.** Tish pastasi deb, gel hosil qiluvchi va yuza moddalarning suv-glitserin eritmasidagi suspenziyasiga aytiladi. Gigiyenik va davolovchi — profilaktik turlari bor. Pastalaming tagi yopishgan plastmassa qopqoq bilan yopiladigan idishlarga qadoqlanadi. Ko'rsatilgan tartibda tasdiqlangan forma, hajm va ustki tomoni ko'rinishi berilgan namuna hamda chizmalarga mos bo'lishi kerak. Pastalar futlyarda va futlyarsiz chiqariladi.

*Tish kukuni* deb, faol qo'shimchalar yoki qo'shimchasiz bo'lgan kimyoviy cho'ktirilgan cho'kmaga aytiladi. Yoqimli ta'm beruvchi aromatizatorlari bor (masalan: yalpiz yoki anis, mentol ta'mi). Tish pastasi va kukuni qadoqlangan idishda: turi, tovar belgisi, ishlab chiqargan korxonasi nomi va joylashgan joyi, ishlab chiqargan vaqti, standart ko'rsatkichi, standart belgisi (GOST) ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Saqlanadigan joyda havo namligi 70% dan ortmasligi, temperatura 0°C dan past +25°C dan yuqori bo'lmasligi kerak. Tish kukuniga quyosh nurlari tushmasligi kerak, odatda, ularning saqlanish muddati chiqarilgan kundan boshlab 12 oy belgilanadi.

Suyuq parfyumeriya vositalariga odekolon, atir, spirtli yoki suv — spirtli eritmalar bilan parfyumer — kompozitsiyadan iborat. Flakon yoki probirkalarda chiqariladi. Ularni qadoqlash jarayonida yorlig'ida tovar belgisi, ishlab chiqargan korxonasi nomi va joylashgan joyi, mahsulot turi, hajmi, standart ko'rsatkichi ko'rsatiladi.

Atirlar yaxshi shamollatuvchi uskunalari bo'lgan joylarda saqlanadi. Saqlanish muddati chiqarilgan kundan boshlab odekolon, atir, tualet suvlari uchun 12 oy.

**Kosmetik kremlar** — terini parvarishlash uchun ishlatiladi, ular yog'li yoki emulsion bo'ladi. Emulsion kremlar suv/yog', yog'/suv tipdagi yoki aralashgan tipdagi bo'lib, qo'yilishiga qarab: suyuq va quyuc bo'ladi. Saqlanish sharoiti: namlik 70% dan kam,

temperaturasi  $+5^{\circ}\text{C}$  dan past va  $+20^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'lmashligi kerak. Suv/yog' tipidagi emulsion kremlar saqlanish jarayonida tabiiy yog'lar 50% dan ko'p bo'lganligi sababli ustida yuqqa kislotali qatlam paydo bo'lishi mumkin. Kosmetik kremlarning saqlanish muddati — 12 oy, suyuq kremlar va biokremlar uchun — 6 oy.

**Mineral suvlar** deb, tarkibida noorganik mineral tuzlar va ionlar bo'lib, odam organizmiga shifobaxsh xususiyati bo'lgan, ion bo'lib, gaz bilan boyitilgan, biologik faol, spesifik xususiyatlari mavjud bo'lgan tabiiy suvga aytiladi. Minerallashtirish darajasiga qarab (1 dan 10 g/l) va (10 dan 15 g/l) ga bo'linadi. Faol komponentlar saqlanishiga qarab suvlar: uglerod saqlovchi («Borjomi», «Narzan», «Yessentuki»), temir moddali («Arman»), mishiqli («Vayxir»), borli («Lazarevskaya»), kremniyli («Djava»), bromli («Yurmala»), organik moddalar saqlovchi («Naftusya») turlari mavjud.

Mineral suv idishlarining markirovkasida: ishlab chiqargan korxonasi nomi, uning tovar belgisi, suv turi, uning guruhi, buloq nomi yoki nomlanishi, minerallashtirish (g/l), ishlatilishi, qo'yilgan vaqti, saqlanish muddati, standart ko'rsatkichi ko'rsatiladi.

Mineral suv idishi gorizontaal yoki vertikal ravishda saqlanadi. Saqlanish tartibi tiqin tagidagi materialga nisbatan olinadi. Agar aniq kesilgan tiqindan iborat bo'lsa, yashiklarda gorizontaal holda 18 qator balandlikdan ko'p bo'lmagan holda, vertikal sharoitda ishlab chiqarilgan korxonada 5 kundan ortiq saqlanmaydi.

Kronen tiqinli idishlarda ham gorizontaal, ham vertikal ravishda saqlanadi. Mineral suvlar butilkalarda yaxshi shamollaydigan joylarda, namlik saqlanmaydigan, temperatura  $+5^{\circ}\text{C}$  dan  $20^{\circ}\text{C}$  gacha. Qo'yilgan kundan boshlab temirli yaroqlik muddati mineral suvlarga 4 oy, boshqa suvlar uchun 1 yil.

**Ko'zoynakli optika buyumlari.** Asosiy ko'z korreksiyasi va himoyasi uchun qo'llaniladigan vositalar ko'zoynaklar hisoblanadi. Davlat standartiga binoan 4 ta asosiy ko'zoynakli linzalari turi mavjud: A — afokal, O — bir fokalli, B — bifokal, T — trifokal.

**Afokal** linzalari tasvirni ikkilamchi tarzda ko'rsatmaydi, g'illaylik asorati mavjud holda foydalaniladi.

**Bir fokal** — bir fokalli linzalar miopiyada, gipermetropiyada, astigmatizmida, anizotropiyada ko‘z refraksiyasi buzilganda ishlatiladi. Konkar nomli qaytaruvchi linzalar miopiyada ishlatiladi. Gipermetropiyada musbat yig‘uvchi konvenks nomli linzalar ishlatiladi.

**Bifokal linzalar** deb, yuqori qismi boshqa, pastki qismi boshqa refraksiyaga ega bo‘lgan linzalarga aytiladi. Yuqori qismi (asosiy linza) uzoqni ko‘rish uchun, pastki (qo‘shimcha linza) yaqinni ko‘rish va o‘qish uchun mo‘ljallangan.

**Trifokal linzalar** kuchli presbiopiyada (qarilikdagi uzoqni ko‘rmaslik) ishlatiladi.

Ko‘zoynaklar turli qirrasiz shaklda ishlanadi. Har bir linzada optik markazi qora o‘chib ketadigan nuqta bilan belgilanadi va belgisi refraksiya kattaligi yorliqda yopishtirilgan bo‘ladi.

Amaliyotda quyidagi turdagi kontakt linzalar bor:

- gaz o‘tkazuvchi va o‘tkazmaydigan qattiq linzalar;
- gaz o‘tkazuvchi gidrofil, elastik yumshoq linzalar;
- yuqoridagi 2 turdagi linzalarning o‘rtasidagi egiluvchan linzalar;

- UF — nurlanishdan saqlovchi yumshoq linzalar.

Kontakt linzalar bevosita ko‘zga taqilgani uchun alohida talab va parvarishga ega. Quyidagi guruh vositalari parvarishlash uchun qo‘llaniladi:

- linzalarni tozalash uchun eritmalar;
- dezinfeksiya sistemasi (issiqlik ta‘siri, peroksidli, kimyoviy);
- kontakt linzalar taquvchilar uchun ko‘z tomchilari;
- saqlanish muddati 2 yil bo‘lgan linzalarni xona haroratida saqlash uchun eritmalar.

### **3.5. XALQARO AMALIYOTDA FARMATSEVTIK VASIYLIK**

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 90-yillar boshida Sog‘liqni saqlashning milliy tizimini rivojlantirishda yangi strategik yo‘nalishni aniqladi. Bu har bir bemorga sifatli tibbiy va farmatsevtik vasiylik (yordam, muhofaza) ko‘rsatish.

**Farmatsevtik vasiylik** — aholi kasalligining oldini olish va sog'ligini ta'minlash bo'yicha farmatsevt va shifokorni faol ishga jalb qilish. U aniq bemor oldida dori vositasini sotilishidan boshlab to uning oxirgi ta'sirigacha davolanish natijalarida farmatsevt faol ishtiroki va nazoratini ta'minlaydi.

Sifatli farmatsevtik vasiylikni o'tkazish uchun quyidagi sharoitlar zarur:

**Birinchidan**, farmatsevtlar farmakologiya, patofiziologiya, biokimyo, farmakokinetika va keng tarqalgan kasalliklarni davolash sxemasi farmakodinamikasidan yetarli bilimga ega bo'lishlari kerak.

**Ikkinchidan**, farmatsevtik bozorga tushadigan ma'lumotlarning to'g'riligini nazorat qilish tizimi mavjudligi.

**Uchinchidan** dori vositalari va uni nojo'ya ta'sirlari bo'yicha to'liq hajmda va professional bilimga ega bo'lishlari kerak.

**To'rtinchidan**, kompaniya vakillari, shifokorlar, dorixonaga keluvchi bemorlar bilan muloqotda farmatsevt professional axloq va etika, deontologiya me'yorlariga rioya qilishi zarur.

Farmatsevtik vasiylik o'z ichiga quyidagilarni oladi:

— optimal dori shakllari va dori vositalarining iste'mol yo'llarini tanlash;

— turli dori vositalarini bir vaqtda ishlatish qoidalarini tushuntirish;

— individual dozalash xususiyatlarini aniqlash;

— dori vositasi va oziq-ovqatni o'zaro ta'sirini tushuntirish;

— dori vositani qabul qilishda kerakli vaqtni to'g'ri aniqlash;

— inson organlari funksiyasiga dorilarni nojo'ya ta'sirini ko'rsatish;

— vositalarni saqlash bo'yicha tegishli amaliy yordam ko'rsatish;

— retseptsiz sotiladigan dorilar mavjud bo'lmaganda o'xshash dorilar bilan almashtirish;

— iste'molchilarga retseptsiz sotiladigan dorilarning zamonaviy ro'yxati, narxi, ishlab chiqaruvchi firma va boshqalar haqida ma'lumotlar berish.

Farmatsevtik vasiylik milliy Sog'liqni saqlash tizimini

takomillashtirish sharoitlarida javobgar mustaqil o‘z-o‘zini davolanish konsepsiyasini normal rivojlanishida muhim sharoitlaridan hisoblanadi.

### **3.6. FARMATSEVTIK TOVARLARNI SHTRIXLI KODLASH TIZIMI**

Ko‘pchilik rivojlangan davlatlarda dori vositalari va boshqa tibbiy buyumlar uchun ko‘pincha shtrixli identifikatsiyalarning milliy tizimlari joriy qilingan, ammo farmatsevtik tovarlarni shtrixli kodlanishi umuman ishlatilmaydigan yoki tavsiyaviy xarakterga ega davlatlar salmog‘i ham yetarli.

Shtrixli kodlash tovarning narxi, saqlash muddati va boshqa zarur ma‘lumotlarni olish uchun qo‘llaniladi. Shtrixli kodlashlar savdoni avtomatlashtirilgan tizimlarida qo‘llaniladi. Dori vositasi haqida ma‘lumot va saqlash uchun elektron holatda kod qo‘yiladi. Berilgan kod bo‘yicha zarur parametr (narxi, soni, yetkazib beruvchi, qadoqlash turi, saqlash muddati va boshqa)lar haqida kerakli ma‘lumot olinadi. Odatda, bu kodlar maxsus qoidalar bo‘yicha dori ishlab chiqaruvchi tomonidan qo‘yiladi va mas‘ul organ tomonidan ro‘yxatga olinadi. Bu qoidalar mahsulotlarni tovarli nomerlashni Xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tasdiqlangan.

EAN qoidalariga ko‘ra kodlash ma‘lumotlari turli shakldagi shtrixlar va oq yo‘llarni tushirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Shtrix kod 1-rasmda ko‘rsatilgan. Tovar kodi haqidagi ma‘lumotlar savdo tarmog‘iga avtomatlashtirish yo‘li bilan kiritiladi. SSD skaner tomonidan o‘qiladi.

Ishlab chiqaruvchi firmalardan tashqari ayrim hollarda tovarlarni shtrixkodlar bilan distributerlar, dorixonalar ham markalaydi.

Dorixonalar faoliyatida shtrixli kodlash tizimini joriy etilishi dori vositalari va tibbiy buyumlarni qalbakilashtirish hollarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Ba'zi davlatlar mahsulotlarini shtrixli kodlari

№	Kod	Davlat	№	Kod	Davlat
1	93	Avstraliya	21	87	Niderlandiya
2	90—91	Avstriya	22	70	Norvegiya
3	54	Belgiya	23	560	Portugaliya
4	789	Braziliya	24	590	Polsha
5	50	Buyuk Britaniya	25	888	Singapur
6	380	Bolgariya	26	383	Sloveniya
7	599	Vengriya	27	858	Slovakiya
8	400—440	Germaniya	28	460—485	MDH mamlakatlari
9	489	Gonkong	29	00—09	AQSH, Kanada
10	520	Gretsiya	30	729	Tailand
11	57	Daniya	31	869	Turkiya
12	690	Xitoy	32	471	Tayvan
13	385	Xorvatiya	33	64	Finlandiya
14	539	Irlandiya	34	30—37	Fransiya
15	729	Isroil	35	859	Chexiya
16	569	Islandiya	36	76	Shveysariya
17	84	Ispaniya	37	73	Shvesiya
18	80—83	Italiya	38	600; 601	YUAR
19	890	Hindiston	39	860	Yugoslaviya
20	880	Koreya	40	45;49	Yaponiya

### Shtrix kod EAN — 13

482	3540	1	8	4	7	9	7	>
Davlat kodi —	Korxonalar nomeri —	Tovar nomi —	Iste'molchilar xususiyatlari —	Hajm, massa —	Ingrediyentlari —	Rang —	Nazorat soni —	Litsenziya bo'yicha tayyorlangan tovar belgisi —

**1- rasm.** Shtrix kodlarning struktura va misollari.

## **Farmatsevtika mahsulotlarini markalash**

Farmatsevtika mahsulotlarini markalash qoidalarini Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi vakolatli organi dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi belgilaydi. Yevropa ittifoqiga kirgan davlatlarda esa markalash qoidalarini 1992-yilda qabul qilingan 92/27/YeYeI Direktiva tomonidan aniqlanadi. U har bir vositada barcha zarur ma'lumotlar bo'lgan annotatsiya — qo'shimcha qilinadigan varaqa bo'lishini belgilaydi. Bu ma'lumot ustki yorliqda berilsa, bunday holda annotatsiya zarur emas. Annotatsiya iste'molchi uchun tushunarli tilda vositani qisqacha xarakteristikasi asosida tuziladi. U quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak:

- vositaning savdo va xalqaro nomi;
- ishlab chiqaruvchi firma nomi;
- tarkibi, ishlab chiqarish shakli, dori vositasi dozasi (yordamchi moddalarning nomi ham yoziladi);
- qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar;
- qo'llash usuli, dozasi;
- to'g'ri kelmaslik shartlari;
- qo'llashda ogoh bo'lishlik;
- ovqat, spirtli ichimliklar va boshqa dorilar bilan o'zaro ta'siri;
- dozasi oshib ketganda, bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar;
- vositani saqlash qoidasi va uning yaroqsizligini aniqlash.

Ikkilamchi o'ramda u yo'q bo'lsa, birlamchi o'ramda quyidagilar aniq va ravshan yozilgan bo'lishi kerak:

- vositaning savdo va xalqaro nomi;
- tarkibi, dozasi, faol ingrediyentlar va yordamchi moddalar bo'yicha ma'lumot bilan vositaning chiqarilish shakli;
- qo'llash usuli;
- maxsus ko'rsatkichlari;
- qo'llash muddati (oy, yil);
- maxsus saqlash sharoitlari;
- dori vositasini savdo litsenziyasi egasi, manzili va nomi;
- savdo litsenziya nomeri;
- dori vositasini ishlab chiqarish seriyasi, nomeri.

Bunda OTS vositalari uchun ishlatish ko'rsatmalari ham bo'lishi kerak.

## 4-BOB. DORIXONALARDA RETSEPTLARNI QABUL QILISH VA ULAR ASOSIDA DORI VOSITALARINI BERISH

### 4.1. RETSEPT VA UNING FUNKSIYALARI, RETSEPT TURLARI

Yevropa ittifoqi direktiva maslahatiga muvofiq 31-mart 1992-yildan «Odam uchun dori vositalari kategoriyasini aniqlash haqida» (92/26/YeI) da «Retsept» — dori vositasiga yozma buyruq, uni huquqli mutaxassis yozib beradi, degan aniqlik kiritilgan

Faqat retsept bo'yicha qo'yiladigan dori vositalari uchun alohida kichik guruhlar belgilanadi:

— bir martalik yoki ko'p martalik retseptlar bo'yicha qo'yiladigan dori vositalari;

— maxsus retsept bo'yicha sotiladigan dori vositalari;

— retsept bo'yicha va ishlatishda cheklanishga ega bo'lgan dori vositalari.

**Faqat retsept bo'yicha** dori vositalari quyidagi hollarda sotilishi mumkin:

— agar iste'molchini sog'lig'iga xavf yetadigan (dorini to'g'ri ishlatsa ham) va tibbiy ko'rigi bo'lmaganda;

— agar ko'pchilik iste'molchilarning dori vositasini noto'g'ri iste'mol qilishi natijasida ularning sog'lig'iga zarar yetadigan bo'lganda;

— agar dori vositasida keyinchalik izlanishni talab qiluvchi moddalar, zararli ta'sirlar bo'lganda;

— agar vosita parenteral qo'llash uchun bo'lganda.

**Maxsus retsept bo'yicha** sotiladigan dori vositalari:

— Xalqaro konvensiya va vakolatli milliy tizim tomonidan psixotrop yoki giyohvandlik vositasi sifatida aniqlanadigan moddalar;

— Noto'g'ri ishlatilganda (suiste'mol qilish, o'rganish, noqonuniy maqsadlarda qo'llash) xavf-xatar tug'diradigan dori vositalari;



— Yangiligi natijasida yoki farmakologik xususiyatlari tufayli ehtiyotlik yuzasidan bu guruhga ajratish mumkin bo‘lgan moddalar.

Retsept bo‘yicha sotiladigan va cheklangan doirada ishlatiladigan dori vositalari:

— farmakologik xususiyatlari, yangiligi uchun va aholining sog‘lig‘ini saqlanishi natijasida faqat statsionar sharoitlarda ishlatiladi;

— statsionar sharoitda qo‘yilgan tashxisni davolash uchun foydalanadi, lekin boshqa sharoitlarda ham nazorat ostida bu dori vositasini qabul qilish mumkin;

— ambulatoriya sharoitida davolanish uchun mo‘ljallangan, lekin uni ishlatishda jiddiy qo‘shimcha ta’sirlarga olib kelish ehtimoli bo‘lgani uchun retsept mutaxassis tomonidan yozilib, doimiy tibbiy nazoratda bo‘lishi kerak.

### **Retsept funksiyalari:**

**Tibbiyot** — tibbiyot nuqtayi nazaridan — retsept — bemorning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda doza va tarkibi shifokor tomondan belgilangan dori vositalarni sotib olish va qo‘llash uchun ishlatiladigan asosiy hujjat.

**Yuridik** — yuridik hujjat bo‘lib, yozilish sanasi ko‘rsatiladi, bemor va shifokor familiyasi, dorining farmakologik xususiyatlarini hisobga olgan holda retsept blankasi ishlatiladi, bunda retsept yozadigan va ular bo‘yicha dori tayyorlaydigan shaxslar yuridik javobgarlikka ega;

**Texnologik** — texnologik nuqtayi nazardan retsept — farmatsevtga dori tayyorlashda ko‘rsatma va asos bo‘lib xizmat qiladi, qanday dori vositalaridan foydalanish va qanday dori shaklga keltirishni ko‘rsatadi.

**Iqtisodiy** — iqtisodiy hujjat bo‘lib, dori va yordamchi moddalarni sarflash uchun, tarif hamda narxni aniqlash uchun hujjat hisoblanadi.

**Ijtimoiy** — turli ijtimoiy-iqtisodiy imtiyoz maqomiga ega insonlarga malakali dori vositalar yordami ko‘rsatish uchun kafolat beradi.

## RETSEPT YOZISHNING UMUMIY QOIDALARI

**Davolash** — profilaktika muassasasi shifokorlari mavjud ko‘rsatmalarga muvofiq bemorga dori vositalariga retsept yozib, uni shaxsiy muhr bilan tasdiqlashlari kerak. Retsept blankalarining shakli ilovalarda berilgan.

Retseptlar bosmaxona yo‘li bilan chop etilgan retsept blankasiga dori vositasining qo‘llash shakli, bemorning yoshi ko‘rsatiladi. Barcha retseptlar aniq va ravshan to‘ldirilishi lozim. Retseptda tuzatishlar mumkin emas. Dori vositasining tarkibi, dori shakli, dorini tayyorlash usuli, bemorga sotish uchun shifokor farmatsevt ko‘rsatmasi lotin tilida yoziladi.

Lotin qisqartmalarni ishlatish faqat tibbiyot va farmatsevtikada umumiy qabul qilingan qisqartmalar bo‘lishi mumkin. Ingrediyentlarga yaqin bo‘lgan qisqartmalarni ishlatish mumkin emas, chunki ular qanday dori vositasi yozilganligini aniqlashda adashtiradi. Zaharli ta’sir etuvchi dorilar va giyohvandlik vositalari retsept boshida, so‘ng qolganlari yoziladi. Dorini iste‘mol qilish yo‘li, dozasi ko‘rsatilgan, ichish vaqti (ovqatdan oldin yoki keyin) va uni muddati davlat tilida yoziladi. Umumiy ko‘rsatmalar bilan cheklanish man etiladi.

Ambulatoriya sharoitida davolanishga muhtoj, shuningdek, statsionar sharoitda davolanib, ambulatoriya sharoitida davolanishni davom ettiradigan bemorlar uchun zarur dori vositalariga retsept yozib beriladi.

Quyidagi holatlarda retsept yozib berish taqiqlanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilmagan dori vositalariga;
- kasallik belgilari mavjud bo‘lmaganda;
- faqat davolash-profilaktika muassasasida ishlatiladigan dori vositalari (narkoz uchun efir, xloretil, fentanil, sombrevin, kalipsol, ftorotan, ketamin va boshqalar).

Agar retseptda zaharli, narkotik va boshqa ingrediyentlar qo‘shilmasidagi kuchli ta’sir qiluvchi vositalar yozib berilgan bo‘lsa, ularni tayyorlangan dori tarkibiga kiritmay alohida berish taqiqlanadi.

Pushti rangdagi maxsus retseptura blanklari yozib berilgan narkotik dori-darmon vositalari hududiy davolash-profilaktika

muassasalariga faqat shu maqsadlar uchun birlashtirib qo'yilgan dorixonalardan beriladi. Zaxarli va narkotik dori vositalari berish huquqiga ega bo'lgan dorixona va davolash-profilaktika muassasalarining ro'yxati joylardagi sog'liqni saqlash organlari va «Dori-darmon» hududiy birlashmalari tomonidan belgilanadi.

Etilmorfin gidroklorid, kodein, kodein fosfat va natriy etaminalning boshqa dori-darmon vositalari bilan aralashmasi shahar (shahar yoki qishloq, ma'muriy tuman) doirasida barcha dorixonalar tomonidan o'zlari joylashgan hududdagi davolash-profilaktika muassasalarining retseptlari bo'yicha beriladi.

Bemorga tez zaruriyat bo'yicha dori olish kerak bo'lsa, retseptning yuqori burchagiga «sito» (tez) yoki «statim» (darhol) belgilari qo'yiladi.

Ekstemporal ya'ni, yakka tartibda tayyorlanadigan dorilarga retsept yozilganda suyuq dorilar miqdori millilitrlarda, tomchilarda, qolganlari esa — grammlarda yoziladi.

— Retsept yozilganda shifokor «surunkali bemorga» deb yozib, retseptni ishlatilish muddati va unda dorining sotish vaqti (har hafta, har oy va boshqalar) bo'lishi kerak, ko'rsatma shifokor imzosi va shaxsiy muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

Buzilish, tuzatish va bir-biriga to'g'ri kelmaydigan dori vositalari bilan yozilgan retsept haqiqiy emas deb hisoblanadi va unga dori berilmaydi. Retsept «Retsept haqiqiy emas» yozuvi bilan bekor qilinadi.

### Retseptdagi muhim qisqartmalar

Qisqatirilgan	To'liq yozilishi	Tarjimasi
1	2	3
Aa	Ana	teng
ac. acid	Acidum	kislota
amp.	Ampulla	ampula
aq.	Aqua	suv
aq. bestill.	Aqua destillata	distillangan suv
but.	Butyrum	yog' (qattiq)
comp., cps.	Compositus (a, um)	murakkab
D.	Da (Detur, Dentur)	ber (berilsin)

1	2	3
D.S.	Da, Singa	ber, belgila
D.t.d.	Detur, Signetur Da (Dentur) tales	berilsin (belgilansin) ber (berilsin)
dul.	dilutus	shunday doza
div.in p.aed	divide in partes aequales	suyultirilgan teng qismlarga ajrat
extr.	extractum	ekstrat ajratma
f.	fiat (fiant)	hosil bo'lsin
gtt.	gutta, guttae	tomchi, tomchilar
inf.	infusum	nastoy
in amp.	in ampullis	ampulada
in tabl.	in tab(u)lettis	tabletkada
lin.	linimentum	suyuq surtma
liq.	liquor	suyuqlik
M.pil.	massa pilularum	pilyula massasi
M.	Misce, Misceatur	aralashtir, aralashtirilsin
N.	numero	dona
ol.	oleum	yog' (suyuq)
past.	pasta	pasta
pil.	pilula	pilyula
p.aeq.	partes aequales	teng qismlar
ppt., praec.	praecipitatus	cho'ktirilgan
Pulv.	pulvis	kukun dori
q.s.	quantum satis	kerakli miqdori
r., rad.	radix	ildiz
Rp.:	Recipe	bering
Rep.	Repete, Repetatur	qaytar (qaytarilsin)
rhih.	rhihoma	ildizpoya
S.	Signa, Signetur	belgila, belgilansin
sem.	semen	urug'
simpl.	simplex	oddiy
sir.	sirupus	sirop
sol.	solutio	eritma
supp.	suppositorium	shamcha
tabl.	tab(u)letta	tabletkada
t-ra, tinct.	tintura	nastoyka
ung.	unguentum	surtma dori
vitr.	vitrum	shisha idish

#### **4.2. RETSEPT QABUL QILISH VA DORI VOSITASINI BERISH ISHLARINI TASHKIL QILISH TARTIBI**

Dorixona ishida mas'uliyatli vazifalardan biri retseptlarni qabul qilish va ular bo'yicha dori vositalarini berish hisoblanadi. Bu ishni bajarilishida farmatsevt retsept yozgan shifokor tomonidan qilingan xatolarini aniqlash va farmatsevtik deontologiya negizlari asosida retseptni bajarish maqsadida juda e'tiborli bo'lishi kerak.

Farmatsevt tayyor doriga retsept qabul qilayotganda tegishli barcha ma'lumotlar borligini tekshirib, bemorga saqlashni va uy sharoitida qabul qilish qoidalarini eslatadi.

Farmatsevt ekstemporal dorilarga retsept qabul qilayotganda bemorning yoshini aniqlab, retsept yozilgan sanaga, yozilgan ingrediyentlarning dozasi va to'g'ri kelishiga alohida e'tibor berishi kerak. Bolalarga dori tayyorlayotganda zaharli va maxsus hisobda turuvchi dorilarga ham katta e'tibor beriladi.

Zaharli, giyohvand va etil spirt saqlovchi dori tayyorlayotganda farmatsevt diqqatini jalb etish uchun qizil qalam bilan chiziladi. Agar shifokor yozgan zaharli, giyohvand yoki kuchli ta'sir etuvchi dori dozasi yuqori birlamchi dozadan oshsa, lekin retsept tegishli tarzda yozilmagan bo'lsa, farmatsevt dozirovkani 1/2 dozada to'g'rilab, yuqori birlamchi deb belgilashi kerak.

Farmatsevt giyohvandlik yoki unga teng moddalari bo'lgan retsept qabul qilinayotganida bir martalik sotilishi, bitta retsept bo'yicha beriladigan me'yorini tekshirishi kerak.

Retsept xatolar bilan yozilgan yoki dori vositalari bir-biriga to'g'ri kelmaganda va boshqa xatolari bo'lganda, «retsept bekor qilinadi» degan yozuv bilan bekor qilinib, maxsus jurnalda ro'yxatga olinadi.

Agar shifokor retseptda qilgan xatosi yoki shubhali ma'lumot bo'lsa, farmatsevt shifokor bilan telefon orqali bog'lanib vosita nomini aniqlab, uning dozasini, farmakologik kirishishligini aniqlab, so'ng dorini sotishi mumkin.

Retsept qabul qilish bo'yicha farmatsevt ish joyi bajarilayotgan ishiga muvofiq moslashgan bo'lishi kerak. Retsept tez ishlashi uchun stolda turli xil axborot — ma'lumotli jadvallar bo'lishi kerak: zaharli,

maxsus hisobda turuvchi va kuchli ta'sir etuvchi dorivor moddalar-ning bir martalik hamda sutkalik dozalari, ingrediylarning bir-biriga mosligi, shifokorlar tomonidan tez-tez yoziladigan individual tayyorlanadigan dorilar narxi va boshqalar.

Dorixona muassasalarining asosiy maqsadi aholini sifatli dori vositalari bilan ta'minlashdir. Retseptlarni qabul qilish, shifokor retsepti asosida dori tayyorlash, ularni ichki dorixona nazorati va dorixona muassasalaridan dori vositalarni berish qoidalari keltirilgan. Retseptlarni qabul qilish shifokor retsepti va davolash-profilaktika muassasasi talabnomasi asosida dori tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish va tayyorlangan dorilarni dorixonalarda sotish uchun retseptura ishlab chiqarish bo'limlari tashkil qilinadi. Bo'limlarga bo'lim mudiri va uning o'rinbosarlari rahbarlik qiladi. Retseptura ishlab chiqarish bo'limlarida farmatsevt va farmatsevt assistenti lavozimlari mavjuddir.

Farmatsevt lavozimiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

— qabul qilingan retseptlar asosida individual usulda tayyorlangan dori vositalarining sifatini nazorat qilish, dorilarni sotish va dorixona ichida tayyorlov ishlari bilan shug'ullanish;

— retseptlarni qabul qilish va tayyor dori vositalarini sotish, ichki dorixona uchun tayyorlangan dori vositalari va dorixona uchun tayyorlangan dori vositalarining sifatini to'liq nazorat qilish;

— dorixona rahbariyati dorixonada tushuntirish ishlarini olib borish, farmatsevtlar ishini nazorat qilish, tungi paytlarda ishlash uchun farmatsevt lavozimini ajratishi mumkin.

Farmatsevt ish joyida quyidagi tegishli ma'lumotli adabiyotlar bo'lishi kerak: Davlat farmakopeyasi, bir martalik va sutkalik dozalar jadvallari, adabiyotlar, alohida Sog'liqni saqlash vazirligi buyruqlari, dori vositalariga ma'lumotnomalar, dori vositalari sinonimlari, narx jadvali, ishlab chiqarish tariflari, hisob hujjatlar (kvitansiya, jurnal, noto'g'ri yozilgan retseptni hisoblash uchun jurnal, signaturalar va hokazolar).

Ish joyida retsept qabul qilish va dori berish jarayonida farmatsevt rioya qilishi shart bo'lgan vazifalar:

— «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida», «Giyohvandlik vositasi va psixotrop moddalar to'g'risida» va

boshqa dori vositalari muomalasi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish haqidagi qonunlar va hokazolar;

— giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ro'yxati hamda ularning prekursorlari;

— Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli buyruq va yo'riqnomalari;

— farmatsevtlar etikasi va deontologiya qoidalari.

Hozirgi vaqtda Sog'liqni saqlash tizimining muhim muam-molaridan biri bo'lib, dori vositalaridan ratsional foydalanish hisoblanadi, uning zaruriyati ko'p tomonlardan aniqlanadi:

— chegaralangan budjet mablag'i hisobiga dori vositalari sotib olish;

— dori vositalarini noratsional tayyorlanishi va foydalanishi;

— nostandart, qalbaki dori vositalarini bozorda mavjudligi.

Farmatsevtning ish joyini asbob-uskunalar bilan ta'minlayot-ganida quyidagi qoidalariga rioya qilinishi kerak:

— ish joyida ish davomida kerak bo'lmaydigan narsalar bo'lmasligi;

— har bir predmet doimiy joyiga ega bo'lishi;

— tez-tez ishlatiladigan predmetlar qo'l ostida bo'lishi.

Farmatsevtni charchamasligi uchun quyidagi sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish lozim: temperatura, ish joyini yoritilishi va ventilyatsiyasi.

Giyohvandlik vositalari — misol uchun etilmorfm gidroklorid, kodein, kodeina fosfat, etaminal natriy, barbamil, fepranon va boshqalar toza holda va indifferent moddalar bilan aralashmasida maxsus retsept blankalarida yoziladi. Bunday retseptga muassasa boshlig'i (yoki uning yordamchisi) tomonidan qo'shimcha imzo qo'yiladi va muassasa muhri bilan tasdiqlanadi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar toza holda yoki indifferent qo'shimchalar bilan birga faqat davlat Sog'liqni saqlash muassasa-sida ishlaydigan shifokor tomonidan yozishga ruxsat etiladi.

Agar dori vositasi tarkibiga boshqa dori vositalari bilan aralash-tirib zaharli moddalar qo'shilsa, uyqu, neyroleptik, antidepressiv, anabolik vositalar, steroidli garmonlar, trunkvilizatorlar bo'lsa, to'liq narxiga beriladigan formadagi retsept blankasida yoziladi va

qo‘shimcha Sog‘liqni saqlash muassasa muhri „Retseptlar uchun“ muhri bilan tasdiqlanadi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar faqat bir martalik retsept bo‘yicha beriladi hamda uni tuzatishga ruxsat etilmaydi. Bu vositalarning ro‘yxati va bir retsept uchun dozasi, berish tartibi, saqlash, hisobini olib borish Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan 2001-yil 28-noyabr 527-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

Zaharli yoki kuchli ta’sir etuvchi dorilar uchun retsept yozilganda shifokor dori dozasini yozma ravishda yozishi va undov belgisi qo‘yishi kerak.

Retsept tarkibida zaharli, giyohvand, psixotrop moddalar va prekursorlar bo‘lsa, bunday dorilar retsepti dorixonada qoladi, bemorga signatura beriladi.

Har bir retseptda dori vositalarining tarkibiga qaramay, asosiy majburiy rekvizitlar bo‘lishi shart:

— davolash-profilaktika muassasasining shtampi (nomi, manzili va telefon raqami ko‘rsatilishi);

— retsept yozib berilgan sana;

— kasalning familiyasi, ismi va yoshi;

— shifokor familiyasi, ismi;

— dori vositasining nomlari va soni ;

— dori vositasidan foydalanishning aniq usuli;

— shifokorning shaxsiy muhri va imzosi.

Qo‘shimcha retsept rekvizitlari dori vositasi tarkibidan va retseptura blank formasidan iborat bo‘ladi.

Retseptlar bosmaxona yo‘li bilan chop etilgan blanklarga yoziladi.

Retsept blankasi 3 xil bo‘ladi.

1. Bolalar va kattalar uchun to‘liq narxga dori vositasini sotib olish uchun yoziladigan (birinchi shakl) 1-ilova.

2. Bepul, dorilar yozish uchun va psixotrop xususiyatga ega bo‘lgan dori vositalari uchun (ikkinchi shakl) 2-ilova.

3. Pushti rangli retsept blanki bo‘lib, faqat giyohvandlik vositalari yozish uchun tavsiya etilgan (uchinchi shakl) 3-ilova.

Birinchi shakldagi retsept blankasiga zaharli dori vositalari uxlatuvchi dorilar, neyroleptik, antidepressiv, steroid garmonlar, trankvilizatorlar, astmaga qarshi vositalar, zamanixa nastoykasi,



etil spirti saqlagan dori vositalari, kuchli ta'sir etuvchi moddalar, antibiotiklar, sulfanilamid va boshqa vositalar.

Ikkinchi shakldagi blankaga gangituvchi dori vositalardan faqat 1 ta dori vositasi yoziladi.

Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-dekabr 532-sonli qarori asosida quyidagi toifa bemorlarga bepul dori vositalari beriladi:

- Sil kasalligi.
- Moxov kasalligi.
- Onkologik kasalliklar.
- SPID (OITS— orttirilgan immun tanqislik sindromi).
- Endokrinologik kasalliklar.
- Ruhiy kasalliklar.
- Yasama yurak qopqoqchalarini qo'yish operatsiyasi o'tkazilgandan keyin va a'zolarini ko'chirib qo'ygan bemorlar.
- Hech kimi yo'q, muhtojlar.
- II jahon urushi qatnashchilari, nogironlari hamda imtiyoz tomonidan ularga tenglashtirilganlar.
- 1941—1945-yillar mehnat fronti qatnashchilari.
- Chernobil AES falokati oqibatlarini tugatishda qatnashib nogiron bo'lganlar.
- Baynalminal harbiy xizmatchilar.

Vazirlar mahkamasining 2002-yil 31-may 188-sonli qarori asosida:

— Yadro poligonlari va unga tenglashtirilgan korxonalarda ishlagan nafaqadagi fuqarolarga bepul dori vositalar beriladi.

Maxsus retseptura blankasida majburiy retseptlardan tashqari qo'shimcha rekvizitlar bo'lishi kerak.

— seriya nomeri va himoya darajasi (pushti rangli qog'ozli himoya suv belgilari bilan);

— bosh shifokor yoki uning o'rinbosari imzosi yoki bo'lim rahbarining imzosi va rangli muhr bilan tasdiqlanadi.

— kasallik tarixi nomeri.

Bitta blankada faqat bitta dori vositasi nomini yozish mumkin.  
2- shakldagi retseptura blankasida majburiy va qo'shimcha rekvizitlar bo'lishi kerak:

- seriya nomeri va manzil yoki bemor tibbiy kartasining nomeri;
- «Retsept uchun» davolash-profilaktika muassasasi muhri;
- shifokor va kasalning to‘liq familiya hamda ismi.

Bepul va imtiyozli dori vositalari berish uchun retsept 2 nusxada yoziladi.

1-shakldagi blanklarda zaharli va kuchli ta’sir etuvchi dori vosilari, etil spirti, apomorfın gidrokslorid, atropin sulfat, gomotropin gidrobromid, dikain, kumush nitrat, paxikarpin gidroyodid, pilokarpin gidrokslorid, adrenalin gidrokslorid, galazolin va boshqalar yoziladi.

Farmatsevt retseptning to‘g‘ri yozilganligini va dori vositasidan foydalanish usulini tekshirishi kerak. Dori vositasi tarkibi, dori shakli, belgilashi va farmatsevtga shifokor murojaati dori vositasi ishlab chiqarish va berish haqida lotin tilida yoziladi.

*1-ilova*

<p><b>O‘zbekiston Respublikasi</b> Sog‘liqni saqlash vazirligi</p> <hr/> <p>davolash muassasasining nomi (muassasa shtampi) « ___ » ___ № ___ tasdiqlangan</p>	<p><b>Tibbiyot hujjatlari</b> 1-shakl O‘zR SSV tomonidan 2002</p>	
<p><b>R E T S E P T</b> (kattaga, bolaga — keraksizi o‘chirilsin)</p>		
<p><b>Seriyasi 000000</b></p>	<p><b>№000000</b></p>	
<p>« ___ » _____ 20 ___ yil (retsept yozilgan sana)</p>		
<p>Bemorning F.I.Sh. _____</p>		
<p>Yoshi _____</p>		
<p>Shifokorning F.I.Sh. _____</p>		
So‘m	Tiyin	Rp.
So‘m	Tiyin	Rp.
<p><b>Shifokorning imzosi va shaxsiy muhri</b> <i>Retsept 10 kun, 1 oy davomida haqiqiy hisoblanadi</i> (keraksizi o‘chirilsin)</p>		

## **Retsept blankisi shaklini to'ldirish bo'yicha SHIFOKORGA ESLATMA**

davolash-profilaktika muassasasi kodi bosmaxona usuli bilan bosiladi yoki shtamp qo'yiladi;

yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan shifokorlarning retseptlarini tepa qismining o'ng tomoniga bosmaxona usuli bilan ularning manzili, litsenziyasining tartib raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati va litsenziya bergan tashkilotning nomi bosiladi yoki shtamp qo'yiladi;

retseptda dorining nomi lotin tilida, aniq, ravshan qilib, siyohda yoki sharikli ruchka bilan yoziladi, tuzatishlar kiritish taqiqlanadi;

bitta retseptura blankida ikkitadan ortiq bo'lmagan oddiy dori vositalari yoziladi;

etil spirti, tarkibida zaharli moddalar hamda miqdoriy hisobda turuvchi psixotrop dori vositalari va prekursorlar bo'lgan dori-darmonlar alohida retsept blankasida yoziladi hamda retsept blankasi qo'shimcha davolash-profilaktika muassasasining «Retseptlar uchun» muhri bilan tasdiqlanadi;

belgilarni faqat qoidalarda belgilanganidek, qisqartirib yozishga ruxsat beriladi xolos;

qattiq va sochiluvchi moddalar — grammalar (0,001; 0,5; 1,0) suyuqlari — millilitr, gramm va tomchilar hisobida ko'rsatiladi; «Ichiladi», «Ishlatilishi ma'lum» va hokazo degan umumiy ko'rsatmalar bilan cheklanish taqiqlanadi;

bemorning familiyasi, ismi-sharifi, yoshi, shifokorning familiyasi, ismi-sharifi ko'rsatiladi;

shifokorning imzosi uning shaxsiy muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim;

«Kattaga», «bolaga» deb ko'rsatilgan belgilardan keraksizi o'chiriladi.

Yakka tartibda tayyorlangan dori №		Dorixona shtampi	
Qabul qildi	Tayyorlandi	Tekshirdi	Topshirdi

**O‘zbekiston Respublikasi**  
Sog‘liqni saqlash vazirligi  
davolash muassasasining  
nomi (muassasa shtampi) «\_\_»  
\_\_ №\_\_ tasdiqlangan

**Tibbiyot hujjatlari**  
2-shakl  
O‘zR SSV tomonidan 2002

Retsept	Seriya	№
	«...»	
	(retsept yozilgan sana)	

To‘liq qiymati	Bepul	Imtiyozli
1	2	3

Bemorning F.I.Sh. (to‘liq)

Ulug‘ vatan urushi nogironi	Bolalar	Boshqalar
--------------------------------	---------	-----------

Yoshi \_\_\_\_\_

Ambulator bemorning tibbiy karta nomeri yoki manzilgoxi

Shifokorning F.I.Sh. (to‘liq)

So‘m	Tiyin	Rp.
------	-------	-----

**Shifokorning imzosi va shaxsiy muhri**

*Retsept 10 kun, 1 oy davomida haqiqiy  
hisoblanadi*

*(keraksizi o‘chirilsin)*

## **Retsept blankasi shaklini to'ldirish bo'yicha SHIFOKORGA ESLATMA**

davolash-profilaktika muassasasi kodi bosmaxona usuli bilan bosiladi yoki shtamp qo'yiladi;

yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan shifokorlarning retseptlarini tepa qismining o'ng tomoniga bosmaxona usuli bilan ularning manzili, litsenziyasining tartib raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati va litsenziya bergan tashkilotning nomi bosiladi yoki shtamp qo'yiladi;

bepul va imtiyozli dori vositalari uchun retsept 2 nusxada, to'liq narxiga olinadigan dori vositalari uchun bir nusxada yoziladi;

retseptda dorining nomi lotin tilida, aniq, ravshan qilib, siyohda yoki sharikli ruchka bilan yoziladi. Tuzatishlar kiritilganda shifokorning imzosi va shaxsiy muhri bilan tasdiqlanadi; bitta retseptura blankida bittadan ortiq bo'lmagan oddiy dori vositalari yoziladi;

belgilarni faqat qoidalarda belgilanganidek qisqartirib yozishga ruxsat beriladi xolos;

qattiq va sochiluvchi moddalar — grammlar (0,001; 0,5; 1,0) suyuqlari — millilitr, gramm va tomchilar hisobida ko'rsatiladi;

"Ichiladi", "Ishlatilishi ma'lum" va hokazo degan umumiy ko'rsatmalar bilan cheklanish taqiqlanadi;

to'lov shakli tagiga chiziladi, keraksizi o'chiriladi;

bemorning familiyasi, ismi-sharifi, yoshi, manzili yoki tibbiyot karta nomeri ko'rsatiladi;

shifokorning familiyasi, ismi-sharifi ko'rsatiladi. Shifokorning imzosi uning shaxsiy muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim; bu retsept blankasida psixotrop vositalari kuchli ta'sir qiluvchi, zaxarli dori vositalari, apomorfin gidroxlorid, atropin sulfat, gomotropin gidrobromid, dikain, kumush nitrat, paxikarpin gidroyodid, anabolik garmonlar va bepul dori vositalari olish uchun yoziladi

**Giyohvandlik vositalari uchun maxsus retsept blank  
SHAKLI**

GIYOHVANDLIK VOSITASI SAQLAYDIGAN DORI VOSITASI  
OLISH UCHUN RETSEPT

ZZ №XXXXXX

(davolash-profilaktika muassasasi shtampi)

\_\_\_\_\_ 200\_\_ y.


A. Rp.	_____	D
L	_____	O
O	_____	R
H	_____	I
I	_____	X
D	_____	O
A	_____	N
	Qabul qilish _____	A
H	_____	D
I	Bemorning F.I.Sh. (to'liq) _____	A
S	kasallik tarixi № _____	
O	Shifokorning F.I.Sh. (to'liq) _____	Q
B	_____	O
D	_____	L
A	_____	A
G	_____	D
I	_____	I

H  
U  
J  
J  
A  
T

M.O'.

Siyohli ruchkada yoziladi  
Tuzatishlar kiritish taqiqlanadi

**Izoh.** Blank pushti rangli bo'lib, himoya suv belgisi bilan belgilangan.



### **Dorixonada retsept qabul qilish va dori vositalarini berish tartibi**

⇨ — to'g'ri bajarilish mexanizmi.

→ — retseptda noto'g'ri holatlar mexanizmi.

Giyohvandlik vositasi nomlari, psixotrop va zaharli moddalar, retsept boshida yoziladi. Suyuq moddalar miqdori millilitr, gramm va tomchilarda, boshqa moddalar — grammlarda belgilanadi, dori vositasi davolanish usuli, dozasi, chastotalar, qabul qilish vaqti va uning uzoqligi o‘zbek yoki rus yoki milliy tillarda yoziladi.

Yakka tartibda dori tayyorlash uchun retseptdagi ingredientlarni muvofiqligini tekshirish kerak. Ma’lumki, 2 yoki undan ortiq muvofiq dori vositasi terapevtik samaradorlikni kuchaytiradi (morfm+promedol) yoki pasaytiradi (pilokarpin+atropin).

Etil spirti uchun belgilangan berish normalari:

— toza ko‘rinishda — retsept «kompres qo‘yish uchun» yozuvi bilan 50 gr gacha;

— boshqa ingredient aralashmada — 50 gr gacha;

— surunkali kasallarga — «Maxsus tayinlash» retsept bo‘yicha 100 gr gacha.

Boshqa dori vositasi retseptda yozilgan miqdorida beriladi, belgilangan retseptlarning ta’sir qilish muddati quyidagicha:

— giyohvandlik vositasi va psixotrop, giyohvand moddalar uchun retseptlar 10 kun ichida haqiqiydir.

— (1-shakl) retseptura blanklari 10 kun ichida haqiqiydir.

— (2-shakl) blankdagi retsept 30 kun ichida haqiqiydir.

#### **4.3. RETSEPTLARNI TOKSIROVKASI, RO‘YXATGA OLISH VA BERISH TARTIBI**

To‘g‘ri yozilgan retsept toksirovka qilinadi — uning chakana narxi aniqlanadi. Dori vositasining chakana narxi dorining tarkibiga kirgan moddalar narxi, dorixona idishining narxi, dori tayyorlash uchun belgilangan tariflar asosida shakllanadi.

Qabul qilingan tarif dorixona yoki aksioner birlashma buyrug‘i asosida tasdiqlangan bo‘ladi.

Tarifkatsiya asosiga quyidagilar kiradi:



— ishlab chiqarish, nazorat, qadoqlash va ekstemporal dori shakllari, ichki dorixonani tayyorlash, dori vositasini qadoqlash uchun vaqt xarajatlarining me'yorlari.

— bir minimal ish vaqtining qiymati (o'rtacha ish haqi e'tiborga olinadi, ammo bu qiymat doimiy emas, o'zgarib turishi mumkin).

### Misol.

180,0	Rp:	Euphyllini 0.01
30,0		Sacchari 0.2
29,0		M., ut fiat pulvis
15,0		D.t.d №15
254,0		

S. 1 ta kukundan 2 mahal.

Dori moddasining narxi (180 so'm +30 so'm) ga tayyorlash uchun tarif 29 so'm va 10 tadan keyingi har bir kukun uchun 3 so'm (dan 15 so'm) olinadi.

$180+30+29+15=254$  so'm.

Yakka tartibda tayyorlanadigan dorilarning turlari har xil usullar bilan ro'yxatga olinadi. Kvitansiya bilan retseptni ro'yxatga olish usuli — eng ko'p qo'llaniladigan usuldir. Kvitansiya bir nusxada to'ldiriladi. Kvitansiya 3 qismdan iborat.

Birinchi qismda retsept nomeri, kasalning F.I.Sh. qiymati va dori turi belgilanadi. Bu qism dorixonada qoladi. U retsept bo'yicha ishlab chiqargan hisob uchun asosdir. Ularning miqdori bo'yicha ish kuni oxirida qabul qilingan retseptlari va uning umumiy qiymati hisoblanadi. Koreshoklar dorixonada saqlanadi va ular 50 va 100 ta dan jamlanadi.

Ikkinchi qismda retsept nomeri, dori turining shakli, uning qiymati, kasal familiyasi, dorining ishlab chiqarish vaqti belgilanadi. Bu qism buyurtmachiga beriladi.

Uchinchi qismida 2 ta bir xil nomerlardan iborat — «tayyorladim», «tekshirdim», «yubordim» yoziladi va uni retseptga yopishtiriladi. Dorixonalarda yakka tartibda dori tayyorlash uchun retseptlar retseptura jurnalida ro'yxatga olinadi. Bunda sana, retsept

nomeri, kasalning F.I.Sh. dori turi, dori narxi yoziladi. Ish kunining boshidan boshlab retsept nomeri yoziladi. Kunning oxirida grafalar bo'yicha jami sanab chiqiladi. Alohida distillangan suv qiymati va dori ishlab chiqarish bo'yicha tarif hisoblanadi. Dori olish uchun kasalga jeton yoki kvitansiya beriladi.

Ayrim dorixonalarda dorini tayyorlash uchun buyurtma chekli usulda olib boriladi. Dori taksirovka qilinib, narxi to'langandan so'ng retsept farmatsevtga tayyorlash uchun beriladi.

Shifokor retsepti bo'yicha dori vositasini berishda dorixona mutaxassis xodimi quyidagi qoidalarga qat'iy rioya qilishi kerak.

Agar retseptda tayyorlanadigan dori vositasi tarkibida boshqa ingrediylentlar bilan birgalikda giyohvandlik vositalari, psixotrop, moddalar, zaharli, kuchli ta'sir qiluvchi, apomorfin gidrokslorid, atropin sulfat, gomatropin gidrobromid, dikain, kumush nitrat, paxikarpin gidroyodid, anabolik garmonlar bo'lsa, ularni alohida berish man qilinadi. Aholi joylardagi dorixonalarga giyohvand va psixotrop moddalarni davolash-profilaktika muassasasi retseptlari bo'yicha beriladi.

Veterinariya davolash muassasalarining retseptlari bilan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni berish qat'iy man qilinadi.

Giyohvandlik vositalari psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari saqlagan yakka tartibda tayyorlangan dori vositasini berishda bemorlarga retsept o'rniida tepasi sariq chizig'i bo'lgan va qora shriftli «Signatura» yozuvi bo'lgan signatura beriladi.

Ayrim hollarda dorixonada ko'rsatilgan dori bo'lmasa, u holda dori vositalarining sinonimi berilishi mumkin.

Dorixona muassasalariga sotilgan yoki berilgan dori vositalarini qaytarib olish man etiladi. Undan tashqari profilaktika va uy sharoitida davolash uchun ishlatiladigan buyumlar, tibbiyot asbob va uskunalari, bolalarning parvarishlash buyumlari, shaxsiy gigiyena vositalari, parfyumeriya-kosmetik vositalar qaytarib olinmaydi va almashtirib berilmaydi. Maxsus blankalarga yozilgan dori vositalarining blankalari dorixonada qoldiriladi.

**Retseptlarni saqlash.** Retseptlar maxsus seyflarda yoki metall shkaflarda saqlanadi. Ishlatilgan giyohvandlik vositalari uchun

berilgan retseptlar qayd qilingan, muhrlangan oy va yil bo'yicha shnurlangan maxsus seyflarda saqlanishi kerak.

Retseptlarning saqlanish muddatlari:

Imtiyozli berilgan dori vositalari — 3 yil.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar uchun — 5 yil.

Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli dori vositalari — apomorfın gidroxlorid, atropin sulfat, gomatropin gidrobromid, dikain, kumush nitrat, paxikarpin gidroyodid, etil spirti, anabolik garmonlar uchun — 1 yil.

Saqlanish muddatlari tugagan retseptlar komissiya tomonidan dalolatnoma asosida yo'q qilinadi.

Anabolik ta'sirga ega garmonlar, shu jumladan, steroid garmonlar, trankvilizatorlar, antidepressiv moddalar, neyrolep-tiklar, 8-oksixinolin saqlagan dori vositalari va antigistamin vositalarga berilgan retseptlar «Dori berilgan» shtampi bilan bosiladi. Ularni yana qaytadan olish uchun yangi retsept lozim bo'ladi.

Dorixonalardan retsept asosida bepul yoki imtiyozli dori vositalarini ambulatoriya sharoitida davolanuvchi fuqaroni faqat davlat tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasasi shifokori berishi mumkin.

Yana imtiyozli dori vositalarini mustaqil berish huquqi quyidagi shifokorlarga berilgan:

- ambulatoriya poliklinika shifokorlariga;
- Sog'liqni saqlash hududiy organ boshqarmasi bilan kelishuvga asosan amaliyotdagi shifokorlarga;
- mustaqil qabul qiluvchi feldsher yoki akusherlarga;
- qishloq davolash-profilaktika muassasasida shifokor bo'lmaganda;
- mustaqil qabul qiluvchi tish shifokorlariga.

Imtiyozli retseptlar davolovchi shifokor tomonidan quyidagi dori vositalariga yoziladi:

- psixotrop, kuchli ta'sir etuvchi, zaharli, anabolik garmonlarga;
- onkologik yoki gematologik kasal bo'lgan bemorlarga giyohvandlik vositalari.

Miqdoriy hisobda turuvchi yoki imtiyozli dori vositalari retsept blankasiga bitta turdagi dori vositalari yoziladi.

Retsept blankasini to'ldirish vaqtida shifokor dori vositasi uchun to'lov turini ko'rsatishi kerak.

Retseptda davolovchi shifokorning telefon raqami bo'lishi shart, chunki retseptda ko'rsatilgan dori vositalari dorixonada mavjud bo'lmasa, u holda dorixona xodimi shifokor bilan telefon orqali maslahatlashib, ko'rsatilgan dori vositasidan boshqa sinonimini taklif qilishi mumkin bo'ladi.

Agar kerakli imtiyozli dori vositalari yoki ularning sinonimi dorixonada bo'lmasa, u holda bemor (nogiron va urush qatnashchilari, 80 yoshdan oshgan keksa fuqarolar hamda qiyin qo'zg'alib yuruvchi odam)larga telefon orqali yoki pochta orqali xabar beriladi.

Bu haqda imtiyozli dori oladigan bemorning imtiyozli dori berish kartasiga belgi qo'yiladi. Imtiyozli retseptning ta'sir muddati — 30 kun; giyohvand va psixotrop dorilarga — 10 kun, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalar, dori moddalari: apomorfın gidroklorid, kumush nitrat, atropin sulfat, gomotropin gidrobromid, dikain, paxikarpin gidroyodid, anabolik garmonlarga — 10 kun belgilangan.

#### **4.4. MIQDORIY HISOBDA TURUVCHI DORI VOSITALARI**

Miqdoriy hisobda turuvchi dori vositalari deb, maxsus hujjatlangan alohida assortimentlangan tovarlarning tabiiy o'lchovlarda belgilangan hisobi (kg, l, dona va boshqalar) da beriladigan dori vositalar guruhiga aytiladi.

Miqdoriy hisobda turuvchi dori vositalariga:

— giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxatiga kirgan dori vositalar;

— zaharli moddalar ro'yhatiga kirgan dori vositalari;

— apomorfın gidroklorid, atropin sulfat, dikain, gomotropin gidrobromid, kumush nitrat, paxikarpin gidroyodid substansiyalari;

— etil spirti kiradi.

Miqdoriy hisobda turuvchi dori vositalarining miqdoriy tahlil hisobi zarur bo'lgan giyohvandlik va boshqa dori moddalar hisob-kitobida olib boriladi. Ular nımerlangan, shnurlangan, plomba-langan bo'lib, ularda hududiy farmatsevtik idoralarning boshqarmasi rahbari imzosi va muhri bo'lishi kerak.

Kitob bir yilda bir marta tutiladi. Kitobning birinchi varag'ida dori vositasining nomi yoziladi. Kitob 2 qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida oynning boshiga qoldiq va kirim, ikkinchi qismida esa sarflangan dori vositalarining miqdori va oynning oxiriga qoldiq yoziladi.

Har qanday dori vositasiga — dori shakli, dozasi, qadoqlashiga alohida varaq ajratiladi. Bu varaq hisob birligi, kirimi (har bir kelgan hujjatda alohida nomer va sana ko'rsatiladi), chiqim (kundagi yozuvlar) har bir uning turi bo'yicha (ambulatoriya yoki davolash-profilaktika muassasasi retsepti yoki dorixona bo'limi va punktlari) ko'rsatiladi. Agar yozilganda xatoga yo'l qo'yilsa, u holda xato to'g'rilab yoziladi va bu ishga mas'ul bo'lgan shaxs imzo qo'yadi.

Har oynning 1-sanasi mas'ul bo'lgan shaxs hisobda turuvchi dori vositalarini kitobda yozilgan qoldig'i bilan taqqoslaydi (inventarizatsiya o'tkazguncha kitobdagi qoldiq boshlang'ich qoldiq hisoblanadi). Tayyor dori vositalari bo'yicha bu qoldiqlar teng bo'lishi lozim.

Kitobdagi va umumiy miqdor o'rtasida farq bo'lsa, u holda tabiiy yo'qotish topiladi. Tabiiy yo'qotish — bu tabiiy jarayon davrida (masalan qurib qolish, uchish, oqish va hokazo) moddaning miqdorini o'zgarishi.

Tabiiy yo'qotish me'yorlari dori vositalari va etil spirti uchun O'zR SSVning 1999-yil 21-dekabr 576- sonli buyrug'iga asosan «Dorixona muassasalarida dorilar, etil spirti, paxta, tibbiy zuluklar va shishali dorixona idishlarining tabiiy kamayishi cheklangan miqdorini va ularda ishlatish qo'llanmalarini tasdiqlash haqida» gi buyruqda berilgan.

Aniq tovar turi bo'yicha tabiiy yo'qotish chegarasi me'yoriy hujjatlarda hajmiy ravishda ko'rsatiladi. Dori vositalarini saqlashda, tayyorlashda va qadoqlashda tabiiy yo'qotish narxini to'ldirish uchun haqiqiy me'yorlari mavjud.

Noto'g'ri saqlanish oqibatida yoki ehtiyotsizlik natijasida yaroqsiz holga kelgan dori vositalari tabiiy yo'qotish me'yorlariga kirmaydi. Ko'rsatilgan me'yorlar ishlab chiqarishdagi tayyor dori vositalariga nisbatan qo'llanilmaydi. Inventarizatsiya o'tkazish jarayonida ko'rsatilgan qimmatbaho moddiy boylıklar yetishmagan

hollarda tabiiy yo‘qotish me‘yori qo‘llaniladi. Inventarizatsiyadan so‘ng qolgan moddiy boyliklar keyingi oy boshiga o‘tkaziladi. Giyohvandlik, psixotrop, zaharli dori vositalari va etil spirti tabiiy yo‘qotish me‘yori foiz hisobida o‘rnatilgan bo‘lib, ularning sarflash turiga qarashlidir.

Sarflanish turi	Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari, boshqa miqdoriy hisobda turuvchi dori moddalar (% da)	Etil spirti (% da)
Yakka tartibda tayyorlangan dori vositalari	1	2
Qo‘shimcha texnologik operatsiyalarsiz tortib olish va o‘lchash (aralashtirish, eritish, dozalarga bo‘lish)	0,4	0,7

95 % li etil spirtining tabiiy yo‘qotishi hisobi quyidagicha:

Masalan, oy oxiridagi kitob qoldig‘i — 13,9 kg;

hisoblangan qoldiq — 13,8 kg.

Ambulatoriya retseptlari bo‘yicha etil spirtining kundalik sarfi: 1,5; 0,5; 1,3; 2,1.

Davolash-profilaktika muassasasi ko‘rsatmasi bo‘yicha etil spirtining sarfi — 2kg.

Yechim etaloni tabiiy yo‘qotish hisobi to‘g‘risidagi buyrug‘iga asosan hisoblanadi:

2% ambulatoriya retsepturasi bo‘yicha etil spirti sarfidan  $(1,5+0,5+1,3+2,1) \cdot 2 \% / 100 \%=0,108 \text{ kg}$ .

0,7 % massa bo‘yicha (angro) etil spirti sarfidan  $2,0 \cdot 0,7 \% / 100 \%=0,014 \text{ kg}$ .

Hammasi bo‘lib  $0,108+0,014=0,122 \text{ (kg)}$ , ya‘ni qoldiq 0,1 kg (tabiiy yo‘qotish).

Dorixona tayyorlovidagi boshqa dori vositalari uchun tabiiy yo‘qotish me‘yorlari sarfining turiga bog‘liqdir. Bu me‘yorlar sarflangan miqdorga emas, balki sarflangan moddalar narxiga nisbatan o‘rnatilgan.

## **5-BOB. DORIXONA SHAROITIDA DORI VOSITALARINI TAYYORLASH VA SIFATINI NAZORAT QILISH ISHLARINI TASHKIL QILISH**

### **5.1. DORIXONADA DORI TAYYORLASH BO'YICHA ISH JOYLARNI JIHOZLASH VA TASHKIL QILISH**

Bozor iqtisodiyoti siyosati olib borilayotgan, dorixonalarning salmoqli qismi xususiyashtirilayotgan sharoitda ularning sanitariya-gigiyena me'yor va qoidalariga rioya qilinishiga alohida e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, dorixonalarning asosiy vazifalari dori vositalarni sifatli tayyorlash, aholini, davolash-profilaktika muassasalarini, poliklinika va ambulatoriyalarni dori vositalari bilan ta'minlash, aholining kundalik dori vositalarga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir. Aholini va turli davolash-profilaktika muassasalarini sifatli dori vositalari bilan ta'minlash ko'p jihatdan dori vositani tayyorlaydigan shaxslarning bilim-saviyasiga, ular tomonidan maxsus tartib, qoida va qonunlar to'la-to'kis bajarilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Dori vositalari tayyorlash bilan shug'ullanadigan dorixonalarda, odatda, uch guruh xonalar bo'ladi:

#### **1. Ishlab chiqarish xonalari:**

Dori xarid qilish uchun keladigan shaxslarni kutish xonasi (savdo zali), retseptlarni qabul qilish bo'limi, dori vositalarni tayyorlash — assistentlar xonasi, dori vositasi uchun ishlatiladigan idishlarning yuvish xonasi, dori vositalarining saqlash xonalari, sterilash xonasi, farmatsevt-analitik xonasi, dorilarni qadoqlash xonalari.

2. Xizmat qilish va xo'jalik ishlari uchun xonalar, dorixona mudirining xonasi, xodimlarning kiyinish xonalari, hojatxona va hokazo.

3. Yordamchi xo'jalikka oid xonalar: shisha idishlar saqlanadigan xona, taralar, yoqilg'i, hidli dori vositalar uchun, dezinfeksiya moddalari uchun xonalar, garaj va boshqa xonalar.

Dorixonalarda dori vositalari, asosan, assistentlar xonasida tayyorlanadi.

Assistentlar xonasi dori vositalarini tayyorlovchi farmatsevt texnolog va farmatsevt assistentlarning mehnatlarini yengillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish maqsadida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish qoidalariga mos, yetarli ish joyiga mo'ljallangan assistentlar stollari bilan jihozlanadi. Bu assistentlar stollarida tayyorlanadigan dori vositalarining turlariga (kukunlar, suyuq dorilar va hokazo) ko'ra alohida ish joylari ajratiladi. Bu stollarda suyuq dori vositalarini, kukunlarni, surtmalarni tayyorlash, nazorat o'tkazish uchun, qadoqlash ishlarini bajarish uchun alohida ish joylari bo'lishi lozim. Ular dori vositalarini tayyorlash uchun zaruriy bo'lgan kichik mexanizatsiya vositalari va boshqa uskunalar bilan jihozlanadi.

O'zbekiston Respublikasi SSV ning 2004 yil 30 iyunda 304-sonli «Dorixona muassasalarining moddiy-texnika bazasi, asbob-uskunolari, boshqa texnik vositalari va xodimlariga bo'lgan talablar. «Asosiy holatlar tarmoq standartini tasdiqlash haqida»gi buyrug'li tasdiqlandi.

Mazkur tarmoq standarti «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasi, Dori vositalari tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi, Toshkent Farmatsevtika instituti tomonidan ishlab chiqarilgan.

Ushbu standart mulkchilik shaklidan qat'iy nazar chakana, ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi barcha dorixonalar uchun majburiydir.

Standartda kirish, termin va atamalar, umumiy holatlar dorixona muassasalarining xonalari hamda ularning jihozlanishi, dori vositalarini qabul qilishga qo'yiladigan talablar, dori vositalarining saqlashga qo'yiladigan talablar, hisob va hisobot ishlari, dorixona xodimlariga bo'lgan talablar, dorixona faoliyatini tashkil etish, dorixona muassasasini tugatish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

San PiN №0162-04 — bu tayyor dori vositalarini sotishda dorixona qurilishidagi sanitariya qoidalari va me'yorlari aks ettirilgan rasmiy hujjat. Ushbu hujjat 5 ta bo'limdan iborat.

1-bo'lim — umumiy holatlar.

2-bo'lim — dorixona joylashishi va qurilishiga qo'yiladigan talablar.



3-bo'lim — dorixonaning jihozlanishi va xonalariga bo'lgan talablar.

4-bo'lim — dorixona xonalarining sanitar qurilishiga bo'lgan talablar.

5-bo'lim — dorixona xodimlarining shaxsiy gigiyenasi va xonalarni tozalashdagi qo'yiladigan talablar.

Hozirgi kunda San PiN 0162-04 ishlab chiqarilgan, undan avval ya'ni, 1998 yilda esa dorixonalar uchun umumiy San PiN 0078-98 ishlangan edi.

Dorixona o'z faoliyatini farmatsevtika faoliyatiga berilgan litsenziya asosida olib boradi. Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash ishlari O'zR VM ning 2003 yil 31 oktabr 477-sonli Qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida olib boriladi.

## **5.2. ASEPTIK SHAROITDA DORI VOSITALARI TAYYORLASHNI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Aseptik sharoitda dori vositalarini tayyorlash uchun asosan, katta dorixonalarda alohida izolyatsiyalangan xonalar ajratiladi.

Aseptik sharoitda dori vositalari tayyorlanadigan xonada optimal sanitariya gigiyena sharoiti yaratish uchun dorilarni sterilizatsiya qiladigan avtoklavlar va boshqa apparatlar qo'shni xona (koktoriy)ga joylashtiriladi.

Koktoriy — dorixona xonalaridan biri bo'lib, unda suv haydaladi va assistent ishiga bog'liq bo'lgan har xil farmatsevtik jarayonlar: damlama va qaynatmalar tayyorlash, dorilarni sterillash, qaynatish, bug'latish ishlari ham bajariladi.

Ba'zi bir dorixonalarda aseptik sharoitda dori tayyorlash uchun maxsus blok-xonalar quriladi. Bloklar 3 ta seksiyadan iborat bo'ladi:

- A) aseptik xona.
- B) sterilizatsiya xonasi.
- G) tambur.

Aseptik xonada dori vositalari tayyorlanadi. Sterilizatsiya xonasida avtoklav, 200 °C gacha isitadigan quritkich shkaf va boshqa sterilizatsiya shkaflari o'rnatiladi.

Tambur (boksdan oldingi xona)da farmatsevt sterillangan

xalat, qalpoqcha, shippak (baxilla) larni kiyib, soʻngra aseptik xonaga kiradi. Baʼzi dorixonalarda aseptik sharoitda dorilar tayyorlash uchun maxsus xonalar boʻlmasligi natijasida, dorilarni qisman aseptik sharoitda tayyorlash imkonini beruvchi stol bokslardan foydalaniladi. Aseptik blok havo tortish ventilyasiyasi bilan jihozlanadi. Bunda mikroblar tarqalishini kamaytirish maqsadida harakatlanuvchi retsirkulyasion havo tozalagichlar oʻrnatilishi tavsiya etiladi.

Aseptik blokda, tayyorlash, distilyasiya, sterilizatsiya xonalarida havoni zararsizlantirish maqsadida bakteritsid nurlatkichlar oʻrnatiladi. Ular 1—2 soatga ish vaqtidan oldin yoqib ishlatiladi. Nurlatkichlarning oʻchirgichlari xonaga kirishda joylashtiriladi. Xonaga kirish faqat nurlatkich oʻchirilgandan 15 minut oʻtgach ruxsat etiladi.

Xodimlar ishlaydigan xonalarda bakteritsid nurlatgichlar yerdan 1,8—2 m balandlikda oʻrnatiladi.

Aseptik blokka kiritiladigan jihozlar oldindan dezinfeksiya vositalari bilan artiladi. Aseptik blokda ishlatilmaydigan jihozlarni saqlanishi qatʼiyan man etiladi. Aseptik blok dorixonaning boshqa xonalaridan shlyuz bilan ajratiladi. Aseptik sharoitda dori tayyorlaydigan xodimlar shlyuzga kirishda steril xalat, 4 qavatli dokali niqob, qalpoqcha, baxillalar kiyadilar. Dokali niqoblar har 4 soatda almashtirib turilishi shart. Aseptik blokdan tashqari nosteril sanitariya kiyimida yurish man etiladi.

Sanitariya kiyimlari bikslarda sterillanadi va berkitilgan bikslarda saqlanadi (saqlash vaqti 3 sutkadan oshmasligi kerak).

Poyabzallar ish boshlashdan oldin va ish kuni tugagach tashqi tomonidan dezinfeksiyalanadi va shkaflarda, yashiklarda saqlanadi.

Dorilarni tayyorlash uchun kerakli moddalar yopiq shkaflarda, shtanglazlarda toza sharoitda saqlanadi. Shtanglazlar toʻldirishdan oldin yuvib sterillanadi.

Yordamchi material (paxta, doka, pergament qogʻoz, filtrlar va boshqa)lar bikslarda yoki ogʻzi berkitiladigan shisha idishlarda yopiq holda 3 sutka saqlanadi. Ochilgan materiallar 24 soat mabaynida ishlatilishi zarur.

Biks har bir ochilgandan soʻng, yaxshi berkitiladi. Biks ichidan buyumni sterillangan pinset bilan olish mumkin. Yordamchi materiallar sterillash uchun bikslarga tayyor holatda solinadi

(pergament va filtr qog‘ozi, kerakli o‘lchamlarda kesilgan dokadan tayyorlangan tamponlar).

Yuvilgan idishlarda yuvish vositalarining qoldig‘i va tozalik darajasi 5-ildovaga binoan tekshiriladi. Yuvilgandan so‘ng idishlar sterillanadi, tiqinlanadi va jips berkitiladigan shkaflarda saqlanadi. Shkaflar ichki tomonidan och rang bo‘yoq bilan bo‘yaladi yoki plastik bilan qoplanadi.

Aseptik sharoitda dori tayyorlash va qadoqlash uchun sterillangan idishlar 24 soatdan ortiq saqlanmaydi.

Katta sig‘imdagi ballonlar yuvilgandan so‘ng 30 daqiqa davomida bug‘ bilan zararsizlantiriladi. Ballonlar zararsizlantirildigandan so‘ng steril tiqin vositalari bilan tiqinlanib yoki steril pergament bilan bog‘lanib toza sharoitda 24 soat davomida saqlanadi.

Ko‘z tomchilarni va in‘eksion eritmalarni tiqinlash uchun tiqinlarni (aluminiyli qalpoqchalar) tayyorlash va yuvish o‘tkaziladi. In‘eksion eritmalarni va ko‘z tomchilarni tayyorlashda kichik mexanizatsiya vositalarini qo‘llash ularni zararsizlantirish yoki sterillash sharti bilan ruxsat beriladi.

Konsentrlangan eritmalar, yarimfabrikatlar, dorixonona ichki mahsulotlarini aseptik sharoitda tayyorlanib, ularni fizik-kimyoviy hossalarga va yaroqlik muddatiga muvofiq saqlanadi.

Aseptik blokda ishlamaydigan xodimlarga ushbu xonalarga kirish man etiladi.

Nosteril dori shakllari tayyorlanishida ishlatiladigan dori vositalari zich berkitilgan shtanglazlar (yoki boshqa idish)da saqlanishi kerak.

Nosteril dori shakllarini tayyorlashda ishlatiladigan steril idishlarning saqlash muddati 3 kundan oshmasligi kerak.

Dorixonada tayyorlanadigan va qadoqlangan dorilarni berkitish uchun tiqin vositalar sterillanib saqlanadi.

Dorilarni tayyorlashda va qadoqlashda ishlatiladigan kichik mexanizatsiya vositalari ularni ishlatish qo‘llanmasiga muvofiq yuviladi hamda zararsizlantiriladi. Agar ishlatish qo‘llanmasida ko‘rsatmalar bo‘lmasa, ish oxirida kichik mexanizatsiya vositalari ajratiladi, issiq suvda (50–60°C) yuviladi, zararsizlantirilib sterillanadi. Zararsizlantiruvchi moddalar buyumlardan issiq suv

bilan yuvilgach, distillangan suv bilan chayiladi va toza holatda saqlanadi. Tayyorlangan materiallarning xossalariga binoan buyumlardan zararsizlantiruvchi eritmalarni issiq suvda yuvib, distillangan suvda chayib toza holda saqlanadi.

Har bir smenaning boshida tarozi, shpatel, qaychilar va boshqa dorixonada kichik jihozlarini 3% vodorod peroksidi eritmasi yoki spirt-efirli aralashma bilan artiladi.

Byuretkada moslamalari va tomizg'ichlar har 10 kunda konsentratlardan bo'shatilib, issiq suv (50—60°C) va xantal kukuni aralashmasi bilan yoki 3% vodorod peroksidi va 0,5% yuvish vositasi eritmasi bilan yuvilib, distillangan suv bilan chayiladi. Yuvilgandan so'ng u yerdagi suvlarda yuvish vositalarining qoldig'i aniqlanadi.

— Dori moddani har tortib yoki o'lchab olgandan keyin shtanglarning og'zi qismi va tiqinini, shuningdek qo'l tarozlari doka bilan artiladi. Dokali salfetkalar faqat bir marta ishlatiladi.

Ish jarayonida ishlatiladigan qog'ozli va mumlangan kapsulalar, shpatellar, iplar, assistent (qadoqlash) xonasidagi qutilarda saqlanadi. Yordamchi materiallar yopiq javonlarda toza holda saqlanadi.

In'eksiya uchun ishlatiladigan tozalangan suvni olinishi, tashilishi va saqlanishiga qo'yiladigan sanitariya talablari:

— Distillangan suvni olinishi va saqlanishi maxsus ajratilgan distillyasiya xonasida o'tkaziladi. Ushbu xonada suvni haydash bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ishlar bajarilmaydi. In'eksiya uchun suv aseptik blokning distillash xonasida olinadi. Bu yerda suvni haydash bilan bog'liq bo'lmagan har qanday ishlar bajarilishi man etiladi.

— Har kuni suv haydashdan oldin 10—15 daqiqa davomida akvadistillyatordan sovutkichni yoqmasdan bug' o'tkazilishi kerak. Distillangan suvning dastlabki tomchilari 15—20 daqiqa davomida to'kilib, keyingisi yig'iladi.

— Toza sterillangan va bug' bilan ishlangan suv to'plagichlariga olingan distillangan suv hamda in'eksiya uchun suv yig'iladi. Ba'zan shisha ballonlarga yig'ish mumkin. Suv to'plagichlar ustida «Distillangan suv», «In'eksiya uchun suv» kabi yozuvlar bo'lishi kerak. Agar bir nechta suv to'plagichlar bir vaqtda ishlatilsa, ularga tartib raqami qo'yiladi.

— Shisha suv to‘plagichlar ikkita teshikli tiqinlar bilan zich berkitilishi kerak, ular ballonlar uchun moslamalar va tagliklarga o‘rnatiladi.

— Suv to‘plagichlar shisha naychalar yordamida akvadistillyatonga biriktiriladi. Rezinali naychalar faqat shisha naychalarni biriktirish uchun ishlatiladi.

— Suv ish joylariga ballonlarda yoki suv o‘tkazuvchi nay — moslamalar orqali yuboriladi. Suv o‘tkazuvchi naylar suvning sifatiga ta’sir etmaydigan materiallardan tayyorlanadi, shuningdek yuvish va zararsizlantirilishiga moslangan.

— Naylarni yuvilishi va zararsizlantirilishi suv yig‘ilishidan oldin 14 kunda 1 martadan kam bo‘lmagan holda o‘tkaziladi.

— Shisha va metall naylarni zararsizlantirish uchun avtoklavdan 30 daqiqa davomida kuchli bug‘ yuboriladi. Polimer materiallardan va shishadan tayyorlangan naylarni 6% vodorod peroksidi eritmasi bilan yuvib sterillanadi. Keyin distillangan suv bilan yuviladi. Naylarni tozalanishi maxsus daftarda qayd etiladi.

— Pirogen moddalardan shisha naychalar va idishlarni tozalash uchun ularni 1% kaliy permanganat eritmasi bilan 25—30 daqiqa davomida qayta ishlanadi. Eritmani tayyorlash uchun 10 qism 1% kaliy permanganat eritmasiga 65 qism 1,5% sulfat kislotasi eritmasi qo‘shiladi. Naylar qayta ishlangandan so‘ng in’eksiya suv bilan yuviladi.

— Distillangan suvni aseptik sharoitida 3 kundan ortiq saqlab bo‘lmaydi.

— In’eksiya uchun suvni aseptik sharoitda 24 soat davomida saqlash mumkin.

Kasalxonalarining infeksiyon bo‘limlaridan kelgan idishlarni dorixonada 1% xloramin eritmasi, yangi tayyorlangan vodorod peroksidi 3% eritmasi, 0,5% yuvish vositasi eritmalarining aralashmasi yordamida zararsizlantiriladi: Xloraminning faollangan eritmasini tayyorlash uchun xloramin oddiy suvda eritilib, teng ravishda faollatgich qo‘shiladi. Bunda idishlar faollangan xloramin bilan 30 daqiqa davomida zararsizlantiriladi (2 kun saqlangan xloramin eritmasi ishlatilganda idishlarning zararsizlantrilishi 2 soatgacha uzaytiriladi).

Vodorod peroksidi va «Dezmol» eritmasi aralashmasi oddiy suvda tayyorlanadi. Ushbu eritmada idishlar 80 daqiqa davomida zararsizlantiriladi. 3% li vodorod peroksid eritmasidan 1 litr tayyorlash uchun 120 ml pergidrol olib suv qoʻshiladi. Shu eritmaga 5 g yuvish vositasi qoʻshiladi.

Pergidrol va xloramin bilan ishlashda rezina qoʻlqoplar muhofaza qiluvchi koʻzoynaklar hamda 4 qavatli dokali boylagichlardan foydalaniladi.

Yuvish vositalari ishlab chiqaruvchi oʻramida yoki polietilen qoplarda quruq joyda saqlanadi.

### **5.3. DORIXONADA TAYYORLANADIGAN DORI VOSITALARINING SIFATINI NAZORAT QILISH**

Dorixonada tayyorlanadigan dori vositalarining sifati standart talablariga mos boʻlishi eng dolzarb masalalardan biridir. Bunga erishish mumkin boʻlgan yoʻllardan biri tayyorlangan dori vositalarining sifati taʼminlash va nazorat qilishdan iborat.

Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 2002-yil 29-dekabr 583-sonli buyrugʻi «Dorixona muassasalarida tayyorlangan dori turlarining sifati baholash boʻyicha qoʻllanma»ni tasdiqlash toʻgʻrisidadir. Ushbu qoʻllanma dorixona muassasalarida tayyorlanadigan, qadoqlanadigan dori turlarining sifati baholash va yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan ogʻish meʼyorlarini belgilaydi hamda dorixona muassasalarida koʻrsatma sifatida foydalaniladi.

Dorixonalarda dori vositalarining sifati nazorat qilish ishlarini olib borish uchun nazorat-analitik xonalari tashkil etiladi. Nazorat-analitik xonalarida analitik stollar boʻlib, ular kerakli tartibda jihozlanishi shart. Stollar oldida aylanma vertushkalar ularda esa shtanglaslar, shtanglaslarda kerakli reaktivlar boʻladi. Stollarda byuretkalar va zarur boʻlgan eritmalar turishi shart. Bundan tashqari davlat farmakopeyasining oxirgi nashri va boshqa meʼyoriy hujjatlari boʻlishi lozim.

Dorixonada tayyorlangan dori vositalarining sifati nazorat

qiluvchi farmatsevt-analitik, farmatsevt-texnologlarning huquq va burchlari:

- dorixonada tayyorlangan dorilarning sifatini nazorat qilish;
- dori vositalaridan bo'shagan shtanglaslarini o'zi vaqtida to'ldirib turish;
- assistentlar xonasida dori vositalarining amaldagi belgilangan qoidalarga binoan to'g'ri saqlanishini ta'minlab turish;
- qadoqlovchilarning ish jarayonlariga rahbarlik qilish;
- qadoqlovchilarning o'rtalaridagi vazifalarini taqsimlab berish.

Dorixonada tayyorlangan dorilar sifatini oshirishni ta'minlaydigan quyidagi omillarga alohida e'tibor berish kerak:

— dori vositalarini qabul qilish jarayonida ularni diqqat bilan tekshirib, sifat yuzasidan shubha tug'ilsa, nazorat-analitik laboratoriyasiga yuborish;

— amaldagi buyruqlar, talablarga muvofiq dorixonada sanitariya va farmatsevtika tartiblariga rioya qilish;

— ishlab chiqarishda ishlatiladigan apparat, asbob-uskunalarining aniq, to'g'ri ishlashini ta'minlash;

— dorixonada dori vositalarining fizik-kimyoviy xossalarini yaroqlilik muddatini e'tiborga olib, muayyan shart-sharoitlarda saqlash (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2000-yil 10-martdagi 109-sonli buyrug'i «Dori vositalari tibbiyot buyumlarining yaroqlilik muddati to'g'risida»);

— dori moddalari bilan to'ldirilgan shtanglaslardagi yorliqlarda tegishli yozuvlarning bo'lishini nazorat qilish;

— dorixonada kelib tushgan retseptlarni yoki talabnomalarni to'g'ri rasmiylashtirilganini tekshirish va dorilarni tayyorlash texnologiyasi qoidalariga amal qilish kabilardir.

Yakka tartibda tayyorlanadigan dori vositalari, tez buziluvchi va turg'un bo'lmagan preparatlar, konsentratlar, yarim fabrikatlarining sifatini va miqdorini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 21-aprel 2000-yilda tasdiqlangan 195-sonli (Dorixona sharoitlarida tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini yaxshilash haqida) buyrug'iga muvofiq dorixonalarda tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini nazorat qilishning

quyidagi turlari mavjud: yozma, organoleptik, og‘zaki, fizikaviy va kimyoviy nazorat.

Bundan tashqari qabul qilish nazorati ham mavjud. Qabul qilish nazoratida dorixonaga kelib tushgan dori vositalarining qadoqlanishi, markirovkasi va tashqi ko‘rinishi tekshiriladi. Agar shubha tug‘ilsa, bu dori vositasi nazorat tahlil laboratoriyasiga jo‘natiladi.

**Yozma nazorat.** Farmatsevt tomonidan tayyorlangan dori vositasi uchun alohida pasport to‘ldiriladi. Pasportda sana, retsept yoki talabnomaning nomeri va har bir ingrediyentning nomi hamda miqdori, olingan dozalarining soni yoziladi. Pasportda tayyorlagan, qadoqlagan va tekshirgan shaxslarning imzosi bo‘lishi shart.

Ushbu nazorat turidan dorixonada tayyorlanadigan barcha dori shakllari o‘tishi lozim.

Agar dori vositasi yarimfabrikat yoki konsentratlardan tayyorlansa, pasportda olingan miqdori va ularning konsentrasiyasi ko‘rsatiladi. Poroshoklar, shamchalar tayyorlanganda esa har bir ingrediyentning massasi va ularning miqdori qayd etiladi. Pasport bir oy davomida saqlanadi.

**Organoleptik nazorat.** Bu nazoratda dori vositasining tashqi ko‘rinishi, rangi, hidi, ta‘mi, bir xil aralashganligi mexanik aralashmalarining yo‘qligi tekshiriladi.

Kattalarga tayyorlangan ichish uchun dori vositalarining ba‘zi birlari, bolalarga tayyorlangan ichish uchun dori vositalarining hammasining ta‘mi tekshiriladi.

**Og‘zaki nazorat.** Bunda farmatsevt-texnolog dori vositasining tarkibiga kiruvchi birinchi ingrediyentning nomini aytadi. Boshqa murakkab dori aralashmalarida esa farmatsevt ingrediyentlarining nomi va miqdorini esida qolgani bo‘yicha ko‘rsatadi. Ushbu nazorat turi ayrim dori vositalarida o‘tkaziladi. Og‘zaki nazorat 5 ta dori shakli tayyorlanib bo‘lingach olib boriladi.

**Fizikaviy nazorat.** Bu nazoratda dori shaklining hajmi va umumiy massasi tekshiriladi. Dorixonada tayyorlanadigan va qadoqlanadigan dori vositasining har bir seriyasi, yakka tartibda tayyorlanadigan dori vositalarining ba‘zilari, sterilizatsiya talab qiladigan dori shakllari, sterilizatsiyaga qadar qadoqlangandan so‘ng fizikaviy nazoratdan o‘tadi.



**Kimyoviy nazorat.** Bunda dori vositalarining (sifatining tahlili) chinligi va miqdori tekshiriladi.

Dorixonada quyidagi dori vositalarining sifati tekshiriladi:

1) dorixonada qadoqlanadigan dori vositalarining har bir seriyalari;

2) yakka tartibda tayyorlanadigan dori vositalarining ba'zi birlari (0,1% farmatsevt analitik lavozimi bo'lsa, 0,3% farmatsevt analitik lavozimi bo'lmasa);

3) barcha konsentratlar, yarimfabrikatlarning har bir seriyalari;

4) shtangaslardagi va byuretka qurilmalaridagi dori vositalari;

5) omborxonadan dorixonaga keltirilgan dori vositalarining ba'zilari;

6) tozalangan suv (xloridlar, sulfatlar, kalsiy tuzlarining yo'qligi).

Dorixonada quyidagi dori vositalarining sifati va miqdori tekshiriladi:

1) barcha in'eksiya uchun tayyorlanadigan dori vositalari (sterilizatsiyaga qadar va undan so'ng);

2) tarkibida giyohvand va kuchli ta'sir etuvchi moddalar saqlagan hamda ko'z kasalliklarida ishlatiladigan dori vositalari (tomchilar, surtmalar);

3) atropin sulfat, kumush nitrat, xlorid kislotasi eritmaları (ichish uchun);

4) barcha konsentrat va yarimfabrikatlar;

5) dorixonada tayyorlanadigan barcha dori vositalarining har bir seriyalari;

6) stabilizatorlar;

7) etil spirtining konsentratsiyasi.

Dorixonada tayyorlangan dorilarning sifati nazorat qilib bo'lingach, ularning natijalari tegishli hujjatlarda qayd etiladi. 1—5-jadvalda qayd etish daftaridan namunalari keltirilgan.

#### **5.4. DORIXONADA TAYYORLANGAN DORI VOSITALARINI RASMIYLASHTIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2002-yil 15-apreldagi 177-son «Dorixona muassasalari tomonidan

tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarning tashqi bezagiga doir qoidalarini tasdiqlash haqida»gi buyrug'iga asosan tayyorlanadigan dori vositalarining yorliqlari bo'yicha me'yorlar muvofiqlashtirilgan.

Dorixona muassasalari tomonidan tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarini tashqi bezashda tegishli yorliqlardan foydalanildi, ularni qo'llanilishiga qarab quyidagilarga bo'linadi hamda tegishli ajratish rangli hoshiyalar bilan farqlanadi.

- a) «Sirtqi» — to'q sariq rangli;
- b) «Ichish uchun» — yashil rangli;
- d) «Ko'z tomchisi» — pushti rangli;
- e) «Ko'z surtmasi» — pushti rangli;
- f) «In'eksiya uchun» — ko'k rangli.

Dorixona muassasalari tomonidan tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarini tashqi bezashda ishlatiladigan yorliqlarning barchasida quyidagi shartli belgi va yozuvlar bo'lishi kerak:

- a) emblema (ilon o'ralgan vaza);
- b) dorixonaning nomi;
- d) dorining nomi;
- e) qo'llanish usuli;
- f) «Bolalardan ehtiyot qiling»;
- g) «Salqin va yorug'lik tushmaydigan joyda saqlansin» — degan ogohlantiruvchi yozuvlar;
- h) «Sirtqi» ishlatiladigan surtma dorilar yorlig'ida «Surtma» degan, «Ichish uchun» ishlatiladigan kukun dorilar yorlig'ida «Kukun dori» degan yozuv, «Ko'z tomchisi» dorisi yorlig'ida tomchi va ko'zning rasmi, «Ko'z surtmasi» dorisi yorlig'ida ko'zning rasmi; «In'eksiya» uchun ishlatiladigan dorilar yorlig'ida «Sterillangan» degan yozuv hamda ignali shpris rasmi bo'ladi.

Alohida saqlash sharoitini, ehtiyotlik bilan ishlatishni talab qilinadigan dori vositalariga asosiy yorliqdan tashqari, qo'shimcha ogohlantiruvchi yozuvlar yopishtiriladi.

Dorixonaga keladigan dori moddalari va boshqa tovarlarni qabul qilishda kirish nazorati o'tkazilishi, ya'ni tovarlarni ko'zdan kechirish shart. Ushbu nazorat ulgurji firma (dorixona ombor)lari sharoitida ham o'tkaziladi.

Kirish nazorati sertifikatda ko'rsatilgan preparatning tashqi ko'rinishi va ishlatish qoidasi hamda tahlil sertifikati bo'ladi.

Nazorat vaqtida quyidagilarga e'tibor beriladi:

— Tovarining tamg'alanishi, tovar nomi, dozalari, chiqarish shakli, ishlab chiqaruvchi korxonasi nomi, sifat sertifikatiga va tahlil sertifikatiga mosligi;

— tovarning germetikligi va o'ramining mustahkamligi;

— o'ram ustidagi ishlab chiqaruvchi seriyasining raqami va kuzatuvchi hujjatlardagi seriya raqamini sifat sertifikatidagi hamda tahlil sertifikati raqamiga to'g'ri kelishi.

Sifat sertifikati yoki tahlil sertifikatining farmatsevtik mahsulot sifatini tekshirish Davlat tizimiga kirmagan laboratoriyalar tomonidan rasmiylashtirilgan bo'lsa ham ularni qabul qilish man etiladi.

Agar dori preparatining sifati haqida shubha tug'ilsa, unda farmatsevtik inspeksiyaga tekshirishga yuborilishi lozim.

Kirish nazoratining natijalari maxsus tasdiqlangan daftarga kiritiladi.

## **5.5. DORIXONADA TAYYORLANADIGAN DORI VOSITALARINING SAQLANISH MUDDATLARI**

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2000-yil 21-aprelda tasdiqlangan 195-sonli Dorixona sharoitida tayyorlanadigan dori vositalari sifatini yaxshilash to'g'risidagi buyruqqa asosan dorixona sharoitida tayyorlanadigan dori shakllarining saqlash muddatlari quyidagicha:

— tarkibida glukoza va benzilpenisillin saqlagan suvli eritmalar — 1 kun;

— ko'z tomchilari — 2 kun;

— in'eksiya eritmaları — 2 kun;

— qaynatma, damlamalar, shilimshiqlar — 2 kun;

— emulsiyalar, suspenziyalar — 3 kun;

— boshqa dori shakllari — 10 kun.

Buyruqda boshqa dori shakllari: ko‘z tomchilari tayyorlash uchun konsentratlar, mazlar, ichish uchun mikstura va turli eritmalar, ularni tayyorlash uchun konsentratlar, kukunlar, burun tomchilari va sirtga ishlatiladigan eritmalar va boshqa dori vositalar tayyorlash uchun yarimfabrikatlarning saqlanish muddatlari jadval tarzida keltirilgan. Dorixonada tayyorlanadigan ko‘pgina dori vositalarining yaroqlilik muddatlari, odatda, 60 kundan ko‘p bo‘lmagan muddatlar belgilanadi.

Dorixonada tayyorlanadigan dori vositalarining sifat nazorati natijalari quyidagi daftarlarda rasmiylashtiriladi:

1. Organoleptik, fizik va kimyoviy sifat nazorat natijalarini qayd etish daftari. Bu daftarda nazorat qilingan sana, tartib nomeri, dori turining tarkibi, retsept nomeri, nazorat natijalari, dori tayyorlovchilar, tekshiruvchining imzolari bo‘lishi shart.

2. Dori vositalari haqiqiylikini nazorat qilish natijalarini qayd etish daftari. Bu daftarda nazorat qilingan sana, tartib nomeri, nomi, tayyorlovchi korxonaning seriya va analiz nomeri, to‘ldirilayotgan shtanglasning nomeri, aniqlanayotgan modda, to‘ldiruvchi va tekshiriluvchilarning imzolari bo‘ladi.

3. Dorixonada qadoqlangan dorilarni va sanoat korxonalarida tayyorlangan mahsulotlarni organoleptik, fizik hamda kimyoviy sifat nazorat qilishni qayd etish daftari. Daftarda nazorat qilingan sana, tartib nomeri, qadoqlangan seriya nomeri, qadoqlangan dorining nomi, tayyorlagan zavodning seriya nomeri, qadoqlovchining familiyasi, ismi, sharifi, nazorat natijalari, yakuni, tekshiruvchining imzosi bo‘lishi shart.

4. Tozalangan suv sifatini nazorat qilish natijalarini qayd qilish daftari. Daftarda olingan sana, nazorat qilingan sana, tartib nomeri, ballon yoki byuretkka nomeri, yot aralashmalarini tekshirish natijalari (xlorid, sulfat, kalsiy, ammoniy, qaytaruvchi modda, uglerod angidridi), tekshiruvchining imzosi bo‘lishi shart.

5. Byuretkka qurilmasidagi eritmalar haqiqiylikini tekshirish natijalarini qayd etish daftari. Bu daftarda sana, tartib nomeri, byuretkalardagi eritmalar nomi, tekshiruvchining imzosi bo‘lishi shart.

**Orgonoleptik, fizik va kimyoviy sifat nazorat natijalarini  
qayd etish daftari**

Nazorat qilingan sana	Tartib nomeri, shuning o'zi analiz nomeri	Dori turining tarkibi	Shartli belgisi	Retsept nomeri	Nazorat natijalari			Dori tayyorlovchilarning familiyasi, ismi, sharifi	Tekshiruvchining imzosi
					Orgonoleptik	fizik va kimyoviy	haqiqiy- ligi		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10



**Tozalangan suv sifatining nazorat qilish natijalarini qayd etish daftari**

Namuna olingan sana	Nazorat qilingan sana	Tartib nomeri, shuning o'zi analiz nomeri	Ballon yoki byuretka nomeri	Yot aralashmalarni tekshirish natijalari						Qoniqarli yoki qoniqarsiz	Tekshiruvchining imzosi
				Xlorid ioni	Sulfat ioni	Kalsiy ioni	Ammoniy ioni	Qaytaruvchi moddalar	Uglerod angidridi		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12

**Byuretkalar qurilmasidagi eritmalarning haqiqiylikini tekshirish natijalarini qayd etish daftari**

Sana	Tartib nomeri	Byuretkalardagi eritmalar nomi						Tekshiruvchining imzosi
		natriy bromidning 20 % li eritmasi	natriy benzonatning 10% li eritmasi	vodorod xloridning 10% li eritmasi	natriy karbonatning 5% li eritmasi	valeriana damlamasi		
1	2	3	4	5	6	7	8	

## **6-BOB. DORIXONADA G'AMLAMALAR BO'LIMINING ISHINI TASHKIL QILISH. LABORATORIYA VA QADOQLASH ISHLARINI HISOBGA OLISH**

### **6.1. G'AMLAMALAR BO'LIMINING ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI**

G'amlamalar bo'limining asosiy vazifalari dorixonaga ta'minotchilardan keltirilgan dori vositalari va boshqa tibbiy buyumlarni qabul qilib olish, saqlash, ularni boshqa bo'limlarga, davolash-profilaktika muassasalariga, tashkilotlarga, shoxobchalariga tarqatish hamda laboratoriya va qadoqlash ishlarini amalga oshirishdan iborat.

G'amlamalar bo'limining zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

1) dorixonani dori vositalar tibbiyot buyumlarining kerakli assortimenti bilan ta'minlanib turishini kuzatib borish, tovar g'amlamalarining to'g'ri saqlanishini tashkil etish;

2) zaruriy tovarlar uchun buyurtma talabnomalar tuzilib, o'z vaqtida dorixona omboriga yuborish;

3) ta'minotchilardan kelgan buyumlarni qabul qilib olish;

4) bo'limdagi tovarlarning harakati to'g'risida hisobot tuzib borish;

5) retseptsiz savdo bo'limiga tegishli tovarlarni berish;

6) assistentlar xonasidagi shtanglaslarni dori vositalari bilan to'ldirib turish;

7) dorixonaga biriktirilgan DPMLarga, dorixona shoxobchalariga tovarlarni tarqatish;

8) tarqatilgan tovarlar uchun yukxati va boshqa tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish.

### **6.2. G'AMLAMALAR BO'LIMI XODIMLARI ORASIDA SHTATLAR VA VAZIFALARNI TAQSIMLANISHI**

G'amlamalar bo'limida fa'imatsevt va qadoqlovchilar xizmat qilib, ular bevosita bo'lim mudiri hamda muavinlariga bo'ysunadilar.



Bo'limda farmatsevt-texnologning vazifalari quyidagilardan iborat:

— bo'limdagi laboratoriya ishlarini olib borish, jumladan, konsentrlangan eritmalarini, yarim fabrikatlar, dorixonada va tez-tez uchrab turadigan retseptlar bo'yicha oldindan dorilar tayyorlash;

— qadoqlovchilar o'rtasida ishlarni taqsimlab, qadoqlangan mahsulotlarni qabul qilish;

— tovarlar saqlash xonalarida Davlat farmakopeyasi va amalda tasdiqlangan yo'riqnomalarning talablariga muvofiq to'g'ri saqlanishini ta'minlash;

— shtanglaslarni dori vositalari bilan to'ldirib turish;

— birlashtirilgan davolash-profilaktika muassasalari va dorixona bo'limlaridan tushgan talabnomalar asosida tovarlar to'plash;

— dori vositalari va boshqa tibbiy buyumlarga buyurtma tuzishda qatnashish, vaqtinchalik yo'q bo'lgan dori vositalariga buyurtma tuzishda qatnashish, vaqtinchalik savdoda bo'lmagan va yangi qabul qilingan dori vositalarining hisobini olib borish;

— dorixonaga olib kelingan tovarlarni qabul qilishda qatnashib, ularni saqlanish joylari bo'yicha joylashtirishni tashkil qilish;

— bo'limda farmatsevtik tartib va sanitariya me'yor va qoidalariga rioya qilishni nazorat qilib turish.

Qadoqlovchilar esa quyidagi vazifalarni bajaradilar:

— dori vositalarini qadoqlash;

— tovarlarni qabul qilishda va bo'limlarga tarqatishda qatnashish;

— tarozilardan, qadoqlash uskunalardan to'g'ri foydalanib, ularni ozoda saqlanishini ta'minlash;

— farmatsevt va farmatsevt assistentlarning ishlab chiqarishga doir ko'rsatmalarini bajarish.

Qadoqlovchi bajarilgan ishning sifati va ish joyining sanitariya holati uchun javobgar hisoblanadi.

G'amlamalar bo'limi dorixona omborxonasidan tovarlarni olish uchun buyurtma-talabnoma yozadi. Buyurtma talabnoma 2 nusxada omborxonaning tegishli bo'limlari uchun rasmiylashtiriladi. Tarkibida zaharli, giyohvandlik vositalari va etil spirti bo'lgan dori preparatlari uchun alohida buyurtma talabnomalari har oyda reja

asosida dorixonona omborxonasiga, ayrim hollarda rejadan tashqari shoshilinch buyurtmalar tuziladi.

G'amlamalar bo'limidan dorixonaning boshqa bo'limlariga va shoxobchalariga tovarlar talabnoma yukxatiga muvofiq beriladi. Talabnoma yukxati 3 nusxada to'ldiriladi. Uning birinchi nusxasi tovarlar hisobotiga kiritilib, ikkinchisi tovarlarni qabul qilgan xodimga beriladi, uchinchi nusxasi esa ularni tarqatgan moddiy javobgar shaxsda qoladi.

G'amlamalar bo'limida quyidagi xonalar bo'ladi:

- tovarlarni qabul qilish xonasi;
- tayyor dori vositalarini, issiqqa chidamsiz — termolabil dori vositalarini, mineral suvlarni, har xil idishlarni, dori vositalarini tayyorlash, ularni rasmiylashtirish va berishda kerak bo'ladigan yordamchi materiallar, dorivor o'simliklar hamda bog'lov materiallarini saqlaydigan xonalar.

Ayrim dorixonalarni g'amlamalar bo'limida laboratoriya va qadoqlash ishlarini bajarish uchun alohida xona bo'lib, unda konsentratlar, yarim fabrikatlar tayyorlash va qadoqlash ishlari bajariladi. Ularni bajarish uchun esa har xil kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalaniladi.

G'amlamalar bo'limidagi dori vositalari Davlat farmakopeyasi talablariga muvofiq saqlanadi. Dori vositalarining saqlanishida qoida va shartlariga aniq rioya qilinsa, ularning buzilish hollarini oldi olinadi. Dori vositalarini saqlashda ularning toksikologik xossalari, farmakologik guruhlari, qo'llanish usullari, agregat holatlari, yaroqlilik muddati ta'sirchanligiga asosan guruhlarga tasniflanadi.

Yorug'likka sezgir preparatlar to'q zarg'aldoq rangli shisha idishlarda, ba'zida yorug'lik o'tkazmaydigan qora qog'oz yopishtirilgan shtangaslarda saqlanadi.

Namlikka sezgir preparatlar quruq joylarda saqlanadi.

Rezina buyumlari salqin xonalarda, qorong'i shkaflarda va tokchalarda saqlanadi. Ular saqlanadigan xonalar va shkaflardagi namlik 60% dan kam bo'lmasligi kerak. Buning uchun karbon kislotasining eritmasi va rezina buyumlarini elastikligini saqlash maqsadida ammoniy karbonat yoki xlorid, ochiq idishlarda qo'yiladi.

Bog'lov materiallari quruq yorug' xonalarda alohida shkaf tortmalarida saqlanadi. Ularni saqlashda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish talab qilinadi.

Giyohvand, zaharli dori vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar, etil spirti alohida shart-sharoitlarga rioya qilingan holda saqlanadi. Ushbu dori vositalari saqlanadigan xonalar yorug'lik yoki tovush signalizatsiyasi bilan ta'minlanadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar saqlanadigan seyflarning ikkitadan kaliti bo'lishi lozim. Ularning biri javobgar shaxsda, ikkinchisi esa mudirda turadi. Giyohvand dori vositalari saqlanadigan seyflarda ularni o'lchash uchun qo'l tarozilari, dori vositalarini tayyorlash uchun hovoncha, silindr, voronka bo'lishi shart.

Prekursorlar saqlanadigan xonalarda tabiiy ventilyasiya bo'lishi lozim.

Prekursorlar saqlanganda chang bilan ifloslanmaslik va boshqa choralarni ko'rish kerak, aks holda portlash hodisasi ro'y berishi mumkin. Etil spirti alanga oluvchi preparatlar qatoriga kirgani uchun, uni og'zi mahkam yopiladigan idishlarda yorug'likdan himoya qilingan holda salqin joylarda, alohida xonalarda saqlanishi kerak.

Smena tugagach, yuqorida qayd etilgan moddalar saqlanadigan xonalar yopilib, muhrlanadi yoki plombalanadi.

G'amlamalar bo'limida bajarilgan laboratoriya va qadoqlash ishlari «Laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish daftari»da qayd etiladi. Bu daftarda laboratoriya ishi uchun berilgan dori vositalarining nomi, o'lchov birligi, miqdori, bahosi, umumiy narxi bilan birgalikda tayyorlanib, qadoqlab topshirilgan mahsulotlarning seriyasi, o'lchov birligi, nomi, miqdori, bahosi, umumiy narxi, xomashyo va tayyor mahsulotlarning narxlari orasidagi farqlar aks ettiriladi hamda ishni bajarib, sifatini tekshirib qabul qilib olgan shaxslar imzo qo'yadilar.

Dorixonalarda xodimlarning ish faoliyatini yengillashtirish uchun oldindan konsentratlar, yarimfabrikatlar tayyorlanadi:

50% li glukoza, 20% li natriy bromid, 20% li magniy sulfat, 10% li kaliy yodid, dimedrolning 1% li, bor kislotasining 2% li,

natriy tiosulfatning 60% li, natriy xloridning 0,9% li eritmalari va hokazo.

Tayyor dori vositalari bo'limi har xil seksiyali shkaflar, stollar va peshtaxtalar bilan jihozlanadi, bundan tashqari termolabil dori vositalari uchun m uzlatkichlar, zaharli, giyohvandlik vositalari uchun esa qulflanadigan temir seyflar bo'ladi. Bo'limni mudir va uning o'rinbosarlari — oliy ma'lumotli farmatsevtlar boshqaradi.

Dorixonadagi dori vositalarini va boshqa tibbiy buyumlarni retseptsiz beradigan bo'lim ham kutish zaliga joylashtiriladi. U har xil to'siqlar bilan ajratilgan bo'ladi. Retseptsiz savdo bo'limini esa o'rta maxsus ma'lumotli farmatsevt — assistenti boshqarishi mumkin. Bu bo'limning vazifasi aholiga shifokor retseptsiz berishga ruxsat etilgan dori vositalari, gigiyena buyumlari hamda boshqa tibbiyot va bemorlar parvarishida ishlatiladigan buyumlar bilan savdo qilishdan iborat.

### **6.3. DORIXONADA TOVARLARNI QABUL QILISH QOIDALARI VA ULARNI BOSHQA BO'LIMLARGA BERISH TARTIBI**

G'amlamalar bo'limi dorixona omboridan buyumlarni olish uchun buyurtma-talabnoma yozadi. Buyurtma-talabnoma uch nusxada omborning tegishli bo'limlari uchun rasmiylashtiriladi.

Tarkibida zaharli, giyohvand moddalar va etil spirti bo'lgan dori vositalari uchun alohida buyurtma-talabnomalar har oyda reja asosida dorixona omboriga yuboriladi.

G'amlamalar bo'limidan dorixonaning boshqa bo'limlariga va dorixona shoxobchalariga buyumlarni talabnoma yukxatiga muvofiq beriladi. Talabnoma yukxati uch nusxada to'ldiriladi. Birinchi nusxasi tovarlar hisobotiga kiritiladi. Ikkinchi nusxasi tovarlarni qabul qilgan shaxsda qoladi. Uchinchi nusxasi esa ularni tarqatgan moddiy javobgar shaxsda bo'ladi.

G'amlamalar bo'limida rasmiylatriladigan hujjatlar namunalari 1—3 jadvalda keltirilgan.

\_\_\_\_\_ sonli buyurtma talabnoma

Xos raqami

Yuk jo'natuvchi: dorixona omborxonasi  
bo'limi \_\_\_\_\_ Xos raqami

Yuk qabul qiluvchi: \_\_\_\_\_ son dorixona

Xos raqami

Xos raqami

Xos raqami

To'lovchi

Jarayon turi

Nazorat soni

Xos raqami

Satr no-meri	Tovar-ning xos raqami	Haqiqiy jo'natiladigan tovar-ning miqdori	Narxi		Tovar-ning nomi, xos raqami	O'l-chov birligi, xos raqami	Talab qilindi	Ruxsat berildi
			Chakana	Ulgurji				
01								
02								
03								
04								
05								
06								
07								
08								
09								
10								

va hokazo

Dorixona mudiri \_\_\_\_\_ Tibbiy tovarlarni tarqatish  
bo'yicha mas'ul xodim \_\_\_\_\_

/imzo/

/imzo/

Ta'minot bo'limi \_\_\_\_\_

boshlig'i /savdo bo'limi/ \_\_\_\_\_ Dorixona omborining saqlash bo'lim mudiri

/imzo/

/imzo/

**Dorixona**

**Ta'minotchi \_\_\_\_\_ komissiya tarkibi rais, a'zolar**  
**№ schot bo'yicha ta'minotchidan, sifat va miqdor bo'yicha olindi**

№	Nomlanishi	Kod	Seriya	Ana-liz	Saqlash muddati	O'l-chov birligi	Miq-dori (faktik)	Hujjat bo'yicha miqdor	Ombor-xona narxi	Ombor-xona summasi	Sotish narxi	Sotish summasi	Baza narxi	Kamomad

**YUKXATI**

3-jadval

G'amlamalar bo'limi	Dorixonaning bo'limiga yoki shoxobchasiga
---------------------	---

№	Nomlanishi	Shifri	Seriyasi	Yaroqlilik muddati	O'lchov birligi	Miqdori	Ombor-xona narxi	Sotish narxi	Summasi

Jami

Tovar berildi \_\_\_\_\_ Tovar olindi \_\_\_\_\_

#### 6.4. LABORATORIYA VA QADOQLASH ISHLARINI HISOBGA OLISH

Dorixonalarda tayyor dori vositalari miqdorini oshirish, ektemporal tayyorlashni tezlashtirish uchun laboratoriya va qadoqlash ishlari olib boriladi, ular «laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish kitobi (daftari)da» rasmiylashtiriladi. Ular nomerlangan, shnurlangan, muhrlangan bo'lishi, ularda yuqori tashkilot rahbarlari va bosh hisobchining imzolari bo'lishi shart. Kitobdagi barcha yozuvlar ma'lum bir vazifalar bajarilgandan so'ng yoziladi.

Agar ish kuni mobaynida dori vositalarini qadoqlash tugatilmagan bo'lsa, mahsulotning qadoqlab bo'lingan qismi kitobda rasmiylashtirilishi shart.

Laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish bu ishlardagi paydo bo'lishi mumkin bo'lgan farqlarni aniqlaydi, qadoqlash ishlari uchun belgilangan tabiiy yo'qotish me'yorining summasini ko'rsatadi.

Aholidan olingan retseptlar bo'yicha toza holda berilgan spirtning narxi va miqdori laboratoriya ishlarini hisobga olish kitobida kundagi hisoblangan retseptlar asosida yoziladi. Aholiga berilgan toza holdagi distillangan suvning miqdori va narxi ham shu kitobda hisobga olib boriladi.

Oyning oxirida dori vositalarini tayyorlash va qadoqlash ishlariga javobgar shaxslar «laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish kitobi» bo'yicha qadoqlangan suyuqliklar, kukunlar, dozalangan poroshoklar, mazlar, tayyor dori vositalari, tabletkalar, ampullalar, draje va boshqalar miqdorlarini hisoblaydilar.

Laboratoriya va qadoqlash ishlari bo'yicha berilgan xomashyo va tayyor mahsulot orasidagi aniqlangan farqlar bir nusxada rasmiylashtiriladigan ma'lumotnomada dorixona tovar hisobotining kirim va chiqim qismida aks ettiriladi. Laboratoriya va qadoqlash ishlari bo'yicha hisob-nazorat guruhining xodimi tomonidan (ko'p chiqish) hamda (kam chiqish) ma'lumotnomasini tekshirilganda oy yakuni chiqarilganligi to'g'risida tasdiqlovchi imzo chekadi.






## 7-BOB. FARMATSEVTIKA XIZMATINI NAZORAT-RUXSATNOMA TIZIMI

### 7.1. DORI VOSITALARI VA TIBBIY BUYUMLAR SIFATINI BELGILOVCHI NAZORAT-RUXSATNOMA TIZIMI

O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika xizmatining nazorat-ruxsatnoma tizimi — dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika, tibbiy-profilaktik va tibbiy-kosmetik vositalarning sifatini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini belgilovchi tashkiliy tuzilmadir.

O'zbekiston Respublikasining dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish davlat tizimining tashkiliy tuzilmasi



Nazorat-ruxsatnoma tizimining asosiy vazifasi — dori vositalarini tibbiyot amaliyotida ishlatish uchun ruxsat berish va tatbiq etish bosqichida to‘laqonli o‘rganilishini ta‘minlash, korxonalar tomonidan sifatsiz mahsulotning ishlab chiqarilishi yoki mamlakatga xorijdan olib kelinishi, saqlanish va sotish (tarqatish) sharoitlari-ning buzilishi bilan bog‘liq noxush oqibatlardan iste‘molchilarni himoya qilishdir.

Dori vositalarini yaratish, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida ularning sifatini ta‘minlashga bo‘lgan talablarni doimiy ravishda o‘tib borishining sababi ushbu vositalarning sifati ularning xavfsizligi va samaradorligi bilan uzviy ravishda bog‘liqligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, dori vositalari sifatining ta‘minlanishi har bir bemor va butun bir jamiyatning xavfsizligi ta‘minlanishining kafolatidir.

### **O‘zbekiston Respublikasi Farmatsevtika xizmatining nazorat-ruxsatnoma tizimining shakllanish bosqichlari**

1992-yil 6-mart	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sog‘liqni saqlash vazirligining farmakologiya va farmakopeya qo‘mitalarini tashkil etish to‘g‘risidagi farmoyishi
1995-yil 25-may	Sog‘liqni saqlash vazirligi qoshida Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasini tashkil etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 181-son qarori
1995-yil 25-may	Farmakopeya qo‘mitasi «O‘zfarm sanoat» tasarrufidan chiqarilib, Bosh boshqarma tarkibiga kiritilishi
1996-yil 13-fevral	Bosh boshqarma qoshida tibbiy mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasini tashkil etish
1997-yil 25-aprel	O‘zbekiston Respublikasi «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi qonun

Nazorat-ruxsatnoma tizimining tashkil etilishi va rivojlanishini shartli ravishda III bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi bosqichda (1992—1995) davlat miqyosidagi dori vositalarining sifati va xavfsizligining nazorati O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash

vazirligi qoshidagi farmakologiya hamda farmakopeya qo'mitalari zimmasiga yuklatilgan edi. Respublikamizda farmatsevtika sohasining rivojlanib borishi, xorijdan keltirilayotgan va mahalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining nomenklaturasining ko'payishi, farmatsevtika mahsulotlari hamda tibbiyot buyumlari sifatini nazorat qilish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimida yagona davlat siyosatini ta'minlash zaruratini belgiladi.

Shu davrda mustaqil O'zbekistonning farmatsevtika tizimida dori vositalari va tibbiy texnika sifatini reglamentlashtirish bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilandi:

O'zbekiston Respublikasining milliy dori siyosatini shakllantirish va rivojlanishini ta'minlash;

Dori vositalari muomalasi tartibining me'yoriy-huquqiy asoslarini xalqaro amaliyot tajribasiga tayangan holda yangilash;

— Samaradorlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida dori vositalari, tibbiy texnika hamda tibbiy buyumlar sifatini nazorat qilish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona davlat tizimini tashkil etish;

— Farmatsevtik va tibbiy mahsulotlarni yaratish, ishlab chiqarish, litsenziyalash va sertifikatlash tizimini takomillashtirish;

— O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozoriga nostandart, qalbaki va sifatsiz mahsulotlar kirib kelishining oldini olish. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshida Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi tashkil etildi (1995-yil).

Birinchi milliy «Dori vositalari va tibbiyot buyumlarining Davlat reestri» (1995-yilda) tuzildi va chop etildi. «Dori vositalari va tibbiyot buyumlarining Davlat reestri» O'zbekiston Respublikasining «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi qonuniga asosan Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan har yili nashr etiladi va dori vositalarining muomalasi bilan shug'ullanuvchi barcha muassasa va tashkilotlar uchun rasmiy hujjat bo'lib hisoblanadi.

«Dori vositalari va tibbiyot buyumlarining Davlat reestri»ga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasida rasmiy qayd etilgan chet el hamda mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarining dori vositalari, tibbiy texnika va tibbiyot buyumlari, davolash-

diagnostika vositalari hamda substansiyalarning to‘liq ro‘yxati kiritilgan. Reestrda savdo nomi va ishlab chiqaruvchi firma nomining o‘zgarishi va boshqa sabablar munosabati bilan qayta qayd etilgan dori vositalari hamda shu yillarda qayd etilganligi bekor qilingan dori vositalari va tibbiyot buyumlari ham aks ettiriladi.

Dori vositalarining nazorat-ruxsatnoma milliy xizmatining tashkil etilishi va rivojlanishida ikkinchi bosqich (1996—2000-yillar) alohida o‘rin tutadi. Xorijiy davlatlarning dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi bo‘yicha amaliy tajribalarini umumlashtirib, dori vositalariga qo‘yiladigan mavjud talab va ekspertiza tizimlarini tahlil etib, mahalliy farmatsevtik ishlab chiqarishning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi mamlakatimizda dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish (qayd etish) tizimini takomillashtirish uchun qator chora-tadbirlar ishlab chiqdi. Dori vositalari va tibbiy texnikani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish — qayd etishning yangi qoidalari ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Qayd etish tartibida ro‘y bergan asosiy o‘zgarishlar O‘zbekiston Respublikasi «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» (1997-yil) va «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida» (1999-yil) gi kuchga kirgan qonunlariga muvofiq belgilandi. Qabul qilingan qonunlar yordamida dori, profilaktika va diagnostika vositalarining xavfsizligi, samaradorligi hamda sifatini ta‘minlash uchun huquqiy asoslar belgilandi.

Milliy nazorat-ruxsatnoma tizimi rivojlanishining uchinchi bosqichi (2001-yildan boshlab), ekspertiza o‘tkazish taktikasi, talab va muddatlari, klinik sinovlar tartibi o‘zgargan paytda ro‘y berdi, lekin uchta tamoyil o‘zgar olmay qoldi:

— dori vositasi inson xavfsizligining barcha zamonaviy talablariga javob berishi lozim;

— dori vositasi kasallikni davolashda samarali bo‘lishi lozim;

— davlat nazorati ostidagi yangi dori vositalarining me‘yoriy texnik hujjatlari, tahlili, klinik sinovlari va ekspertizasi bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar tartibi xalqaro qoidalar hamda standartlar talabiga javob berishi lozim.

Shunday qilib, xalqaro farmatsevtik reglamentlashtirish talablariga muvofiq ravishda Respublikamizda dori vositalari va tibbiy buyumlar sifatini belgilovchi nazorat-ruxsatnoma tizimi faoliyatini takomillashtirish jarayoni uzluksiz ravishda olib borilmoqda.

Farmatsevtika mahsulotlari, davolash oziq-ovqatlari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasida yagona davlat siyosatini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 25-maydagi №181-son Qaroriga muvofiq Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi (DV va TTSNBB) tashkil etildi.

DV va TTSN Bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining tashkiliy tuzilmasi hisoblanib, o'zining faoliyatida hukumat farmonlari, qonunlar, qarorlar, Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyanomalariga vazirlik buyruq va yo'riqnomalariga amal qiladi.

DV va TTSN Bosh boshqarmasining vazifalari:

— dori vositalari, tibbiyot buyumlar va tibbiy texnika sifatining davlat nazoratini tashkil etish va standartlashtirish;

— dori, profilaktika va diagnostika vositalarining ekspertizasini, klinikagacha va klinik sinovlarini hamda tibbiy texnika va tibbiyot buyumlarining klinik hamda texnik sinovlarini tashkil etish;

— dori, profilaktika va diagnostika vositalari hamda buyumlariga oid me'yoriy-texnik hujjatlar — farmakopeya maqolalari (FM), vaqtincha farmakopeya maqolalari (VFM), spesifikatsiyalar va boshqa hujjatlarni tasdiqlash hamda ekspertizasini tashkil etish;

— mahalliy va xorijiy dori, profilaktika, diagnostika vositalari, tibbiy texnika, tibbiyotda qo'llaniladigan buyumlarni sertifikatlashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish;

— davlat farmakopeyasi, Davlat reestri va boshqa me'yoriy hujjatlarni nashr etishga tayyorlash hamda chop etilishini tashkil etish;

— dori vositalarining muomalasi sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga ilmiy-uslubiy xizmatlar ko'rsatish.

Bosh boshqarma oldida dori vositalari bozoridagi vaziyatning sistematik tahlili, yangi dori vositalari, tibbiyot jihozlari va

buyumlarini ro'yxatdan o'tkazish, ma'lum vositalarni qayta ro'yxatdan o'tkazish va tadqiqotlar o'tkazish tizimini qayta ishlash vazifalari turadi.

DV va TTSN Bosh boshqarmasi tarkibiga: Farmakologiya va Farmakopeya qo'mitalari, Dori vositalarini ekspertizasi va standartlashtirish Davlat markazi, farmatsevtik nazorat bo'limi, giyohvandlik vositalari nazorati va yangi tibbiy texnika bo'yicha qo'mitalari dori vositalari, tibbiy texnika hamda tibbiy buyumlarni qayd etish byurosi kabi tarkibiy tuzilmalar kiradi.

**Farmakologiya qo'mitasi** dori, diagnostika va profilaktika vositalarini tibbiyot amaliyotida qo'llash maqsadida ularning (klinikagacha va klinik) sinovlarini o'tkazish uchun belgilanadigan talablarni ishlab chiqish, bu sinov natijalarini tahlil qilish, dori vositalarining tibbiyot amaliyotiga tatbiqi uchun tavsiyalar ishlab chiqish kabi yo'nalishlar bo'yicha faoliyat yurituvchi organ hisoblanadi. Shuningdek, Farmakologiya qo'mitasi samarasiz va eskirgan dori vositalarini Davlat Reestridan chiqarishga tavsiya etish vazifasini ham bajaradi.

Farmakologiya qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining klinik tadqiqotlar bo'yicha ekspert organi hisoblanadi.

Farmakologiya qo'mitasi hamma yangi dori vositalarini klinik sinovdan o'tkazish uchun ruxsat berish, yangi dori vositalarini tibbiy amaliyotga qo'llanilishiga va sanoat miqyosida ishlab chiqarishga tavsiya qilish, eskirib qolgan dori vositalarini tibbiy amaliyotdan chiqarish to'g'risida tavsiya berish vazifalarini bajaradi, shuningdek hamma xoriждан keltirilgan dori vositalariga ham klinik tadqiqotlarini olib boradi.

— Farmakologiya qo'mitasi tavsiyalari Sog'liqni saqlash vazirligi mas'ul Bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi.

Bundan tashqari farmokologiya qo'mitasiga quyidagi mas'uliyatlar yuklatiladi:

— yangi dori vositalari va shakllarini klinik sinovdan o'tkazish uchun ruxsat berish;

— yangi dori vositalari va shakllarini amaliyotda qo'llanilishi,

yoki qo‘llanilmasligi to‘g‘risidagi tavsiyanomani ko‘rib chiqib, uni tasdiqlash;

— yangi dori vositalari uchun berilgan nomlarni ko‘rib chiqib, berilgan nomni tasdiqlashga tavsiya qilish;

— yangi dori vositalarini yuqori bir marta va yuqori sutkali dozalarini aniqlab tasdiqlash, qaysi guruhga mansub bo‘lishini aniqlash;

— eskirib qolgan dori vositalarini sanoat miqyosida ishlab chiqarishdan olib tashlash to‘g‘risidagi tavsiyani tayyorlash;

— yangi dori vositalari va shakllarini tibbiyot amaliyotida qo‘llash hamda ishlab chiqarish uchun tavsiyanomalarni tayyorlash.

Ushbu faoliyatlarni amalga oshirishda qo‘mita tomonidan oldindan tekshirish, tajribalar o‘tkazish va tegishli adabiyotlardan aniqlanishiga muhtoj bo‘lgan dori vositalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘zlarining tegishli komissiyalari, ilmiy tekshirish institutlari mutaxassislariga tegishli xulosa chiqarish uchun yuboriladi.

Eksperimental tajribalar va klinik sinovlar o‘tkazish uchun alohida klinikalar, shifoxonalar hamda laboratoriyalar ajratiladi. Bularni ro‘yhati Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Farmakologiya qo‘mitasi muntazam ravishda yangi dori vositalari to‘g‘risida rasmiy ma‘lumotlarni chop etadi.

Farmakologiya qo‘mitasi o‘zining vakolati doirasida ilmiy tekshirish institutlari va oliy ta‘lim muassasalari ilmiy kengashlari bilan bog‘lanib turadi. Qo‘mita o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi «O‘zfarmosanoat» konserni va boshqa tegishli mahkama va tashkilotlar bilan birga hamkorlikda olib boradi.

Dori vositasining **klinikagacha sinovi** uning farmakologik ta‘sirini (dori moddalarining fizik-kimyoviy xususiyatlari) o‘rganish, shu jumladan tajriba hayvonlarida sinash va dori shaklini yaratish maqsadida o‘tkaziladi. Klinikagacha sinovning asosiy maqsadi dori vositasining yetarli ravishda samaradorligi va organizmga bo‘lgan nojo‘ya ta‘sirlar darajasini aniqlashdan iborat.

**Klinik sinov** — bemorlarda dori vositasining samaradorligi va xavfsizligini aniqlanishi yoki tasdiqlanishi bo‘lib, bu sinovlar

farmakologiya qo‘mitasining klinik bazalarida shartnoma asosida o‘tkaziladi. Klinik sinovlarni o‘tkazish tartibi va bosqichlari O‘zR SSV ning 2001-yil 25-iyul 334-son buyrug‘iga binoan tasdiqlangan.

Klinik sinovning I bosqichi — dori vositasining xavfsizligini dastlabki baholash hamda uning farmakokinetikasi va farmakodinamikasini rozilik bildirgan yoshi katta bemorlarda o‘rganish asosida davolash dozalarining boshlang‘ich sxemasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Klinik sinovning II bosqichi — dori vositasining terapevtik samaradorligini va qisqa muddatdagi xavfsizligini baholash, muqobil terapevtik dozalarni, samaradorlikning dozalarga bog‘liqligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Klinik sinovning III bosqichi, odatda, dori vositasi qayd etilgandan so‘ng o‘tkazilib, bunda uning terapevtik samaradorligi va xavfsizligi tasdiqlanib, uzoq muddatli noxush yoki boshqa kasalliklarga bog‘liq ta’sirlari aniqlanadi.

Klinik sinovning IV bosqichi — dori vositasining bozordagi muomalasi boshlangandan so‘ng o‘tkaziladi. Bu sinovlarning maqsadi — dori vositasining terapevtik ahamiyatini, uning kelajakdagi qo‘llanish strategiyasini belgilash hamda nojo‘ya ta’sir doirasi, boshqa dorilar bilan mutanosibligi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar olishdir.

**Farmakopeya qo‘mitasi** dori, diagnostika va profilaktika vositalari, shuningdek, farmatsevtikada ishlatiladigan yordamchi vositalarining, standartlarini ekspertizadan o‘tkazuvchi, amaliyotga joriy etilishini ta’minlovchi bo‘limdir.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Farmakopeya qo‘mitasi vazirlikning 1992-yil 14-aprelidagi 227-son buyrug‘iga binoan birinchi marta Toshkent farmatsevtika instituti qoshida tashkil etildi. 1994-yil 22-iyulida «O‘r-farmsanoat» davlat aksionerlik konserni tasarrufiga o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 25-maydagi 181-son «Dorivor vositalar, tibbiy buyumlar va davolash-profilaktika oziq-ovqatlari sifati ustidan davlat nazoratini tashkil etish to‘g‘risida»gi qaroriga binoan Farmakopeya qo‘mitasi



«O'zfarm sanoat» davlat aksionerlik konserni ixtiyorida qayta Sog'liqni saqlash vazirligi tizimi tasarrufiga o'tkazildi va shu kunga qadar Dori vositalari hamda tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi tarkibida faoliyat yuritmoqda.

Farmakopeya qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— dori, diagnostika, profilaktika vositalarini yaratuvchi tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan me'yoriy-texnik hujjatlar (MTH) loyihalarini ekspertizadan o'tkazish, ularning sifatini talablar darajasiga ko'tarish va tasdiqlash uchun taqdim etish;

— O'zbekiston Respublikasi Davlat Farmakopeyasini chop etishga tayyorlash;

— dori va yordamchi vositalarga qo'yiladigan umumiy standart talablari hamda nazorat usullarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish;

Respublikadagi dori vositalari nazorat-tahlil laboratoriyalari, dorilar muomalasiga aloqador bo'lgan tashkilot hamda muassasalarni MTHlar bilan ta'minlash;

— dori vositalarini yaratish, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, sifat nazoratini amalga oshirish, saqlash bo'yicha boshqaruv hujjatlari hamda yo'riqnomalarni tayyorlash va amaliyotga joriy etish.

Tayyorlangan me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash va rasmiylashtirish ishlari Farmakopeya qo'mitasi prezidiumi xulosasi asosida olib boriladi.

**Giyohvandlik vositalari nazorati qo'mitasi** — giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar noqonuniy muomalasining oldini olish bo'yicha faoliyat olib boruvchi O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi hisoblanadi.

Qo'mitaning vazifalari:

— giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlarga oid me'yoriy hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etadi;

— 1961, 1971 va 1988-yillardagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyalari tavsiyanomalariga mos ravishda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar ro'yhatini ko'rib chiqishda qatnashadi;

— giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonuniy muomalasi ustidan nazorat qilishni ta'minlaydi; vazirliklar, tashkilotlar buyurtmalari asosidagi tibbiyot hamda ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni nazorat qiladi;

— giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish hamda Respublikadan olib chiqish bo'yicha yuridik shaxslarning arizalarini ko'rib chiqadi;

— giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va Respublikadan olib chiqish huquqini beruvchi sertifikatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtiradi;

— giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar ekspertizasining yangi usullarini baholashda qatnashadi;

— O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalariga bo'lgan ehtiyojini jamlaydi va BMT ning giyohvandlar nazorati qo'mitasiga kvota ajratishi uchun yuboriladi;

— BMT ning giyohvandlik vositalari muomalasi bo'yicha xalqaro giyohvandlik nazorati qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi bo'yicha hisobotlarni taqdim etadi.

Dori vositalarining ekspertizasi va standartlash Davlat markazi (DVE va SDM) Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 25-maydagi 181-sonli qarorining ijrosi sifatida O'zR SSVning 1995-yil 6-iyun-dagi 250-sonli buyrug'iga binoan O'zR SSV qoshidagi dori vositalarni standartlashtirish va sifatini nazorat qilish laboratoriyasi bazasida tashkil etilgan.

DVESDM asosiy vazifasi Respublikada ishlab chiqarilgan va import bo'yicha keltirilayotgan dori, profilaktika, diagnostika vositalari hamda tibbiy texnika, tibbiyotda ishlatiladigan buyumlar va davolash-oziquantirish mahsulotlarining sifatini davlat nazoratidan o'tkazish; dori vositalarini standartlashtirish, sifatni nazorat qilish usullarini takomillashtirish, yangi usullarni ishlab chiqish va shuningdek, yangi dori vositalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish.

DVESDM o'z tarkibida quyidagi bo'limlar mavjud:

- dori vositalari va tibbiyot buyumlari sifatini nazorati standartlashtirish laboratoriyasi;
- farmako-toksikologik tadqiqotlar laboratoriyasi;
- vaksina, zardob vositalari va mikrobiologik tadqiqotlar laboratoriyasi;
- tibbiy texnika sifatini nazorat qilish laboratoriyasi;
- ilmiy-uslubiy va axborot bo‘limi.

Davlat markazi laboratoriyalari dori vositalarining sifat nazoratini o‘tkazish uchun AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning yetakchi firmalari tomonidan ishlab chiqarilgan zamonaviy uskunalari bilan jihozlangan, Dori vositalarini sertifikatlovchi organ hisoblanadi. Andijon, Samarqand, Urganch va Qarshi shaharlarida Davlat markazining filiallari mavjud.

Dori vositalari standartizatsiyasi va ekspertizasi davlat markazida ilmiy-uslubiy va axborot hamda sertifikatlashtirish bo‘limlari mavjud.

Yangi tibbiy texnika qo‘mitasi — Respublikaga olib kirilayotgan va Respublikada yaratilgan yangi tibbiy texnikani tahlil ishlarini amalga oshirib, qayd etish ruxsatnomasini tayyorlaydi, bu qo‘mita ishida tibbiy texnika jihozlari va mahsulotlari sifatini nazorat qilish laboratoriyasi yordam beradi.

Yangi tibbiy texnika qo‘mitasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasining tarkibiy qismi bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi hududida tibbiyot amaliyotida qo‘llaniladigan tibbiy texnika, tibbiy ashyolar hamda tashxis vositalarining samaradorligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ularning ekspertizasi, standartlash, qayd etish va qayta qayd etish faoliyatini olib boradi.

Tibbiy texnika, tibbiy ashyolar va tashxis vositalari, kasalliklarning oldini olish, davolash, tibbiy muolaja hamda tashxis qo‘yish maqsadida qo‘llaniladigan, asbob, anjomlar, moslamalar, qurilmalar va yordamchi vositalar bo‘lib, ular tibbiyot maqsadlarida qo‘llashga mo‘ljallangan.

Qayd etish jarayoni mahalliy va xorijiy tibbiy texnika, tibbiy ashyolar hamda tashxis vositalarining xalqaro standartlari va me‘yoriy hujjatlari talablariga mosligini aniqlashga va ularni tibbiyot

amaliyotida qo‘llashga bosqichma-bosqich ruxsat etishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi talablarni o‘z ichiga oladi:

- me‘yoriy-texnik hujjatlar ekspertizasi;
- texnik sinovlar;
- laboratoriya sinovlari;
- tibbiy sinovlar;
- kimyoviy toksikologik, mikrobiologik tadqiqotlar;
- kimyoviy, toksikologik, mikrobiologik tadqiqotlar, texnik laboratoriya va tibbiy sinovlar dalolatnomalari tahlili;
- tibbiy ashyoni ishlab chiqarish va tibbiyot amaliyotida qo‘llash taklifini kiritish;
- qayd etish guvohnomasini rasmiylashtirish;
- qayd etilgan ashyoni O‘zbekiston Respublikasi Davlat reestriga kiritish.

Yangi tibbiy texnika qo‘mitasi vazifalari:

- yangi tibbiy texnika, tibbiy ashyolar hamda tashxis vositalari me‘yoriy hujjatlarni ko‘rib chiqish, ularning texnik talablari va sinovlari loyihalarini belgilangan tartibda tasdiqlashga taqdim etish;
- ekspertlar xulosalari, laboratoriya tekshiruvlari va texnik sinovlar natijalari asosida tibbiy texnika, ashyolar va tashxis vositalari klinik sinovlariga ruxsat berish;
- sinov natijalarini ko‘rib chiqish va ular asosida tibbiy texnika, tibbiy ashyolar hamda tashxis vositalarini qayd etish va tibbiyot amaliyotida qo‘llash masalasini hal etish bo‘yicha takliflar tayyorlash;
- yangi tibbiy texnika, tibbiy ashyolar hamda tashxis vositalarini ishlab chiqarish uchun tavsiyanomalar berish;
- tibbiy ashyolar ishlab chiqarilishini takomillashtirish yoki to‘xtatishga tavsiyalar berish maqsadida tibbiy ashyolar nomenklaturasini qayta ko‘rib chiqish;
- yangi tibbiy texnika, tibbiy ashyolar va tashxis vositalarini tibbiyot amaliyotida qo‘llashga ruxsat etish, eskirgan va amaliyotga joriy etilmagan tibbiy ashyolarni ro‘yxatdan chiqarish haqida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining buyruqlari va me‘yoriy hujjatlar loyihalarini tayyorlash;
- yangi tibbiy texnika, tibbiy ashyolar hamda tashxis

vositalarini standartlash va sifat nazorati bo'yicha uslubiy qo'llanma, bulletin, axborot xati, yo'riqnoma va boshqaruv hujjatlarini ko'rib chiqish hamda tasdiqlashga tayyorlash;

— mahalliy va xorijiy tibbiy texnika, tibbiy ashyolar hamda tashxis vositalari klinik va texnik sinovlarini belgilangan tartibda o'tkazish uchun tayanch klinikalar, markazlar ro'yxati tayyorlash va tasdiqlash uchun taqdim etish;

— tibbiy texnika, tibbiy ashyolar hamda tashxis vositalarining yangi me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, bekor qilish, texnik sharoitlarning amal qilish muddatlarini uzaytirish yoki chegaralash borasida o'z takliflarini kiritish;

— tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilgan tibbiy texnika, tibbiy ashyolar hamda tashxis vositalarining ro'yxatlarini muntazam ko'rib chiqish, yangilarini o'z vaqtida Davlat reestriga kiritishni taklif etish, eskirgan, muomalasi to'xtatilgan ashyolarni ro'yxatdan chiqarish;

— tibbiy texnika, tibbiy ashyolar hamda tashxis vositalari ekspertizasini o'tkazish uchun tegishli tashkilot hamda muassasa xodimlarini hamda muassasa rahbarlarining roziligi asosida ekspertiza o'tkazishga jalb etish.

Qo'mita quyidagi huquqlarga ega:

— tibbiy texnika, ashyolar va tashxis vositalari sifati haqidagi tegishli ma'lumotlar, me'yoriy hujjatlar hamda ular na'munalarini korxonalar, tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari laboratoriyalaridan olish;

— davlat reestriga kiritilmagan va O'zbekiston Respublikasi tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilmagan tibbiy texnika va tibbiy ashyolar hamda tashxis vositalarini ishlab chiqarish, sotish va olib kirish, ulardan foydalanishni ta'qiqlash haqida yuqori tashkilotlarga xabar berish;

— tibbiy texnika, tibbiy ashyolar va tashxis vositalarini ishlab chiqarishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish borasida takliflar kiritish.

Qo'mita ishlarini bajarish uchun shartnoma asosida tegishli soha mutaxassislaridan tashkil topgan ekspertlar guruhlarini tuzib o'z ish faoliyatlarini yuritadi.

**Ilmiy uslubiy va axborot bo'limi** — Respublikada farmatsevtika sohasi bo'yicha ilmiy-amaliy yangiliklarni mazkur soha mutaxassislariga va aholiga yetkazish bilan shug'ullanadi. Ushbu vazifalar «O'zbekiston farmatsevtika xabarnomasi» va har yili bir marta chiqariladigan «O'zbekiston Respublikasi Dori vositalari va tibbiyot buyumlarining Davlat reestri»ni tayyorlash va chop etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Sertifikatlashtirish sektori** tibbiyot buyumlari va dori vositalariga muvofiqlik sertifikatini beradi.

**Farmatsevtik nazorat bo'limining** asosiy vazifasi — dori vositalari va tibbiy buyumlari bo'yicha sifat standartlari talablarini bajarilishini, shu jumladan sertifikatlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish, tayyorlash, sifatini nazorat qilish, saqlash, tashish, sotish va qo'llash jarayonida nazoratni amalga oshiradi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan farmatsevtika va tibbiy mahsulotlarga qo'yiladigan davlat hamda tarmoq standartlarining (farmakopeya maqolalari, texnik shartlar, ishlab chiqarish reglamentlari, texnologik yo'riqnomalar va boshqa texnikaviy va me'yoriy hujjatlar) talablariga rioya etilishini nazorat qiladi.


Dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarishni, ishlab chiqarilayotgan hamda sotilayotgan dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifatini amaldagi standartlarga rioya etilishini nazorat qiladi. Dorixona muassasalarida dori vositalarini tayyorlash, saqlash va sotish jarayonlarida amaldagi standartlarga rioya etilishini nazorat qiladi. Farmatsevtika faoliyatini amalga oshiruvchi vakolatlangan nazorat-tahlil laboratoriyalarida amaldagi standartlarga rioya etilishini nazorat qiladi.

Ho'jalik yurituvchi subyektlarda Bosh boshqarmaning sifatni yaxshilash va standart talablariga javob bermaydigan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar ishlab chiqarilishi va sotilishining oldini olish bo'yicha yozma ko'rsatmalari bajarilishini nazorat qiladi. Dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifatiga taalluqli bo'lgan arizalar va shikoyatlar bo'yicha Bosh boshqarma orqali qonunda belgilangan tartibda choralarni ko'radi.

Farmnazorat bo'limi xodimlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Farmatsevtika faoliyati bo'yicha

litsenziya komissiyasi ishida ishtirok etadi, ya'ni Farmnazorat bo'limining vakolatlari doirasida Farmatsevtika faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning shart-sharoitlariga ekspert xulosalarini beradi. Farmatsevtik faoliyatni litsenziyalash to'g'risidagi Nizomini va litsenziya shartnomalari talablarini bajarilishini nazorat qiladi.

### O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorini sifatli dori vositalari bilan ta'minlovchi farmatsevtik sektorni boshqarish tuzilmasi



**Malaka oshirish bo‘limida** — Jahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining «Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti» (GMP) qoidalari va talablari asosida mahalliy ishlab chiqarish korxonalari mutaxassislarini qayta tayyorlash tashkil etilgan.

**Metrologiya bo‘limi** — sertifikatli bo‘limiga sinov o‘tkazish uchun topshirilgan tibbiy buyumlar va texnikaning me‘yoriy hujjatlarga mosligini sinovlar asosida tekshiradi.

**Qayd etish byurosi** — chet el va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan tavsiya etilayotgan dori vositalari hamda tibbiy texnikani Respublikada sotishga ruxsat berish uchun qayd etish hujjatlarini rasmiylashtiradi.

O‘zR amaldagi qonunchiligiga muvofiq dori vositalari (substansiyalar) o‘rnatilgan tartibda ularni ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘nggina tibbiyot amaliyotida qo‘llanishi mumkin. Ro‘yxatga olishdan avval SSV tomonidan tasdiqlangan qoidalar («MDH va xorijiy davlatlar dori vositalari va substansiyalarining ekspertizasi, klinik sinovlari, ro‘yxatga olish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi» yo‘riqnomasi 1998-yil)ga muvofiq o‘tkaziladigan ekspertiza va klinik sinovlar asosida qayd etiladi. Ekspertiza hujjatlarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qo‘mita prezidiumida hamda DV va TTSN Bosh boshqarmasi ekspert kengashida natijalar tasdiqlangandan so‘ng qayd etish byurosida ro‘yxat guvohnomasi rasmiylashtiriladi.

Ro‘yxatga olish guvohnomasi chet eldan mahsulot olib kirish, ishlab chiqarish va aholiga sotish huquqini beruvchi hujjatdir. Ro‘yxatga olish guvohnomasining berilishi shartnoma to‘lov asosida amalga oshiriladi. Guvohnomaning amal qilish muddati — 5 yil. Dori vositasi qayta ro‘yxatdan o‘tkazilganda ro‘yxatga olish guvohnomasining amal qilish muddati yana 5 yilga uzaytirilishi mumkin.

## **7.2. DORI VOSITALARINING SIFAT STANDARTLARI**

Dori vositasi ishlab chiqarilishidan to iste‘molgacha yetib borguncha bo‘lgan davrda uning sifatini ta‘minlash ishlarining qat‘iy qo‘llanishi asosida dori vositalarining sifat tahlil tizimi tashkil etiladi. «Dori vositasining sifati» tushunchasi uning ro‘yxatga olish (qayd



etish) bosqichida taqdim etilgan tavsif va ko'rsatkichlarga mosligi hamda shuningdek, qayd etish hujjatlarida bayon etilgan barcha xossalari bilan mosligi bilan belgilanadi.

«Sifatni ta'minlash» tushunchasi sifatsiz dorilarni ishlab chiqarilishi, sotilishi va iste'moliga yo'l qo'ymaslik, oldini olish bo'yicha talablar majmuasini aks ettiradi. «Sifat nazorati» tushunchasi barcha bosqichlarda, ya'ni yaratish, ishlab chiqarish, muomala va iste'mol bosqichlarida mahsulotning talablarga mos emasligini aniqlash hamda sifatini baholashga qaratilgan.

Dori vositalari sifatining davlat standartlarini ishlab chiqish, rasmiylashtirish, ekspertiza va ro'yxatdan o'tkazishning yagona tartibini belgilash maqsadida 2002-yilda «Dori vositalarining sifat standarti. Asosiy qoidalar» soha standarti tasdiqlangan. Ushbu soha standarti mamlakatda ishlab chiqarilgan tayyor dori vositalariga taalluqlidir.

**Dori vositalarining sifat standarti** — dori vositalarining nazorat usullari va me'yoriy ko'rsatkichlari ro'yxatini o'z ichiga olgan me'yoriy hujjatdir.

Dori vositalariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi dori vositalarining sifat standartlari quyidagi toifalarga bo'linadi:

- Dori vositalari sifatining Davlat standartlari;
- Konkret korxonada dori vositasining Korxonada farmakopeya maqolasi.

Dori vositalari sifatining Davlat standartlariga quyidagilar kiradi:

- Umumiy farmakopeya maqolasi.
- Vaqtincha farmakopeya maqolasi.
- Farmakopeya maqolasi.

Dori vositalarining sifat standartlari sifatli, samarali va xavfsiz dori vositalarini yaratish hamda ishlab chiqarilishini ta'minlashi lozim. Dori vositalari sifat standartlari tibbiyot, farmatsevtika fanlarining yangi yutuqlarini hisobga olgan holda belgilangan muddatlarda qayta ko'rib chiqiladi.

**Umumiy farmakopeya maqolasi (UFM)** aniq dori shakli uchun me'yoriy ko'rsatkichlar ro'yxatini yoki sinovning umumiy usullarini keltirib, dori vositalarining fizik, fizik-kimyoviy,

kimyoviy, biokimyoviy, biologik, mikrobiologik tahlil usullari ta'rifini, tahlilda qo'llanadigan reaktivlar, titrlangan eritmalar, indikatorlarga bo'lgan talablarni o'z ichiga oladi.

**Farmakopeya maqolasi (FM)** dori vositasiga (xalqaro patentlanmagan nomli) ishlab chiqiladi va amaldagi farmakopeyaning talablariga mos sifat nazoratining majburiy ko'rsatkichlari ro'yxati va usullarini (uning dori shaklini hisobga olgan holda) o'z ichiga oladi.

Umumiy farmakopeya maqolalari va farmakopeya maqolalari, odatda, 5 yildan so'ng qayta ko'rib chiqiladi va qayta ishlanadi, vaqtincha farmakopeya maqolasi esa 3 yildan oshmagan muddatda qayta ishlanadi.

Original (patentlangan) dori vositasiga patent himoyasining ta'sir muddati davomida farmakopeya maqolasini ishlab chiqish va uni Davlat Farmakopeyasiga kiritish faqat patent muddati tugagandan so'ng yoki dori vositasini yaratuvchi tashkilot bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Umumiy farmakopeya maqolalari va farmakopeya maqolalari O'zbekiston Respublikasi Davlat farmakopeyasini tashkil etadi. Davlat Farmakopeyasi O'zbekiston Respublikasi SSV Farmakopeya qo'mitasi tomonidan nashr qilinadi.

**Vaqtincha farmakopeya maqolasi (VFM)** tibbiyot amaliyotida qo'llanishga tavsiya etilgan va to'liq hajmda ishlab chiqarishga taqdim etilgan yangi dori vositalarining birinchi sanoat seriyalari uchun ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

**Korxonaning farmakopeya maqolasi (KFM)** ma'lum bir ishlab chiqarish korxonasi dori vositasining sifatini nazorat usullari va ko'rsatkichlari ro'yxatini o'z ichiga oladi va Davlat Farmakopeyasi, umumiy farmakopeya maqolalari hamda mazkur standart talablariga muvofiq ishlab chiqiladi. KFMdagi sifat ko'rsatkichlari Davlat Farmakopeyasida qayd etilgan talablardan past bo'lmasligi lozim. Korxonaning farmakopeya maqolasining muddati dori vositasining texnologik ishlab chiqarish jarayonini hisobga olgan holda 5 yildan ortiq bo'lmagan muddatga belgilanadi.

Dori vositasini yaratuvchi tashkilot yoki ishlab chiqaruvchi korxonaning tomonidan ishlab chiqilgan korxonaning farmakopeya

maqolasi ularning ishlab chiqarish sohasiga tegishli bo'lib, faqat ularning mualliflik huquqi obykti hisoblanadi.

O'zR SSVning Farmakopeya qo'mitasi hamda dori vositasini yaratuvchi tashkilot yoki ishlab chiqaruvchi korxonalar Davlat Farmakopeyasi, umumiy farmakopeya maqolasi, farmakopeya maqolasi va vaqtincha farmakopeya maqolasining asl nusxalarini taqdim etuvchi tashkilotlar hisoblanadi.

Dori vositalarining sifat standartlari reestrini yuritish va ularga o'zgartirishlar kiritish hamda shuningdek, manfaatdor tashkilotlarni Davlat farmakopeyasi, umumiy farmakopeya maqolasi va farmakopeya maqolasi bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi SSVning Farmakopeya qo'mitasi tomonidan amalga oshiradi.

### 7.3. FARMATSEVTIKA SOHASIDA HALQARO SIFAT STANDARTLARI

Rivojlangan mamlakatlarning farmatsevtika sanoati dori vositalarining sifatini, ularni yaratish, ishlab chiqarish va nazoratini ta'minlashda yuqori talablarni belgilovchi standartlar asosida faoliyat yuritadi. Savdo uchun litsenziyalarni berish tizimi barcha dori vositalarining vakolatli organi tomonidan belgilangan xavfsizlik, sifat va samaradorlikning hozirgi zamon talablariga mos kelishini kafolatlaydi. Ishlab chiqarishni litsenziyalashtirish tizimi ma'lum bozorda sotishga ruxsat berilgan mahsulot faqat mazkur litsenziyaga ega ishlab chiqaruvchi korxonadan chiqarilganiga kafolat beradi. Farmatsevtik mahsulot ishlab chiqaruvchi barcha korxonalar ishlab chiqarish litsenziyasiga ega bo'lishi majburiydir. Ta'kidlash lozimki, 1991-yildan Yevropa Hamjamiyati Hay'ati dori vositalarini sifatli ishlab chiqarish amaliyotining tamoyillari va qoidalarini belgilovchi direktivani qabul qildi. Dori vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlab chiqarish litsenziyalarini olishda aynan shu tamoyillar va qoidalarga asosan nazorat qilinadi.

**Sifatli ishlab chiqarish amaliyoti** (good manufacturing practice — GMP) mahsulotni belgilangan me'yorga mos ravishda sifat standartlari bo'yicha ishlab chiqarishni va nazoratini kafolatlaydigan dori vositasi sifat ta'minotining bir qismidir.

Farmatsevtik mahsulotning GMP talablariga mos ravishda ishlab chiqarilishi va korxonaning GMP qoidalariga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil etganligining nazorati dori vositalari sifatini kafolatlashning (milliy, hududiy va xalqaro) tizimlari va ularni sertifikatlashtirish tizimining ajralmas qismidir.

GMPning turli hujjatlariga kiritilgan umumiy strategiyasi va taktikasiga qaramasdan, ular o'ziga xos xususiyatlarga ega hamda ularning har biri ma'lum bir bozor uchun majburiydir. Shunday misol sifatida Yevropa Hamjamiyati, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Farmatsevtik inspeksiya konvensiyasi, AQSHning Dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat qilish agentligi (FDA)ning GMP qoidalarini keltirish mumkin. Shu sababli, farmatsevtik korxonaga qaysi bozorda o'z mahsulotining sotuvlarini rejalashtirsa, shu bozor hududida bajarilishi majburiy bo'lgan sifat talablari qoidalariga amal qilishi kerak. Ya'ni, farmatsevtika bozori sharoitida GMP qoidalarini amal qilinishi — muvaffaqiyatli sotuvlarni tashkil qilish vositasidir. Xalqaro GMP talablariga mos holda ishlab chiqarishni tashkil etishga o'tish, dori vositalarini sertifikatlashtirish va sifatini kafolatlash milliy tizimlarining tashkil etilishi hamda rivojlanishi bilan chambarchas bog'langan bo'lishi lozim.

«Dori vositalarining sifatli ishlab chiqarish amaliyoti bo'yicha qo'llanma» aniq boblarga bo'lingan bo'lib, uning boshida GMP tamoyillari keltirilgan.

«Sifatni boshqarish» (1-bob) bobida dori vositalarining ishlab chiqarilishida qo'llanadigan sifat ta'minotining fundamental konsepsiyasi bayon etilgan. Ta'kidlash lozimki turli xil bozor, region, davlat va multi milliy kompaniyalar uchun xos (spesifik) bo'lgan GMP bo'yicha qo'llanmalar borligidan qat'iy nazar, barcha ishlab chiqaruvchilar amal qilishi lozim bo'lgan JSSTning GMP bo'yicha qo'llanmalarida bayon etilgan minimal talablar bor.

2-qism — «Tayyorlanish va sifat nazoratining tegishli amaliyoti» sifat ta'minotining umumiy tamoyillarini amalga oshirish uchun ishlab chiqarish bo'limi va sifat nazorati bo'limi xodimlari tomonidan alohida olib borayotgan faoliyat bo'yicha rahbarlikni nazarda tutadi.

3-qism steril vositalar va faol farmatsevtik moddalarni ishlab chiqarish bo'yicha qo'shimcha qo'llanmani o'z ichiga oladi.

«Sifatli laboratoriya amaliyoti» (Good Laboratory Practice – GLP) yangi dori vositalarining inson, hayvon organizmi va atrof-muhitga ta'sirini baholash uchun, ularni klinikagacha o'rganish bosqichida o'tkaziladigan ilmiy tadqiqotlarning sifati va standartligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

«Sifatli klinik amaliyoti» (Good Clinical Practice – GCP) sinov subyektining huquqlarini himoya qilish va dori vositalari sinovi jarayonida xato va qalbakilikning oldini olish uchun ishlab chiqilgan klinik sinovlarni o'tkazish qoidalarini o'z ichiga oladi. GCP qoidalarida klinik sinovlarini rejalashtirish, o'tkazish, monitoring, audit, hisobot, hujjatlashtirish tartibi keltirilib, bu qoidalarning tatbiqi sinovlarning ilmiy va biotik qoidalari asoslanganligini kafolatlaydi.

#### **7.4. DORI VOSITALARINING SIFATINI NAZORAT QILISH LABORATORIYASI ISHINI TASHKIL QILISH**

Dori vositalarining sifatini nazorat qilish bo'yicha laboratoriya yoki markazlar O'zbekiston Respublikasi dori vositalari va tibbiy texnika sifatini ta'minlovchi nazorat-ruxsatnoma tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Dori vositalarining sifatini nazorat qilish bo'yicha vakolatli laboratoriyalarning asosiy qismi Sog'liqni saqlash muassasasi hisoblanib, ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligi Dori vositalari va tibbiy texnikaning sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasiga, moliyaviy ishlar bo'yicha hududiy davlat organlariga bo'ysunadi.

Laboratoriya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, qarorlari, Sog'liqni saqlash vazirligi buyruqlari, yo'riqnomalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga amal qiladi. Laboratoriyaning tashkiliy tuzilishi va xodimlarning shtati asosiy vazifalariga, bajariladigan ish hajmiga va amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq ravishda aniqlanadi.

Laboratoriya unga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini va xodimlar mehnat faoliyatining xavfsizligini ta'minlovchi, shuningdek loyihalashtirishning qurilish me'yorlari talablariga javob beruvchi binoda joylashgan bo'lishi kerak. Laboratoriya yuridik shaxs hisoblanadi; uning moliyaviy mablag'larini saqlash va barcha turdagi hisob-kitob, kredit va kassa operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida bankda mustaqil balansi, hisob va boshqa hisob raqamlari bo'ladi; alohida mulkka, nomi va rekvizitlari keltirilgan shtamp va muhrga egadir.

Laboratoriya ish faoliyatini yuritish uchun DV va TTSN Bosh boshqarmasi va «O'zstandart» Agentligi akkreditasiyasidan o'tgan va litsenziya olgan bo'lishi kerak.

**Asosiy vazifasi.** Laboratoriya dori vositalari va tibbiy texnika sifati bo'yicha davlat nazorati ro'yxatga olingandan keyingi hamda davomli nazoratni o'tkazadi.

Laboratoriya asosiy faoliyatiga muvofiq ravishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

— tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarga muvofiq dori vositalarini sertifikatsiyalashtirish va tanlab nazorat qilishni amalga oshiradi;

— dorixona muassasalari va tashkilotlarida tarkibida yurak glikozidlari saqlovchi dori vositalari hamda dorivor o'simlik xornashyolarining biologik sifat nazoratini amalga oshiradi;

— agar laboratoriyaning mikrobiologik xizmati mavjud bo'lsa, dorixonalarda tayyorlangan steril dori vositalari, tozalangan suv hamda idish va qadoqlash vositalaridan olingan yuvindilarning mikrobiologik tekshiruvini o'tkazadi;

— sifatsiz dori vositalari aniqlangan hollarda tezlikda bu dori vositalarining sotilishini to'xtatib turish kerakligi haqidagi xulosani Bosh boshqarmaga taqdim etadi;

— shartnoma asosida belgilangan tartibda farmatsevtik faoliyat yuritish uchun litsenziyaga ega yuridik shaxslardan kelgan dori vositalari sifatini tekshiradi va sertifikatlar beradi.

Zarur holatlarda dorixona muassasalari va korxonalariga farmatsevtik faoliyat uchun litsenziya berish yoki litsenziya berishni asoslangan holda rad etish haqida xulosa chiqarish uchun litsenzion hay'at ishida ishtirok etadi.

Nazorat-tahlil laboratoriyasi dori vositalarining sifat nazoratini amalga oshiruvchi tashkilot hisoblanadi. Bu qator nazorat-tahlil laboratoriyalari O'zbekiston Respublikasi «Dori-darmon» Davlat Aksionerlik kompaniyasi qoshida, shuningdek, viloyat «Dori-darmon» Aksionerlik Birlashmalari qoshida faoliyat yuritadi.

Ushbu nazorat-tahlil laboratoriyalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

— aksioner dorixona muassasalarida tayyorlangan dori vositalarining sifatini nazorat qilish;

— aksioner dorixonalarining faoliyatini dori vositalarining sifatini nazorat qilish bo'yicha tashkiliy-uslubiy boshqarish;

— aksioner dorixonalarni reaktivlar, titrlangan eritmalar bilan ta'minlash, ularning saqlanishi va ishlatilishini nazorat qilish;

— yilning har choragida dorixonalarda tozalangan suv, tez eskiruvchi va noturg'un vositalarning sifatini nazorat qiladi.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun laboratoriya talabga javob beruvchi ish joylariga ega va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Nazorat-tahlil laboratoriyalarining asosiy xonalariga quyidagilar kiradi:

— analitik zal — kimyoviy tahlillarni o'tkazish uchun mo'ljallangan asosiy ishlab chiqarish xonasi. Analitik zal analitik stollar, mo'rili javonlar, titrlangan eritmalar uchun aylanma taglik, idish va reaktivlar saqlash uchun javonlar, shtativlar, o'lchov idishlari va hokazolar bilan ta'minlangan bo'ladi;

— o'lchov xonasi — analitik tarozilari bilan jihozlangan bo'ladi;

— fizik-kimyoviy tahlil asboblari xonasi (optika xonasi) — refraktometr, fotokolorimetr, potensiometr, spektrofotometr va boshqa asboblardan jihozlangan bo'ladi;

— biologik tahlil o'tkazish xonasi yoki mustaqil boks (katta laboratoriyalarda mavjud);

— idishlar, byuretkalar, pipetkalar yuvish xonasi;

— laboratoriya mudiri xonasi. Bu xonada dori vositalarining yo'riqnomalari kartotekasi, so'rovnomalar va maxsus adabiyotlar uchun javonlar, tahlillar bo'yicha qo'llanmalar kartotekasi joylashgan bo'ladi;

- uslubiy xona (katta laboratoriyalarda);
- xodimlar xonasi;
- tez alanganuvchi moddalarni saqlash va tez portlovchi suyuqliklar g‘amlamasi uchun omborxona.

## **7.5. ISHLAB CHIQUARISHDA FARMATSEVTIK MAHSULOTLARI SIFAT NAZORATINI TASHKIL QILISH**

Ishlab chiqarishdagi sifat nazoratini shartli ravishda ikkiga, ishlab chiqarish binosi, asbob-uskunalar yaroqliligi va xodimlar malakasini tekshirish bilan bog‘liq boshlang‘ich sifat nazoratiga hamda bevosita texnik jarayon sifat nazoratiga ajratish mumkin.

**Texnik nazorat tizimi** ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi (nazorat obyektlari, nazorat jarayonlari va ularning tartibi, ish joyining texnik jihozlanishi, nazorat usullari, nazorat jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalari) va bu jarayon korxonaning texnik nazorat bo‘limi (TNB) tomonidan amalga oshiriladi. Korxonada texnik nazorat bo‘limining asosiy vazifasi korxonada tomonidan sifat standartlari talablariga javob bermaydigan mahsulot ishlab chiqarilishining oldini olish hisoblanadi.

Shuningdek, bu bo‘lim ishlab chiqarishda tartib-intizomni mustahkamlash va ishlab chiqarishning barcha bo‘g‘inlarida mahsulot sifatiga nisbatan mas‘uliyatni oshirish kabi vazifalarni ham bajaradi. TNB tuzilishi va shtatlar soni ishlab chiqarish xususiyati, hajmi va nazorat jarayonlarining murakkabligidan kelib chiqib belgilanadi va tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Korxonada bo‘limlari va sexlarining mahsulot texnik nazorati bilan shug‘ullanadigan barcha xodimlari TNB tarkibiga kiradi.

Farmatsevtik korxonada sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilsa, javobgarlik korxonada rahbariyati va shunday mahsulot chiqishiga aybdor bo‘lgan sex rahbar (shu jumladan TNB xodim)lariga yuklatiladi.

Korxonada faqat TNB qabul qilgan mahsulotnigina sotishi mumkin. Mahsulotga ayni shu mahsulot belgilangan talablarga



javob berishini tasdiqlovchi analitik pasport yoki boshqa hujjat rasmiylashtirilgan bo'lishi shart.

**Mahsulot sifatini nazorat qiluvchi ishlab chiqarish laboratoriyasi.** Odatda, bu laboratoriya ma'lum bir farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalariga keltirilayotgan substansiya va boshqa xomashyolar sifatini nazorat qilish, shu korxonada dori vositasi ishlab chiqarishning oraliq va oxirgi bosqichlarida sifat nazoratini amalga oshirish kabi vazifalar yuklatilgan holda tashkil etiladi. Ishlab chiqarish laboratoriyasi laboratoriya sinovlari bilan birgalikda, mahsulot sifatiga aloqador barcha masalalar bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiradi.

Ularga namuna olish, spesifikatsiyalar va sinovlar o'tkazish bilan bog'liq tadbirlar, sotuvlar uchun ruxsatnomalarni rasmiylashtirish, hujjatlashtirish va berishni tashkil qilish kabi tadbirlar kiradi. Bu hujjatlar zarur tekshiruvlar haqiqatan o'tkazilganligini, sifati qoniqarli, deb topilmagunga qadar boshlang'ich xomashyo hamda materiallar ishlatish uchun ruxsat berilmaganligini, tayyor mahsulot esa sotish va yetkazib berish uchun ruxsat berilmaganligini kafolatlaydi.

Har bir farmatsevtik korxonada o'z tuzilmasida sifatni nazorat qiluvchi ishlab chiqarish laboratoriyasiga ega bo'lishi kerak. Sifat nazorati texnologik jarayonlar (ishlab chiqarish) dan mustaqil ravishda faoliyat yuritishi zarurdir. Ishlab chiqarish laboratoriyasi korxonaning boshqa bo'limlardan mustaqil bo'lishi, malakali va yetarli bilimga ega bo'lgan shaxs rahbarligi ostida va sinov markazi sifatida vakolatlagan holda ish yuritishi kerak.

Laboratoriyaning jihozlanishi, shuningdek, tuzilishi va shtatlar sonini belgilash uchun ishlab chiqarish xususiyati, hajmi hamda nazorat jarayonlarining murakkabligini hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish zaruriyati va bajariladigan ish turidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish laboratoriyasi barcha zarur xonalarga ega bo'lishi kerak. Korxonada tomonidan ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlarning sifatli nazoratini amalga oshirish uchun laboratoriyada belgilangan tartibga ko'ra zarur xonalarning (kimyoviy nazorat bo'limi, mikrobiologik va farmakologik bo'limlar) bo'lishi talab qilinadi.

## **7.6. FARMATSEVTIK MAHSULOTLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH VA SIFATNING BOSHQARISH TIZIMI**

### **Mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha umumiy ma'lumotlar**

Sertifikatsiya so'zi lotin tilida «to'g'ri bajarilgan» ma'nosini anglatadi. Mahsulot «to'g'ri bajarilganini» bilish uchun, sertifikatatsiya jarayoni amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish — mahsulot, jarayon yoki xizmatning belgilangan talablarga muvofiqligini yozma ravishda uchinchi tomondan tasdiqlash jarayoni. Bunday tasdiqlanish, shu jumladan, farmatsevtik mahsulot uchun ham ommaviy e'tirof etilgan turi — muvofiqlik sertifikatidir. «Muvofiqlik» atamasi belgilangan talablarning rioya etilishini anglatadi.

Muvofiqlikni tasdiqlash jarayoni uchinchi tomonni (sertifikatlashtirish idorasi) ishtirok etishini taqozo etadi. Sertifikatlashtirish idorasi (uchinchi tomon) — sotuvchi, ishlab chiqaruvchi (birinchi tomon) va iste'molchi (ikkinchi tomon) lardan mustaqil bo'lishi lozim.

Farmatsevtik mahsulot iste'mol tovarlarining o'ziga xos guruhini tashkil etadi, buning sababi shundaki, bu mahsulotning sifatini faqat maxsus laboratoriya sinovlari, shu jumladan kimyoviy, mikrobiologik va biologik tahlillar yordamida tasdiqlash mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan sinovlar natijasida farmatsevtik mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligi — sifatini tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Farmatsevtik mahsulotning sifatiga bo'lgan talablar sifat standartlarida (farmakopeya, farmakopeya maqolasi, vaqtincha farmakopeya maqolasi, korxonada farmakopeya maqolasi, farmatsevtik mahsulotni spesifikatsiya va hokozolar) kabi me'yoriy — tahlil hujjatlarida aks ettirilgan.

Farmatsevtik mahsulotni sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi — dori vositalari va tibbiy buyumlarning me'yoriy hujjatlar majburiy talablariga muvofiqligini isbotlashdan iborat. Sertifikatlashtirish

tizimini yaratish orqali bu jarayonni amalga oshirish qoidalarini belgilash va boshqarish amalga oshiriladi.

Farmatsevtika mahsulotlarini sertifikatlashtirish huquqiy asosi O‘zR «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida», «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida», «Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish», «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida» qonunlari, Vazirlar Mahkamasi-ning 12.08.94 yil №409, 03.11.2002 yil № 342, 05.12.2002 yil № 427, 06.07.2004 yil №318, 05.08.2004 yil №373 sonli qarorlari hisoblanadi.

Muvofiqlikni tasdiqlash o‘rnatilgan tartibda tashkil etilgan, o‘z ichiga qoidalar, yo‘riqnomalar va boshqaruv organini mujassam qilgan sertifikatlashtirish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Umumiy holatda sertifikatlashtirish tizimi quyidagilardan tashkil topgan bo‘ladi:

— tizim faoliyatining boshqaruvi va nazoratini olib boruvchi markaziy organ;

— sistema a‘zo (sertifikatlash idoralari, sinov laboratoriyalari va nazorat organ)lari;

— muvofiqligini tasdiqlash bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar;

— sertifikatlashtirish va inspeksion nazoratni tartib qoidalari.

Har qanday sertifikatlashtirish tizimida muvofiqlikni tasdiqlash va muvofiqligi to‘g‘risida ma‘lumot yetkazish bo‘yicha ikki xil uslub qo‘llaniladi: muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi.

*Muvofiqlik sertifikati* — mahsulot yoki xizmatlarning muayyan me‘yoriy hujjatga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimining qoidalari bo‘yicha berilgan hujjat.

*Muvofiqlik belgisi* — sertifikatlashtirish tizimi qoidalari bo‘yicha qo‘llaniladigan ro‘yxatdan o‘tgan belgi. Mazkur belgi tegishli identifikatsiyalashtirilgan mahsulot yoki xizmatlar, aniq standartga yoki boshqa me‘yoriy hujjatga mos kelishga yetarlicha ishontiradigan, mahsulotga yoki xizmatlar hujjatiga qo‘yiladi. Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish ixtiyoriy va majburiy bo‘lishi mumkin. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish, odatda, ishlab chiqaruvchi (birinchi

tomon) tomonidan amalga oshiriladi va uning asosiy maqsadi mahsulotlar sifatli hamda raqobatbardosh ekanligini ko'rsatish, xalqaro bozorga olib kirish uchun zamin yaratishga qaratilgan. Bunga GMP sertifikatiga ega bo'lgan farmatsevtika korxonalari misol bo'lishi mumkin.

Majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulotlarga inson sog'ligi va faoliyati bilan bog'liq, sifatsiz bo'lsa zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulot va xizmatlar kiritiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar (xizmatlar) ro'yxati o'rnatilgan tartibda, qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi (O'zR VM 2004-yil 6-iyun №318-sonli «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibini soddalashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarorining 1-ilovasi).

### **Xorijiy davlatlarda farmatsevtik mahsulotni sertifikatlashtirish amaliyoti**

Farmatsevtik mahsulotning xavfsizligi va bezararligining nazorati barcha davlatlarda yo'lga qo'yilgan. Turli organlar va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan xavfsizlik nazoratining juda ko'p usullari va jarayonlari ma'lumdir. Bularga turli standartlar (FDA, ISH, NASR, JCCT va hokazolar) talablariga rioya etish bo'yicha davlat nazorati, sanitariya-gigiyena nazorati, mutasaddi tashkilotlar nazorati va ishlab chiqarilgan mahsulotni qabul qilish nazorati (texnik-nazorat bo'limi (TNB) va ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish tizimlari) misol bo'ladi.

Sifatni nazorat qilish bo'yicha yaxshi rivojlangan qonunchilik mavjudligi va xususiy biznesning shakllangan an'analari sharoitida ishlab chiqarilgan farmatsevtik mahsulot sifati, bezararligi va sinovlari nazorati bo'yicha mas'uliyat ishlab chiqaruvchi korxonaga yuklatiladi.

Bu holatlarda ishlab chiqaruvchi ixtiyoriy sertifikatlashtirish ishlarini ko'pincha amalga oshiradi.

Davlat nazorat organlari, odatda, yalpi tekshiruvlarni

o'tkazmaydi, faqatgina sifatsiz mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonaga nisbatan jabrlanuvchi taraf yoki uning vakili murojaat qilgan holatda belgilangan tartibda zaruriy jazo choralari qo'llaydi.

Shu bilan birga Yevropa Hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarning davlat organlari, farmatsevtik mahsulot sifatining davomli nazorati mexanizmiga ega bo'lib, shuningdek, bu mamlakatlarda farmatsevtik taqsimot kanallarining nazorati yo'lga qo'yilgan.


Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyat qoidasiga asoslangan holda, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining davlat nazorat organlari chegaralarda «uchinchi mamlakatlar»dan import qilinayotgan dori vositalarining seriyali nazorati amalga oshiriladi.

Farmatsevtik mahsulotni sertifikatlashtirish rivojlangan mamlakatlarda uzoq vaqtdan beri keng qo'llaniladi, faqat bu tizim o'ziga xos nomlanishi va o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin. Buning yaqqol misoli sifatida GMP sertifikatiga egalik qilish va GMP talablariga asoslangan ishlab chiqarishni olish mumkin.

Ba'zi davlatlar o'z hududida amal qiluvchi milliy standartlar yoki boshqa amaldagi texnik me'yorlarga muvofiq bo'lmagan mahsulotlarning kirib kelishining oldini olish maqsadida qator xalqaro sertifikatlar (ISO, NET, GMP va boshqalar)ni talab qilish orqali o'z bozorlarini himoya qiladi.

Aynan bir turdagi mahsulot sifat standartlari va me'yoriy texnik hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi hamda sertifikatlashtirish jarayonlarini o'tkazish tartibi turli mamlakatlarda farqlanadi. Bu esa xalqaro savdo tizimida texnik to'siqlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun mahsulotga ishlab chiqilgan standartlar va sertifikatlashtirish qoidalarining uyg'unligi xalqaro bozorda raqobatchilarning teng huquqli hamkorligini ta'minlovchi va xalqaro miqyosda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

**DORI VOSITALARI, TIBBIY TEXNIKA VA TIBBIY BUYUMLARNI  
SERTIFIKATLASHTIRISH TIZIMI**



## **O'zbekiston Respublikasida farmatsevtik mahsulotni sertifikatlashtirish tizimining qonuniy asoslari**

Farmatsevtik mahsulotni sertifikatlashtirish O'zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002-yil 5-dekabrda № 427-sonli qarorida tasdiqlangan majburiy sertifikatlashtirishdan o'tadigan mahsulot va xizmatlarning ro'yxati asosida amalga oshirildi.

Qonunda import va eksport qilinadigan mahsulotlarning sertifikatlashtirish shartlari belgilangan. Bunda majburiy sertifikatlashtirishdan o'tadigan mahsulot uning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydigan muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisiga ega bo'lishi kerakligi qayd etilgan. Muvofiqlik sertifikati bo'lmagan mahsulot Milliy sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan sertifikatlashtirish o'tkazish muammosi hal etilmaguncha bojxona organlari tomonidan ushlab turiladi.

Qonunda, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tashabbusi bilan istalgan mahsulotning me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini qayd etish maqsadida ixtiyoriy sertifikatlashtirish tartibi ham ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, qonunda majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini buzgan ishlab chiqaruvchilarning javobgarligi hamda asoslanmagan holda sertifikat bergan yoki buyurtmachining tijorat sirlarini oshkor etgan sertifikatlashtirish organlariga nisbatan javobgarlik tartiblari keltirilgan. Majburiy sertifikatlashtirishdan o'tish lozim bo'lgan mahsulotning savdosi bilan undan sertifikatsiz shug'ullanganlik uchun sotilgan mahsulot qiymatiga teng jarima undiriladi. Jarima to'lash sertifikatlashtirishni o'tkazishdan ozod etmaydi.

Sertifikatlashtirish qoida va talablarini buzgan sertifikatlashtirish subyektlariga belgilangan qonunchilik asosida chora hamda sanksiyalar qo'llaniladi. Ularga mansabdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish, jarimalar, litsenziya va akkreditatsiya attestatlarining amal qilinishi to'xtatish yoki ulardan mahrum qilish, tovarlarni davlat hisobiga musodara qilish yoki nomuvofiqlik aniqlanganda uni yo'q qilish, mol-mulk musodarasi, tartib-qoidalarni buzganligi uchun mas'ul shaxslarni ozodlikdan mahrum etish kabi choralar kiradi.

Aholini yuqori sifatli va bezarar dori vositalari bilan ta'minlashda yagona davlat siyosatini amalga oshirish hamda iste'molchilar manfaatini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2003-yil 1-yanvardan dori vositalarining majburiy sertifikatlash joriy etildi. Bunda sertifikatlashtirish idoralari tomonidan buyurtmachiga sertifikatlashtirish sxemasiga asosan farmatsevtik mahsulotning yagona namunadagi muvofiqlik sertifikati beriladi. O'zbekiston Respublikasi hududida faqat muvofiqligi tasdiqlangan dori vositalarining savdosiga ruxsat etiladi.

Respublika farmatsevtika tizimida majburiy sertifikatlashtirish joriy etilishi dori vositalarini ishlab chiqaruvchi va distribusiyasi bilan shug'ullanuvchi korxonalariga sifatli mahsulot ishlab chiqarish hamda sotish bo'yicha mas'uliyat va majburiyat yuklaydi.

Dori vositalarining sifat standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish bo'yicha sertifikatlash sinovlari akkreditatsiyadan o'tgan dori vositalari sifatini nazorat qilish laboratoriyalarida o'tkaziladi. Hozirgi paytda Respublikada akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalari va sertifikatlash idoralari asosida faoliyat yuritayotgan sertifikatlashtirish tizimi shakllangan. Ularga quyidagi sertifikat-lashtirish organlari kiradi:

— O'zR SSV dori vositalari ekspertiza va standartizatsiya Davlat markazi qoshidagi tibbiy mahsulotlarni sertifikatlashtirishning Markaziy idorasi;

— DVESDM Markaziy sertifikatlashtirish idorasining Andijon filiali;

— DVESDM Markaziy sertifikatlashtirish idorasining Urganch filiali;

— DVESDM Markaziy sertifikatlashtirish idorasining Samarqand filiali;

— DVESDM Markaziy sertifikatlashtirish idorasining Qarshi filiali;

— Toshkent farmatsevtika instituti qoshidagi dori vositalari standartizatsiyasi Ilmiy markazi (DVSIM);

— MChJ «S o f D o r i» tibbiy mahsulot sertifikatlash organi.

Yuqorida ko'rsatilgan sertifikatlashtirish idoralari qoshida akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalari faoliyat yuritadi.



Markaziy idora sertifikatlashtirish tizimini bir markazdan turib muvofiqlashtiradi va faoliyatining nazoratini amalga oshiradi.

### **Dori vositalarining sertifikatlashtirilishini o'tkazish tartibi**

Farmatsevtik mahsulotning sertifikatlashtirishini o'tkazish uchun yagona qoidalar belgilangan. Bu qoidalar mahalliy ishlab chiqarilgan va xorijdan keltiriladigan barcha farmatsevtik mahsulotga taalluqlidir.

Farmatsevtik mahsulotning sertifikatsiyasi «O'zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan tibbiy mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Farmatsevtik mahsulotni ishlab chiqarish va sifat tizimining sertifikatsiyasi esa sifat hamda ishlab chiqarish tizimini sertifikatlashtirish uchun akkreditatsiyadan o'tgan idoralar tomonidan o'tkaziladi. Sertifikatlashtirish sinovlari mazkur mahsulotni sertifikatlashtirishda me'yoriy hujjatlarda keltirilgan sinovlarni o'tkazish huquqiga ega, texnik kompetentligi hamda mustaqilligi bo'yicha akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalari va markazlari tomonidan amalga oshirildi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun buyurtmachi belgilagan tartibda «O'zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan tibbiy mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimiga kirgan sertifikatlashtirish idorasiga buyurtma beradi. Buyurtmaga quyidagi hujjatlarning nusxalari ilova qilinishi lozim:

- Muvofiq faoliyat turi uchun berilgan litsenziya;
- Ishlab chiqaruvchi korxonada o'tkazilgan tahlil natijalari keltirilgan bayonnomalar (mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun) yoki xorijiy firmaning sifat tahlil natijalarining me'yoriy hujjatlarga mosligi to'g'risidagi xulosalarini o'z ichiga olgan tahlil sertifikatlari;
- Yo'l-transport hujjatlari (hisob-faktura, yukxati yoki invoys).

Sertifikatlashtirish idorasi buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan buyurtma asosida buyurtmani ro'yxatdan o'tkazadi, sertifikatsiya sxemasini tanlaydi va sinovlarni o'tkazish uchun dori vositalaridan namuna oladi. Dori vositalarining namunalari sertifikatlashtirish sinovlari uchun me'yoriy hujjatlarda keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha tahlilni o'tkazish uchun zarur bo'lgan miqdorda tanlab olinadi. Arbitraj tahlilini o'tkazish zarurati bo'lganida to'liq ikki martali tahlilni o'tkazish uchun qo'shimcha ravishda namuna olinadi.

Namunalarni tanlash, ularning yorliqlanishi va tamg'alanishi, shuningdek, ularni sinov joylariga yetkazib berish jarayonlari sertifikatlashtirish idorasi tomonidan buyurtmachi ishtirokida amalga oshiriladi. Bunda namuna olish dalolatnomasi ikki nusxada tuziladi. Namunaning olinishi va saqlanishining to'g'ri amalga oshirilishi uchun javobgarlik sertifikatlashtirish idorasi zimmasiga yuklatiladi.

Bojxona ta'minoti ostidagi import bo'yicha keltirilgan dori vositalari namunalarini olish sertifikatlashtirish idorasining vakili, bojxona nazoratchisi va mahsulot egasining ishtirokida amalga oshiriladi. Bunda dalolatnoma uch nusxada tuzilib, ikkinchi nusxasi bojxona organiga topshiriladi.

Dori vositalarini sertifikatlashtirish idorasi sinovlarni amalga oshirish uchun namunalarni akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyaga beradi. Mazkur sinov laboratoriyasi dori vositalarining tahlilini o'tkazadi, tahlil natijalarini o'rganib, tahlil bayonnomasini rasmiylashtiradi va sertifikatlantirish idorasiga yuboradi. Mahalliy va xorijiy dori vositalarining sertifikatlashtirish jarayonidagi sifat nazorati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan mazkur dori vositasini qayd etish vaqtida tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar (sifat standartlari) asosida o'tkazilishi zarur.

Bir vaqtning o'zida dori vositasining 5 tadan ortiq seriyasi sertifikatlashtirish uchun topshirilsa, sifat nazorati barcha ko'rsatkichlar bo'yicha dori vositalari seriyasining miqdoriga ko'ra tanlanma usulda (har bir uchinchi, beshinchi va hokazo seriyalar uchun) amalga oshiriladi. Ijobiy natijalar kuzatilsa, qolgan seriyalarning sifat nazorati «Tasvirlanishi», «Qadoqlanishi», «Yorliqlanishi», zarur bo'lganda «Chinligi» ko'rsatkichlari asosida o'tkazildi.

Dorivor o'simlik xomashyosining 5 tadan ortiq seriyasini bir vaqtda sertifikatlashtirish uchun topshirilsa, sifat nazorati barcha ko'rsatkichlar bo'yicha partiya hajmiga ko'ra har bir seriyadan tanlov usulida amalga oshiriladi. Tahlil natijasida ijobiy natijalar aniqlansa, qolgan seriyalarining sifat nazorati «Chinligi», «Maydalanganlik darajasi», «Namlilik», «Ombor zararkunandalari bilan zararlanishi darajasi» va zarur bo'lganda, «Radioaktivlik» ko'rsatkichi bo'yicha olib boriladi.

In'eksiya uchun dori vositalari va ko'z tomchilari qo'shimcha ravishda chinlik, pH, ranglilik, tiniqlilik ko'rsatkichlari bo'yicha seriyali majburiy nazorat qilinadi. Zarur bo'lganida in'eksion dori vositalarining tahlili «Sterillik» ko'rsatkichi bo'yicha ham tahlil qilinadi. Bu holda muvofiqlik sertifikatini dori vositalarining butun keltirilgan partiyasiga beriladi.

Infuzion zarur bo'lganida in'eksion dori vositalari qo'shimcha ravishda «Pirogenlik» ko'rsatkichi bo'yicha tahlildan o'tkaziladi.

GMP sifat sertifikatiga ega shuningdek, mahsulotning barcha belgilangan qonun-qoidalari asosida to'g'ridan-to'g'ri keltirish kontraktlari asosida olib keluvchi xorijiy ishlab chiqaruvchilarining dori vositalarining sifat nazorati «Tasvirlanishi», «Qadoqlanishi», «Markirovka» va zarur bo'lganida «Chinlik» ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

Ishlab chiqaruvchi korxonaning sertifikatini mavjud bo'lmaganida yoki taqdim etilgan analitik pasportda me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilgan barcha ko'rsatkichlar to'liq ko'rsatilmagan bo'lsa, dori vositalarining sifat nazorati barcha ko'rsatkichlar bo'yicha olib boriladi.

Quyidagi farmatsevtik mahsulot barcha ko'rsatkichlar bo'yicha majburiy nazoratdan o'tkaziladi:

— dori vositalarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan substansiyalar (dori moddalari);

— belgilangan ro'yxatga rasman kiritilgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar;

— narkoz (shu jumladan ingalyasion narkoz) uchun ishlatiladigan dori vositalari (kislorod va azot (III) oksididan tashqari);

— rentgenoktrast vositalar.

Sertifikatlashtirish tahlilining ijobiy natijalari asosida sertifikatlashtirish idorasi dori vositalari uchun muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi, uni O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimining davlat reestriga qayd etadi va buyurtmachiga beradi.

Dori vositasining sifat ko'rsatkichi me'yoriy hujjatlar talabiga nomuvofiqligi aniqlangan holatda, sinov laboratoriyasi sinov bayonnomasi bilan birga xulosani sertifikatlashtirish idorasiga yuboradi. Bu holatda sertifikatlashtirish idorasi nomuvofiqlik

bayonnomasini rasmiylashtiradi va bu to'g'risida 3 kun ichida ta'minotchi (ishlab chiqaruvchi), «O'zstandart» agentligi, O'zbekiston Respublikasi bojxona idoralari va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Dori vositalari hamda tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasiga xabar beradi.

Dori vositalarini sertifikatlashtirish vaqtida belgilangan talablarga muvofiqligini kelgusidagi tasdiqlanishi maqsadida sertifikatlangan mahsulotning nazorati sertifikatlashtirish idorasi tomonidan o'tkaziladi. Sertifikatga ega dori vositalari bo'yicha inspeksion nazorat kamida yiliga bir marta amalga oshiriladi. Inspeksion nazorat natijalariga asosan sertifikatlashtirish idorasi mazkur dori vositalariga berilgan muvofiqlik sertifikatini amal qilinishini to'xtatib qo'yish yoki uni bekor qilishi mumkin.

### **Sertifikatlashtirish sxemalari**

**1-sxema.** Mahsulot namunalari sinovlarining ijobiy natijalari asosida uning majburiy ko'rsatkichlar va birinchi navbatda bezararligi bo'yicha muvofiqligini baholashni ko'zda tutadi. Mazkur sxema, shuningdek, buyurtmachining buyurtmasida mahsulot uchun me'yoriy hujjat aniq belgilanmagan hollarda ham qo'llaniladi.

**2-sxema.** Akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarda majburiy ko'rsatkichlar asosida mahsulot sinovini o'tkazish, keyinchalik ham, savdo tizimidan saralab olingan tanlanma mahsulot sifatini davriy ravishda nazorat qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Mazkur sxema bo'yicha nazorat qilingan mahsulot sertifikat bilan birga, muvofiqlik belgisi bilan yorliqlanishi ta'minlanadi.

**3-sxema.** Mahsulotning sifat nazorati ro'yxatidan tashqari, Sertifikatlashtirish idorasi tomonidan buyurtmachining ishlab chiqarish va sifat menejmenti tizimining nazoratini ko'zda tutadi (agar korxonada sifat tizimi ishlab chiqilgan va sertifikatlashtirilgan bo'lsa). Mazkur sxema asosida mahsulotga Muvofiqlik belgisi berilib, korxonada davriy ravishda inspeksion nazoratni o'tkazish maqsadida mahsulot sinovlari amalga oshiriladi.

**4-sxema.** Sertifikatlashtirish idorasi akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyada o'tkazilgan sinovlar bayonnomasi asosida muvofiqlik

va gigiyenik sertifikatini berish bilan birga, ishlab chiqaruvchi korxonada hamda savdo tizimidan tanlab olingan namunalar sinovlarini o'tkazish orqali sertifikatlangan mahsulotning inspeksion nazoratini ko'zda tutadi. Mahsulotning saqlanish muddati asosida nazoratning davriyligi belgilanadi. Mazkur sxema bo'yicha ham, mahsulotni Muvofiqlik belgisi bilan yoriqlanish ko'zda tutiladi.

**5-sxema.** Sertifikatlashtirish idorasi tomonidan mahsulot sinovlari bilan birga, ishlab chiqarish yoki sifat menejmenti tizimining nazorati va bu nazoratdan keyingi sertifikatlashtirilgan mahsulot va ishlab chiqarish jarayonining inspeksion nazorati ko'zda tutilgan. Bu sxema asosida ishlab chiqarish holati nazoratida ishlab chiqarish (sifat) tizimlari sertifikatsiyasi bo'yicha ekspertlarning ishtiroki zaruriy shart hisoblanadi.

**6-sxema.** Sifat menejmenti tizimini baholash va keyinchalik uning inspeksion nazorati uchun O'zstandart agentligi tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish organi jalb etiladi va shu bilan 5-sxemadan farqlanadi.

**7- sxema.** Asosan, import bilan keltiriladigan mahsulot partiyasini sertifikatlashtirish uchun qo'llaniladi. Bu sxema bo'yicha sertifikatlashtirish idorasi, odatda, o'zining akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyasiga me'yoriy hujjatlar talablariga asosan mahsulot identifikatsiyasini, seriyadan namunalar tanlab olishni va keyinchalik amalga oshiriladigan sinovlarni olib borish uchun ko'rsatma beradi.

**8-sxema.** Yakka holda ishlab chiqaruvchi, import qilinuvchi yoki sotiluvchi mahsulotning sinovlarini amalga oshirishda qo'llaniladi. Bunda sinovlar, baholash va sertifikat muayyan bir mahsulotga oid bo'lib, keyinchalik buyurtmachi tomonidan sertifikatlangan mahsulotning muvofiqlik belgisi bilan yoriqlanish amalga oshiriladi.

**9-sxema.** Mahsulot sifatining belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi ta'minotchining deklaratsiyasi va unga ilova qilingan me'yoriy hujjatlarni muvofiqligining isboti sifatida qo'llanishiga asoslangan. Bu sxema bilan buyurtmachi akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyada sinovlarning o'tkazilishi yoki sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirishni yoxud ham unisj ham bunisini o'tkazilishini ta'minlab, keyinchalik deklaratsiya qabul qilib, standartlashtirish idorasiga sertifikatsiyaga buyurtma beradi. 9-sxemani qo'llashning

zaruriy sharti — buyurtmachi ixtiyorida mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini bilvosita yoki bevosita tasdiqlovchi barcha hujjatlarning bo‘lishidir. Agar mazkur shart bajarilmasa, sertifikatlashtirish idorasi buyurtmachiga mahsulotni boshqa sxema bo‘yicha sertifikatlashtirishni taklif etadi.

«Bir turdagi mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish qoidalari»ning VI bandiga muvofiq («O‘zstandart» agentligi tomonidan 2005-yil 7-sentabrda №340-sonli buyruq bilan tasdiqlangan) O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtik mahsulotlarga faqat 3-, 4- va 7- sxemalar qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida dori vositalarini sertifikatlashtirish asosan mahsulot partiyalarini sertifikatlashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi (7-sxema), bu Respublikada sotilayotgan dori vositalarining asosiy qismi yaqin va uzoq xorij mamlakatlardan import qilinishi bilan bog‘liqdir.

Farmatsevtik bozorining ko‘p qismini egallagan mahalliy va xorijiy farmatsevtik korxonalar uchun ishlab chiqarish holatining nazoratini o‘z ichiga olgan sxemaning qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir (3-, 4-sxemalar). Bunda korxonaga seriyali ishlab chiqarish uchun muvofiqlik sertifikati taqdim etiladi va korxonaga o‘z mahsulotining seriyaviy nazoratidan ozod etadi. Sertifikat uch yil muddatga beriladi, mahsulotga muvofiqlik belgisi bilan yorliqlanishi mumkin. Bunda ishlab chiqarishning sifat nazorat tizimi mavjudligi yoki «Sifatli ishlab chiqarish amaliyoti» (GMP) talablariga muvofiqligi asosiy shart bo‘lib hisoblanadi.

Har bir muayyan holatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sertifikatlashtirish sxemasi sertifikatsiya idorasi tomonidan buyurtmachining taklifi, keltirilgan mahsulotlarning hajmi va keltirilish muddati, sinov usullari, mazkur mahsulotni ishlab chiqarish va iste‘molining o‘ziga xos taraflarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Buyurtmachi muvofiqlik sertifikati bo‘lgan va muvofiqlik belgisi bilan yorliqlangan mahsulotni reklama qilish huquqiga ega. Majburiy sertifikatlashtirishdan o‘tishi lozim bo‘lgan, ammo sertifikatga ega bo‘lmagan mahsulotni reklama qilish ruxsat etilmaydi.

## 7.7. DORI VOSITALARINI QALBAKILASHTIRISH MUAMMOLARI

Farmatsevtika bozorida iste'molchilar huquqini himoyalashning asosiy tamoyili dori vositalarining sifati va bezararligini ta'minlashdir.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-aprelda chiqarilgan «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuniga asosan xarid qilinayotgan tovarlarning sifati va bezararligini ta'minlanib berilishi — iste'molchilarning asosiy huquqi bo'lib hisoblanadi.

Dori vositalarining sifati ta'minlash — muhim tibbiy-ijtimoiy va iqtisodiy muammo bo'lib, dori vositalarini yaratilishidan to bevosita iste'molchiga yetib borishigacha bo'lgan hamma bosqichlarda turli omillar majmuini hisobga olishni talab qiladi. Turli muassasalar — ishlab chiqaruvchi korxonalar, davolash-profilaktika muassa-salari, dori vositalari bilan ulgurji va chakana savdo qiluvchi tashkilotlar dori vositalari sifati ta'minlashga o'z hissalarini qo'shadilar. Dori vositalarini bozorga chiqarishda asosiy ko'rsat-kichlar bo'lib, ular sifati, samarali va bezarar bo'lishi kerak.

Bozor munosabatlari sharoitida dori vositalarining sifati nazorat qilish davlat tomonidan tartibga solinishi zarur bo'lib, bu dori vositalarining sifati baholashda yagona davlat siyosati ta'minlanishi va iste'molchilarning huquq-manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Ko'pchilik mamlakatlarda dori vositalarining sifati bevosita davlat organlari tomonidan nazorat qilinadi. Oxirgi yillarda dori vositalarining sifati kafolatlashga qaratilgan bir qancha zarur chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Resurslarni bir tizimga keltirish va hamkorlikdagi harakatlar dori vositalarining sifati ta'minlashning samarali konsepsiyasini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

### **O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida dori vositalarini qalbakilashtirish muammosi va uning holati**

XX asr oxirida butun jahon hamjamiyati farmatsevtik bozorga qalbaki dori vositalarining kirib kelishi kabi katta muammoga duch keldi. Qalbakilashtirish to'g'risida birinchi ma'lumotlar Jahon

Sog'liqni saqlash Tashkiloti tomonidan 1982-yilda aniqlangan. Hozirda dori vositalarini qalbakilashtirish muammosi butun dunyo uchun dolzarb. Xalqaro farmatsevtik ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, qalbakilashtirilgan dori vositalari rivojlangan mamlakatlar farmatsevtik bozori ulushining 5—8% ini tashkil etadi.

Bundan 6 — 8 yil avval dori vositalari sifatining kuchli nazorati tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasini ham dori vositalarini qalbakilashtirish muammosi chetlab o'tmadi. Birinchi qalbaki dori vositasi to'g'risidagi ma'lumot 1998-yil Krasnoyarskning «Krasfarma» farmatsevtik zavodi ishlab chiqargan, qon o'rnini bosuvchi qalbaki «Poliglyukin» dori vositasi asosida aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotiga ko'ra qalbaki dori vositalarining miqdori 1998-yilga nisbatan bir necha marta oshgan. Hozirgi paytda O'zbekiston farmatsevtika bozorida barcha farmakoterapevtik guruhlar bo'yicha qalbaki dori vositalari aniqlangan. Ularni aniqlash ko'rsatkichlari o'rtacha quyidagi guruhlar asosida taqsimlanadi:

1. Antibakterial vositalar — 47,8%.
2. Oshqozon-ichak tizimiga ta'sir qiluvchi dori vositalari — 13,5%.
3. Analgetiklar — 10,9%.
4. To'qimalar almashinuviga ta'sir qiluvchi vositalar — 9,5%.
5. Zamburug'larga qarshi vositalar — 7,7%.
6. Gormonal vositalar — 5,6%.
7. Boshqa dori vositalari — 5%.

Dori vositalarini qalbakilashtirish muammosi ko'lamlari haqida ma'lumotlar hozircha yetarli emas. Hozirgi paytda bu muammo rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda, rivojlanib kelayotgan mamlakatlarga ham ta'sir qilmoqda. Bu muammo ko'proq dori vositalarini ishlab chiqarish, importi, tarqatilishi, yetkazib berish tizimining tartibga solinishi va nazorati kuchsiz bo'lgan mamlakatlarda ko'proq kuzatilmoqda.

Qalbaki dori vositalarining miqdorini ko'payishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Bu omillar yaxshilab o'rganib chiqilib, muammoni Davlat miqyosida belgilab, dori vositalarini taqsimlash



tizimida qalbakilashtirishning oldini olish bo'yicha samarali dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Quyida qalbakilashtirilishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar keltirilgan.

— *Qonun bazasining yetarli emasligi.*

Har bir mamlakatda dori vositalari qalbakilashtirilishining oldini olish va bu muammoni bartaraf etishga qaratilgan qonunlar mavjud bo'lishi kerak. Agar dori vositalarini ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini nazorat qiluvchi qonunlar yetarli bo'lmasa yoki umuman yo'q bo'lsa, qalbakilashtirish jazosiz qolishi mumkin.

— *Amaldagi qonunlarni yetarli darajada qo'llanilmasligi.*

Mavjud qonunlarning so'zsiz bajarilishi yo'lga qo'yilmaganligi qalbakilashtirish kabi jinoyatlarning sodir bo'lishiga olib keladi, chunki bu holda qamalish yoki jazodan qo'rqish hissi bo'lmaydi.

— *Jazo sanksiyalarining kuchsizligi.*

Dori vositalari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun jazo sanksiyalari yumshoqligi yoki umuman jazolanmasligi qalbakilashtirishga olib keladi.

— *Ko'p sonli vositachilar ishtirokidagi kelishuvlar.*

Mahsulot ko'plab vositachilar yoki rasmiy kelishuvlardan o'tsa va nazorat tizimi yetarli bo'lmasa, bu holatda dorilarni qalbakilash-tiruvchilarga bozorga o'z mahsulotlarini kiritishga qulay imkoniyat yaratiladi.

— *Talabning taklifdan yuqoriligi.*

Dorilarga talabning taklifdan ustunligi, qalbakilashtirishni keltirib beruvchi omil hisoblanadi. Chunki, bu holatda qalbaki mahsulotni ishlab chiqarish va sotish katta foyda olish imkonini beradi. Ba'zan dorilarga talabning ortishi dorilarning kerak bo'lmagan hollarda ham iste'mol qilinishi tufayli yuzaga keladi.

— *Narxlarning yuqoriligi.*

Dorilarga bo'lgan narxlarning yuqoriligi va narxlar orasidagi katta farqlarning bo'lishi arzonroq qalbaki dori vositalarini bozorga kiritish imkonini beradi.

— *Dorilarni noqonuniy ishlab chiqarilishining mukammallashuvi.*

Dori vositalarini ishlab chiqarish va qadoqlash uchun taklif etilayotgan murakkab zamonaviy asbob-uskunalarining paydo

bo'lishi tufayli, qalbaki dorilarni haqiqiyalaridan farqlashni murakkablashtirdi. Chunki, bu holat dorilarni qalbakilashtiruvchilarga haqiqiy dori vositalariga aynan o'xshash bo'lgan qalbaki-  
larini chiqarish imkonini berdi.

— *Manfaatdor tomonlarning orasidagi samarasiz hamkorlik.*

Ulgurji ta'minotchilar va ishlab chiqaruvchilarning tegishli nazorat organlariga dori vositalarining qalbakilashtirish holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berish istagining yo'qligi milliy hokimiyat organlariga ushbu faoliyatni to'xtatishiga imkon bermayapti.

— *Ekspart qiluvchi mamlakatlar tomonidan va erkin savdo zonalarida nazoratning mavjud emasligi.*

Ekspart uchun ishlab chiqariladigan farmatsevtik vositalar mazkur mamlakat o'zi uchun ishlab chiqargan dori vositalariga qabul qilingan standart bo'yicha nazorat qilinmaydi. Bundan tashqari xorijiy mamlakatlar uchun mo'ljallangan dorilar nazorati kuchsiz bo'lgan erkin savdo zonalarida orqali ekspart qilinadi. Bu esa shu zonalarda qayta qadoqlash va yoriqlash imkoniyatini yaratadi. Natijada qalbaki dorilar savdosi ko'payadi.

### **Qalbaki dori vositalari to'g'risida tushuncha**

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, qalbakilashtirilgan dori vositalari dunyoning deyarli barcha mamlakatida aniqlangan. 1992-yil Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan xalqaro farmatsevtik ishlab chiqaruvchi firmalar assotsiatsiyasi hamkorlikda o'tkazgan dori vositalarini qalbakilashtirish muammolariga bag'ishlangan I-xalqaro anjumanda «qalbaki dori vositasi» tushunchasiga ta'rif berildi.

«**Qalbaki dori vositasi** — bu oldindan ko'zda tutilgan holda va aldov yo'li bilan chinligi yoki olinish manbalari bo'yicha yolg'on yoriqlar bilan ta'minlangan farmatsevtik mahsulotdir». Qalbakilashtirish nafaqat original vositalar, balki generik dori vositalariga ham taalluqli bo'lishi mumkin. Qalbaki dori vositalariga kerakli ingrediyentli yoki boshqa ingrediyentli, faol ingrediyentli yo'q bo'lgan yoki keragidan kam miqdorda faol ingrediyent saqlagan hamda qalbaki qadoqlangan dori vositalari kiradi.

Farmatsevtik bozori tizimiga qalbaki mahsulotlarning kirib kelishi natijasida quyidagi nojo'ya holatlar kuzatilishi mumkin:

— Dori vositasi tarkibida asosiy ta'sir qiluvchi moddaning kam miqdorda bo'lishi yoki umuman mavjud emasligi bilan bog'liq holda bemor organizmida tegishli farmakoterapevtik ta'sir vujudga kelmaydi.

— Agar vosita yorliqda ko'rsatilmagan ta'sir qiluvchi moddani saqlasa, bemor organizmiga salbiy ta'sir qiluvchi zaharli yoki keraksiz biologik faol moddaning tushib qolishiga olib keladi.

Rasmiy ishlab chiqaruvchilar va ularning mahsulotiga nisbatan ishonchning susayishi kuzatiladi.

Ishlab chiqaruvchi firmalar va davlat muassasalariga iqtisodiy zarar yetadi.

### **Qalbakilashtirilgan dori vositalarining tasniflanishi**

O'zbekiston Respublikasiga kirib kelgan va sotilgan qalbaki dori vositalari ishlab chiqarilishi sharoitlariga ko'ra 6 ta guruhga bo'linadi:

**Birinchi guruh** — ta'sir qiluvchi moddasi umuman bo'lmagan dori vositalari. Bunday dori vositalarini «plasebo» (bo'sh vositalar) deb ataladi. Bu dori vositalarini ishlab chiqarishda, odatda, oddiy neytral komponent (talk, ohak, bo'r va hokazo)lar hamda tabiiy bo'yoq (lavlagi, sabzi va boshqa)lar qo'llaniladi. Bunday qalbakilashtirish turi kam uchraydi va qalbaki vosita aslidan oson farqlanadi. Bu dori vositalari nisbatan xavfsiz bo'lsada, lekin davolanish jarayonida samara bermaydi. Bu usul bilan asosan tabletkalar hamda surtma dori va gellar qalbakilashtiriladi.

**Ikkinchi guruh** — bu guruh vositalari tarkibiga asosiy ta'sir qiluvchi modda o'rniga boshqa unga o'xshash ingrediyentlar kiradi, ya'ni asosiy ta'sir qiluvchi modda o'rniga arzonroq, ammo samarasizroq modda kiradi. Ko'pincha arzonroq dori vositasining yorliqlanishi qimmatbaho vositaning yorliqlanishiga almashtiriladi. Masalan: oddiy fiziologik eritma flakoniga samarali og'riq qoldiruvchi yoki onkologik vositalarning yorliqlari yopishtiriladi. Bunday guruh dorilar xavfli bo'lib, kutilayotgan terapevtik ta'sirni ko'rsatmaydi.

**Uchinchi guruh** — bu guruh vositalari yorlig'ida ko'rsatilgan asosiy ta'sir qiluvchi moddadan olinishi bo'yicha farqlanadigan

modda saqlaydi. Tekshirish natijasida dori vositasining tarkibi mos keladi. Ammo baribir vosita qalbaki bo'ladi. Masalan: Bayer (Germaniya) konsernining aspirin qutichasiga mahalliy ishlab chiqarilgan asetil salisil kislotasi solingan bo'ladi. Bu guruh dorilari bemorga katta ziyon keltirmaydi, ammo ko'p hollarda qo'llanilayotgan vositaning terapevtik ta'siri past bo'ladi.

**To'rtinchi guruh** — bu guruh vositalari o'z tarkibida aniq miqdorda ta'sir qiluvchi moddalarini saqlab, ammo birlamchi qadoqlash bo'yicha originaldan ayrim elementlari bilan farq qiladi. Masalan: «Aventis» firmasining «Klaforan», «Xinoin» firmasining «No-shpa» vositalari originallariga mos keladigan holda qalbakiligi aniqlangan. Bu guruh vositalaridan bemor terapevtik samarani olishi mumkin, ammo dori vositalarini qonuniy ishlab chiqaruvchilari katta ziyon ko'radilar.

**Beshinchi guruh** — «yarimqalbaki» vositalar deb yuritiladi, ular yetarli sifat darajasiga ega, qonuniy ishlab chiqariladigan korxonalar nomidan ishlab chiqariladi, nomlanishi, tarkibi va qadoqlanishi taniqli firmalarning «Brend»lari bo'lgan asil vositalariga o'xshash bo'lib, ammo ularni sotishda asil vositalarni ishlab chiqaruvchilarning intellektual mulkka bo'lgan huquqlari buziladi. Masalan: «Shering Plau» firmasining «Selestoderm» vositasiga dizayni va qadoqlanishi bo'yicha o'xshatib «Selektoderm» nomli vositani boshqa firma ishlab chiqargan.

**Oltinchi guruh** — nusxa vositalari bo'lib tarkibida kerakli ta'sir qiluvchi moddalarining aynan o'zi va kerakli miqdorda bo'ladi hamda ular zamonaviy texnologiyasi bo'lgan ishlab chiqaruvchi korxonalarda (ba'zida ishlab chiqaruvchilar o'zi tomonidan) ishlab chiqariladi. Oxirgi uchta variantdagi qalbaki dorilar katta yoki kichik qonuniy ishlab chiqaruvchi farmatsevtik korxonalar uchun xosdir. Bu hol ko'pincha taniqli firmalarning u yoki bu hududdagi filiallarida kuzatiladi. Bu nusxalar farqlanishi murakkab bo'lgan qalbaki dori guruhidir. Bunday vositaning originaldan farqlanishi faqat maxsus kimyoviy laboratoriyadagina amalga oshirish mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan qalbaki dori vositalarining barcha guruhlari sog'liq uchun zarar keltiradi, chunki ular qonuniy sifat nazorat ro'yxatidan o'tmaydi.

## **Qalbaki dori vositalarining standartga muvofiq kelmaslik ko'rsatkichlari**

Qalbakilashtirilgan dori vositalari me'yoriy hujjatlarning asosan beshta ko'rsatkichi talabiga javob bermaydi: «jihozlash», «yorliqlanishi», «tashqi ko'rinishi», «chinligi» va «ta'sir etuvchi moddalar miqdori». Dori vositasining birinchi uchta ko'rsatkich bo'yicha standartga muvofiq kelmasligini vizual aniqlash mumkin. Quyida qalbakilashtirishning tez-tez uchraydigan belgilarini keltiramiz.

«Yorliqlanishi» bo'yicha qalbakilashtirilgan dori vositalarining asl nusxalardan asosiy farqlanadigan belgilari quyidagilar: ko'p hollarda yorliqlarning kseronusxa bo'lishi, shtrix kodlari, ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi, qayd etish raqami bo'lmasligi, yozuvlarning noaniq va notekis bo'lishi, ayrim hollarda grammatik xatoliklar uchraydi yoki ayrim harflari belgilangan tartibda bosilmaganligidir.

«Jihozlash» ko'rsatkichi bo'yicha quyidagi belgilar bilan farqlanadi: ikkilamchi joylash qutisining notekis yelimlanganligi, «ishlatish bo'yicha yo'riqnoma»ning qutilarga aksariyat holda notekis joylashtirilganligi.

«Tasvirlanishi» ko'rsatkichi bo'yicha dori shaklining rangi asildan farq qiladi, ko'p hollarda to'g'roq, tabletkalarning yuzasida yot dog'larning bo'lishi, ampulalar nostandart, turli o'lchamlarda bo'lishi, bir xil to'ldirilmaganligi va nuqsonli kavsharlanishi, yorliqlarning notekis yelimlanishi mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida aniqlangan qalbaki dori vositalarining tahlil natijalari bo'yicha salmog'ini quyidagicha taqsimlash mumkin:

- Tashqi ko'rinishi, jihozlanishi va yorliqlanishi — 50—60%;
- Chinligi — 25—35%;
- Miqdoriy tahlili — 5—10%;
- Boshqa ko'rsatkichlar — 1—2%.

Yuqori texnologiyaga ega bo'lgan qalbaki dori vositalarini faqat mutaxassislargina asl nusxadan farqlay oladilar, chunki ular maxsus aniqlanadigan ayrim ko'rsatkichlar bilan farqlanadi. Bunday qalbaki dorilar dorixona tarmog'ida tez-tez uchrab turadi.

Barcha dori vositalarini qalbakilashtirish holatlari «Dori-Darmon» AK tizimidagi nazorat-tahlil laboratoriyada hamda Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasining sertifikatlashtirish idorasi tomonidan aniqlanmoqda. Qalbaki dori vositalarining asosiy qismi Respublikamizga xorijdan kirib keladi (Hindiston, Xitoy, Polsha va MDH mamlakatlari). «Pliva», «Aventis», «Ebeve», «Novartis», «Elay-Lilli» va boshqa xorijiy ishlab chiqaruvchi firmalarining qalbakilashtirilgan dori vositalari ham O‘zbekistonda aniqlangan. Shu bilan birga, Rossiyaning «Biosintez» OAJ, «Krasfarma» OAJ, «Bioximik» OAJ, «Ay Si En Tomsk ximfarmzavod» OAJ kabi ishlab chiqaruvchi firmalarining qalbaki dorilari ham farmatsevtik bozorimizda uchraydi.

### **O‘zbekiston Respublikasi farmatsevtik bozorida dori vositalarini qalbakilashtirishning oldini olish chora-tadbirlari**

Hozirgi kunda O‘zbekiston farmatsevtika bozoriga sifatsiz dori vositalari kirib kelishini oldini olish maqsadida bir qator chora-tadbirlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5-dekabr 2002-yildagi 427-sonli «O‘zbekiston Respublikasiga iste’mol tovarlari olib kelishni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risida» Qarori va «Dori vositalarini sertifikatlashtirishni o‘tkazish qoidalari» bu yo‘nalishdagi asosiy hujjatlar bo‘lib hisoblanadi.

Iste’molchilar huquq va manfaatlarini himoyalash, Aholini sifatli va bezarar dori vositalari bilan ta’minlashning yagona davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida 2003-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish idorasi tomonidan beriladigan dori vositasining muvofiqlik sertifikati joriy etildi. Faqat shu muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘lgan dori vositalarigina O‘zbekiston Respublikasi hududida sotilishiga ruxsat etiladi. Dori vositalarining belgilangan sifat standartlariga muvofiqligi «Dori vositalari ekspertizasi va standartlash Davlat markazi»ning akkreditatsiyadan o‘tgan va boshqa vakolatli laboratoriyalarda tekshiriladi.

Sertifikatlashtirish jarayonini osonlashtirish maqsadida viloyatlarda sertifikatlashtirish idoralari tashkil etilgan. Andijonda,

(Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari uchun), Urganchda (Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun), Samarqandda (Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari uchun), Qarshida (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari uchun). Yuqoridagi idoralar tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlari MDH davlatlarida tan olinadi.

Shu yo‘l bilan Respublikaga nostandart dori vositalarini kiritilishiga o‘ziga xos to‘siq qo‘yilmoqda. Lekin majburiy sertifikatlashtirish hamma muammolarning yechimi bo‘la olmaydi. Farmatsevtik bozorda qalbaki mahsulotlarning kirib kelishining oldini olishning samarali usullarini o‘z ichiga olgan bir qator chora tadbirlarni ishlab chiqish kerak. Hozirgi kunda qalbaki dori vositalari haqidagi ma‘lumotlar, axborotlar — ommaviy axborot vositalari (radio, televideniye, matbuot) yordamida mutaxassislariga muntazam ravishda yetkazilmoqda. Dori vositalarini qalbakilashtirish muammosi yechimini alohida davlatlarning nazorat organlari bilan hamkorlikda hal qilish mumkin.

**Dori vositalarining qalbakilashtirishni bartaraf etish bo‘yicha Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari bo‘yicha chora-tadbirlar**

**Farmatsevtika sanoati.** Farmatsevtika sanoati qalbaki dori vositalarini aniqlashda muhim o‘rin egallaydi. Qo‘llanadigan choralar:

— dori vositalarining himoya tizimini tatbiq etish, o‘z mahsulotlarini qalbakilashtirilishining oldini olish maqsadida himoya yorliqlaridan va boshqa vositalaridan foydalanish chora-tadbirlarini qo‘llash;

— o‘z omborida dori vositalari va qadoqlash materiallarining noqonuniy ishlab chiqaruvchi hamda qadoqlovchilarga sotish maqsadida o‘g‘irlanishini oldini olish.

**Dori vositalarini xorijdan keltiruvchi tashkilotlar**

Farmatsevtika mahsulotlarini xorijdan olib keluvchi tashkilotlar quyidagi choralarni ko‘rishlari kerak:

— xorijdan olib kelinayotgan dori vositalari tegishli davlatlarda qonuniy yo‘l bilan ishlab chiqarilganligi kafolatlanishi;

— keltirilayotgan davlatlarda xavfsizlik choralari o‘rganish va foydalanish;

— chetdan olingan dori vositalariga Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari asosida rasmiylashtirilgan farmatsevtika mahsulotining sifat sertifikatini imkoniyat darajasida olish.

### **Ulgurji va chakana savdo tashkilotlari**

Farmatsevtika mahsulotlari bilan ulgurji va chakana savdo qiluvchilar quyidagi choralarni ko‘rishlari kerak:

— dori vositalarini faqat qonuniy va ishonchli manbalardan sotib olish;

— dorilarning qalbakiligiga yoki dorining sifati, samaradorligi, havfsizligi shubhali bo‘lgan dorilarni sotib olmaslik, sotmaslik yoki yetkazib bermaslik;

dori vositalarining sifat nazoratini vizual va boshqa noanalitik usullar bilan o‘tkazish, shu bilan birga, yorliqlash sifatini va qadoqlash materiallarini, ishlab chiqaruvchining nomi hamda manzilini tekshirish.

### **Sog‘liqni saqlash tizimi mutaxassislari**

Hamma Sog‘liqni saqlash tizimi mutaxassislari qalbaki dori vositalariga qarshi kurashga o‘z xissalarini qo‘shishlari kerak. Dori vositalarini tavsiya etuvchi shifokorlar ba‘zi bir dorilar ishlatilganda davolanishning samarasiz kechishiga alohida ahamiyat berishlari kerak, chunki bu — dori qalbakiligining belgisi bo‘lishi mumkin. Qalbaki deb, taxmin qilingan dori vositalarining haqida dori vositalari sifatini nazorat qiluvchi milliy organlarga xabar qilinishi, ular esa o‘z navbatida namunalarni olib, ekspertiza o‘tkazishlari kerak.

**Iste’molchilar.** Iste’molchilar ham o‘z shifokorlariga quyidagi ma’lumotlarni yetkazishlari kerak:

— qo‘llanilgan davolash choralariga qaramasdan sog‘aymaslik holatlari to‘g‘risida;

— davolanish davomidagi barcha nojo‘ya ta’sirlar to‘g‘risida (kutilmagan nojo‘ya ta’sirlar qo‘llanilayotgan dori vositalarining qalbakiligidan dalolat beradi).

Dori vositalarining qalbakilashtirilishini bartaraf etish kabi muhim va ijtimoiy ahamiyatga ega muammoning ijobiy hal bo‘lishi, farmatsevtika bozori muomalasiga faqat sifatli, samarali hamda bezarar dori vositalari kiritishga aloqador bo‘lgan mutasaddi tashkilot va shaxslarning hamkorligiga bog‘liq.



## **7.8. NOSTANDART DORI VOSITALARI VA TIBBIY BUYUMLARNI YO‘Q QILISH TARTIBI**

Ishlatishga yaroqsiz bo‘lgan dori vositalarini yo‘q qilish tartibi bo‘yicha vaqtinchalik yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida», Davlat sanitar nazorati va Tabiatni qo‘riqlash to‘g‘risidagi qonunlariga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu yo‘riqnoma ishlatishga yaroqsiz bo‘lgan, qalbaki dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo‘q qilish bo‘yicha yagona tartibni belgilaydi.

Mazkur yo‘riqnoma standart talablariga javob bermaydigan va laboratoriya tajribalaridan aniqlangan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar partiyalari, shuningdek, qalbaki dori vositalari va tibbiy buyumlar uchun qo‘llaniladi.

Bu yo‘riqnomada quyidagi tushunchalar qo‘llanilgan:

— «dori vositalari» — kelib chiqishi tabiiy va sun‘iy bo‘lgan bir yoki bir necha dori moddalari (substansiyalar) hamda yordamchi moddalar asosida hosil qilingan, kasallikning oldini olish, tashxis qo‘yish va davolash uchun qo‘llashga ruxsat etilgan vositalar. Ular jumlasiga immunobiologik, radiofarmatsevtik va parafarmatsevtik preparatlar, gomeopatik, tashxis qo‘yish va sterilizatsiya vositalari kiradi;

— «tibbiy buyumlar» — kasallikning oldini olish, tashxis qo‘yish va davolash uchun tibbiyotda qo‘llaniladigan buyumlar. Ular jumlasiga bog‘lash va tikish materiallari, shprislar, qon hamda infuzion eritmalarni quyishga mo‘ljallangan sistemalar, bemorlarni parvarishlashda qo‘llaniladigan ashyolar va materiallar kiradi.

— «yo‘q qilish» — dori vositalari va tibbiy buyumlarni har xil usullar yordamida yaroqsiz holga keltiruvchi yo‘q qilish holati bo‘lib, bunda yoqib yuborish, maydalab tashlash, bo‘lib tashlash, kuydirib tashlash yoki ko‘mib tashlash mumkin.

Mazkur Vaqtinchalik yo‘riqnoma talabalari O‘zbekiston Respublikasi hududidagi dori vositalari va tibbiy buyumlar muomalasi bilan shug‘ullanuvchi barcha davolash-profilaktika muassasalari va boshqa tashkilotlar uchun majburiydir.

Yo‘q qilish quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- belgilangan yaroqlilik muddati o'tganda;
- sertifikatsiyalash bo'yicha sinovlar natijasida mahsulotning sifat talabiga javob bermasligi aniqlanganda;
- dori vositalari va tibbiy buyumlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligida ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa va ularni identifikatsiyalash imkoniyati yo'q bo'lsa;
- dori vositalari va tibbiy buyumlarning qalbakiligi aniqlanganda;
- boshlang'ich zavod qadog'i buzilgan bo'lib, qaytarib yuborish imkoniyati bo'lmagan hollarda.

**Eslatma:** Mazkur yo'riqnoma ishlatishga yaroqsiz giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni yo'q qilish tartiblari uchun qo'llanilmaydi.

### **Yo'q qilish tartiblari**

Dori vositalari va tibbiy buyumlar partiyasini yo'q qilish bo'yicha ruxsat olish uchun tashkilot rahbari 10 kunlik muddati orasida Sog'liqni saqlash vazirligining Dori vositalari va tibbiy texnikasi sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasiga (keyinchalik Bosh boshqarma) yo'q qilish uchun tayyorlangan dori vositasi va tibbiy buyumlarning nomi, seriya raqami, miqdori, ishlab chiqargan (firma) tashkilot nomi, davlati va mahsulot egasi ko'rsatilgan tavsiyanoma jo'natish kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra, dori vositalari va tibbiy buyumlarning yo'q qilinishi bo'yicha ruxsat Bosh boshqarma tomonidan tashkilot rahbarlari keltirgan tegishli akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarning mahsulotni me'yoriy hujjatlar bo'yicha sifat talablariga javob bermasligi to'g'risidagi xulosalari asosida qabul qilinadi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilish bo'yicha besh kishidan kam bo'lmagan miqdorda, Davlat Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va Sanitariya-epidemiologik xizmati sohalaridan tegishli vakillar jalb etilgan holda komissiya tuziladi va tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Komissiya o'z faoliyatini a'zolarining 80% dan kam bo'lmagan ishtirokida amalga oshirishga haqli.

Bosh boshqarma tomonidan ruxsat olingandan keyin komissiya belgilangan tartibda dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilishi mumkin. Komissiya tomonidan sana, vaqt, joy va yo'q qilnadigan

dori vositalarining fizik-kimyoviy mutanosibligini hisobga olgan holda yo‘q qilish usuli belgilanadi.

Yo‘q qilishga tayyorlangan dori vositalari va tibbiy buyumlar, partiyasining yo‘q qilingunga qadar saqlanishi hamda javobgarligi ichki buyruq asosida familiyasi, ismi va otasining ismi ko‘rsatilgan moddiy javobgar shaxsga yuklatilib, saqlashga topshirilgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlarning nomi seriyasi va qadog‘i miqdori ko‘rsatiladi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarning partiyasini yo‘q qilinishi mahsulot egasi yoki uning vakili ishtirokida — amalga oshiriladi.

Mahsulot partiyasi yo‘q qilingandan keyin komissiya a‘zolari dori vositalari va tibbiy buyumlarning yo‘q qilinganligi to‘g‘risida dalolatnoma tuzadi.

Dalolatnomada quyidagi ma‘lumotlar keltirilishi kerak:

— dori vositalari va tibbiy buyumlar partiyasining yo‘q qilingan joyi, sana hamda vaqti;

— dalolatnoma tuzilgan joy, sana va vaqt;

— dori vositalari va tibbiy buyumlar nomi (seriya nomeri, yaroqlilik muddati va ishlab chiqaruvchi nomi);

— yo‘q qilingan dori vositalari va tibbiy buyumlarning miqdori;

— dori vositalari va tibbiy buyumlar partiya egasi (moddiy javobgar shaxs);

— yo‘q qilish uchun ruxsat kim tomondan qabul qilingan;

— yo‘q qilish usuli tibbiyot maqsadlarida ishlatiladigan tovarlarni yo‘q qilishda ishtirok etgan komissiya a‘zolari (familiya, ismi va otasining ismi, lavozimlari ko‘rsatilgan holda). Dalolatnoma komissiya a‘zolari imzosi bilan tasdiqlanadi.

### **Eslatma.**

1. Yo‘q qilishga ruxsat etilmaydi:

1.1. Sud va tergov organlari tomonidan ish qo‘zg‘atilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar partiyasi, ularning saqlash muddatidan qat’iy nazar.

1.2. Agar dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan shug‘ullanuvchi shaxslar sifatsiz mahsulot partiyasini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqarib yuborish to‘g‘risidagi reklamatsiyaga ega bo‘lsa.

## **8-BOB. DAVOLASH-PROFILAKTIKA MUASSASASINING DORIXONASI**

### **8.1. DAVOLASH-PROFILAKTIKA MUASSASASINING DORIXONASINI VAZIFALARI**

Davolash-profilaktika muassasasi qoshidagi dorixona bemorlarni Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan tibbiyotda qoʻllashga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar, bogʻlov materiallari, sanitariya va gigiyena ashyolari, dezinfeksiya vositalari hamda boshqa mahsulotlar bilan taʼminlash maqsadida tashkil etiladi.

Statsionar sharoitda shifoxonalarda, dispanserlarda, tugʻuruqxonalarda va boshqa davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlarning dori vositalari hamda tibbiy buyumlar bilan taʼminlanishi turli mulk shaklidagi dorixonalar yoki shifoxonalar qoshidagi dorixonalar (shifoxona dorixonasi) orqali amalga oshirilishi mumkin.

Davolash-profilaktika muassasasining dorixonasi farmatsevtika faoliyatini Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan berilgan litsenziyalar asosida olib boradi va litsenziyada koʻrsatilgan faoliyat turlaridan boshqa faoliyat bilan shugʻullanishga ruxsat etilmaydi.

Davlat tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasasining dorixonasi bevosita shifoxona bosh shifokoriga boʻysunadi, ushbu muassasaning tuzilmaviy tarkibi hisoblanadi va boʻlimlari bilan bir xil teng huquqqa ega boʻladi. Dorixonaning ish tartibi bosh shifokor tomonidan belgilanadi.

Davolash-profilaktika muassasasining ixtisosligi, bemorlarga ajratilgan oʻrinlar soni va boshqa koʻrsatkichlariga qarab dorixonaga yetarli ishchi oʻrinlari ajratiladi.

Dorixonada ish oʻrinlari soni va oylik maoshlari Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari, Sogʻliqni saqlash vazirligining amaldagi buyruqlari hamda meʼyoriy hujjatlar asosida belgilanadi.

Dorixonaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— davolash-profilaktika muassasasi boʻlimlarini ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan va ulgurji savdo bilan shugʻullanuvchi taʼminotchilardan belgilangan tartibda,

shartnoma asosida sotib olingan dori vositalari, bog'lov materiallari, bemorlar parvarishida ishlatiladigan sanitariya hamda gigiyena ashyolari, dezinfeksiya vositalari hamda tibbiyot buyumlari va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlash;

— xarid qilingan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini o'rnatilgan tartibda dorixonaga kirim qilish hamda fizik-kimyoviy xossalari qaraib saqlash;

— Respublikaga chetdan keltiriladigan va mahalliy dori vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalarda mavjud bo'lgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlarning turlari hamda narxlariga to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish va xarid qilish bo'yicha takliflarni o'rganish;

— davolash-profilaktika muassasasi bo'limlaridan dori vositalari va boshqa tibbiy buyumlar uchun talabnomalar qabul qilish;

— qabul qilingan talabnomalar bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligining amaldagi buyruqlari asosida belgilangan tartibda dori turlarini tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish, yorliqlash va tegishli bo'limlarga tarqatish;

— shifoxonaning bo'limlari va xonalaridagi dori vositalari, bog'lov materiallari, bemorlar parvarishida ishlatiladigan sanitariya hamda gigiyena ashyolari, dezinfeksiya vositalari va boshqa tibbiy buyumlarning amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari darajasida saqlanishi, ishlatilishini nazorat qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish uchun rahbariyatga axborot berish;

— tibbiyot xodimlariga farmatsevtika yangiliklari, dorixonada mavjud bo'lgan yangi dori vositalari va ularni ishlatilishi haqida axborot berish;

— davolash-profilaktika muassasasi va ehtiyojiga ko'ra dori vositalari hamda tibbiy buyumlar zaxirasini doimiy ravishda to'ldirib borish;

— ixtisoslashgan davolash-profilaktika muassasa dorixonalari uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyruqlarida belgilangan tartibda va yetarli miqdorda zardob dori vositalari hamda vaksinalar zaxirasini tashkil etish;

— davolash-profilaktika muassasasi bo'limlariga dori vositalari ta'minotini sifatli va yuqori madaniyat bilan olib borish;

— dorixonada mavjud bo'lgan dori vositalarini saqlashda amaldagi sanitariya qoidalari va me'yorlariga hamda farmatsevtik talablarga rioya qilish.

Dorixonaga yuridik shaxslardan muvofiqlik sertifikatini va kerakli ma'lumotlari yetarli bo'lmagan hamda talab darajasida rasmiylash-tirilmagan hujjatlar asosida dori vositalari va tibbiyot buyumlarini qabul qilish taqiqlanadi.

Dorixonaga ishini boshqarish oliy farmatsevtika ma'lumotiga ega bo'lgan va mutaxassisligi bo'yicha kamida 3 yil ishlagan malakali shaxsga ruxsat etiladi.

Dorixonaga ish hajmi, ish tartibi va turiga qarab davolash-profilaktika muassasa rahbari tomonidan o'rnatilgan tartibda ish o'rinlari ajratiladi.

Xodimlarni ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish davolash-profilaktika muassasa rahbari tomonidan dorixonaga mudiri bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Dorixonaga mudiri davolash-profilaktika muassasasi rahbari tomonidan o'rnatilgan tartibda ishga tayinlanadi va ishdan bo'shatiladi, davolash-profilaktika muassasasi rahbariyati hamda dorixonaga mudiri o'rtasida moddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma tuziladi.

Dorixonaga mudiri dorixonaga ishini tashkil etadi va uning faoliyati uchun javobgar hisoblanadi.

Dorixonaning ish tartibi davolash-profilaktika muassasasi rahbari tomonidan o'rnatilgan tartibda belgilanadi.

Farmatsevtika sohasida tugallanmagan oliy ma'lumotli bo'lgan shaxslarning bu sohada o'rta maxsus ma'lumotli bo'lgan xodimlar ishlaydigan lavozimlarda farmatsevtika faoliyati bilan Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

Dorixonaga xodimlari belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tishlari kerak.

Ishlab chiqarish xonalari va ish o'rinlarida chekish, ovqatlanish, shaxsiy hamda ishga kerakli bo'lmagan buyumlarni saqlashga ruxsat etilmaydi.

Rahbar dorixonalariga qonunchilik bilan kafolatlangan mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoya choralarini ta'minlab berishi kerak.

Belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilmaydigan hamda farmatsevtika faoliyati bilan g'ayri qonuniy shug'ullanuvchi shaxslar qonun oldida javobgar hisoblanadi.

Davolash-profilaktika muassasalarining dorixonasi o'zaro tuzilgan shartnoma asosida farmatsevtika institutlarining talabalari, farmatsevtika kollejlarning o'quvchilari, farmatsevtika malakasini oshirish kurslarining tinglovchilari, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchilar uchun ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish markazi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Davolash-profilaktika muassasalarining dorixonasining rahbari va xodimlari belgilangan tartibda 5 yilda bir marta malaka oshirish kurslarida o'qishlari kerak.

## **8.2. DORIXONA BINOSIGA QO'YILGAN TALABLAR VA UNDAGI ASBOB-USKUNALARDAN FOYDALANISH QOIDALARI**

Davolash-profilaktika muassasalarining dorixonasi alohida qurilgan binoda yoki davolash-profilaktika muassasasiga qarashli binoning bir bo'lagida alohida blok holida tashkil etilishi mumkin.

Dorixonalar amaldagi me'yoriy hujjatlarining sanitariya qoidalari va me'yorlari talabiga mos keladigan hamda dori vositalarini farmatsevtika talablariga asosan saqlanishini ta'minlaydigan binolarda tashkil etiladi. Dorixonaning umumiy maydoni, xonalar soni va o'lchamlari shifoxonaning ixtisosi, tuzilishi, faoliyat turi hamda ish hajmiga qarab belgilanadi. Bunda dorixonaga sanitariya qoidalari va me'yorlari talablariga mos keladigan, bajaradigan ish hajmiga qarab xonalar ajratiladi hamda kirish-chiqish yo'llari boshqa bo'limlardan alohida bo'ladi.

Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi binolari va jihozlanishi, faoliyat yuritish me'yor va qoidalari SaN PiN №0078—98 bilan tasdiqlangan.

Ishlab chiqarish xonalari texnologik jarayonni hisobga olgan holda uzviy ketma-ket bogʻlangan boʻlishi kerak.

Dorixonaning ishlab chiqarish xonalari ichki devorlari yuzasi va shiftlari tekis boʻlishi, ular dezinfeksiyalovchi hamda yuvish vositalari bilan changdan hoʻllab tozalashga chidamli boʻlgan materiallar bilan qoplanishi kerak. Jumladan devorlarning yuzasini qoplash uchun och rangdagi suvga chidamli emal boʻyoqlardan, kafellardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Ushbu xonalarning pollariga plitkalar, kafellar yotqizilishi yoki choklari birlashtirilgan lenolium, relin bilan qoplanishi mumkin.

Boshqaruv xodimlari va yordamchi xonalarining ichki devorlari yuzasi, shifti hamda pollarini pardoqlashda boshqa qurilish materiallaridan foydalanishga ruxsat etiladi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlar omborxonasi sanitariya qoidalari hamda meʼyorlari talablariga javob berishi kerak va dori vositalari va tibbiyot buyumlarini Sogʻliqni saqlash vazirligining amaldagi buyruqlari, qoʻllanmalari asosida, farmatsevtika talablari darajasida saqlash uchun kerakli mebellar, stellajlar, shkaflar, asboblari, uskunalar bilan jihozlangan boʻlishi kerak. Omborxonalarining yuzasi dezinfeksiyalovchi va yuvish vositalari bilan hoʻllab tozalashga chidamli boʻlgan materiallar bilan qoplanishi kerak.

Termolabil dori vositalarini saqlash xonasida zarur sharoitlar yaratilgan boʻlishi, bunda xonaga konditsioner, sovutkichlar qoʻyilishi hamda xona havo harorati va namligini oʻlchash asbobi (termometr, gigrometr yoki psixrometr) bilan taʼminlanishi kerak. Ushbu oʻlchov asbobi poldan 1,5—1,7 metr balandlikda, kirish eshiklari va isitish asboblaridan kamida 3 metr masofada oʻrnatiladi hamda kundalik harorat koʻrsatkichi maxsus daftarda qayd etib boriladi. Daftar toʻlgandan soʻng bir yil saqlanadi va oʻrnatilgan tartibda yoʻq qilinadi.

Dorixonada ishlab chiqarish xonalari (assistent xonasi, aseptika bloki) dorixonalarining mebellari, dori turlarini tayyorlashda, aralash-tirishda, filtrlashda, qadoqlashda, idishlarga quyishda, idishlar ogʻzini berkitishda, sterillashda, sifatini tekshirish va baholashda,



yorliqlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar, shuningdek, o'lchov asboblari, tosh-torozilar, kimyoviy reaktivlar va boshqa kerakli jihozlar bilan ta'minlanishi kerak. Dorixonada ishlatiladigan o'lchov asboblari, tosh-torozilar Davlat qiyoslash markazi tomonidan belgilangan tartibda metrologiya ko'rigidan o'tkazilishi kerak.

Dorixona mebellarining ustki qismi tekis, dori vositalari va kimyoviy moddalar ta'siriga chidamli bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish xonalari va omborxonalarga faqat mas'ul xodimlar kirishiga ruxsat etiladi, begona shaxslar kirishi man etiladi.

Tozalangan suv olish va idishlarni yuvish xonalari ish hajmiga qarab kerakli asbob-uskunalar bilan jihozlanadi hamda amaldagi sanitariya qoidalari va me'yorlari talablariga to'liq javob berishi kerak.

Dorixonada tozalash ishlarini olib borish uchun ishlatiladigan asbob-anjomlar, dezinfeksiyalovchi va yuvish vositalarini saqlash uchun alohida xona yoki shkaf ajratiladi.

Davolash-profilaktika muassasalarining dorixonasiga kirish eshigi oldida idoraviy bo'ysunishi, ish tartibi ko'rsatilgan peshlavha osib qo'yiladi.

Dorixona binosi yong'indan xabar beruvchi va tovushli qo'riqlash moslama jihozlari bilan ta'minlanishi kerak.

Dorixona ish faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Sog'liqni saqlash vazirligining buyruq va farmoyishlariga hamda boshqa amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari asosida olib boradi.

Dorixonada miqdoriy buyum hisobiga olinadigan dori vositalarining ro'yxati Sog'liqni saqlash vazirligining amaldagi buyruqlari asosida tasdiqlanadi va ularning hisobi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan maxsus jurnallarda olib boriladi. Ushbu jurnallar to'lgandan so'ng amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari asosida saqlanadi va saqlash muddati tugagandan so'ng belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarining hisobini olib borish, bo'limlarga berish, saqlash Sog'liqni saqlash vazirligining 2001-yil 28-noyabrdagi 527-sonli buyrug'ining tegishli bndlari talablariga muvofiq olib boriladi.

Etil spirtining hisobini olib borish, bo‘limlarga berish, saqlash Sog‘liqni saqlash vazirligining 1999-yil 26-iyuldagi 462-sonli buyrug‘ining talablariga muvofiq olib boriladi.

### **8.3. DORIXONA MUASSASASIDAN DORI VOSITALARI VA TIBBIY BUYUMLARNI BERISH TARTIBI**

Davolash-profilaktika muassasalarining bo‘limlari dori vositalari va tibbiy buyumlarni talabnoma asosida dorixonadan oladi. Talabnomada muassasaning shtampi, muhri bosilgan bo‘lishi va u rahbar yoki davolash ishlari bo‘yicha rahbar muovinining imzosi bilan tasdiqlanadi. Talabnomada dori vositasining nomi, dozasi, turi (tabletkalar, ampulalar, surtmalar, qalamchalar va boshqalar), umumiy miqdori va o‘ram turi (quti, flakon va boshqalar). Talabnomada dori vositasining nomi lotin tilida yoziladi va qo‘llash usuli ko‘rsatiladi (ichish uchun, inyeksiya uchun, sirtqi, ko‘z tomchisi va boshqalar). Agar talabnoma (dori vositasi) ma‘lum bir bemor uchun yozilsa, unda bemorning familiyasi, ismi, sharifi, kasallik varaqa raqami ko‘rsatiladi. Dorixonadan dori vositalari mas‘ul xodim tomonidan davolash-profilaktika muassasa bo‘limi hamshirasiga talabnoma asosida beriladi. Talabnoma ikki nusxada to‘ldiriladi, bittasi dorixonada hisobot uchun olib qolinadi, ikkinchisi berilgan tovar bilan bo‘limga qaytarib beriladi.

Giyohvandlik, psixotrop vositalari, prekursorlarga hamda zaharli moddalar va etil spirtiga alohida-alohida talabnomalar yoziladi. Talabnomada davolash-profilaktika muassasaning shtampi, yumaloq muhri bosilgan bo‘lishi hamda bosh shifokor yoki davolash ishlari bo‘yicha muovinining imzosi bilan tasdiqlanadi. Ushbu dori vositalari bir martalik ishonchnoma asosida beriladi.

Davolash-profilaktika muassasa bo‘limlari tomonidan talabnomalar yozish va to‘ldirish Sog‘liqni saqlash vazirligining 2002-yil 26-iyundagi 297-sonli buyrug‘ining III ilovasi «Dorixona muassasalaridan dori vositalarini berish tartibi»ning tegishli bandlariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

#### **8.4. HISOB VA HISOBOT**

Davolash–profilaktika muassasalarining dorixonasi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va amaldagi me‘yoriy hujjatlar asosida olib boradi.

Davolash–profilaktika muassasa dorixonasida tovar moddiy boyliklarning tezkor va buxgalteriya hisobi belgilagan shakllar bo‘yicha amaldagi qonunchilik talablari asosida olib boriladi.

Dori vositalari va tibbiyot buyumlarining ulgurji hamda chakana narxlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror-lari va vakolatli tashkilotlar tomonidan belgilangan tartiblarga muvofiq shakllanadi.

#### **8.5. MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI**

Dorixonada mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligini ta‘minlash uchun quyidagi choralar ko‘rilishi lozim:

— dorixonaning barcha xodimlari maxsus va sanitariya kiyimlari bilan ta‘minlanishi;

— maxsus asbob-uskunalar (distillyator, avtoklav, quritish shkafi, elektr, gaz asboblari kabi) bilan ishlovchi barcha xodimlar maxsus tayyorlov kursida o‘qishlari va ishlash huquqini beradigan guvohnomaga ega bo‘lishlari;

— ish joylarida texnika xavfsizligi va asbob-uskunalar bilan ishlash to‘g‘risida qo‘llanmalar bo‘lishi;

— dorixonaning barcha xodimlari dispanserizatsiya va texnika xavfsizligi instruktajidan o‘tishi hamda bu to‘g‘risida dorixonada hujjatlarning to‘liq mavjud bo‘lishi;

— dorixonada tovar–moddiy boyliklarni talab darajasida saqlash uchun yetarli sharoit yaratilishi kerak.

Dorixona faoliyatini tugatish amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## 9-BOB. FARMAKOIQTISODIYOTNING ILMIY ASOSLARI

### 9.1.FARMAKOIQTISODIYOT TO‘G‘RISIDA TUSHUNCHA

**Farmakoiqtisodiyot** — bu bemorlarni dori vositalari bilan davolash qiymatini kompleks tahlil qilishdan iborat.

Farmakoiqtisodiyot tadqiqotlari dori vositalaridan foydalanish hamda davolashning muqobil usullarining qiymatlarini taqqoslash bilan olib boriladi.

Farmakoiqtisodiy tahlil shifoxonalarda aksariyat hollarda qanday dori vositalaridan foydalanish zarurligini, bemor uchun berilgan eng yaxshi va samarali dori vositasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ikki davolash usullarini taqqoslash mumkinki, bunda ushbu davolash sxemasini qo‘llashda bemorning sog‘lig‘i yaxshilanishi hamda kasallikni davolash uchun aniq vositani tanlash mumkin.

Farmakoiqtisodiy izlanishlar predmeti:

— kamida ikki xil davolash usullarini taqqoslab olingan tahlilning farmakoterapevtik natijalari;

— yangi dori vositalarining xavfsizligi va samaradorligi;

— farmakoterapiya va diagnostika o‘tkazishdagi iqtisodiy xarajatlar;

— farmakoiqtisodiy statistika ;

— dori vositalarini bir guruh kasalliklarda klinik sinovlarini hujjatlashtirish.

Bir davlat yoki dunyo miqyosida olib qaraganimizda Sog‘liqni saqlash tizimi xarajatlari, ya’ni davolashga ketadigan xarajatlar doimiy oshib bormoqda. Shuning uchun muqobil davolash usullarini tanlash muammosini hal qilishda iqtisodiy omillar asosiy o‘rinni egallaydi. Ya’ni, hozirgi kunda quyidagi muhim savol o‘z javobini topishni talab etadi: dori vositasi aks ettirgan narxidagi darajada samaradorlikka egami?

Dori vositalarini iqtisodiy baholash — bu nafaqat muqobil davolash usullarining narxini solishtirish, balki davolash usulining barcha klinik jarayonlarini, yangi dori vositasini qo‘llagandagi

oqibatlarini, shu bilan barcha asosiy davolash usuli, dori vositalari bilan birga ishlatiladigan vositalar (tibbiy texnika anjomlari), tibbiy personal xarajatlarini o'z ichiga olgan holda butun moliyaviy xarajatlarni baholashdir. Odatda, davolash jarayoni davolashning samaradorligi va xavfsizligiga ko'ra baholangan. Bu maqsadda aniq terapevtik ko'rsatkichlar bo'yicha davolash natijalarini baholaydigan yondashuvlar ishlab chiqilgan, masalan GCP (Good Clinical Practice) standarti. Shu bilan birga yuqorida qayd etilganidek, dori vositalarining samaradorligi va xavfsizligini baholashda iqtisodiy kriteriyalarga tayanish maqsadga muvofiq.

Dori vositalarini davolash jarayonida qo'llanishini, farmakologik samaradorligini iqtisodiy baholash masalalari bilan bog'lab shug'ullanadigan fan *farmakoiqtisodiyot* deyiladi.

Farmakoiqtisodiyotning maqsadi minimal iqtisodiy xarajatlarda maksimal klinik samaradorlikka erishishni ta'minlashdir. Minimal xarajatlar deyilganda faqat dori vositalarining eng arzonini qo'llash nazarda tutilmaydi. Farmakoiqtisodiyotda asosiy maqsad dori vositasi qiymatidan, narxidan tejash emas, balki yuqori samaradorlikka ega va xavfsizroq dori vositasini qo'llagan holda umumiy davolash xarajatlaridan tejashga harakat qilishdir.

Umumiy davolash xarajatlaridan tejash bu yuqori samarali va xavfsiz dori vositasini qo'llagandan keyin, davolash kursini qisqarishiga, birga qo'llanuvchi vositalarni qisqarishiga, nojo'ya ta'sirlarni kamayishi hisobiga ularni bartaraf qilishga ketadigan xarajatlarni qisqarishiga, statsionar yoki ambulatoriya sharoitida davolashdagi xarajatlar qisqarishiga, bemorni tezroq sog'ayishi va jamiyatga ish qobiliyatini tiklagan holda qaytishi hisobiga keltirishi mumkin bo'lgan foyda hisobiga erishiladi.

Farmakoiqtisodiyotning rivojlanish tarixi haqida fikr yuritganda, uni 80-yillarda Kanada, Buyukbritaniya va AQShda paydo bo'lib, sekin-asta izlanishlar natijalari umumlanib, Sog'liqni saqlash tizimida alohida yo'nalishga aylanib borayotganini aytish mumkin. Avvaliga izlanishlarni Sog'liqni saqlash tizimi dasturlarini iqtisodiy baholash usullari sifatida o'rganilgan. Keyinchalik 90-yillarda izlanishlar yaxshi natijalar berganligi va Sog'liqni saqlash tizimida

iqtisodiy baholash muhim o‘rin tuta boshlangandan so‘ng, «farmakoiqtisodiyot» atamasi kirib kelgan.

Bu vaqt ichida qilingan ishlar mahsuli sifatida AQSh Sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiy xizmat ko‘rsatish va tibbiy tovarlar ishlab chiqaruvchi assotsiatsiya (U.S. Yealth and Human Services, Agency for Health Gare Policy and Reseaarch, and the Health Outcomes Work Group of Pharmaceutical Research Manufacturer’s Association ) tomonidan ta’sis etilgan ISPOR (International Sociatary of Pharmacoconomies and Outcames Research) —Xalqaro farmakoiqtisodiyot izlanishlar tashkilotini keltirish mumkin. Bu tashkilot butun dunyo bo‘yicha farmakoiqtisodiyot izlanishlarni moliyalashtiradi, olingan natijalarni yig‘adi va umumlashtiradi.

Bu tashkilot tomonidan 1998-yil fevral oyida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy uchrashuv va konferensiyada farmakoiqtisodiyot bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar muhokamadan o‘tkazildi va tasdiqlandi. Bu uslubiy qo‘llanmalar yordamida farmakoiqtisodiyot izlanishlarni o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va Sog‘liqni saqlashda yakuniy xulosalar chiqarishda ko‘maklashadigan axborot bazalaridan foydalanish mumkin.

Aytish mumkinki, farmakoiqtisodiyotni fan sifatida tan olinishiga asos shu yerda qo‘yildi.

Farmakoiqtisodiyotning Yevropadagi rivoji haqida ma’lumotlarni shu sohaga ulkan xizmatlari singgan M.Drummond to‘plagan. Uning bildirishicha farmakoiqtisodning umumiy rivojlanishi ko‘p hollarda Yevropada Sog‘liqni saqlash tizimi olib borayotgan siyosatga bog‘liq.

Ilgari Yevropaning davlatlari qonunchiligida dori vositalariga narx belgilash bo‘yicha iqtisodiy asos yo‘q edi. Biroq yaqindan bir qancha Yevropa davlatlarida bunday talablar qonunga kiritilmoqda. Bundan tashqari ba’zi davlatlarda farmakoiqtisodiyot izlanishlar o‘tkazish bo‘yicha tavsiyanomalar ishlab chiqilgan.

Yevropada 13 ta davlatda farmakoiqtisodiyot izlanishlari olib boriladi. Har bir davlatdan 5 tadan yirik tadqiqot natijalari olindi. Shuningdek, o‘tkazilgan farmakoiqtisodiyot izlanishlarning

umumiy soni va qo'llanilgan analiz usullari o'rganildi. Natijalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Ba'zi davlatlarda farmakoiqtisodiyot tadqiqotlar natijalari rasmiy organlar tomonidan so'ralmoqda. Masalan, Portugaliyada yangi qonunda dori vositalari xarajatlarini qoplash masalalari bilan shug'ullanuvchi agentlik, Infarmed dori vositasini formulyarga kiritishda iqtisodiy ekspertiza xulosasini talab qiladi. Finlandiyada 1998-yil boshidan dori vositasi uchun ulgurji narx belgilash uchun kompaniyalardan farmakoiqtisodiyot baholanganligi haqidagi ma'lumotlarni ham taqdim etishi talab etiladi. Izlanishlar yangi dori vositasining qiymati va samarasini baholashda boshqa mavjud vositalardan ustunligi haqida keng hamda ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Daniyada formulyarga yangi dori vositalarini kiritishda Daniya tibbiy agentligiga farmakoiqtisodiyot izlanishlar natijalari ilova qilinadi. Bunday kelishuv farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi va Sog'liqni saqlash vazirligi o'rtasida ham mavjud bo'lib, ularning maqsadi dori vositalariga xarajatlarni qisqartirishdir.

Buyuk Britaniyada Sog'liqni saqlash departamenti tomonidan klinik afzallik milliy instituti (NICE — National Institut Sor Clinical excelence) tashkil etilgan. Bu institut har yili 30 ta yangi dori vositalari va texnologiyalarni to'liq baholaydi. NICE izlanishlari natijalariga ko'ra yangi texnologiyalar, dori vositalarini muvofiq qo'llash bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqiladi. Umuman olganda Yevropa davlatlarida farmakoiqtisodiyot izlanishlarga juda jiddiy yondoshmoqda.

Bizga yaqin bo'lgan Rossiyada Sog'liqni saqlash tizimidagi farmakoiqtisodiyotning o'rni haqida biroz kengroq ma'lumot bersak, 1999-yilni Rossiya uchun farmakoiqtisodiyotning qad rostlashi desak bo'ladi. 1998-yil oxirida Moskva shahrida RAMN qoshidagi onkologiya markazida birinchi bor «Rossiyada farmakoiqtisodiyot. Birinchi tajriba» mavzusida ilmiy konferensiya o'tkazildi. Konferensiya onkologik kasalliklarni davolashda farmakoiqtisodiyotning asosiy muammolariga bag'ishlandi. 1999-yil aprel va noyabr oylarida «Человек и Лекарство» kongressida

va Moskva tibbiyot akademiyasida farmakoiqtisodiyot bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulot kurslari o'tkazildi va eshituvchilarga sertifikatlar berildi.

1999-yilning 22—23-noyabrida Moskva shahrida birinchi umumrossiya «Farmakoiqtisodiyot. Uchinchi ming yillik bo'sag'asida iqtisodiyot» mavzusida kongress o'tkazildi.

2000-yil 20—22-noyabr kunlari esa ikkinchi — umumrossiya farmakoiqtisodiyot kongressi o'tkazildi.

Umuman olganda Rossiyada farmakoiqtisodiyot so'nggi yillarda yaxshigina rivojlandi. Buni RF Sog'liqni saqlash vazirligi dori vositalari bilan ta'minlash, ularning sifatini yaxshilash va muvofiq foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan islohotlar o'tkazayotganida hamda bunda farmakoepidemiologik va farmakoiqtisodiyot ilmiy yondashuvlarga tayanganida ko'rishimiz mumkin.

## **9.2.FARMAKOIQTISODIYOT VAZIFALARI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

Farmakoiqtisodiyot alohida fan bo'lib, shakllanishida shifoxona va ambulatoriya sharoitlarida farmatsevtik yordam berishga talabning oshishi muhim o'rin tutadi. Bunda yordamning samaradorligi, hammabopligi bemor hayoti sifatini oshirish, ishlash qobiliyatini ko'tarishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Farmakoiqtisodiyotning boshqa sohalarga nisbatan xususiyatlari quyidagilardan iborat:

— integratsiya xarakteriga ega ekanligi (har xil soha bilimlarini aholini dori vositalari bilan ta'minlash maqsadida uyg'unlashtirish);

— aniq sohaning muammolari, uning mutaxassisligi va xususiyatlari bilan hal qilish ahamiyati;

— xalq xo'jaligidagi ahamiyati (bemorlar mablag'lari va Sog'liqni saqlash tizimining cheklangan resurslaridan oqilona foydalanish zaruriyati);

— ijtimoiy ahamiyati (davolash samarasi, jismoniy sog'liq va jamiyatda ijtimoiy ruhiy holatlarni aniqlash).

**Farmakoiqtisodiyot ko'rsatkichlari tahlil natijalarini hozirgi vaqtda asosiy iste'molchilariga:**



— samaradorligi bir-biriga yaqin bo‘lgan dori vositalarini solishtirish va ularni mos keladigan ro‘yxat, dori vositalari formulalariga kiritishda mutloq iqtisodiy isbotlar zarur bo‘lgan ekspert, olim va mutaxassislariga;

— davlat va Sog‘liqni saqlash viloyatlar bo‘limlari rahbar va mutaxassislariga — farmakoepidemiologiyani qo‘llagan holda Sog‘liqni saqlash hududiy dasturlarini amalga oshirishda zaruriy budjet mablag‘larini aniqlash uchun;

farmatsevtik bozorda dori vositalarini tatbiq etishda kerakli narx-navo siyosatini o‘tkazish maqsadini ko‘zlaydigan farmatsevtika mutaxassislari va ulgurji savdo kompaniyalari kiradi.

Chet el va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning takliflari asosida dori vositalari assortimenti doimiy ko‘payishi munosabati bilan farmakoiqtisodiy izlanishlar natijalarini qo‘llashga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Bularga, Sog‘liqni saqlash vazirligi, dorixona muassasalari, ilmiy kafedralar xodimlari, shifokor va iste‘molchilar kiradi.

### **9.3. FARMAKOIQTISODIYOT OBYEKTLARI VA FARMAKOIQTISODIYOTDA XARAJATLARNING TASNIFI**

Ishlab chiqaruvchi o‘z mahsuloti uchun so‘rashi mumkin bo‘lgan maksimal narxni belgilasa, mahsulotning minimal narxini xarajatlar belgilaydi. Davolash bahosining minimallashtirishni maqsad etgan farmakoiqtisodiyot uchun ham xarajatlar muhim tushuncha va ko‘rsatkichdir. Farmakoiqtisodiyot tadqiqotlari quyidagi xarajatlarni aniqlaydi:

**I. Bevosita tibbiy xarajatlar (direkt cost)** — bu xarajatlar bevosita davolashga aloqador bo‘lib, davolash qiymati va davolash muassasasining xarajatlari qiymatidan iborat.

Bevosita tibbiy xarajatlar manbalariga quyidagilar kiradi:

Diagnostika va laboratoriya tadbirlari.

Dori vositalari bilan davolash.

Qo‘shimcha dori vositalari bilan davolash.

Qo‘shimcha kasalliklarni davolash.

Bemor tomonidan davolash rejimiga amal qilmaslik xarajatlari.

Dori vositasi va uning o'rinbosarining nojo'ya ta'sirlarini to'g'rilash.  
Davolash kursi muddati. Davolash muassasasida bo'lish  
qiymati.

Oliy va o'rta maxsus ma'lumotli tibbiyot personali xizmati.

Jarrohlik aralashuvi.

Reabilitatsiya (qayta tiklanish).

Bemorga g'amxo'rlik qilish.

Odatda, bu xarajatlar budjet hisobidan yoki bemorning o'zi tomonidan qoplanadi.

**II. Bevosita notabiiy xarajatlar (xo'jalik xarajatlari) —** bunga bemor tibbiy xizmat olishi uchun zarur hamma xarajatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, bemorni shifoxonagacha transportda olib borish, xususiy diyeta xarajatlari kiradi.

**III. Bilvosita xarajatlar (indirekt costs) —** bunga atrof-muhit, jamiyatga kasallik tufayli paydo bo'ladigan xarajatlar kiradi.

Bilvosita xarajatlarni aniqlashda quyidagi omillar ko'zda tutiladi:

Vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotish vaqti.

Kasallik varaqasi bo'yicha to'lovlar.

Kasallikdan keyingi nogironlikka g'amxo'rlik qilish.

Ijtimoiy ta'minot to'lovlari.

Soliq to'lovlari (bunda bemor sog'ayib, ish boshlagandan keyin to'lashi mumkin bo'lgan soliq to'lovi nazarda tutiladi).

Bemorga g'amxo'rlik qilishda yaqinlarining xarajatlari.

Bemorni o'limi bilan bog'liq xarajat va yo'qotishlar.

**IV. Nomoddiy xarajatlar (intangibli costs) —** pul bilan ifodalab bo'lmaydigan xarajatlar. Bunga quyidagi ruhiy, ijtimoiy omillar kiradi:

a) Juz'iy yoki tanada (og'riq, majruhlik, uyquning buzilishi);

b) Aqliy (reaksiya, aqliy konsentratsiya, diqqat, xotira);

d) Ruhiy (qo'rquv, depressiya, notinchlik);

e) Ijtimoiy (izolyasiya, konflikt, moyillik).

Bir so'z bilan aytganda, bu toifadagi xarajatlar bemorning hayot sifatiga ta'sirini ko'rsatadi. Hayot sifati atamasi — bemorning jismoniy, ijtimoiy va emosional holati, shuningdek ruhiy jinsiy qobiliyatlarini aks ettiradi. Ko'pincha davolashning hayot sifatiga ta'siri maxsus anketa savollari asosida baholanadi, bemordan

so'rovnomaga oladigan shaxs tomonidan to'ldiriladi. Anketani analiz qilgan holda bemorning sog'lig'i, funksional imkoniyatlariga nisbatan o'zining fikri, ahvolining umumiy ijobiylashuviga bo'lgan fikri baholanadi.

Bemorni davolashdagi asosiy xarajat ko'rsatkichlari:

Davolashning asosiy qiymati — dori vositalarining o'rtacha ulgurji narxi, kunlik doza miqdori va davolash kursi muddati bilan belgilanadi.

Bemor tomonidan kun tartibiga amal qilinishi yoki bemorning intizomlilik (patient compliance) — bemor tomonidan shifokor tavsiya va ko'rsatmalarini bajarish istagi. Bemor dori vositasini qabul qilish, kun tartibiga amal qilish yoki qilmasligi davolash qiymatiga sezilarli ta'sir etadi. Bemorning loqaydligi dori vositasining samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun maxsus dori shakllari ishlab chiqilmoqda.

#### **9.4. FARMAKOIQTISODIY TAHLIL USULLARI. DORI VOSITALARI FORMULYARLARI**

Farmakoiqtisodiyotni o'rganishda jahon amaliyotida quyidagi qator usullar keng qo'llanilmoqda:

— qiymat tahlili (cost — benefit) — foyda davolanish qiymati hamda natijalari bir vaqtda pul shaklida baholanadi;

— «qiymat — samaradorlik» (cost — effective) — tahlili davolanishning qiymati pulda hisoblanadi, davolanishning natijasi esa ma'lum vazifalarni bajarish hisoblanadi;

— «qiymat — foyda» (cost — benefit) — tahlili bunda natijalar bir turdagi davolashning ikkinchi turdagi davolashga nisbatan ustunligi past sifati tushunchasida baholanadi;

— «qiymat — minimallashtirish» (cost — minimization) — tahlilida teng terapevtik samaradorlikdagi bir nechta davolash turlarining qiymati taqqoslanadi;

— «kasallanish qiymati» (cost — of — illness) — tahlilida qandaydir kasallikning davolashdagi to'g'ridan-to'g'ri hamda juz'iy xarajatlar baholanadi;

— «qiymat — naf» tahlili.

Ushbu usullardan Sog'liqni saqlashda turli dasturlarni moliyalashni rejalashtirishda anchadan buyon foydalanib kelinadi. Ushbu tahlil usulining konsepsiyasi uncha ham murakkab emas, lekin uni tushunish uchun ba'zi bir detallarini, ya'ni qachon va qayerda ushbu usuldan foydalanish mumkinligini qo'shimcha ravishda tushuntirish talab qilinadi.

**Qiyamat foyda tahlili (QFT)** jamoatchilik investitsiya dasturlarini baholashni tartibga solish ehtiyojiga javoban paydo bo'ldi. Umuman Sog'liqni saqlash uchun xarajatlar jamiyatga ijtimoiy foyda keltirishi lozim, QFT usuli esa Sog'liqni muhofaza qilish dasturlarini moliyalash to'g'risida to'g'ri qaror qabul qilishda yordam beradi. Har qanday rejalashtirishda maqsadga erishishning bir nechta ehtimolli yo'llarini aniqlash, so'ngra eng optimal yo'lni tanlash uchun ko'rsatkichlarni izohlash lozim. Ko'pincha shunday qarorlar izchillik asosida qabul qilinadi. QFT muqobil qarorlarni tanlash jarayonini bir qancha obyektivlashtirishga yordam beradi.

QFT usuli davolash dasturi yoki usulini amalga oshirishdagi ehtimollik foydalarini kelgusi yilda pul ko'rinishida baholab borishdan iborat. Bunda yonma-yon ravishda ushbu dasturni yil davomida amalga oshirishning barcha xarajatlari baholanadi. Bunday hisob-kitoblar davolashning bir nechta muqobil dasturlari (yoki usullari) uchun olib boriladi. Amalda qo'llash uchun foyda va xarajatlar orasida katta ijobiy farqni ta'minlaydigan dastur yutib chiqadi va taklif etadi.

QFT — usulining kamchiliklari ko'pincha pul ko'rinishida o'lchash qiyin bo'lgan hamda aniqlash oson bo'lmagan foydalarni pul miqdorida baholash bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklardir. Bu muammo iqtisodchilarning ko'p urinishlariga qaramasdan o'zining yakuniy yechimini topmadi. Amaliy nuqtayi nazaridan, tahlilchilar ehtimollik foyda ko'rsatkichlarini ular qancha kerak bo'lsa, shunchasini ko'rsatishga harakat qiladilar. Qolgan o'lchamlar «yetishib bo'lmaydigan foydalar» deb baholanadi, bunday hollarda rahbariyat yakuniy qarorni qabul qilishda ularni erkin holda ko'rib chiqishlari mumkin.

### **«Qiyamat — samaradorligi» tahlili (QST)**

QST tahlili rahbarga ehtimoli bo'lishi mumkin bo'lgan muqobil ustunliklarini aniqlashga yordam beradi. Umuman olganda QST qaror nazariy hamda matematik usullarining dasturlarini amalga oshirishdagi turli yondashuvlarini ko'rib chiqishda harakat usulini tanlashga yordam beradi. Aslida esa QST turli dasturlar orqali taklif etiladigan Sog'liqni saqlash uchun zaxira hamda foydalarni jamlash usulini ko'rsatadigan usul bo'lib, undan eng qulay va yaxshi variantni tanlab olinishi mumkin. Bunda dastur (yoki davolash usuli)ga ketadigan xarajatlar birgina umumlashtirilgan son bilan ko'rsatiladi, samaradorlik esa — boshqa umumlashtirilgan o'lcham bilan ko'rsatiladi.

Bunda yechim turli dasturlar o'rtasidagi samaradorlik va xarajatlarning nisbatini hisobga olishga asoslanadi. QST usuli eng kam xarajat doirasida berilgan samaradorlikka qanday dastur orqali erishish mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

QSTni o'tkazish uchun quyidagi birlamchi ma'lumotlar zarur bo'ladi:

— oldinga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun (arzon bo'lishi shart bo'lmagan) optimal yechim;

— eng kamida ikkita muqobil dasturning bo'lishi;

— dasturlarning samaradorligi uni arzonlashtirishga emas, balki uning yechimi jarayonining optimallashtirish orqali erishiladi.

Bunda har bir muqobil dastur uchun quyidagi parametrlarni ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

— foydali natija;

— zaruriy ma'muriy harakatlar;

— zarur bo'lgan shtatlar hamda jihozlar;

— narxni belgilovchi omillar hamda chegirmalar;

— qiymat.

QST usulida ko'pincha Sog'liqni saqlashda, dasturlar uchun xarajatlar hisoblashda foydalanish mumkinki, ularning natijalari Sog'liqni mustahkamlash iboralari bo'yicha baholanadi (misol uchun, umrni uzaytirish omillari). QST usuli olamshumul

dasturlarga kirmasada, undan amaliyot tibbiyot xodimlari yoki alohida shifoxonalarning ma'muriyati samarali foydalanishi mumkin.

#### «Qiyamat — minimallashtirish» tahlili (QMT)

Agar ikki yondashish (davolash usullari)da ularning teng samaradorligi ko'rsatilgan bo'lsa, har bir usulining xarajatlarini taqqoslash mumkin. Taqqoslashning bunday usuli QMT degan nom bilan yuritiladi. Misol uchun davolashdagi vositadan foydalanish qiymati turlicha bo'lishi mumkin.

#### «Qiyamat — naf» tahlili (QNT)

QNT shunday iqtisodiy usulni ko'rsatadiki, undan foydalanilganda (davolash usulida) uning samaradorligi bemorning xayrixohligini yoki davolash sifati nuqtayi nazaridan baholanadi. QNT tahlili QST tahliliga juda o'xshaydi, lekin u qo'llanilganda yangi ko'rsatkich tashqaridan davolash usulidagi samaradorlikni bemor tomonidan juz'iy baholanishi qo'shiladi. Ko'pgina QNT natijalari bemor hayotining sifat o'zgarishini tashqari davolash usulining qiymati qo'shilgan holda ifodalanadi.

#### «Kasallanish qiymati» tahlili (KQT)

KQT aniq bir kasallikning aniq bir tarqalishi uchun umumiy (to'g'ri hamda juz'iy) qiymatni o'rganishda foydalaniladi. Ushbu uslubiyat o'rganishda aniq bir kasallik bilan bog'liq bo'lgan (makroiqtisodiy ma'nodagi) barcha xarajatlarni hisoblash uchun ishlab chiqilgan. Shu kabi AQShda bir necha guruh kasalliklar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, jamiyatga xarajatlar yiliga yurak-tomir tizimining umumiy qiymati 80 milliard dollar, o'simta kasalliklari 30 milliard dollarni hamda asab-ruhiy kasalliklar 25 milliard dollarni ko'rsatadi. Bunda kasallikning to'g'ridan-to'g'ri oldini olish, aniqlash, davolash, Sog'liqni tiklash, tadqiqot hamda o'qitish, shuningdek tibbiy muassasalar uchun kapital qo'yilmalar xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Juz'iy xarajatlar yo'qotilgan ish kunlari bo'yicha aniqlanadi. Kasallikning to'g'ridan-to'g'ri xarajatlari yoki juz'iy xarajatlar aniqlanganda kasallikning oldini olish yoki davolashga iqtisodiy baho berish mumkin bo'ladi. To'liq misol bilan tahlil qilish mumkinki, kelajakda Sog'liqni saqlash tizimi xodimlari va jamiyat

tez-tez farmakoiqtisodiy muammolarga duch keladilar. Lekin har bir vazifa uchun xususiy yo‘l, xususiy uslubiyat tanlanishi lozim. Bu uslubiyat kelgusida har qanday farmakoiqtisodiy ma’lumotlarning mavjud tayanch prinsiplariga hamda tahlil usullariga tayanadi.

Farmakoiqtisodiyot tahlil usullarini birgina bemordagina emas, balki davolash muassasalarida, ma’muriy-hududiy tumanda, viloyat va yaxlit davlat miqyosida qo‘llash mumkin. Bu usullar farmakoterapiyani klinik va iqtisodiy tomondan tartibga solish imkoniyatlarini beradi. Farmakoiqtisodiyot tahlil usullari davolashning aniq standartini tanlashda, dori vositalarini qayd qilish va sotib olishda, klinik tajribalarning natijalarini baholashda muvaffaqiyat bilan ishlatilmoqda.

Formulyar tizimining qo‘llanilishi hududiy tibbiy yordamning sifatini boshqarish modellarini shakllanishiga har tomonlama yondashish zarur ro‘yxatidan kelib chiqadi.

Sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari oldida farmakoiqtisodiy masalalarni hal qilishda bir qancha muammolar qatorida quyidagilar ham bor:

— dori vositalaridan oqilona foydalanishni ta’minlab beruvchi tashkiliy tuzilmalarni tuzish;

— formulyar tizimni hudud va muassasalarda qo‘llashning uslubiy ta’minotini ishlab chiqish;

— tibbiyot muassasalari amaliyotida farmakoiqtisodiy tahlil asoslarini qo‘llash;

— tibbiy yordam sifatining nazoratini o‘tkazishda dori vositalari xavfsizligi va sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

— dori vositalaridan oqilona foydalanishni qo‘llashda bemor va tibbiyot mutaxassislarining qiziqishini oshirish uchun sharoitlar yaratishi.

Formulyar tizimni qo‘llashni ta’minlab beradigan tashkiliy tizimni shakllanishi bir-birini qaytaradigan, noxush, yomon oqibatlarni keltirib chiqaradigan, hayotiy zarur toifasiga kirmaydigan, klinika epidemiologiya tomonidan klinik samarasizligi

tasdiqlangan dori vositalarining sonini qisqartirish vazifalarini ko'zda tutadi.

Formulyar tizimining tashkiliy tuzilmasini shakllanishi va dori vositalaridan oqilona foydalanishga quyidagilar imkon beradi:

— dori vositalari ishlatilishining klinik nazoratini, zarur hollarda olib borilayotgan farmakoterapiyani to'g'rilashni o'tkazish;

— davolash-profilaktika muassasalari uchun hududiy formulyar va formulyar ro'yxatlarini ishlab chiqish hamda doimiy ravishda yaxshilab turish;

— aholiga bepul tibbiy yordam ta'minotining davlat dasturlarini amalga oshirishda dori vositalariga bo'lgan ehtiyojning tibbiy-iqtisodiy va farmakoiqtisodiy jihatdan asoslab berish;

— aholini, ta'minotchilarni, ishlab chiqaruvchi firmalar, tibbiy sug'urta tashkilotlari tibbiyot xodimlari, tibbiyot muassasalari organlari rahbarlarini axborot bilan ta'minot xizmatini yaratish;

— tibbiyot muassasalari ehtiyoji uchun sotib olinadigan dori vositalarining farmakoiqtisodiy samaradorligini hisobga olgan holda ularning narx-navolarini to'g'rilash sharoitini yaratish.

Formulyar uchun dori vositalarining davolash samaradorligi, xavfsizligi va narxlari kriteriyalarini hisobga olgan holda tanlab olinishi kerak. Bu qiyin ishni amalga oshirishda shifokorlar to'qnash keladigan birlamchi muammolardan biri dori vositalari to'g'risida mutloq zamonaviy axborotlarni qidirishdir. Tibbiyot muassasalarida formulyar ro'yxatlarni ishlab chiqish bir qancha tadbirlarni bosqichma-bosqich bajarilishini ko'zda tutadi.



## **10-BOB. DORI VOSITALARIGA BO‘LGAN EHTIYOJ VA TALAB ISTIQBOLINI ANIQLASH**

### **10.1. DORI VOSITALARI ISTE’MOLINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR**

Dori vositalari asosida yordam ko‘rsatishning har bir bosqichlarida ular ehtiyojining istiqbolini to‘g‘ri aniqlash, dori vositalarining ratsional ishlatilishini ajralmas sharti hisoblanadi. Dori vositalariga bo‘lgan talabni ilmiy asoslab rejalashtirish, aholi va davolash-profilaktika muassasalarini ularga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq qondiribgina emas, balki dori vositalarini sotib olish resurslaridan ham tejamkor foydalanishdir.

Dori vositalariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash farmatsevtik biznesni tashkillashtirishda eng muhim hisoblanadi, chunki bir tarafdin bu ishlab chiqaruvchiga maksimal foydani olishga, ikkinchi tomondan aniq iste’molchining ehtiyojni qondirish va sog‘lig‘ini saqlashga imkon beradi.

### **10.2. EHTIYOJ, TALAB, ISTE’MOL, TAKLIF TUSHUNCHALARI**

**Ehtiyoj** — qondirishni talab qiluvchi biror bir narsaga bo‘lgan muhtojlik zarurati.

Ehtiyojlar omillarga qaratilgan bo‘lishi mumkin:

- fiziologik (ovqatga, kiyimga, uy-joylarga);
- ijtimoiy (u yoki bu ijtimoiy guruhga mansub bo‘lish);
- intellektual (bilimga, hissiyotga, erkin fikrga va boshqa).

Insonni sog‘lom bo‘lishi ta’minlash zaruriyati — dori vositalari, bog‘lov materiallari, ularga tibbiy yordam ko‘rsatish va parvarish qilishda ishlatiladigan buyumlar hamda boshqa dorixona assortimentidagi tovarlarning mavjudligida o‘z aksini topadi.

Agar talab qondirilmasa odam o‘zini noqulay, ezilgan va hattoki baxtsiz his qiladi va u o‘z zaruriyatlarini qondirish chorasini qidiradi, yoki o‘z ehtiyojlarini kamaytirishga intiladi.

Ehtiyojlarni qondirish jarayoniga iste’mol qilish deb aytiladi.

Iste'mol qilish darajasi davolash–profilaktikasi va boshqa muassasalarga dori vositalari hamda tibbiyot tovarlarni haqiqiy sotilgan hajmi bilan ta'riflanadi.

Iste'mol qilish darajasi taklif hajmi bilan ham uzviy bog'liqdir.

**Taklif** — bu iste'molchilarning talabnomalari asosida (tibbiyot) tovarlarni ta'minotchilar tomonidan berilgan haqiqiy hajmi.

**Talab** — ehtiyojning bir qismi bo'lib, sotib olish xususiyati bilan mustahkamlanadi. Talabning ehtiyojdan farqi, u o'lchanadi, sotish hajmining yig'ilgan ma'lumotlar, iste'molchilar so'rovi va boshqalar asosida istiqboli aniqlanadi.

Hozirgi kunda dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj dunyo bozorida yiliga o'rtacha 15% o'sib borishi kuzatilmoqda.

Dori vositalarining ehtiyojini aniqlashda ular iste'moliga ta'sir etuvchi omillarni e'tiborga olish kerak.

Talabni shakllantirishdagi asosiy omillar quyidagilar:

— aholining sonini o'sishi va uning moddiy farovonligini yaxshilanishi;

— davolash-profilaktika va dorixona muassasalarini va ulardagi bo'lgan tibbiyot va dorixona xodimlari sonini ko'payib borishi;

— tibbiyot fanlarining rivojlanishi, yangicha tashxis usullarini tatbiq qilish, dori vositalaridan samaraliroq foydalanishi;

— aholining umumiy madaniyati va tibbiy savodxonligini oshishi;

— katta yoshdagi dori vositalariga talab ko'p bo'lgan odamlar sonini ortib borishi.

Dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash ko'p omillarga bog'liq juda murakkab jarayon, chunki iste'mol mahsuloti bo'lgan dori vositalari bir qator o'ziga xos hususiyatlarga ega.

**Dori vositasi** — bu aksariyat holda kimyoviy substansiya bo'lib, u inson hayotini saqlab qolishga mo'ljallangan, iste'mol mahsuloti sifatida inson salomatligiga zarar yetkazmaslik maqsadida alohida yondashuvni talab qiladi.

Dori vositalari biologik faol moddalar bo'lib, ular har bir funksional a'zoga alohida yoki kasallik chaqiruvchilarga qarshi ta'sir qiladi. Dori vositalarining umumiy soni bizning mamlakatda

turli dori vositalari ro'yxati, dozasi va qadoqlanishi bo'yicha hozirgi vaqtda 4000 ni tashkil qiladi.

Dori vositalarining asosiy o'ziga xos tomoni shundan iboratki, mahsulot sifatida ishlatilishi va bemorlar tomonidan o'zi tanlab ololmagani uchun ular ta'siri va qo'llash xususiyatlarini biladigan mutaxassislar belgilab beradilar. Buning uchun bemor ambulatoriya, poliklinika yoki davolash-profilaktika muassasalariga murojaat qilishi kerak. Bundan tashqari profilaktika va sanitariya - gigiyena maqsadlari uchun dori vositalari va tibbiy ashyolarni ishlatishda ham aks etadi. Dori vositalarini ishlatish yoki uni qo'llash uchun yo'llanma berish faqatgina kasalning xususiyatlariga bog'liq bo'lib qolmay, bemor dori vositalarini qabul qilishi, tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa omillar bilan ham bog'liqdir.

Dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj doimiy bo'lmaydi, u odam organizmidagi turli patologik o'zgarishlar davrida paydo bo'ladi va ular iste'molini asosiy sababi aholining sog'lig'ini saqlashdan iborat.

### 10. 3. DORI VOSITALARIGA BO'LGAN EHTIYOJNI ANIQLASH USULLARI

Dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun bir necha usullar keng miqyosda qo'llaniladi:

**Me'yoriy usul** — aniq kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan maxsus ta'sirga ega bo'lgan vosita (diabetga, silga, shishga qarshi va boshqa)lar uchun. Bu usul bitta davolash kursidagi vositalarni optimal to'plamiga va kasallikning obyektiv statistikasiga asoslangan. Ushbu usul oddiyligi, arzonligi, qulayligi bilan ajralib turadi.

#### **Iqtisodiy-matematik usullar**

Bu usullar keng omilli korrelyasion-regression tahlilga asoslangan.

**Mantiqiy-iqtisodiy** usullar ekspertli baholashiga asoslangan. Bu usul muommolami hal qiluvchi mutaxassislarning fikrlari bilan bog'liq. Dori vositalarining tahlili va ehtiyojini istiqbollashda turli guruh vositalar iste'molining shakllanishini o'ziga xos ekanligini hisobga olish zarur.

Iste'moliga ko'ra dori vositalari 3 guruhga bo'linadi:

Me'yori cheklangan dori vosita (giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, etil spirti va boshqa)lar.

Maxsus ta'sirga ega, 1—2 kasallikni davolashda ishlatiladigan vositalar.

Keng spektrda ta'sir etuvchi, ko'p kasalliklarni davolashda yoki ularning oldini olishda ishlatiladigan dori vosita (isitma tushuruvchi, sulfanilamidlar, vitaminlar va boshqa)lar.

### **Me'yori cheklangan dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash**

Ushbu guruh giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va etil spirtini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan (17.06.96 yil 489-son buyruq) giyohvand va psixotrop dori vositalarga 1 yilga 1000 ta aholi uchun aniq miqdoriy me'yorlar hisoblangan. Xususan: morfin — 0,3 gr; promedol — 5,0; omnopon — 0,3 va hokazolar.

Davolash-profilaktika muassasalarida bu me'yorlarning o'rinlari sori va muassasa yo'nalishiga ko'ra belgilanadi.

Etil spirtining me'yori davolash muassasasining turi, ijtimoiy ta'minoti bilan bog'liq.

Masalan, davolash muassasalari uchun quyidagi me'yorlar qo'yilgan:

1. Dorixona muassasalari uchun: 1000 ta yakka tartibda tayyorlanish lozim bo'lgan retseptlar uchun 2800 gr.

2. Kasalxona uchun: jarrohlik profilaktikasida bitta bemor uchun — 400 gr, terapiyada — 170 gr.

3. Ambulatoriya-poliklinika uchun: bitta ro'yxatda turuvchi bemor uchun yiliga — 50 gr.

Sog'liqni saqlash muassasalariga spirtlar turli eritmalar bor, salitsil, mentol ko'rinishida ham yuboriladi.

Ijtimoiy ta'minot muassasalarida etil spirti me'yorlari quyidagicha;

1) Maktablarga: bitta o'quvchi uchun yiliga 2 gr.

2) Maktabgacha tarbiya muassasalarida: bitta o'rin uchun yiliga 20 — 100 gr.

Me'yori cheklangan vositalarning ehtiyoji quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$E = \frac{M \cdot S}{1000}.$$

Bu yerda: M — 1000 ta aholi uchun yillik iste'mol me'vori, 1000 ta retsept va boshqalar.

S — aholining va retseptlarning soni va boshqalar.

E — dori vositalarga bo'lgan ehtiyoj.

### **Maxsus ta'sirga ega bo'lgan dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash**

Dori vositalarini iste'moli aholining kasallanish va tibbiy yordam ko'rsatish darajasi bilan bog'liq. Maxsus ta'sirga ega bo'lgan dori vositalarining ehtiyoji har biriga alohida hisoblanadi.

Bunda quyidagilar hisobga olinadi. Shu kasallikda bir kishi uchun ishlatilgan preparatlar bir kursi uchun yil davomida ketadigan dori vositalari miqdori.

Ehtiyojni aniqlash quyidagi formula yordamida topiladi:

$$E = M \cdot K \cdot B,$$

bunda E — dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj;

M — 1 davolash kursiga bitta bemor uchun ketadigan dori vositasining miqdori;

K — bir yil davomida davolash kurslarining soni;

B — bemorlar soni.

### **Keng spektrli ta'sir qiluvchi dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash**

Bu guruhga keng ta'sir etuvchi arsenalli dori vositalari kiradi. Ularga turli kasalliklarni qo'zg'atuvchilarga nisbatan faollikni ko'rsatuvchilar: antibiotiklar, sulfanilamid dori vositalari, nitrofuran hosilalari, alkaloidlar, oksidlovchilar, og'ir metall tuzlari, fenol hosilalari va boshqalar misol bo'ladi. Bu yerga yana organizmning funksional sistemasidagi xilma xil kasalliklarni davolovchi dori vositalari, bir xil ta'sirli, ammo kelib chiqishi har xil bo'lgan: analgetik va isitma tushuruvchi, markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi, uxlatuvchi, sedativ va neyroleptik, mahalliy og'riqsizlantiruvchi, o'rab oluvchi va adsorbsiyalovchi, teri burishtiruvchi va

shilliq pardalarni yallig‘lantiruvchi, balg‘am ko‘chiruvchi va ko‘ngil aynituvchi, surgi, vitamin, garmon dori vositalari va boshqalar kiradi.

Keng spektrli ta’sir qiluvchi dori vositalarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash ikki bosqichda amalga oshiriladi:

— kerakli ma’lumotlarni to‘plash va ularni tahlil qilish;

— iqtisodiy-matematik usullar, ekspert baholash va boshqalar asosida aniq dori vositalarining ehtiyoj istiqbolini aniqlash

Shu tahlil jarayonida berilgan guruh preparatlariga bo‘lgan talabni taxminan, bir dori vositasi o‘rniga ikkinchisini qo‘yish mo‘ljallangan o‘zgarishlarni hamda shu preparatni mahalliy qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash kerak.

**Istiqbolni aniqlashda ekspert usullari.** Sifat va miqdoriy tahlil qo‘llanganda ekspertlar eng zarur tadbirlarni, ularni bir-biriga bog‘liqligini baholash, sotish jarayoning ketma-ketligini va shu har bir tadbiring bajarish ehtimolini, muddatlarini ajratib olishga yordam berishadi.

Ekspertlar berilgan masalaning boshqarish imkoniyatini va uni hal etishda har bir omillarning hissasini baholab so‘ngra ushbu muammoni yechish uchun maqsadga muvofiq bo‘lgan hodisa; tadbirlarni aniqlab beradilar. Bundan tashqari ular bu tadbirlarni istiqbolini aniqlash davrida obyektiv bajarilish ehtimolligini hisobga olgan holda, bu tadbirlarni amalga oshirish mumkin bo‘lgan muddatlarni, ular ketma-ketligini va bir-biriga bog‘liqligini aniqlab beradilar. Ekspert baholashdagi natijalar statistik usullar bilan qayta ishlab chiqiladi.

Ekspertli baholash usuli oddiy, hammabop va mutaxassislar bo‘yicha fikrlarni umumiy lashtirishda o‘zini yetarli darajada ishonchli usul deb tavsiya etgan.

Olingan natijalarni qayta ishlab chiqishda, baholarning mosligini ( $W$ ) ko‘rsatadigan ekspertlarni omilkorlik koeffitsientini hisoblab chiqish zarur:

$$W = \frac{12 S}{m^2 (n^3 - n)},$$

bunda  $m$  — ekspertlar soni;

$n$  — alomatlar soni;

$S$  — har bir alomat kvadratlarining yig'indisi o'rtasidagi va har bir alomat bo'yicha qatorlarning o'rtacha kvadrat yig'indisining o'rtasidagi farqi.

**Ekstrapolyasiya usullari.** Izlanishli istiqbollarni oladigan asosiy usullaridan biri ekstrapolyasiya usuli hisoblanadi, bunda oldingi g'oyalar kelajakda saqlanishi haqida va ularning dinamik qator taxminlangan holda uning mantiqiy asosi hisoblanadi.

Dinamik qatorlarning tahlili asosida qonuniylik, o'rnatilgan o'zgarishlar va regressionli apparat ko'proq qo'llanilgan holda belgilab qo'yilgan g'oyani ta'riflashda va uni uzaytirishda tegishli approksimirlar tenglik tanlab olinadi.

**Istiqbolni aniqlashda modellar usullarini qo'llanishi.** Istiqbolni aniqlashda 3 ta guruh modellari qo'llaniladi: mantiqiy, axborotli va matematik.

*Mantiqiy modellar* asosida dialektik prinsip yotadi. Har qanday obyektlarning xususiyatlari bir-biriga bog'liq va biri ikkinchisiga ta'sir etadi, boshqacha aytganda:

— agar qaysidir bir turdagi obyektlarda qandaydir o'zgarishlar ro'y bergan bo'lsa, unda o'xshash obyektlarda ham xuddi shunday jarayonlar sodir bo'ladi;

— agar o'xshash ikkitasidan bitta obyektida qandaydir yangi xususiyat topilgan bo'lsa, unda balki boshqa obyektida ham u aniqlangan bo'lishi mumkin.

*Axborotli modellar* usullari bilan istiqbollash asosida ommaviy axborot oqimlarning (maqolalar, kitoblar, patentlar, ixtirolar va boshqalar) tahlili, strukturali va boshqa «axborotli signallar» nomli o'zgarishlar hamda turli xil yangi g'oyalarni aniqlanishi turibdi. Ma'noli tahlil (kontent-tahlil) axborotni sifatli va miqdoriy o'rganishni taxmin qiladi. Bunda tezlik, struktura, o'zaro munosabatlar, o'rtacha kattaliklar va boshqa nisbiy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

#### 10.4. DORI VOSITALARIGA BO'LGAN TALABNING TURLARI VA TASNIFI

Dori vositalarining ehtiyoji ularning haqiqiy iste'moli va ularga bo'lgan talabni o'zgarish qonuniyatlari tahlil aniqligi bilan bevosita bog'liqdir.

Talab deganda pullarda ifodalangan u yoki bu tovarga xaridorlarning ehtiyoji tushuniladi. Talabni miqdoriy jihatdan o'lchash mumkin, bunda talab kattaligi tushunchasi qo'llaniladi. Bu xaridor (iste'molchi)lar xohlaydigan, aniq narxlar bo'yicha qaysidir davr ichida moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan, sotib olishga tayyor bo'lgan ma'lum tovar miqdorini bildiradi. Bundan kelib chiqadiki, sotiladigan tovarning talab hajmi eng avvalo uning narxi bilan bog'liq. Odamlar, xarid qiladigan tovar miqdori va uning bahosi o'rtasidagi munosabati talab qonunini ta'riflaydi. Ba'zi teng sharoitlarda tovar narxi va talabning kattaligi o'rtasida qayta (yoki salbiy) aloqa, ya'ni narxlarni pasayishi, talabni ko'payishiga olib kelishi va aksincha mavjudligini talab qonuni tasdiqlaydi.

Talabning kattaligiga ikkita guruh omillar muayyan ta'sir etadi:

- Dori vositalarga bo'lgan ehtiyojni shakllantiruvchi omillar;
- Iqtisodiy ko'rsatkichlar guruhi (tovar va uning o'xshashini narxi, iste'molchining daromadi va boshqalar).

**Dori vositalariga bo'lgan talab quyidagi asosiy negizlar bo'yicha tasniflanadi:**

1) Talabning generatoriga qarab:

- shifokorlar tomonidan (poliklinika, statsionarlar);
- aholi tomonidan.

2) Qoniqtirish darajasi bo'yicha:

Haqiqiy (xaqiqatdan qoniqtirilganda ko'rsatilgan bo'lishi mumkin). U dorixonaning murojaatlar soniga teng.

Sotilgan (harid natijasida qoniqtirilgan). U iste'molga teng.

Talab qoniqtirilmagan — yetarli miqdorda yoki notekis ravishda dorixona tarmog'iga kelgan dori vositalariga bo'lgan talab. U sotilgan va haqiqiy talablar orasidagi farqiga teng;

3) Marketing turiga qarab:



## Marketing turiga qarab talabning tasnifi

Talab turi	Marketingni ta'sir etish maqsadi	Marketing turi	Marketing tadbirlari
1. Inkor etadigan yoki yo'q bo'lgan (iste'molchilarga noma'lum yoki unchalik ma'lum bo'lmagan dori vositalari)	Talabni yaratish: salbiy munosabatni yo'q qilish yoki beparvolik	konversion (o'zgartiruvchan) yoki rag'batlantiruvchi	Fosstis tadbirlarini ishlab chiqish (reklama, shaxsiy sotuvlar, sotishni rag'batlantirish)
2. Potensial (yangi dori vositasi)	Talabni haqiqiy qilish	Rivojlanayotgan	Sifatli
3. O'zgarib turuvchan (mavsumiy, har soatlik dori vositalari iste'moli uchun)	Talabni tekislanishi	Sinxromarketing	Talabning o'zgarishlari davridagi qarshi reklama
4. So'nib keluvchan (kam ta'sirli dori preparatlarga)	Talabni qayta tiklash	Remarketing	Yangi sotish bozorini qidirish, narxlarni pasayishi
5. Barqaror (talabi turg'un bo'lgan dori vositalarga)	Erishilgan talab darajasini qo'llab turish	Qo'llab turadigan	Qo'llab turuvchi reklama
6. Haddan ortiq: kuchaygan talab (moda davrida)	Kamaytirish	Demarketing qarshi harakat ko'rsatuvchi	Narxlarni ko'tarilishi, reklamani qisqartirish, ishlab chiqishni to'xtatish

FOSSTIS — talabni shakllantirish va savdoni rag‘batlantirish — bir qancha tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, tovarni bozorga yuborishga yo‘naltirilgan, buning uchun e‘tiborli reklama, tovar reklamasi, bevosita va maxsus moliya vositalari yordamida savdoni rag‘batlantirish, sotuvdan oldingi va sotuvdan keyingi yarmarkalar, ko‘rgazmalar amalga oshirilmoqda.

Turli tovarlarga talab ko‘pligi uning qiymati bilan ham belgilanadi. Talab kattaligi elastik narx koeffitsenti bilan ta‘riflanadi. Uning narxi 1% ga o‘zgarishi bilan talab kattaligi qancha foizga o‘zgarishni ko‘rsatadi. Agar ma‘lum tovarga narx o‘zgarishi bilan talab o‘zgarib ketsa — bu elastik talab; agar narx o‘zgarish bilan talab o‘zgarmasa — bu noelastik talab deyiladi.

Narxning elastik talabiga har xil omillar muhim ta‘sir etadi uning eng asosiylariga quyidagilar kiradi:

Agar bozorda ko‘p o‘xshash tovarlar bo‘lsa, talab elastik bo‘ladi. Bu holda ma‘lum tovarga narxni ko‘tarilishi, uning o‘rmini bosuvchi tovarni xarid qilishga olib keladi, bordiyu shu tovarning narxi vaqtincha pasayib ketsa, uning savdo hajmi ko‘tariladi;

Agar bozorda o‘xshash tovarlar yo‘q bo‘lsa — unda talab noelastik bo‘ladi.

Shunday ekan, tovarlarga narxlarni ko‘tarilishi uning sotuvini kamayishiga sabab bo‘lmaydi (chunki talab > taklif).

Aniq tovarni sotib olish zaruriyatining darajasi katta bo‘lsa, talab turg‘un bo‘ladi (noelastik). Bu holda narxlarning biroz ko‘tarilishi savdo hajmini muhim qisqarishiga olib kelmaydi. Shu guruhning tovarlari (xizmatlar)ga quyidagilar kiradi, masalan: barcha dori vositalari, malakali tibbiy yordam.

Narx marketingi nuqtayi nazaridan iste‘molchining turkumi yoki narxlarni o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan iste‘molchilar bo‘g‘inlari.

Iste‘molchilarni shartli ravishda 4 turkumga ajratish mumkin:

**4.1.** «Tejamkor» xaridorlar. Ular narxlar (tovar sifati va assortimentiga) yuqori sezuvchanlikka ega bo‘lib, elastik turg‘un talabni shakllantiradi. Ularga kam ta‘minlanganlar, nafaqa oluvchilar, ko‘p bolali xaridorlar kiradi.

4.2. «Nufuzli» xaridorlar. Ular narxlarga kam e'tibor bergan holda, ko'proq tovarning tashqi ko'rinishga, xaridorlarga xizmat ko'rsatish saviyasiga ahamiyat berishadi. Bu xaridorlar tomonidan elastik talab shakllanadi.

4.3. «Mulohazali» xaridorlar tomonidan kam ifodalangan noelastik talab shakllanadi. Bu xaridorlar kichik firmalarni qo'llab - quvvatlash uchun past narxdagi tovarlarni olishga tayyor bo'ladi.

4.4. «Befarq» xaridorlar. Narxlarga e'tibor bermagan holda, asosan foydalanishdagi qulaylikka ahamiyat berishadi. Bu xaridorlarga biznesmenlar kirib, ular tomonidan turg'un noelastik talab shakllanadi.

Samarali narx siyosatini o'tkazish maqsadida yuqorida sanab chiqilgan omillarning barchasini hisobga olish zarur.

#### **10.5. DAVOLASH-PROFILAKTIKA MUASSASALARI DOIMIY FAOLIYATDAGI HAY'AT VAZIFALARI**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2005-yil 12-oktabrda 506-sonli buyrug'i asosida dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob-uskunalarni sotib olish, taqsimlash va ulardan unumli foydalanishni nazorat qiluvchi «Doimiy faoliyatdagi hay'at» (keyinchalik matnda DFH) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar Sog'liqni saqlash boshqarmalari, Toshkent shahar Sog'liqni saqlash Bosh boshqarmasi va barcha davolash-profilaktika muassasalarida tashkil etilgan va bevosita O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziriga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziriga, viloyatlar Sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlariga, Toshkent shahar Sog'liqni saqlash Bosh boshqarmasi boshlig'iga, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati departamenti bosh shifokorlariga bo'ysunadi.

DFH o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respub-

likasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyruq va farmoyishlariga hamda mazkur nizomga amal qilgan holda olib boradi.

Joylarda dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob-uskunalarni sotib olish, taqsimlash va ulardan unumli foydalanishni nazorat qiluvchi DFH, o'z faoliyatini Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'iga va davolash-profilaktika muassasalari ichki buyrug'iga asosan tashkil qiladi.

DFH raisi etib Sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari, viloyat va shahar sog'liqni saqlash Bosh boshqarmasi boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari va davolash-profilaktika muassasalari bosh shifokorlarining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosarlari, DFH a'zolari etib yetakchi mutaxassislar, mos ravishda Vazir, viloyat va shahar sog'liqni saqlash boshqarma boshliqlari hamda bosh shifokorlari tomonidan tayinlanadi va tasdiqlanadi.

Sog'liqni saqlash vazirligi, sog'liqni saqlash boshqarmalari davolash-profilaktika muassasalari buyruqlariga asosan hay'at a'zolari tarkibi o'zgartirilishi, hay'atning faoliyati tugatilishi yoki yangidan tuzilishi mumkin.

Doimiy faoliyatdagi Hay'atning asosiy vazifalari:

Hayotiy zarur dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob - uskunalariga bo'lgan talabni o'rganadi hamda buyurtma tuzadi. Dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob-uskunalar, shu jumladan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarga bo'lgan ehtiyojni bemorlarning soni, kasallik turlari, davolash - profilaktika muassasalaridagi davolanuvchi bemorlar o'rinlarining soni va demografik holatni hisobga olgan holda o'rganib boradi. Bunda zarur bo'lganda soha bo'yicha yetakchi mutaxassislar jalb etiladi.

Polipragmaziya va politerapiyaga yo'l qo'ymaslik, ayni bemorga birdaniga 3 va undan ortiq antibiotik tayinlash muvofiq deb topilganda majlisda bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Davolash-profilaktika muassasalarining dorixonasi, davolash bo'limlarida dori vositalari va tibbiy ashyolarning yaroqlilik muddati, saqlash sharoitlari hamda ularning soni va umumiy miqdorini tekshiradi.

Budjet mablag‘lari hisobidan xarid qilingan hamda muruvvat yordami yo‘nalishi bo‘yicha olingan dori vositalarini har bir qutida muassasa muhri mavjudligini tekshirish asosida aniqlaydi.

Muruvvat yordamidan va beg‘araz texnik ko‘makdan maqsadli foydalanishni ta‘minlanishini tekshiradi.

Davolash — profilaktika muassasalari ichki dorixonalarining yillik faoliyati to‘g‘risida hisobot tayyorlaydi.

Bo‘limlarida esa miqdoriy hisobi yuritiluvchi dori vositalari tibbiy ashyo va tibbiy asbob -uskunalarning qoldiq miqdoriy hisob-kitobini hamda ular bo‘yicha hisobotning to‘g‘ri yuritilishini tekshiradi.

DFH davolash-profilaktika muassasalarida hisob-kitob o‘tkazish bo‘yicha har 10 kunda sotib olingan dori vositalari haqida shifoxona dorixonasi mudiridan ma‘lumot oladi, har oyda dorixonada va bo‘limlarda hisobdagi dori vositalarining o‘rnatilgan tartibda, hay‘at a‘zolari ishtirokida yo‘q qilinishini amalga oshiradi.

DFH yilning har choragi uchun bajarilgan ishlar bo‘yicha hisobot (keyingi oyning 15 sanasigacha) tayyorlaydi va yuqori tashkilotlarga topshiradi.

Dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob-uskunalarini sotib olishda ishtirok etadi. Bunda ta‘minotchilardan faqat respublika hududida qo‘llashga ruxsat etilgan va Davlat reestriga kiritilgan, muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘lgan hayotiy zarur dori vositalari ro‘yxati hamda shifoxona formulyariga kiritilgan dori vositalari va tibbiy ashyolarning xarid qilinishini, saqlash omborxonalari, muzlatkich xonalari va ularning transportda tashishda muzlatkich me‘yoriga rioya qilish holatlari ustidan olib borilayotgan monitoring o‘tkazilishida ishtirok etadi.

Ta‘minot turidan qat‘iy nazar, dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob-uskunalarining barcha taqsimotlari bosh mutaxassislar hamda barcha hay‘at a‘zolari ishtirokida amalga oshiriladi, bayonnoma bilan rasmiylashtirilib, hay‘at a‘zolarining imzolari bilan tasdiqlanadi.

DFH to‘monidan dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob-uskunalarini xarid qilishdagi zaruriy mezonlar:

— dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob-uskunalar faqat farmatsevtika faoliyati bilan shugʻullanishga (sotib olish va sotishga) ruxsat beruvchi litsenziyasi mavjud boʻlgan taʼminotchilardan xarid qilinishi;

— xarid qilinayotgan dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob-uskunalar uchun vakolatli sertifikatli organlari tomonidan rasmiylashtirilgan va oʻrnatilgan tartibda tasdiqlangan muvofiqlik sertifikati nusxasi mavjud boʻlishi;

— mahsulotda birlamchi va ikkilamchi oʻramlarning butunligi, qayd yozuvlarining bir-biriga mos kelishi, yorliqda mahsulotning nomi, oʻlchov birligi, seriyasi hamda partiya raqami, qaysi davlat va firmada ishlab chiqarilganligi;

— dori vositalarining yaroqlilik muddati tibbiyot amaliyotida qoʻllash uchun 60 foizdan kam boʻlmasligi;

— cheklangan ulgurji savdo ustamalarining qoʻllanilishi va davolash muassasalarida hisob-kitob yuritiladigan narxlarning toʻgʻri belgilanishi;

— dori vositalariga tuzilayotgan buyurtma dori vositalarining xalqaro nomlanishiga hamda dozasiga muvofiq boʻlishi;

— dori vositalarining samaradorligi, xavfsizligi, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi tahlili;

— muruvvat yordami yuklari oʻrnatilgan tartibga koʻra dalolatnoma asosida qabul qilinishi;

— dori vositalarini sotib olishda raqobat narxlarining oʻrganilganligi va tahlili asosida buyurtma berilganligi.

Ehtiyojdan ortiq boʻlgan dori vositalari, tibbiy ashyo va tibbiy asbob-uskunalarni boshqa davolash-profilaktika muassasalariga qayta taqsimot uchun yuqori tashkilotlarga maʼlumot tayyorlanadi.

DFH giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning saqlanishi, hisobining yuritilishi va maqsadga muvofiq ustidan doimiy nazorat oʻrnatish boʻyicha vazifalari:

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 29-oktabrdagi 472-sonli Qarori asosida Davolash-profilaktika muassasalari uchun rejadagi yillik ehtiyojni jamlab SSV qoshidagi «Dori vositalari tibbiy buyumlar siyosati Markazi»ga (joriy yilning

noyabr oyigacha, keyingi yillarda yillik ehtiyoj iyun oyigacha) topshirish yuzasidan nazorat o‘rnatadi.

Davolash-profilaktika muassasalarining dorixonalarida giyohvandlik dori vositalarini saqlash sharoitlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2001-yil 21-iyulda 1048-son bilan ro‘yxatga olingan «Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash bo‘yicha texnik talablarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qaror talablariga javob berishi ustidan doimiy nazorat olib boriladi.

# 11-BOB. FARMATSEVTIKA BOZORIDA ULGURJI SAVDO FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH

## 11.1. DORI VOSITALARINING MUOMALA SOHASIDA LOGISTIK YONDOSHUVI

Dori vositalarini muomala sohasida xomashyo, substansiya olish yoki dorivor o'simlikni o'stirishdan boshlab, toki so'nggi iste'molchiga dori preparatlarini yetkazib berguncha bo'lgan yo'lni ikki qismga ajratish mumkin. Xomashyoni olishdan boshlab, toki tayyor mahsulot ishlab chiqarguncha bo'lgan yo'lning bir qismi texnik-ishlab chiqarish maqsadidagi *mahsulotning harakati* deb aytiladi.

Yo'lning ikkinchi qismi tayyor mahsulotning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yoki foydalanuvchiga yetib borish harakati *tovar harakati* deb ataladi.

Bu ikki oqimni birlashtirilganiga uncha ko'p bo'lgani yo'q va uni orasidagi munosabat *moddiy oqim* deb nomlandi. Bu esa o'z navbatida mahsulot harakati jarayonida paydo bo'lgan yangi obyekt *logistika* (grekchadan *logistics* — hisoblash, fikrlash san'ati) fanini o'rganish predmetiga aylandi.

Hozirgi kunda logistikani ko'pgina ta'rifi mavjud bo'lib, ulardan biri logistika — istiqbolni aniqlash, xarid qilishni amalga oshirish, ishlab chiqarish hajmlarini rejalashtirish, buyurtmalarni qayta ishlash, zaxiralarni boshqarish, omborxonada faoliyati va transport orqali tashishlarni rejalashtirishni o'z ichiga oladigan kompleks xo'jalik faoliyati deb ko'riladi.

Farmatsevtik bozorda ulgurji savdoni rivojlanishi, farmatsiyani tashkil qilish va iqtisodiyotining kelajak yo'nalishini belgilashda logistik yondashuvlarni qo'llanishi farmatsevtik logistika deb ataladi.

*Farmatsevtik logistika* — farmatsevtik va boshqa tovarlar hamda ular bilan bog'liq bo'lgan farmatsevtik yordamda iste'molchilarni qoniqtira oladigan axborotli, moliyaviy va xizmat qilish oqimlarini o'z ichiga oladigan boshqarish hamda qulaylashtirishni ta'minlaydigan fan va amaliy faoliyatdir.



Logistika moddiy resurslarni taqsimlash, ishlab chiqarishni texnik, texnologik, tashkiliy ta'minlash to'g'risidagi fan sifatida, ilmiy-texnik taraqqiyot ta'siri natijasida mahsulotlar aylanuvi jarayonini takomillashtirib borishga bo'lgan doimiy talab ta'siri ostida paydo bo'ldi.

Logistika quyidagilarga asoslanadi:

texnikaga (materiallar oqimi);

axborotga (axborotlar oqimi);

ishlab chiqarishga (mos holdagi boshqaruv modellari bilan).

Tovar harakati jarayonining murakkablashuviga bir qator omillar sabab bo'ldi, ularning eng asosiylari quyidagilardir:

— o'tkazuvchi bozorlar uchun olib borilgan aniq kurashlar, ularni egallash, kengaytirish, bozordagi mavqeini mustahkamlash, iste'molchilar xohish-irodasini o'rganish, tovarning hayotiylik davrini o'rganish, raqobatchilar bozorga taklif qilayotgan tovarlarni va iste'molchilar talabini o'rganish;

— aniq o'tkazuvchi bozorlarga yo'naltirilgan va iste'molchilar buyurtmasiga asosan ishlab chiqarishni tashkil etish, barcha bosqichlarda moddiy resurslar harakati. Aniq va puxta o'ylab chiqilgan, rejalashtirilgan va tashkil etilgan ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish;

— tovar harakati to'g'risidagi axborotning muomala jarayonining barcha bosqichlarida va mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida tartibga solingan harakat;

— logistik tizim faoliyati logistik qoidalar asosida amalga oshiriladi. Logistik qoidalar deganda logistik tizimda eng maqbul yo'nalishlarni aniqlash uchun yuklar va usullar yig'indisi tushuniladi;

— logistik tizim (LT) deganda elementlar va ular o'rtasida yuk (material) oqimini, u paydo bo'lgan nuqtadan iste'mol qilinadigan nuqtagacha boshqarish maqsadida paydo bo'ladigan o'zaro aloqalar hamda bu jarayonlar uchun zarur bo'lgan axborot oqimlari yig'indisi tushuniladi.

Logistik tizimning elementlari quyidagilardir: ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi korxonalar va boshqa tarmoqlarning korxonalari, tijorat-vositachilik korxonalari, transport va ombor

quvvatlari, yetkazib beruvchilar, buyurtmachilar, axborot tizimlari, axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatish moslamalari, boshqaruv organlari (menejment).

Moddiy oqimlar tizimining muvaffaqiyatli ishlashi logistik infrastrukturaning rivojlanishiga juda bog'liqdir.

Logistika infrastrukturasi deganda bir korxonadan boshqa korxonaga moddiy va axborot oqimlarini ishonchli hamda bir maromda yetkazib turilishini ta'minlaydigan transport va boshqa zaruriy elementlarning yig'indisi tushuniladi.

Logistika faoliyatining asosiy sohalaridan biri mahsulotni ta'minlash, ularni bevosita iste'molchiga yetkazib berish hisoblanadi. Logistik faoliyati birinchi navbatda yuklarni tashish uchun zarur bo'ladigan transport bilan juda bog'liqdir. Transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichi — bu bajarilgan transport ishlarining hajmi, ya'ni yuklarni ma'lum bir masofaga eng kam xarajatlar bilan tashish hajmi hisoblanadi.

Quyidagilarga qilingan xarajatlar logistik sarf-xarajatlar hisoblanadi:

— tashishga, ortishga, tushirishga, qayta ortishga, yuklarni manipulyasiya qilishga;

— transport — ombor ishlarining hamma turlari bo'yicha taxlash;

— axborot xizmatini ko'rsatish, ya'ni axborot oqimlarini tashkil etish;

— aylanma mablag'larni tutib turishga va omborlarda yuklarni saqlab turish natijasida qilinayotgan tavakkalchilik;

— logistik boshqarishga.

Moddiy (yuk) oqimlarining faoliyat yuritishi bilan bog'liq bo'lgan zarur tushunchalardan biri axborot oqimlaridir. Shuningdek teskari aloqa, ya'ni rejalashtirilgan ish qanday natija bilan tugaganini solishtirish uchun zarur bo'ladigan axborot, aloqa tushunchasidan ham keng foydalaniladi. Teskari aloqa logistik jarayonlarni yanada samaraliroq boshqarishga imkon beradi. Axborot oqimlari logistik kanallar orqali o'tadigan axborot kanallarining yig'indisidir.

**Logistik kanal** — yetkazib beruvchi, iste'molchi, tashuvchi, vositachi, sug'urtachilardan iborat qisman tartibga solingan ko'plik.

Iste'molchi yoki yetkazib beruvchi bozor iqtisodiyoti sharoitida tashuvchilarni, sug'urtachilarni va hokazolarni turli xil usullar bilan (reytingini hisoblash, operatsiyalarni tadqiq qilish usullarini qo'llash va hokazo) tanlash imkoniyatiga egadir. Tanlash amalga oshirilgandan so'ng logistik kanal, logistik zanjirga aylanadi.

**Logistik zanjir** — bu chiziqli tartibga solingan ko'plab jismoniy va yuridik shaxs (ishlab chiqaruvchilar, distribyutorlar, umumiy foydalaniladigan ombor)larning ko'pligi bo'lib, ular tashqi moddiy oqimni bir LT dan boshqa LT ga yetkazib berish bo'yicha yoki yakuniy iste'molchiga yetkazib berish bo'yicha (noishlab chiqarish iste'moli, shaxsiy iste'mol) operatsiyalarni amalga oshiradi. Umumiy holda logistik zanjir ishlab chiqaruvchi, iste'molchi, vositachi va tashuvchilarni birlashtiradi.

Bu oqimlarning o'zaro harakati va o'zaro aloqasi tadbirkorlik logistikasi faoliyatida o'z aksini topadi, u korxonalar, yetkazib beruvchilar hamda buyurtmachilar o'rtasidagi barcha moddiy va axborot oqimlarini birlashtiradi va tashkil qiladi.

Logistik jarayonlar muvaffaqiyatli borishi uchun logistik boshqaruvdan foydalaniladi, bu boshqaruv korxonani umumiy boshqarishning bir qismi hisoblanadi. Logistik boshqaruv o'zida rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish kabilarni aks ettiradi hamda ular asosida mos holdagi axborot yotadi. Logistik boshqaruv korxonani umumiy boshqarish bilan birga faoliyat yurita turib, u moddiy (yuk) oqimlarning tejami va ildam bo'lishini, zaruriy zaxiralarning eng qulay hajmini ta'minlashi kerak, moddiy oqimlar mavjud bo'lishining sharoiti va talablari to'g'risida axborotga ega bo'lishi kerak.

Olimlar va amaliyotchilar tasdiqlashi bo'yicha moddiy zaxiralarni 30—70 % qisqartirilishi, saqlash vaqtini kamaytirish, mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetib borishini tezlatib, tovar aylanishining iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lishiga imkon yaratadi. Bunda 7-R logistik qoida joriy qilindi: Right product (kerakli mahsulot); Right quantity (kerakli miqdorda); Right condition (berilgan sifatda); Right place (kerakli joyda); Right time (belgilangan vaqtda); Right customer (aniq iste'molchi uchun); Right cost (kam chiqimli).

Orasidagi moddiy oqimning qaysi qismida harakati o'rganilishiga qarab, logistikasi *sotib olish* (tashkilotni moddiy resurslar bilan ta'minlash), *ishlab chiqarish logistika* (mahsulot ishlab chiqaradigan yoki saqlash va boshqalar bo'yicha xizmat ko'rsatadigan korxonalarining ichidagi moddiy oqimlar bilan boshqarish), *taqsimlovchi logistika* (tayyor tovarni iste'molchiga yetkazib berish) turlariga bo'linadi.

Dori vositalarining assortimenti avj olib o'sishi tovar harakatidagi boshqarish ishlarini yanada mukammallashtirishga sabab bo'lmoqda (taqsimlovchi logistika). Tovar harakati yoki taqsimlovchi logistika — bu iste'molchi talabini qondirish va daromad olish maqsadida ishlab chiqarish joyidan iste'mol qilish joyiga materiallar, tayyor buyumlar va ularga tegishli ma'lumotlarni yetib borishni rejalashtirish va nazorat qilish faoliyatidir. Qisqa qilib aytganda, bu kerakli tovarni, kerakli iste'molchiga, kerakli joyga o'z vaqtida yetkazib berish jarayonidir.

Taqsimlovchi logistikada tovar harakatining turli kanallar orqali moddiy oqim ishlab chiqaruvchidan so'nggi iste'molchiga yetib keladi. Ta'minotchining ishonchi (mahsulotni aniq muddatga, qat'iy grafik asosida yetkazish va boshqalar), investitsiya va kreditlash imkoniyatlari, muomala xarajatlarining kattaligi, mavjud bo'lgan assortimentga talab, narxi va boshqalar kabi omillar harakati moddiy oqim (farmatsevtik va boshqa tovarlar)ning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Moddiy oqimga yana bir necha kichik oqimlar hamroh bo'ladi:

— moliyaviy oqim (pul vositalari harakati), o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi: a) investitsiyaviy; b) dori vositalarini sotib olishni ta'minlovchi; d) transport xarajatlarini qoplovchi; e) savdoni ta'minlab beruvchi;

— raqobat muhitida firma uchun yana bir afzalligi — servis xizmatlardir;

— axborotli — boshqa oqimlar bilan parallel holda to'g'ri yo'nalishda harakatlanadi, teskari yo'nalishida esa logistik zanjir davomida qayta aloqa o'rnatadi;

— transportli — moddiy oqim harakatini ta'minlaydigan (masalan: dorixona assortimenti buyumlarining tashishni tashkil qilish) zarur bo'lgan barcha element va faoliyatlar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Logistikaning asosiy vazifasi tovarni iste'molchiga yetib borguncha moliyaviy, axborotli, servis, transport xizmatlarini rejalashtirish, tashkillashtirish va har bir moddiy oqimlar harakatdagi faoliyat turlarini nazorat qilishdir.

## 11.2. TOVAR HARAKATINING KANALLARI. SAVDO TARMOG'INING ASOSIY TURLARI

Farmatsevtik bozorda tovar harakatining kanallari bir yoki bir necha kompaniyalar bilan amalga oshirilmoqda, ular dori vositalarini so'nggi iste'molchiga yetkazib berishda ishtirok etadi va ularni tovar harakatining ulgurji va chakana savdo korxonalarida ta'riflash mumkin.


Tovar harakatining kanallari — tovar (yoki xizmat)ga bo'lgan huquqni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga o'tkazishni ta'minlovchi tashkilot yoki alohida shaxslarning yig'indisidir.

Tovar harakatining 2 ta asosiy turi mavjud:

**To'g'ri.**


**Egri.**

Agar mahsulot ishlab chiqaruvchidan bevosita iste'molchiga yetib borsa, bu kanalning to'g'ri turi hisoblanadi. Bunda faqat 2 ta qatnashuvchi ishtirok etadi.




To'g'ri kanallarning yana bir nomi bu — nol darajali kanal.

Egri (ko'p darajali) kanal — mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga vositachilar tizimi orqali sotilishi. Agar vositachi 1 ta bo'lsa — bu birinchi darajali kanal.



Agar vositachi 2 ta bo'lsa — ikkinchi darajali kanal.



Tovar harakati kanallari vertikal va gorizontal bo'lishi mumkin:

— vertikal tovar harakati kanallari yagona tizim sifatida ish ko'rsatadi, ishlab chiqaruvchi, ulgurji va chakana vositachilar, iste'molchilarni o'z ichiga oladi. Ular umumiy maqsadlarni ko'zlaydi va birlashgan nazoratda xizmat ko'rsatadi;

— gorizontal tovar harakati kanallari, bir qancha firmalar birlashmasi bo‘lib, aniq bozorni birgalikda egallash uchun mo‘ljallangan. Bunday sotish tizimdan dorixona tizimida ham foydalansa bo‘ladi. Masalan: keng ko‘lamda reklama kompaniyasini o‘tkazish va o‘z tovarlari savdosini ko‘paytirish maqsadida aniq hudud dorixonalarini birlashtirish.

Dorixona savdo qilish tarmog‘i uchun bilvosita ikkinchi darajali (vositachi bilan) kanallari xos. Ikkinchi darajali kanal qatnashuvchilari:



Savdo qilish tarmog‘ining asosiy turlari.

Savdo qilish tarmog‘ining tashkillashtirish 3 ta asosiy omillarga bog‘liq:

Mahsulot turi.

Bozorning geografik ko‘lami.

Iste‘molchining fe‘l-atvori.

Ularga muvofiq savdo tarmog‘ining 3 asosiy turlari ajratiladi:

1. Mahsulot turlari bo‘yicha.
2. Hududlar bo‘yicha.
3. Iste‘molchining fe‘l-atvori bo‘yicha.

### **1. Mahsulot turlariga qarab savdo tarmog‘i**

Mahsulot turiga qarab savdoni tashkil qilishda bir yoki bir necha xil tovar turlariga ixtisoslashtirilgan alohida bo‘linmalar shakllanadi. Qachonki mahsulot nomlari assortimenti bo‘yicha ajralib tursa va maxsus bilimlarni talab qilsa, shunda bu savdo qilish tarmog‘i afzalroq ko‘riladi.

Shunday qilib, dorixona tovarlari ancha farqlanadigan assortimentli guruhlarga bo‘linadi: dori vositalari va sanitariya-gigiyena ashyolari, bog‘lov vositalari va bemorlarni parvarish qilishda ishlatiladigan buyumlar; tibbiyot texnika, optika va boshqalar.

Shu bilan dorixona tarmog‘ida aniq tovarlar guruhlari savdosi bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bo‘linmalar shakllanadi (masalan, tibbiyot texnika uchun — «Tibtexnika» do‘konlari, ko‘zoynak, gardish, linzalarni sotish uchun — «Optika» va boshqalar).

Keyinchalik bundan ham kengroq ixtisoslashtirish ehtimoli bor. Masalan, tayyor dori vositalari, dorivor o‘simlik xomashyoni

hamda dori vositalarining aniq guruhlari (sil, diabet, o'sma kasalliklariga qarshi va boshqa preparatlarni sotish bo'yicha ixtisoslashgan dorixonalar) savdosi bo'yicha ixtisoslashgan dorixonalar, gomeopatik dorixonalar.

## **2. Hududlar bo'yicha savdo qilish tarmog'i**

Hududlar bo'yicha savdoni tashkillashtirishda hududiy savdo qilish tarmoq bo'linmalari shakllanadi. Masalan: hududlarda dori vositalari va tibbiyot buyumlari savdosini tashkillashtirish uchun shaharlar, viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha dorixona tarmog'i shakllangan.

Savdo faoliyatining mahsulot turlari bo'yicha hamda hudud (mamlakat)lar bo'yicha tashkillashtirilgan mustaqil turi bu eksport — chet el bozorida mahsulotning savdosi.

## **3. Iste'molchi fe'l-atvori bo'yicha savdo qilish tarmog'i**

Iste'molchi fe'l-atvoriga qarab savdoni tashkil qilganda, bir yoki bir nechta iste'molchilar turlarini xizmat qilishiga ixtisoslashtirilgan, alohida bo'linmalar shakllanadi. Masalan, dori vositalari va tibbiyot buyumlar sotishi uchun quyidagicha tashkillashtiriladi:

- faqat aholiga xizmat qiluvchi dorixonalar;
- bitta davolash-profilaktika muassasasiga (shifoxona) xizmat qiluvchi dorixonalar;
- bir nechta davolash-profilaktika muassasalari va boshqa tashkilotlarni ta'minlaydigan dorixonalar.

Dorixona tizimida to'g'ri shakllangan sotish tarmog'i iste'molchilarning talablarini to'liq qondirishga imkon beradi, bu o'z navbatida tovarni optimal harakatini ta'minlab beradi.

### **11.3. ULGURJI VOSITACHILARNING VAZIFALARI, FUNKSIYALARI VA TASNIFI**

Tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berishda tadbirkorlik faoliyati maqsadida tovarlar yoki xizmatlarni

sotish va olib sotish maqsadida **ulgurji vositachi** (tashkilotlar va alohida shaxslar)ning o'zni katta.

**Ulgurji vositachilarning asosiy vazifasi** — ishlab chiqaruvchilar va chakana sotuvchilar (dorixonalar bilan) o'rtasidagi uzilishni yo'qotib, muntazam aloqalarni va markazlashtirishni ta'minlashdir.

Farmatsevtik tovarlar harakati tizimining zarur sharti — ulgurji vositachi (dorixona ombori) aloqalari orqali iste'molchilarga yetkazish hisoblanadi.

### **Ulgurji vositachilar funksiyalari**

Farmatsevtika bozorda ulgurji vositachilar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

— Marketing — bozorni kompleks tahlili, tovar siyosati va narx siyosati va boshqalarni amalga oshirish.

— Axborotli — kerakli axborot bilan ta'minotchilarni va chakana tashkilotlarni ta'minlash.

— Tovarlarni qabul qilish, saqlash va tovar zaxiralarini boshqarish.

— Tovarni tashish.

— O'z xaridorlarini kreditlash — tovarlarni iste'molchilarga kreditga berish.

— Rejalashtirilmagan xarajatlar xavf-xatarini qayta taqsimlash.

— Tovarga egalik huquqini olgan holda ulgurji vositachilar, tovarlarning buzilishi, o'g'irlanishi, unga qo'yilgan narxlarning pasayishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lum xavf-xatardan ishlab chiqarishni xalos etadilar.

### **Ulgurji vositachilar tasnifi**

Ulgurji vositachilar bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan vositachilarga bo'linadi:

**Bog'liq bo'lmagan vositachilar** ta'minotchilardan tovarni sotib oladilar, tovar sotish huquqini olgandan so'ng ulgurji vositachilarga xos bo'lgan hamma funksiyalarni bajaradilar. Ularga distribyuterlar kiradi — bu firmalar yirik ishlab chiqaruvchilardan to'liq ulgurji sotib olish asosida savdoni bajaradi. Distribyuterlar shaxsiy omborxonalariga ega, ular, odatda, tovar ishlab chiqaruvchilari bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatadilar.



**Bog‘liq bo‘lgan vositachilar** — tovarga egalik huquqini olmagan va bevosita savdoda ishtirok etmaydigan firmalar yoki ayrim tadbirkorlar (agent va brokerlar). Ular sotish yoki oldi-sotti jarayonlariga ko‘maklashadi, ya‘ni sotuvchilar va xaridorlarni birlashtiradi hamda axborot va marketingli funksiyalarni bajaradilar.

#### **11.4. ULGURJI FARMATSEVTIK TASHKILOTLAR FAOLIYATI, DORIXONA OMBORIDA TOVARLAR HARAKATINI TASHKIL QILISH**

Dorixonada tovarlarining tarqatish tizimida ulgurji vositachilarning asosiy vakili ulgurji savdo tashkilotlari hisoblanadi.

Yevropa Hamjamiyati komissiya kengashining 31.03.1992 yildagi direktivasi «Inson uchun dori vositalarni ulgurji sotish qoidalari»da dori vositalarini aholiga berishdan tashqari sotib olish, saqlash, ta‘minlash va eksport qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarning barchasi dori vositalarining ulgurji savdosini belgilaydi. Ulgurji sotuvchilar ma‘lum geografik ko‘lam aholisining talablarini qondirish uchun kerakli dori vositalarining assortimentini mavjudligi bilan hamda izohlangan joyga qisqa muddatda talab qilingan dori vositalar miqdorini yetkazishga kafolat berishi kerak.

Hozirgi vaqtda qator rivojlangan mamlakatlarda ulgurji sotish tegishli yaxshi amaliyotning qoidalari (GDP — Good Distribution Practice) mavjud. Ushbu hujjatda tovar harakatining har bir bosqichlarida dori vositalari sifatini, qayd qilinishini, saqlash talablarini bajara oladigan, yetkazib berish kafolatini va boshqalarni ta‘minlab beradigan tegishli ulgurji savdoning asosiy negizlari belgilangan. Ushbu hujjat dori vositalarining ulgurji savdosi bilan shug‘ullanuvchi xodimning bilim darajasi va tajribasiga qo‘yilgan talablarni ham o‘z ichiga olgan. Ulgurji sotish jarayonida zarur bo‘lgan asosiy hujjatlar sanab o‘tilgan bo‘lib, ular dori vositalarining harakatini aks ettiruvchi, turli xil logistik jarayonlarini izohlaydigan buyurtmalar, yo‘riqnomalardir.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2002-yil 16-dekabr 547-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan ulgurji standart (OST TST 42-03:2002)ga binoan dori vositalari ulgurji savdo

korxonalariga «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablari asosida dori vositalari ulgurji savdosi bilan shug'ullanadigan tashkilotlar kiradi.

Tovar harakatining kanallari (logistik kanallar) asosiy qismini ulgurji savdo tashkilotlari tashkil etadi.

Ulgurji savdoni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni ko'zda tutib rejalashtiriladi:

- tovar zaxiralarini ko'paytirish va saqlash;
- dori vositalarini ishlab chiqaruvchilaridan keladigan moddiy oqimni oxirgi iste'molchilar uchun tovar oqimiga qaytadan tuzish;
- dori preparatlarining yuklash hajmlarini yiriklashtirish;
- servisning sifatini yaxshilash.

Ulgurji savdo korxonasi va tashkilotlari dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish litsenziyasiga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan, boshqa ulgurji savdo korxonasi va tashkilotlaridan hamda o'rnatilgan tartib asosida ro'yxatga olingan chet el firmalaridan yetkazib beriladigan dori vositalarini sotib olish huquqiga ega.

Ulgurji savdo korxonalarini xususiy farmatsevtika amaliyoti bilan shug'ullanish litsenziyasiga ega bo'lgan boshqa ulgurji savdo korxonalariga, ishlab chiqarish maqsadlari uchun ishlab chiqaruvchi — korxonalariga, dorixona muassasalariga, dori vositalarini sotishi mumkin.

Faqat o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, sanitariya-gigiyena ashyolari O'zbekiston Respublikasi hududida sotilishi mumkin.

Dori vositalari bilan ulgurji savdoni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibga ko'ra ma'lum faoliyat turiga berilgan litsenziya asosida amalga oshirish mumkin. Litsenziyani, uni bergan organ haqidagi ma'lumotni tanishib chiqishga qulay joyda o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Ulgurji savdo korxonasi tovar harakatining asosiy vazifasini, mustaqil ravishda yoki distribyuterning bo'linmalari sifatida faoliyat ko'rsatadigan *dorixona omborlari* bajaradi. Omborxonalar kelib tushgan tovarlarni qabul qilish, joylashtirish va saqlash qoidalariga

rioya qilgan holda, iste'molchilarga berish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Dorixona omborining asosiy vazifalariga: dorixona, davolash-profilaktika muassasalari va boshqa tashkilotlarga sifati va amaldagi qonunchilikning hamma talablariga javob beradigan dori vositalari, tibbiy buyumlar, dorixona jihozlari hamda inventarlarni qabul qilish, saqlash va berish kiradi.

Dorixona ombori asosiy vazifalariga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ta'minotchilar bilan shartnomalarni tuzish;
- dorixona assortimentiga mos tovarlar va tibbiyot buyumlarini sotib olish;
- da'vo va izlanish ishlarini olib borish;
- iste'molchilar tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish;
- dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqaruvchilardan sifati, miqdori va qiymati bo'yicha qabul qilishni amalga oshirish;
- dori vositalari va tibbiyot buyumlarini fizik-kimyoviy xususiyatlari hamda DF talablarini hisobga olgan holda ularning saqlanishini tashkil qilish;
- farmatsevtik, parafarmatsevtik va boshqa tovarlarni hisobga olish hamda berish tartibiga qat'iyan rioya qilishni tashkil qiladi.

Dorixona omboriga qo'yilgan farmatsevtik talablar tegishli tarmoq standartida belgilangan.

Dorixona ombori bajarilayotgan ish hajmiga, sanitariya-gigiyena qoidalariga, yong'inga qarshi, boyliklarni saqlash talablariga javob beradigan sharoitda joylanishi kerak. Omborxonada alohida turadigan binoda (bino tizimining ijara huquqida yoki boshqa huquqlar asosida qonunchilikka zid keltirmagan holda) joylashishi mumkin.

U yerda albatta suv bilan ta'minlanish, kanalizatsiya, issiqlik, tortib ketadigan ventilyatsiya qurilmalari mavjud bo'lishi shart.

Tashqarida tashkiliy-huquqiy shakli, korxonaning nomi, joylashgan o'rni (yuridik manzili) va ish tartibi yozilishi kerak.

Dorixona ombori dori vositalari va tibbiyot buyumlarini fizik-kimyoviy, farmakologik, toksikologik xususiyatlariga asosan saqlash hamda tegishli butligini hamda dori vositalari va tibbiyot buyumlari sifatini standartlar talablarini hisobga olgan holda ta'minlab beruvchi ajratilgan va maxsus jihozlangan binolarga ega bo'lishi kerak. Omborxonada alohida kirish yo'li, tovarlarni qabul qilish uchun ajratilgan joy bo'lishi kerak.

Agar omborxonada ko'p qavatli uylarda joylashgan bo'lsa, tovarni ortish yoki tushirish xonadonlarning derazasi tagida amalga oshirishga ruxsat etilmaydi. Tibbiyot yoki dorixona sifatida xizmat qiluvchi binolarda mayda ulgurji ombor joylashganda ma'muriy-maishiy xonalar umumiy bo'lishi mumkin.

Omborxonada xonalari bajariladigan funksiyalariga qarab uzviy qabul qilish, saqlash, buyurtmalarni jamlash va mahsulotlarni berish ishlari funksional bog'liq bo'lishi lozim.

Omborxonada xonalarning maydoni, saqlanishi ko'zda tutilgan mahsulotlar hajmiga mos kelishi lozim bo'lib, 150 m<sup>2</sup> dan kam bo'lmasligi lozim:

- mahsulotlarni qabul qilish joyi;
- tibbiyotda ishlatiladigan mahsulotlar va dori vositalarini saqlash joyi;
- maxsus saqlash sharoitini talab qiluvchi dori vositalarini saqlash xonalari;
- ekspeditsiya (jo'natish) joyi.

Ma'muriy-maishiy xonalarning umumiy maydoni xodimlarning soniga bog'liq, lekin amaldagi me'yorlar va qoidalarga binoan 34 m<sup>2</sup> kam bo'lmasligi kerak.

Dorixona ombori bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqib, tegishli jihoz va inventarlar bilan ta'minlanishi lozim.

Dorixona omborida bo'lish lozim bo'lgan *jihozlarning taxminiy ro'yxati*:

- stellajlar, tagliklar, tovar tagliklari, tovar osti moslamalari;
- muzlatkich kameralari;
- yukni yuklash-tushirish mexanizatsiya vositalari;
- havo ko'rsatkichlarini rasmiylashtiruvchi asboblari;
- yog'och va metall shkaflar (seyflar);

- ishchi stol va stullar;
- maxsus va ustki kiyimbosh hamda poyabzal saqlovchi alohida shkaflar;
- sanitar holatni saqlash uchun inventar va dezinfeksiyalovchi vositalar.

Saqlash xonalarining soni alohida xonalarda saqlanishni talab qiluvchi dori vositalari guruhlariga qarab belgilanadi. Odatda, omborxonaning ish hajmi qancha bo'lishidan qat'iy nazar quyidagi saqlash bo'limlari bo'lishi ko'zda tutiladi: quruq dori vositalari, suyuq dori vositalari, tayyor dori vositalari, sanitariya va gigiyena tovarlari, bog'lov materiallari, zaharli va giyohvand dori vositalari (agar ularni saqlash uchun alohida litsenziya bo'lsa).

Bundan tashqari dorixona omborida dori vositalarini qadoqlash va o'rab joylash, yordamchi bo'limlari, transport bo'limi va hokazo tashkil qilinishi mumkin. Moliyaviy ishlarni bajarish uchun buxgalteriya, iqtisodiy rejalashtirish bo'limi ham ko'zda tutiladi.

Dorixona omboriarida boshqa soha omborlaridan farqli ravishda, asosan oliy farmatsevtik va o'rta maxsus ma'lumotli malakali xodimlar ishlashi talab etiladi. Dorixona ombori xodimlarining soni ular bajaradigan ish hajmiga (savdo hajmi) asosan belgilanadi.

Dorixona omborida tovarlar harakati quyidagi logistik jarayonlardan iborat: tovar qabul qilish, sifat nazorati, saqlash joylariga joylashtirish, saqlash bo'limlaridan tovarlarni berish. Omborxonada tovarlarni saqlash ishlari amaldagi tarmoq standarti va boshqa me'yoriy-texnik hujjatlar asosida olib boriladi.

Qabul qilish bo'limi boshqa xonalardan alohida bo'lishi, lekin asosiy dori vositalari saqlash xonalari bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

Dorixona omborida kelib tushgan mahsulotlarni qabul qilish va tegishli bo'limlarga berishni amalga oshirish maqsadida kamida uch kishidan iborat qabul hay'ati tashkil etiladi. Qabul hay'ati raisi qabul bo'limi boshlig'i, kichik ish hajmiga ega omborlarda esa dorixona ombori mudiri hisoblanadi.

Qabul qilish hay'ati tarkibiga bo'lim mudirlari, mahsulot qabul qilishga tegishli boshqa shaxslar ham kirishi mumkin. Ba'zi hollarda hay'at tarkibiga mutaxassis-ekspertlar yoki betaraf tashkilot vakillari kiritilishi mumkin.

Qabul qilishda ishtirok etuvchi shaxslar dori vositalarining son va sifat jihatdan qabul qilish qoidalarini, tibbiyotda ishlatiladigan mahsulotlarni yuborishning asosiy hamda alohida sharoitlarini, dori vositalari fizik-kimyoviy xossalarini, dori turlarini ishlab chiqarish shakllarini, narx navo va boshqalarni yaxshi bilishi majburiydir.

Dorixona omboriga zaharli yoki giyohvandlik vositalari kelishi bilan darhol zaharli va giyohvand dori vositalari saqlash bo'limiga topshiriladi. Ularni son jihatidan va kuzatuv hujjatlariga mosligi omborxonada mudiri tomonidan tekshiriladi.

Qabul qilish bo'limida mahsulotlarni qaysi bo'limga tegishli bo'lsa shu bo'lim mudir (o'rinbosar)lari ishtirokida ochib ko'riladi, lozim bo'lgan taqdirda betaraf tashkilot vakili yukni qabul qilishda ishtirok etish huquqini beruvchi hujjat asosida qatnashadi.

Tovarlarni yetkazib berish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Dori vositalarini amaldagi reglamentlari asosida ulgurji va chakana dorixona tarmoqlari orqali sotishda quyidagi hujjatlar bo'lishi talab etiladi:

muvofiglik sertifikatini yoki muvofiglik bo'yicha deklaratsiya;

muvofiglik sertifikatining asl nusxasi egasi tomonidan, notarius yoki sertifikat bergan tovarlarni sertifikatlashtirish idorasi tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxasi;

tovar-kuzatuv hujjatlari (hisob-faktura) ishlab chiqaruvchi yoki ta'minotchi (sotuvchi) tomonidan rasmiylashtirilgan bo'lib hamda har bir tovar nomi bo'yicha o'rnatilgan talablarga ular muvofigligi haqida ma'lumotlar;

muvofiglik sertifikatini nomeri va uning amal qilish muddati;

sertifikat bergan idora yoki muvofiglik bo'yicha deklaratsiya qayd qilingan nomeri va uning amal qilish muddati;

deklaratsiyani qabul qilgan ishlab chiqaruvchi yoki ta'minotchi (sotuvchi)ning nomi va qayd qilgan idora.

Barcha hujjatlar nusxasi ishlab chiqaruvchi (ta'minotchi, sotuvchi)ning imzo va muhri bilan manzili hamda telefonlari ko'rsatilgan holda tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Dori vositalarini qabul qilishdan oldin ularning yaroqlilik muddatiga e'tibor berish lozim.

*Yaroqlilik muddati* — tayyor dori vositasi me'yoriy tahlil

hujjatlari talablarining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha sifat muvofiqligiga kafolat beradigan vaqtning muddati. Bundan tashqari saqlash muddatiga muvofiq markirovkada saqlash muddatini tugashi haqida ko'rsatmasi bo'lishi kerak.

Dorixona assortimentidagi dori vositalari, tibbiy buyumlar va boshqa tovarlar aksariyati uchun oxirgi hamda kafolatli yaroqlilik muddatlari belgilangan.

Dori vositalari yetkazib berishning alohida shart-sharoitlarida qolgan yaroqlilik muddatlari belgilangan bo'lib, ularga muvofiq ishlab chiqaruvchi omboridan jo'natish vaqtida yorlig'ida ko'rsatilgan yaroqlilik muddatining 80% qolishi, maxsus yaroqlilik muddati qisqa bo'lgan bakteriya preparatlari uchun 50% kam bo'lmasligi kerak.

Yuqoridagi dori vositalarining dorixona omborlaridan chakana savdo shoxobchalariga va davolash-profilaktika muassasalariga jo'natishda qolgan yaroqlilik muddatining 60%, bakteriya preparatlari uchun esa yorliqda ko'rsatilgan yaroqlilik muddatidan 40% kam bo'lmasligiga ahamiyat beriladi.

Yaroqlilik muddati qancha qolganligini seriya raqamidan ham aniqlash mumkin.

*Seriya* — bitta texnologik jarayonda yoki bir qator ketma-ket texnologik jarayonlarda olingan aniq dastlabki ashyo miqdori, qadoqlash materiallar yoki yarim mahsulotlarni qayta ishlab chiqilganda, sifatning xosligi bir xillik bo'lgan tayyor mahsulot (dori vositasi)ning aniq miqdori.

Seriya raqami arab raqamlarida birga qo'shilgan holda belgilanadi. Bunda oxirgi to'rtta raqam ishlab chiqarilgan oy va yilni belgilaydi. Oxirgi to'rtta raqamdan oldingilari esa ishlab chiqarilgan seriya raqamlari hisoblanadi (raqamlar o'lchami 5 mm dan katta bo'lmasligi kerak).

Saqlash muddati seriya raqamlari rim raqamlarida (arab raqamida ham bo'lishi mumkin) belgilashda oy ko'rsatilib, arab raqamlarida esa — ikkita oxirgi raqamlar yilni ko'rsatadi. Yaroqlilik muddatlarini quyidagi variantlarda ko'rsatilishi mumkin: «yaroqlilik muddati X.02» yoki «X.02. gacha».

Barcha ishlab chiqaruvchilardan keltirilayotgan mahsulotlar

— Sogʻliqni saqlash vazirligining Dori vositalari va tibbiyot texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi sinov laboratoriyalari hamda boshqa vakolatli organ tomonidan majburiy nazoratdan oʻtkaziladi. Bular Farmatsevtika bozori muomaladagi dori vositalarining quyidagi sifat tartibi asosida reglamentga solinadi:

— «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi 1993-yil 28-dekabr qonuni;

— Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining «Dori vositalari sifatini yaxshilash toʻgʻrisida» 1999-yil 15-mart 163-sonli buyrugʻi.

— Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 2002-yil 8-aprel 162-sonli buyrugʻi bilan tasdiqlangan «Dori vositalari sifat standarti». Tarmoq standarti;

— Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan 2002-yil 29-dekabrda tasdiqlangan «Dori vositalarini sertifikatlashtirish qoidalari».

Sertifikatlashtirish vaqtida hamda saqlash jarayonida aniqlangan sifatsiz dori vositalariga nomuvofiqlik bayonnomasi rasmiylashtiriladi va 3 kun ichida buyurtmachi (ishlab chiqaruvchi)ga, Oʻzstandart agentligiga va Sogʻliqni saqlash vazirligi Dori vositalari va tibbiyot texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasiga xat orqali bildiriladi. Sifatsiz dori vositalari belgilangan tartibda yoʻq qilinadi.

Laboratoriya tahlillari yoki oxirgi ekspertiza xulosasidan keyin tovar saqlash boʻlimlariga beriladi.

Dori vositalari va tibbiyot buyumlarini saqlash xonalari oʻz tuzilishi, tarkibi, maydon oʻlchamlari hamda jihozlanishi jihatidan amaldagi meʼyoriy texnik va litsenziyalash hujjatlarida dorixona omborlari hamda dorixonalariga keltirilgan hamma talablariga javob berishi kerak. Xonalarning tuzilishi, ekspluatatsiya va jihozlanishi dori vositalari va tibbiyot buyumlari butligi fizik-kimyoviy xossalarni saqlab berishni taʼminlashi zarur. Buning uchun xonalar qoʻriqlash va tegishli yongʻinga qarshi vositalar bilan taʼminlanadi.

Dori vositalarini saqlash xonalarida joylashtirish: stellajlarda, zavod faralarning standart idish tagliklarida, tovar tagliklarida, elevator stellajlarining tarasida (mayda tovarlar) mumkin. Stellajlar



tashqi devordan 0,6—0,7 m uzoqlikda; tomdan 0,5 m; poldan 0,20 m uzoqlikda joylashgan bo‘lishi kerak. Stellajlar orasidagi masofa tovarlar oldiga bimalol kelishni ta’minlab beradigan va 0,75mdam kam bo‘masligi, stellajlar oralig‘i yoritilgan bo‘lishi kerak.

Saqlash xonalari toza bo‘lishi, ular sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilgan holda tozalanadi.

Tayyor preparatlarni stellajlarda, javonlarda, shkaflarda saqlanashi bo‘yicha quyidagi talablarini bajarish kerak:

— dori vositalarini joylash va o‘rnatishni asl yorliqlarda etiketkasi (markirovkasi) tashqariga qilib amalga oshiriladi;

— dori vositalari yonida dori vositalari nomi, seriya, saqlash muddati, miqdori belgilangan stellaj kartalari o‘rnatiladi. Karta qalin qog‘ozda chop etiladi. U har bir yangi keltirilgan seriyaga keyinchalik o‘z vaqtida tarqatishni nazorati uchun yurg‘iziladi.

Saqlash bo‘limlarida saqlash muddatlari bo‘yicha kartoteka yurgiziladi. Saqlash muddatlari o‘tib ketgan preparatlar, boshqa dori vositalaridan alohida, tahlil natijalari kelguncha saqlanadi.

Dori vositalari va tibbiyot buyumlarining joylashuv hisobi uchun belgilangan qoidalarga asoslangan holda kompyuter dasturlari va texnologiyalaridan ham foydalanilmoqda.

Saqlash bo‘limlaridan tovarlarni berish dorixonona va davolash-profilaktika muassasalari, boshqa sotib oluvchi tashkilotlar tomonidan berilgan buyurtmalarga binoan amalga oshiriladi.

Buyurtma-talabnomalar 1—2 nusxada (ikkinchi nusxasi dorixonada kirimni nazorat qilish uchun qoladi) alohida har bir bo‘limga yoziladi. Buyurtma-talabnomada dori vositalarning nomi, o‘lchov birligi va talab qilinadigan miqdori ko‘rsatiladi. Zaharli va giyohvandlik vositalari hamda etil spirti uchun miqdori so‘z bilan ko‘rsatilgan holda alohida talabnomalar yoziladi.

Omborxonaga kelib tushgan hamma talabnomalar qayta ko‘rib chiqiladi va kerak holda ayrim o‘zgartirishlar kiritiladi. Bunda dorixonona omborida dori vositasining mavjudligi, uni yetkazib berishning bir tekisligi, xizmat qiluvchi davolash-profilaktika muassasalarining ixtisosi, ulardagi o‘rinlar soni inobatga olinadi.

Respublikaga yoki viloyatlarga cheklangan miqdorda keladigan

dori vositalari va tibbiyot buyumlari tegishli koeffitsiyentlar bo'yicha taqsimlanadi. Tarqatish koeffitsiyenti — aniq dorixona tomonidan xizmat qiluvchi hudud bo'yicha statistik ko'rsatkich (kasallar soni, o'rinlar miqdori)ning dorixona ombori bilan xizmat ko'rsatuvchi hududlardagi shu ko'rsatkichining umumiy soniga nisbati.

Har bir dorixona yoki davolash-profilaktika muassasalari bo'yicha hamma dori vositalari nomlari buyurtma-talabnomalarni qayta ko'rib chiqish va o'zgartirishlar asosida saqlash bo'limlarida yig'iladi, tovar yukxatlari bilan solishtiriladi va ekspeditsiya bo'limiga beriladi.

Ekspeditsiya bo'limida tibbiyot tovarlarining qadoqlanishi amaldagi qoidalariga rioya qilgan holda bajariladi. Tovarlar qadoqlanishi buyurtmaning hajmiga qarab ombor bo'limlarida konteynerlarning har xil o'lchamli, yashiklarda amalga oshiriladi. Bunda ekspeditsiya bo'limi tovarni joylarning miqdori bo'yicha qabul qiladi. Ekspeditsiya bo'limida qadoqlovchi tovarni qadoqlashda qo'shimcha qilinadigan varaqani ikkita nusxasini to'lg'izadi va imzolaydi, bitta nusxasi yashikka qo'yiladi. Ikkinchi nusxasi esa yukxati bilan ekspeditsiya bo'limida qoladi.

Tovarlarining omborxonaga bo'yicha hamma bo'limlaridagi harakati tovarlarning hisobga olish va nazorat qilinishini ta'minlaydigan amaldagi hujjatlarga rioya qilgan holda olib boriladi. Omborxonaning moddiy javobgar shaxsi buxgalteriya hujjatlarini rasmiylashtirishni belgilangan tartibi asosida tovarlarning kirimi va chiqimini albatta belgilashi kerak.

Tovarlarni jo'natish sanasi, preparatning nomi (dori shakli va dozasini), yetkazilgan miqdor, berilgan preparatning narxi, qiymati, ta'minotchi hamda oluvchining nomi va manzili, muvofiqlik sertifikatining raqami hamda berilgan sanasini aniqlab beradigan hujjatlar bilan birgalikda yetkazib beriladi.

Dori vositalarini yuk jo'natishdagi javobgar shaxslarga quyidagilar yuklatiladi:

— dori vositalari va tibbiy buyumlarning har bir buyurtmani belgilangan holda kuzatuv hujjatlari bilan ta'minlab berish;

— tovar-kuzatuv hujjatlarida hamma zarur axborotni mavjudligini nazorat qilish;

— dori vositalari va tibbiy buyumlarni tashish jarayonida butligi, fizik-kimyoviy xususiyatlari buzilmasini ta'minlash.

Omborxonadan tovarni olib ketish uchun maxsus ruxsatnoma bilan rasmiylashtiriladi. «Tovar moddiy boyliklarni olib chiqish uchun ruxsatnoma» ekspeditsiya bo'limida tovarlar yuklatilgan va ko'chirgich qog'oz orqali ikkita nusxada yozilgandan so'ng beriladi. Ikkinchi nusxasi oluvchining imzosi bilan ekspeditsiya bo'limida qoladi. Ruxsatnoma faqat berilgan kunida o'z kuchiga ega.

#### **11.5. DORI VOSITALARI VA TIBBIYOTDA ISHLATILADIGAN BUYUMLARNI SAQLANISHINI TASHKIL QILISH**

Tovarlarni saqlash tovar harakatining barcha bo'g'inlarida, ya'ni tayyor mahsulotni ishlab chiqarishdan boshlab uni iste'mol qilish mobaynida amalga oshiriladi.

Tovarlarni saqlash — bu tovarning sifati va miqdorini o'zgartirmaslik maqsadida ombor xonalariga joylashtirish va saqlash jarayonidir. Saqlashdan asosiy maqsad — tovarlarning boshlang'ich xossalari barqarorligini ta'minlash demakdir. Tegishli saqlash xonalari mavjudligi, zarur saqlash tartiblarini yaratilishi, saqlash davomida tovarlarni to'g'ri joylashtirishni tashkil qilish — tovarlarni saqlash shart-sharoitlarining asosini tashkil qiladi.

Omborxonalar va moddiy xonalarda saqlash uchun farmatsevtik mahsulotlarning xususiyatlariga bog'liq muayyan sharoitlar asosida amalga oshiriladi. Saqlash sharoitlarining (havo harorati va namligi) asosiy ko'rsatkichlarining nazoratini olib borish uchun har bir xonada termometr va gigrometr bo'lib, ular saqlash uchun xonalar-ning ichki devorlarida isitkich asboblardan yerdan 1,5—1,7 metr balandlikda, eshikdan esa 3 metr masofada joylashgan bo'ladi. Havo harorati va namligi bir kunda kamida 1 marta tekshiriladi, asboblarning ko'rsatkichlari har bir bo'limda bo'lishi kerak va maxsus hisob daftarida belgilanadi.

Saqlash xonalarida havo tozaligiga rioya qilish uchun tartib ketadigan ventilyatsiya qurilmalari bo'lishi kerak. Dorixona assortimentidagi mahsulotlar sifatiga turli tashqi omillar ayniqsa

fizik-kimyoviy xususiyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularni saqlashda yuqoridagi omillar ta'sirini hisobga olish lozim.

Yoruqlikdan saqlanish lozim bo'lgan dori vositalari — qorong'i, salqin xonalarda yoki eshiklari zich yopiladigan, ichki tomoni qora rangli bo'yoq bilan bo'yalgan shkaflarda yoki qopqoqlari zich yopiladigan qutilarda saqlanishi talab etiladi.

Atmosferadagi suv bug'lari yoki namlikka sezgir bo'lgan dori vositalari salqin joylarda, germetik yopilgan, suv bug'lari yoki namlikni o'tkazmaydigan matodan yasalgan, shisha, metall, aluminiy, plastmassa idishlarda saqlanishi lozim:

— kuydirilgan gips yaxshi yopiladigan idishlarda saqlanadi (masalan, mahkam yopiladigan ichiga yopiladigan polietilen plyonka solingan yog'och quti yoki yog'och bochkalarda);

— xantal ko'kinging ichi laklangan temir bankalarda saqlanadi;

— xantal mahkam berkitilgan idishlarga solingan polietilen plyonka yoki pergament qog'ozga o'ralgan holda saqlanadi.

Uchuvchan dori vositalari salqin joylarda germetik berkitiladigan uchuvchan moddalarni o'tkazmaydigan materiallardan tayyorlangan idishlarda saqlanadi.

Kristalgidratlar havoning nisbiy namligi 50—65% bo'lgan salqin joylarda germetik yopiladigan shisha, metall yoki qalin plastmassadan ishlangan idishlarda saqlanadi.

Havo haroratining yuqori yoki pastligi ta'sir etuvchi dori vositalarni saqlashda, ularning yorlig'i va ishlatish uchun qo'llanmasida ko'rsatilgan harorati rejimiga e'tibor beriladi.

Organopreparatlarni quruq sharoitda, yorug'likdan saqlangan holda  $1^{\circ}$ —  $+ 15^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lgan haroratda saqlanadi (boshqa ko'rsatma berilmagan bo'lsa).

Tibbiy yog'lar odatda  $+ 4^{\circ}$ —  $+ 12^{\circ}\text{C}$  gacha saqlanadi.

Gazlar ta'siridan saqlanishi shart bo'lgan dori vositalari germetik yopiladigan gazlarni o'tkazmaydigan materiallardan ishlangan idishlarda iloji boricha to'latilgan holda saqlanadi.

Turli farmakoterapevtik guruhga mansub bo'lgan dori vositalarini saqlashda hidli va bo'yovchi dori vositalari guruhi ham ajratiladi.

Hidli dori vositalari guruhiga uchuvchan hamda uchuvchan bo'lmagan lekin o'ta hidli dori vositalari kiradi. Ularni germetik yopiq idishlarda bir biridan alohida holda nomi bo'yicha saqlanadi.

Bo'yovchi xususiyatli dori vositalariga — idishlarda, jihozlarda va rangli iz qoldiruvchi oddiy sanitar-gigiyenik ishlovda yuvilmaydigan dori vositalari kiradi (brilliant yashili, metilen ko'ki, indigokarmin va hokazolar).

Bo'yovchi dori moddalari alohida maxsus zich yopiluvchi shkaflarda saqlanadi (nomi bo'yicha). Bo'yovchi moddalarni ishlatishda ularning har biri uchun alohida torozilar, hovonchalar, shpatellar va boshqa inventarlar ajratiladi.

Dorivor o'simliklar xomashyosi va yig'malarni saqlashda quyidagilar talab etiladi:

a) yaxshi yopiladigan idish;

b) quruq yaxshi ventilatsiyalanuvchi havo almashuvi ta'minlangan xona. Idishning turi xomashyoni saqlash joyiga bog'liq.

Omborxonada dorivor o'simliklar xomashyosi so'kchaklarda saqlanadi buning uchun yopiq yashiklar, qoplar (kesilgan xomashyo), ikki qavatli qoplar, karton o'ramlari (poroshoklar) bo'lishi kerak.

O'z tarkibida efir moylarini saqlovchi (masalan: shalfey o'ti), ayrim gigroskopik o'tlar, barglar, mevalar (masalan: angishvonagul bargi, dalachoy va boshqalar) alohida yaxshi yopiladigan idishda saqlanadi.

Zaharli va giyohvand moddalar saqlovchi dori vositalari alohida xonalarda, maxsus qulflanadigan temir shkaflarda saqlanadi.

Qurtilgan shirador mevalarni ombor hasharotlaridan himoyalash uchun flakonga xloroform solib, bug'lari chiqib turuvchi trubkasi bo'lgan tiqin bilan yopiladi va mevalar saqlaydigan yashik ichiga solib qo'yiladi.

Tarkibida yurak glikozidlari saqlovchi dorivor o'simliklar xomashyosiga (masalan: angishvonagul bargi, marvaridgul mevasi va boshqalar) alohida e'tibor berish kerak. Davlat Farmakopeyasida ular uchun qat'iy saqlash muddatlari va biologik faolligini qayta tekshirish uchun talablar belgilangan.

Barcha dorivor o'simliklar xomashyosi vaqti-vaqti bilan Davlat

Farmakopeyasi nazoratidan o'tib turishi shart. Standartga javob bermagan xomashyoni yaroqsiz deb topiladi yoki qaytadan ishlab chiqilgan va ijobiy nazoratdan so'ng ishlatiladi.

*Tez va yengil alangalanuvchi prekursorlarni saqlashda* ularning fizik-kimyoviy xossalari hisobga olish kerak (sirka kislotasi, fenil sirka kislotasi, sulfat kislotasi, toluol).

Tez alangalanuvchi prekursorlarni mineral kislotalar (ayniqsa oltingugurt va azot kislotalari), siqilgan gazlar, yonuvchan moddalar (o'simlik yog'lari, oltingugurt, bog'lov vositalari), shuningdek organik moddalar bilan portlovchi aralashmalar (kaliy xlorat, kaliy permanganat, kaliy xromat va hokazolar) hosil qiluvchi noorganik tuzlarni birga saqlash taqiqlanadi.

Prekursorlar bilan ishlaganda (qadoqlash, joydan-joyga tashish, yuklash) ehtiyotkorlik choralarini ko'rib, idishning holati, germetikligi, to'g'riligini doimiy kuzatib turgan holda ishlash lozim.

Tez alangalanuvchi prekursorlar zich berkiladigan, mustahkam shishali yoki metall idishlarda saqlanadi. Shisha idishlar, ballon va boshqa katta hajmli idishlarning balandligi bo'yicha bir qator qilib saqlanadi. Ularni bir necha qatorga, isitish manbalari yaqiniga qo'yish taqiqlanadi. So'kchak va isitish manbasi orasidagi masofa bir metrdan kam bo'lmasligi kerak.

*Nitrat va sulfat kislotalarini saqlashda* ularni yog'ochli, organik tabiatli boshqa moddalar bilan munosabatda bo'lishining oldini olish lozim.

*Nitroglitserin eritmasi* — portlovchi modda, uni dorixonada, dorixona omborlarida katta emas, yaxshi berkitilgan sklyankalar yoki metall idishlarda salqin, qorong'i joyda saqlanadi, yong'indan ehtiyot bo'lish kerak. Nitroglitserin saqlaydigan idishni surish va shu preparatni tortib olish juda ehtiyotkorlik bilan bajarilishi zarur.

*Efir* (tibbiyot yoki narkoz uchun) fabrikaning o'ramida, qorong'i, salqin (isitish asboblari uzoqroq) joyda saqlanadi.

*Dietilefir* bilan ishlanganda silkitish, zarba berish, ishqalashdan saqlanish kerak.

*Kaliy permanganat* glitserin, oltingugurt, chang, organik

moylar, efirlar, spirtlar, organik kislotalar va boshqa organik moddalar bilan portlovchi birikmalar hosil qiladi. Uni maxsus ajratib qo'yilgan joyda, tunuka barabanlarda, dorixonada — og'zi mahkam yopilgan va yuqorida ko'rsatilgan vositalardan alohida saqlanadi.

*Portlovchi va tez alanga oluvchi vositalar* alohida (quruq, to'g'ri quyosh nuridan, yong'in va yer osti suvlaridan himoyalangan, birinchi qavatda, temirbeton qoplama hamda metall eshikli) xonalarga joylanishi kerak, xonaning poli eshigidan ichkariga qiyalanib sementlangan, o'yilmagan tekis bo'lishi kerak. Yonmaydigan so'kchaklar poldan 0,25m dan kam bo'lmaydigan balandlikda, so'kchaklar kengligi 1m dan kam bo'lmagan, chetlari 0,25m dan kam, so'kchaklar oralig'i 1,35m dan kam bo'lmashligi kerak; yonmaydigan shkaflar kengligi 0,7m dan, balandligi 1,2m dan kam bo'lmaydigan eshiklarga ega bo'lishi kerak; elektr o'tkazish moslamalari, yorituvchi va boshqa elektrjihozlari portlash xavfsizligini ta'minlaydigan shuningdek, o'chirish moslamalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Tez alanganuvchi va yonuvchi suyuqliklar solingan idishlar zarbalardan saqlaydigan, yoki ag'daruvchi ballonlarda bir qatorda saqlanadi.

Idishni suyuq moddalar bilan to'ldirish darajasi 90% hajmdan ortmasligi kerak. Katta miqdordagi spirtlar metall idishlarda, 75%dan ortiq bo'lmagan hajmda to'ldirilib saqlanadi.

Portlovchi va yonuvchi vositalar saqlanadigan xonalarga kerosin lampalar va shamlar bilan kirish taqiqlanadi, faqat elektr yoritkichlaridan foydalaniladi.

*Dezinfeksiyalovchi vositalar* (xloramin B va boshqalar) germetik berkitilgan idishlarda saqlanadi. Saqlash uchun xona alohida bo'lib va plastmassa, rezina hamda metall buyumlar hamda tozalangan suv olinadigan xonalardan uzoqroqda joylashgan bo'lishi kerak. Bunda saqlash joyi salqin va yorug'likdan himoyalangan bo'lishi lozim.

*Bog'lov materiallari* yog'och yashiklarda, quruq, havosi toza xonalarda, changdan va hasharotlardan nariroqlarda saqlanishi kerak. Nosteril materiallarni isitilmaydigan xonalarda saqlash

mumkin. Steril materiallar harorati o'zgarishi kam bo'ladigan xonalarda saqlanishi kerak, bunda harorat o'zgarganda qadoqlangan tovar ichiga havo kirmasligini ta'minlash lozim. Sterillangan bog'lov vositalarni omborxonada chiqqan yiliga qarab saqlash kerak, chunki har besh yildan so'ng uning sterilligini har yili tanlab tekshirib turiladi. O'rami buzilgan yoki nam tortgan bo'lsa, u holda mahsulot sterillanmagan hisoblanadi.

*Rezina buyumlarini* saqlovchi xonaga quyosh nuri tushmasligi kerak, ko'pincha yerto'lalarda, qorong'i joylarda saqlanadi. Quruq xonalarning namligini saqlash uchun karbol kislotasining 2%li suv eritmasi idishlarda qo'yiladi. Rezinaning elastikligini saqlash uchun xonalar va shkaflarga shisha idishda ammoniy karbonat solib qo'yish kerak. Saqlashda amal qilinadigan talablar: 1) yorug'likdan saqlash; 2) harorat 0°C dan past va +20°C yuqori bo'lmasligi; 3) namlik 65%dan ko'p bo'lmasligi; 4) mexanik shikastlanishdan holislik; 5) faol moddalar (yod, xloroform, formalin va boshqalar) ta'siridan himoyalash; 6) isituvchi manbadan uzoq (kamida 1 metr) joylashgan bo'lishi kerak; 7) havo kirmasligi kerak.

Rezina buyumlarini shkaflarda, yashiklarda, javon va stellajlarda saqlash mumkin. Shkaflar eshigi zich yopiladigan va ichidan tekis yuzi bo'lishi kerak.

Ba'zi rezina buyumlarni saqlashda ma'lum talablarga rioya qilish kerak:

grelkalar, tagiga qo'yiladigan chambaraklar, muz solinadigan xaltachalar biroz shishirib qo'yiladi;

asboblarning yechiladigan rezina qismi metall qismidan alohida saqlanadi;

qo'lqoplar, bujlar, elastik kateterlar va boshqalar qutilarda zich yopilgan hamda ustiga talk sepilgan holda saqlanadi. Pastki qavatlardagi buyumlar ezilib va bosilib ketmasligi uchun ularni bir necha qavat qilib saqlash mumkin emas.

*Plastmassadan tayyorlangan buyumlarni* qorong'i va havoni tozalab turadigan, uchuvchi vositalarning bug'lari uchramaydigan, yong'in bo'lmaydigan xonalarda saqlash kerak. Buyumlar isitkichlardan 1metr uzoqlikda joylashgan bo'lishi kerak.



Sellofanlar, selluloid, aminoplastli buyumlar saqlanuvchi xonalarning namligi 65%dan ortmasligi kerak.

Sintetik materiallarni saqlash alohida sharoitlarni talab qilmaydi. Davolash-profilaktika muassasalarida rezina va elastoplast buyumlar 5%li fenolning glitserindagi eritmasiga solib qo'yiladi.

*Tibbiy texnika, jarrohlik asboblari* quyidagi talablarga muvofiq saqlanadi:

xonalar quruq va issiq bo'lishi kerak. Jarrohlik asboblarni uyib hamda dori-darmonlar va rezina buyumlar bilan saqlash qat'iy man etiladi;

harorat va havoning nisbiy namligi ( 60%dan ortmasligi) birdan o'zgarib qolmasligi kerak;

asboblari yashiklarda, shkaflarda, qopqoqli qutilarda nomi yozilgan holda saqlanadi. Asboblarni zavodning korroziyaga qarshi moyi bilan saqlanadi. Agar bunday moy bo'lmasa unda ularni yupqa qilib vazelin bilan qoplanadi. Moylangan asboblari yupqa parafinli qog'ozga o'rab qo'yiladi. Kesuvchi buyumlarni (pichoq, skalpellar) mexanik zarar yetkazishning (kertiklar) oldini olish va o'tmas bo'lmasligi uchun ularni yashiklarning maxsus uyalarida yoki penallarda saqlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

*Tibbiyot zuluqlarni* saqlashda quyidagi talablarga rioya qilish zarur:

— xona yorug', dorilarning hidisiz; maksimal tozalikka rioya qilgan holda, hidli va zaharli vositalar bilan birgalikda bo'lmasligi kerak;

— zuluqlar keng bo'yinli shisha idishlarda, bo'z salftkali yoki ikki qavatli marli bilan shpagat yoki rezinka bilan qattiq boylangan holda saqlanadi;

— bankani xlorisizlantirilgan, perekisli birikmalardan, og'ir metall tuzlaridan, mexanik qo'shimchalardan holi saqlanadi. Suvni almashtirishda idish devorlari ichidan yuviladi, so'ngra idish bo'yniga marli yopiladi va undan suv quyiladi. Bunda idishning uchdan bir qismi suvga to'lishi kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov. Yo'limiz — mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo'li: O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining o'n birinchi sessiyasida so'zlagan nutqi. 1994 yil 5 may. — T.: O'zbekiston, 1994.

2. I.A. Karimov. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T., O'zbekiston, 1997.

3. А.З.Мўминов. Пути совершенствования лекарственного обеспечения населения. //Химия и фарматцевтика//1994 г. с.7-9.

4. В.И.Крилов., В.И.Прокопишин. «Организация и экономика фармации». М.,»Медицина». 1991 г.

5. В.И.Прокопишин. Основы лекарственного обеспечения населения. М., Медицина. 1983 г.

6. P.Nosirov, Sh.Abdullayeva. «Marketing bozor iqtisodiyoti-ning asosi».T., O'zbekiston. 1994.

7. U.S. Salixbayeva; O'zbekiston Respublikasida farmatsevtik bozorni rivojlanish muammolari va istiqbollari.// Kimyo va farmatsevtika. 2002.№. b. 13.

8. E.R. Toshmuxamedov, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonda farmatsevtikaning rivojlanishi.//Kimyo va farmatsevtika. 2001.№2.b. 3.

9. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonuni.

10. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.

11. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati A.N. Yunusxo'jayev taxriri ostida I, II, III kitob. Toshkent 2001 va 2003 yillar.

12. А.Н. Юнусхўжаев. Состояние и пути совершенствования системы стандартизации сертификации и лицензирования фармацевтической и медицинской продукции в Республики Узбекистан. Стандарты № 1/2001. с. 45-47.

13. А.Н. Юнусхўжаев. Ўзбекистан. Реледиум. 2001. №3 с. 37-39.

14. А.Н. Yunusxo'jayev. Sh.T. Salyamova. Dori vositalarini qalbakilashtirish masalasiga doir., O'zbekiston farmasevtik xabarnomasi. №2, 2003 y. 21-44 bet.

# MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
---------------------	----------

## **AHOLI VA DAVOLASH-PROFILAKTIKA MUASSASALARINI DORI VOSITALARI BILAN TA'MINLASHNI TASHKIL ETISH**

### **1-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOG'LIQNI SAQLASH ISHLARI VA FARMATSEVTIKA XIZMATINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI**

1.1. Sog'liqni saqlash ishlarini tashkil qilish prinsiplari .....	5
1.2. O'zbekiston Respublikasida tibbiyot va farmatsevtika faoliyatini boshqarish	9
1.3. Sog'liqni saqlash va farmatsevtika faoliyati xizmatini boshqaruvchi tashkilotlarning asosiy vazifalari va funktsiyalari	12

### **2-BOB. DORIXONALAR ISHINI TASHKIL QILISH**

2.1. Dori vositalari bilan chakana savdo qilish qoidalari	16
2.2. O'zbekiston Respublikasida dorixonalarni ochish tartibi	19
2.3. Dorixona muassasalarining nomlanishi, turlari va ularni joylashtirish tartiblari	23
2.4. Dorixonalarning vazifalari va funktsiyalari .....	27
2.5. Dorixona xonalarining tarkibi, ularni faoliyat turiga qarab jihozlanishi	28
2.6. Dorixonalarning tashkiliy tuzilishi .....	30
2.7. Dorixona xodimlari lavozimlarining nomlanishi	32

### **3-BOB. DORI VOSITALARINING RETSEPTSIZ SAVDOSINI TASHKIL QILISH**

3.1. Xalqaro amaliyotda dori vositalarining turkumlanishini asosiy prinsiplari. Turkumlash shakllari .....	35
3.2. ATS (ANATOMICAL THERAPEUTIC CHEMICAL CLASSIFICATION SYSTEM) turkumlanish tizimi .....	37
3.3. OTS – vositalar tizimi. Retseptsiz sotiladigan vositalarga qo‘yilgan asosiy talablar, ishlab chiqaruvchi firmalari va rivojlanish istiqbollari .....	39
3.4. Dori vositalarini retseptsiz berish va dorixona assortimenti .....	46
3.5. Xalqaro amaliyotda farmatsevtik vasiylik .....	51
3.6. Farmatsevtik tovarlarni shtrixli kodlash tizimi .....	53

### **4-BOB. DORIXONALARDA RETSEPTLARNI QABUL QILISH VA ULAR ASOSIDA DORI VOSITALARINI BERISH**

4.1. Retsept va uning funksiyalari, retsept turlari.....	56
4.2. Retsept qabul qilish va dori vositasini berish ishlarini tashkil qilish tartibi .....	61
4.3. Retseptlarni taksirovkasi, ro‘yxatga olish va berish tartibi .....	72
4.4. Miqdoriy hisobda turuvchi dori vositalari .....	76

### **5-BOB. DORIXONA SHAROITIDA DORI VOSITALARINI TAYYORLASH VA SIFATINI NAZORAT QILISH ISHLARINI TASHKIL QILISH**

5.1. Dorixonada dori tayyorlash bo‘yicha ish joylarni jihozlash va tashkil qilish .....	79
5.2. Aseptik sharoitda dori vositalari tayyorlashni o‘ziga xos xususiyatlari .....	81

5.3. Dorixonada tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini nazorat qilish	86
5.4. Dorixonada tayyorlangan dori vositalarini rasmiylashtirish	89
5.5. Dorixonada tayyorlanadigan dori vositalarining saqlanish muddatlari	91

## **6-BOB. DORIXONADA G‘AMLAMALAR BO‘LIMINING ISHINI TASHKIL QILISH. LABORATORIYA VA QADOQLASH ISHLARINI HISOBGA OLISH**

6.1. G‘amlamalar bo‘limining asosiy vazifalari va funksiyalari	96
6.2. G‘amlamalar bo‘limi xodimlari orasida shtatlar va vazifalarni taqsimlanishi	96
6.3. Dorixonada tovarlarni qabul qilish qoidalari va ularni boshqa bo‘limlarga berish tartibi	100
6.4. Laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish	103

## **7-BOB. FARMATSEVTIKA XIZMATINI NAZORAT-RUXSATNOMA TIZIMI**

7.1. Dori vositalari va tibbiy buyumlar sifatini belgilovchi nazorat-ruxsatnoma tizimi	105
7.2. Dori vositalarining sifat standartlari	120
7.3. Farmatsevtika sohasida xalqaro sifat standartlari	123
7.4. Dori vositalarining sifatini nazorat qilish laboratoriyasi ishini tashkil qilish	125
7.5. Ishlab chiqarishda farmatsevtik mahsulotlarining sifat nazoratini tashkil qilish	128
7.6. Farmatsevtik mahsulotlarni sertifikatlashtirish va sifatini boshqarish tizimi	130

7.7. Dori vositalarini qalbakilashtirish muammolari .....	143
7.8. Nostandart dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo‘q qilish tartibi .....	153

## **8-BOB. DAVOLASH-PROFILAKTIKA MUASSASASINING DORIXONASI**

8.1. Davolash-profilaktika muassasasining dorixonasini vazifalari .....	156
8.2. Dorixona binosiga qo‘yilgan talablar va undagi asbob-uskunalardan foydalanish qoidalari .....	159
8.3. Dorixona muassasasidan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini berish tartibi .....	162
8.4. Hisob va hisobot .....	163
8.5. Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi .....	163

## **9-BOB FARMAKOIQTISODIYOTNING ILMIIY ASOSLARI**

9.1. Farmakoiqtisodiyot to‘g‘risida tushuncha .....	164
9.2. Farmakoiqtisodiyot vazifalari va unga qo‘yiladigan talablar .....	168
9.3. Farmakoiqtisodiyot obyektlari va farmakoiqtisodiyotda xarajatlarning tasnifi .....	169
9.4. Farmakoiqtisodiy tahlil usullari. Dori vositalari formularlari .....	171

## **10-BOB. DORI VOSITALARIGA BO‘LGAN EHTIYOJ VA TALAB ISTIQBOLINI ANIQLASH**

10.1. Dori vositalari iste‘molini shakllantiruvchi omillar .....	177
10.2. Ehtiyoj, talab, iste‘mol, taklif tushunchalari .....	177
10.3. Dori vositalariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash usullari .....	179
10.4. Dori vositalarga bo‘lgan talabning turlari va tasnifi ....	184

10.5. Davolash-profilaktika muassasalari doimiy faoliyatdagi hay'at vazifalari .....	187
--	-----

**11-BOB. FARMATSEVTIKA BOZORIDA  
ULGURJI SAVDO FAOLIYATINI  
TASHKILLASHTIRISH**

11.1. Dori vositalarining muomila sohasida logistik yondoshuvi .....	192
11.2. Tovar harakatining kanallari. Savdo tarmog'ining asosiy turlari .....	197
11.3. Ulgurji vositachilarning vazifalari, funksiyalari va tasnifi .....	199
11.4. Ulgurji farmatsevtik tashkilotlar faoliyati, dorixona omborida tovarlar harakatini tashkil qilish .....	201
11.5. Dori vositalari va tibbiyotda ishlatiladigan buyumlarni saqlanishini tashkil qilish .....	211
<b>Foydalanilgan adabiyotlar .....</b>	<b>218</b>

**Erkin Rahimovich Toshmuhamedov, Hikmatilla Sunnatovich  
Zaynutdinov, Adham Mahamatovich Komilov, Raisa  
Ahmedjanovna Muhamedova, Yelena Borisovna Juravlyova,  
Marg'uba Ziyotovna Islomova**

## **FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH**

*Farmasevtika inistitullari uchun darslik*

**Muharrir X.Po'latxo'jayev  
Badiiy muharrir Sh. Xo'jayev  
Musahhah B. Tuyoqov  
Komp'yuter ustasi M. Shoburxonova**

Nashriyot raqami M- 593. Chop etishga 30.03.2007 yilda ruxsat berildi. Bichimi 60X84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 14,0. Nashriyot hisob tabog'i 14,0. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 90.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «Fan» nashriyoti: 100047, Toshkent, akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70.

«YUNAKS-PRINT» MChJ bosmaxonasida bosildi. Toshkent sh. Qamarniso ko'chasi, 3-uy. Tel: 396-15-86; 338-17-23.